

Elmira AXUNDOVA

Ilhom ALIYEV



O'ZGARISHLAR JARAYONIDAGI
PREZIDENT TASVIRI

323(479.24)(031)

A 90

Elmira AXUNDOVA

Ilhom ALIYEV

O'ZGARISHLAR JARAYONIDAGI
PREZIDENT TASVIRI

ТОШКЕНТ
«MASHHUR-PRESS»
2018

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(БҮ) 7

A 71

*E. Axundova mazkur kitob uchun fotomateriallar taqdim etgan
Ozarbayjon davlat axborot agentligining (OZARTADJ)
bosh direktori Aslan Aslanovga o'z minnatdorligini izhor etadi.
Aksariyat fotomateriallar muallifi – OZARTADJ fotoxronikasining
bosh muharriri Vugar Amrullayev.*

Axundova E.

A 71 Ilhom Aliyev. O'zgarishlar jarayonidagi prezident tasviri
[Matn]. Siyosiy ensiklopediya / Elmira Axundova. – T: «Mashhur-
Press», 2018. – 304 b.

ISBN 978-9943-4791-9-7

*Kishi prezidentlik darajasiga qanday ko'tariladi? Qanday qilib
u mashhur, muvaffaqiyatli natijalarga erisha biladigan nufuzli
shaxsga, bir so'z bilan aytganda, millat YETAKCHISIGA aylanishi
mumkin? Xalq yetakchisi bo'lish missiyasi o'zi nimani anglatadi?*

*Taniqli yozuvchi-publitsist Elmira Axundovaning qalamiga
mansub mazkur kitobda yuqorida qo'yilgan savollarga javab
topishga urinish bar. U sobiq ittifoqning eng iqtidorli va prag-
matik siyosatchilaridan biri, eski andazalarga barham berган
yetakchi Ilhom Haydar o'g'li Aliyev haqida tegishli materiallar
va faktlarning ulkan miqdoridan foydalangan holda, sodda tilda
jonli va ishonarli hikoya qilgan.*

ISBN 978-9943-4791-9-7

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/32-24

© E. Axundova, 2018
© «MASHHUR-PRESS», 2018

SO'ZBOSHI

Kishi prezidentlik darajasiga qanday ko'tariladi? Qanday qilib u mashhurlikka, muvaffaqiyatli natijalarga erishadi? Qanday qilib nufuzli shaxsga, millat YETAKCHISIGA aylanishi mumkin? Buning uchun zarur bo'ladigan mezonlarni sanab o'tsam, hech kimni hayratga solmasam kerak. Inson geni, turgan gapki, uning iste'dodi, o'z ustida sabot-la uzoq ishlashi va nihoyat, oilaviy muhitda topgan to'g'ri tarbiyasi kerak bo'ladi. Ota-onaning farzandlarga ko'rsatgan ibrati ham katta ahamiyatga egadir. To'g'ri, shundoq ham hammaga ma'lum mezonlar to'plamini keltirdim, lekin bundan-da yaxshirog'i hali o'ylab topilmagan...

Ozarbayjon Respublikasining bo'lajak prezidenti Ilhom Aliyevning ota-onasi haqiqatan ham favqulodda qobiliyatli odamlar bo'lishgan: otasi Haydar Aliyev – respublikaning, keyinchalik butun boshli sobiq ittifoqning partiya rahbari, XX asrning jahon miqyosida e'tirof etilgan yetakchisi bo'lgan. Onasi Zarifa Aliyeva – oftalmologiyada, xususan, iridodiagnostikada yangi yo'naliishga asos solib, nafaqat ittifoqda, balki xorijda ham tanilgan olima, akademik bo'lgan.

Bunday katta unvon va martabalarga ega bo'lishlari ga qaramay, Zarifa bilan Haydar hayotda juda oddiy, kamtarin, kamsuqum odam bo'lib o'tishgan. Zarifa xonimni

tanigan kishilarga: «U qanday ayol bo'lgan?» – deya bir xil savol bilan murojaat qilganman. Odatda, hammadan: «U soddagina bir ayol bo'lgan» degan ma'noda javob olganman. Zarifa xonimning soddaligi tom ma'nodagi ziyo-li ayolning yuksak darajadagi soddaligi bo'lgan. Hikoya qilishlaricha, har xil rasmiy tadbirlarda u hammadan oлdin kelib, qariyb bo'm-bo'sh zalga o'tirib olar yoki agar

zal odamga to'lgan bo'lsa, yuqoriga ko'tarilib, u yerdan o'z joyiga tushib kelar ekan. Zarifa xonim boshqalar-ning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etishni yoqtirmagan.

*Haydar Aliyev
kechirgan
kamsuqum,
soxtalikdan yiroq
kamtarin turmush
tarzi hammaning
og'zida duv-duv
gap bo'lgan. Ana
shunday qat'iy,
nozik muhit uning
oilaviy hayotida,
bola tarbiyasi
masalasida ham
hukm surgan.*

Haydar Aliyevning sutkasida 24 soat (tushlik va kechki ovqatga tanaf-fus qilmay) ishlay olish qobiliyatini shaxsan o'zim juda yaxshi bilaman. Zarifa xonimning o'z ishiga favquloda sadoqatidan xabarim bo'lмаган. Shu bois, Haydar Aliyevni qo'riqlash xizmatining sobiq boshlig'i Aleksandr Ivanovning quyidagi hikoyasini kelti-rib o'tishni lozim topdim:

«Haydar Aliyevning rafiqasi o'z ishining fidoyisi bo'l-gan. Zarifa xonim shahardagi hukumat qarorgohida qu-yon boqib, ushbu jonivorlar ustida allaqanday oftalmologik tajribalar o'tkazar edi... Qarang, eri siyosiy byuro a'zoligiga nomzod bo'lsa-yu, bu kishi quyon boqib yursa! Unga kerakmidi, shu? Yoki shina zavodiga qatnashini olaylik! U yerda Zarifa xonimning odamlarni qabul qilish xonasi bo'lar edi. Ishchilar uning qabuliga egnidagi kir korjomasi bilan kirib kelaverishgan. Ba'zan zavod direk-

toriga Zarifa xonimning xizmat xonasi yaqinida biron-bir xona jihozlab, qabulga kir ahvolda kirishmasligi uchun ishchilarни sanitariya ishlovidan o'tish lozimligini aytgim kelar edi. Zarifa xonim zavod ishchilarini kun bo'yи qabul qilar; tibbiy tekshiruvdan o'tkazib, davolar edi».

Haydar Aliyev kechirgan kamsuqum, soxtalikdan yiroq kamtarin turmush tarzi ko'pchilikning og'zida duvduv gap bo'lgan. Ana shunday qat'iy, nozik muhit uning oilaviy hayotida, bola tarbiyasi masalasida ham hukm surgan. Ozarbayjon KP Markaziy qo'mitasining birinchi kotibi yoki uning yaqinlarining shaxsiy hayotiga doir biron-bir ortiqcha gap yoki mishmish tarqaganini hech eslay olmayman. Chunki, birinchidan, Haydar Aliyevning o'zi ham, uning rafiqasi ham ko'ngli ochiq odamlar bo'lib, hamisha odamlar orasida yurishgan, ikkinchidan esa, biron-bir noto'g'ri gap chiqishiga sababning o'zi bo'limgan. Ushbu holat nihoyatda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatimizdagи ma'naviy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. H. Aliyev hokimiyat tepasida bo'lib, undan to'laqonli foydalanish imkoniyatini biron marta bo'lsin, g'arazli maqsadda qo'llamagan va shu bois, uning obro'si oshib boravergan.

* * *

...Farzandlari hali yosh bola bo'lgan kezlarda Zarifa xonim kunlardan bir kun ishga kelib, dugonasiga yorilibdi:

— Zara¹, kecha biz Haydar Aliyevich bilan bola tarbiyasi masalasida tun bo'yи gaplashib chiqdik. Ularga

¹Zahra Quliyeva – oftulmolog olma, XX asrning 70-yillarda Ozarbayjon Tibbiyot institutining rektori.

qanday tarbiya berishimiz kerakligini muhokama qildik.
Axir bu, o'ta mas'uliyatli ish-u!

- Bu nima deganing, Zarifa?! – kulib yubordim men.
- O'zing ham, turmush o'rtog'ing ham oliv ma'lumotli, ziyoli, fahm-farosatli odamsizlar. Ishonchim komil, ikka-langiz ham farzand tarbiyasini do'ndirasiz.

Bugun ularning bolalariga, ayniqsa, Ilhomga qarar ekanman, rahmatli Zarifa xonim o'z farzandlari bilan rosa faxrlangan bo'lishini ko'z oldimga keltirib, o'yga tolaman".

Haydar Aliyev ko'ziga ishidan boshqa hech narsa ko'rinxmaydigan, o'taketgan ishparastlar toifasiga kirmagan. Oilani hamisha birinchi o'rinda ko'rgan, xotini va farzandlarining davrasida o'zini behad baxtiyor his etgan. Nazarimda, ularsiz biror kun ham tura olmas edi. Harqalay, plenum, yig'ilish yoki sessiyada ishtirok etish uchun, ish yuzasidan Moskvaga yo'l olgan Haydar Aliyev o'zi bilan albatta Zarifa xonimni olar, bolalarisiz tura olmaydigan Zarifa esa, tabiiyki, o'zi bilan farzandlarini ergashtirib borar edi. Shu tariqa ular davlat bo'ylab birga sayohat qilishgan.

Haydar Zarifasini qattiq sevar, Zarifa ham erini hayotidan ortiq ko'rар edi. Ushbu muhabbat nuri butun oilani yoritib, qalblarni isitar edi. Mehr-muhabbat muhitida o'sib-ulg'aygan farzandlar iste'dodli bo'lib yetishadi...

* * *

Xizmat ishlari bilan juda band bo'lishiga qaramay, Haydar Aliyev farzandlar davrasida sayr etish, sport bilan shug'ullanish, hatto o'g'lini bog'chaga eltishga

ham vaqt topar edi. Davlat xavfsizligi organlari faxriysi Akram Salimzoda ham o'g'lini Davlat xavfsizligi qo'mitasi qoshidagi bolalar bog'chasiga olib kelar, u yerda Haydar Aliyev bilan tez-tez uchrashib turar edi:

«Haydar Aliyevich nihoyatda kamtarin inson bo'lib, bolalarini juda yaxshi ko'rgan, – eslaydi u. – Ilhom 5-6 yoshli bola bo'lib, nihoyatda sho'x edi. O'g'lim Parviz ikkalasi bitta guruhda tarbiyalanishgan. Bolalar bog'chasi eski sirkning ro'parasida joylashgan edi.

Haydar Aliyevich Ilhomni bog'chaga ba'zan piyoda olib kelar edi. Biz ham, o'g'lim bilan yayov borganmiz. Kunlardan bir kun Parvizning kiyimini almashtirayotgan edim, Haydar Aliyevich Ilhomni yetaklab keldi. Bolalar sho'xlik qilib, bir-birining boshidan telpaklarini yulqiy boshlashdi. Ilhom Parvizning, Parviz esa Ilhomning telpagini yechib oldi.

– Voy shumtakalar-ey! – kulib boqdi Haydar Aliyevich. – Biz shu yerdaligimizda shunchalik qilsangiz, yo'qligimizda nimalar qilmaysiz!»

...Haydar Aliyev har kuni ertalab gimnastika qilar, uzoq vaqt suzar, jadal qadam tashlab yurar edi. Uning ixcham qomati-yu, sportga bo'lgan qiziqishi bugungi prezidentga meros o'tgan. Ilhom Aliyevning qaddi-qomati yil sayin ko'rakashib, respublikaning sport sohasidagi yutuqlari esa tobora ko'zga ko'rinish, salmoqlanib bormoqda.

...Sobiq hamkasblarining bari H. Aliyevning farzандлари, garchi xorijdan keltirilgan zo'r kiyimda yurishga qurbi yetgan bo'lsa-da, el qatori kamtarona kiyimda yurishganini eslashadi. Bu ham ota-onaning ichki dunyo-

si pokligidan, yurtda ommaviy taqchillik hukm surgan bir paytda yurtdoshlardan ajrab turishni istamasligidan dalolat beradi.

Farzandlarini haddan ortiq taltaytirgan, maktabni endigina tamomlab, institutga o'qishga kirgan bolasi-ga qimmatbaho tilla soat-u, mashina olib bergen ayrim amaldorlarni Haydar Aliyev tanqid qilgan. Zero, bunga uning ma'nан haqi bo'lган. Otasi MKning birinchi kotibi bo'lган davrda ham, Siyosiy byuro a'zosi bo'lгanda ham Ilhom Aliyevning shaxsiy mashinasiga bo'lмаган. Iste'fo-ga chiqayotgandagina Haydar Aliyev oilasiga bitta «Volga» rusumli mashina ajratilishini iltimos qilgan. Shunday ekan, bo'lajak prezident o'zining ilk mashinasiga 26 yoshga to'lib, Moskva Davlat xalqaro munosabatlar institutida (MDXMI) o'qituvchilik qilib yurgan davrida-gina ega bo'lган.

...Haydar Aliyev Ilhomni o'zi bilan faqat Moskvaga yoki xorij yurtlarga olib yurmagan. U o'g'lini bolalik davridayoq harbiy qismlarga, respublikamiz tumanlariga olib borib, yurt hayoti bilan yaqindan tanishtirib bor-gan. Yigitcha yozgi ta'tilning jazirama issiq kunlari paxta dalalarida, uzumzorlarda otasining yonida bo'lган, partiya faollarining majlisi va hududiy yig'ilishlarda ishti-rok etgan. Shunday ekan, Ilhom bolalikdan xalq ichida o'sgan, respublikada mavjud iqtisodiy va xo'jalik mu-ammolarini teran tushunib yetgan, ozarbayjon tilining nozik jihatlarini puxta o'zlashtirgan. Padari buzrukvor-ing an'analarini davom etar ekan, bugungi kunda ham u otasi singari tinim nimaligini bilmaydi, safarga ham-sha shay turadi: kichik yurtimiz tumanlarini uzzu-kun kezib yurib, har qanday muammoning ildizini qidiradi,

Ozarbayjonning amaldor-rahbarlariga kerakli ko'rsat-malarni beradi.

* * *

Haydar Aliyev o'z rafiqasi bilan faxrlanib, ulkan ilmiy salohiyatidan voqif bo'lib borar va yanada ilgarilash is-tagini har tomonlama rag'batlantirar edi. Ba'zan Zarifa xonimni oila bilan ko'p o'ralashib, ilmiy ishga kam e'tibor qaratayotgani uchun koyib ham berar edi. Yaqinlarining eslashicha, faqat mana shu mavzu ikkalasining o'rtaida bahs chiqishiga sabab bo'lgan: Haydar Zarifaga ish sur'atini sustlashtirmay, ilmiy tadqiqotlarini davom etishga undagan. Zero, u rafiqasini faqat namunali uybekasi sifatidagina ko'rishni istamagan.

Erkaklar orasida kam uchraydigan bunday fazilat bugungi prezident Ilhom Aliyevning o'z rafiqasiga bo'lган munosabatlarda ham kuzatiladi. Erkaklar o'z jufti halolining tijorat yoki ijtimoiy faoliyat sohasida erishgan yutuqlaridan rashk qilishi yoxud bunga istehzo ila qarashi tez-tez uchraydigan holatdir.

Ilhom Aliyev qo'llab-quvvatlab, faoliyatiga hurmat-la qarayotgani bois, rafiqasi Mehribon xonim so'nggi yillarda o'zining yuksak shijoati va tashkilotchilik qobiliyatini to'liq ishga sola bilmoxda, uning madaniy-ma'rifiy va insonparvarlik loyihalari respublikadan tashqarida ham tobora jarangli yangromoqda.

Haydar bilan Zarifa uyda ham, odamlar orasida ham hamisha yelkama-yelka bo'lishdi. Ta'kidlab o'tmoq joizki, aynan Haydar Aliyev o'z rafiqasini sobiq ittifoqning partiya rahbarlari orasida birinchi bo'lib tadbirlarga

Prezidentning ota-onasi... Ular o'g'ilga ko'p fazilatlarni gen orqali meros qoldirishgan bo'lsa, aksariyat sifatlarini tarbiyalab, tabiatiga singdirishgan.

Bunda ular quruq gap-so'z, pand-nasihat bilangina cheklanmay, o'zлari ibrat ko'rsatishgan.

Er-xotin bolaga ko'p narsalarni o'rgatishgan, lekin ikkalasi bergan eng muhim saboq – har qanday vaziyatda ham odamiylikni saqlab qolish bo'lgan. O'sha saboq bugungi prezidentimiz tomonidan «a'lo» bahoga o'zlashtirilgan.

olib chiqdi, Zarifa xonim o'sha davrning barcha rasmiy uchrashuvlariда teng huquqli ishtirokchiga aylandi. Ushbu oilaviy an'ana bugungi prezident tomonidan yangi mingyillikda yangicha sifat bergen tarzda davom ettirilmoqda.

Ilhom bilan Mehribon deyarli doimo: tantanali ziyofatlarda ham, jahon miqyosidagi nufuzli yetakchilarining qarorgohlarida o'tadigan qabullarda ham, Qorabog' urushi faxriyining qishloqdagi kamtarona xonadonida ham birga. Ular qo'lni qo'lga berib, hayot yo'lida birga borishmoqda. Ikkalasi erishgan yutuqlar siri ham ana shunda.

Ilhom Aliyev ota-onasidan ko'p fazilatlarni meros olgan. U otasidan nafaqat bo'ydorlik va to'ralarcha yurishni, balki ajoyib notiqlik iste'dodini, til o'zlashtirish qobiliyatini, kuchli tahliliy tafakkur va vaziyatni oldindan ko'ra bilish iqtidorini ham meros olgan. Bundan tashqari, siyosiy qaror qabul qilish, milliy manfaatlarni qat-

tiq turib himoya qilish borasidagi qat'iy maslagini namoyon etish qobiliyatini ham meros olgan.

Shu bilan bir vaqtida, Ilhom Aliyev onasi Zarifa xonim kabi boadab, ziyoli, Haydar Aliyev singari odamning zavqini keltirib kuladigan kishidir. Otasi singari oilasini qattiq sevadi, uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylaydi, farzandlarining o'z taqdirini belgilashga doir fikr-mulohazalariga hurmat-la qaraydi.

Prezidentning ota-onasi... Ular o'g'ilga ko'p fazilatlarni gen orqali meros qoldirishgan bo'lsa, aksariyat sifatlarini tarbiyalab, tabiatiga singdirishgan. Bunda ular quruq gap-so'z, pand-nasihat bilangina cheklanmay, o'zlari ibrat ko'rsatishgan. Er-xotin bolaga ko'p narsalarni o'rgatishgan, lekin ikkalasi bergen eng muhim saboq – har qanday vaziyatda ham odamiylikni saqlab qolish bo'lган. O'sha saboq bugungi prezidentimiz tomonidan «a'lo» bahoga o'zlashtirilgan.

TARJIMAI HOL IBTIDOSI

Insonning shajarası va mustahkam genetik ildizi bo'lgani yaxshi. Shajarasiga qo'shimcha tarzda insonning iste'dodi, mehnatsevarligi va dahosi ila shakllangan o'z tarjimai holi bo'lgani yanada yaxshi. Ilhom Haydar o'g'li Aliyevning tabiatida uyg'unlashgan aynan mana shu mezonlar uni 42 yoshda siyosiy olimp cho'qqisiga olib chiqdi.

Prezidentlik kursisisiga qadar yosh Aliyev qanday yo'l bosib o'tdi, unga qanaqangi insoniy va kasbiy sinovlardan o'tishga to'g'ri keldi?

Ilhom Haydar o'g'li Aliyev 1961-yil 24-dekabrda Bokuda tavallud topdi. Bokudagi 6-sonli mакtabni 15 yoshida tamomlab, MDXMiga o'qishga kirdi.

Ushbu nufuzli oliy ta'lim muassasasini tamomlagach, ushbu muassasaning aspiranturasida qoldi. 1985-yili dissertatsiya yoqlab, tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. MDXMIda bir necha yil (1985 – 1990) ilmiy-tadqiqot va o'qituvchilik faoliyati bilan mashg'ul bo'ldi. Keyinchalik suveren Ozarbayjon tomonidan olib borilayotgan neft siyosatining geosiyosiy jihatlariga doir bir qator tadqiqiy ishlari uchun siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

1991 – 1994-yillari xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat ko'rsatib, bir qator ishlab chiqarish-tijorat mu-assasalariga rahbarlik qildi.

1994 – 2003-yillari Ozarbayjon Respublikasi Davlat neft kompaniyasining (ORDNK) vitse-prezidenti, keyin birinchi vitse-prezidenti bo'lib ishladi.

1995 va 2000-yillari ikki marta Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisiga (Parlamentiga) deputat etib saylandi.

2003-yili Ozarbayjon Respublikasining Bosh vaziri etib tayinlanishi munosabati bilan deputatlik vakolatidan ozod qilindi.

1997-yildan bugungi kunga qadar Ozarbayjon Milliy Olimpiya qo'mitasining prezidenti sanaladi.

1999-yili «Yangi Ozarbayjon» hukmron partiya rasisining o'rribosari, 2001-yili birinchi o'rribosari, 2005-yili raisi etib saylandi.

2001 – 2003-yillari Yevropa kengashining parliament assambleyasida (YKPA) Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi (Parlamenti) delegatsiyasiga rahbarlik qildi.

2003-yilning yanvar oyida YKPA raisining o'rribosari va YKPA byurosining a'zosi etib saylandi.

2003-yilning 4-avgustida Milliy Majlis tasdiqlagach Ozarbayjon Respublikasining Bosh vaziri etib tayinlandi.

2003-yil 15-oktyabr kuni Ozarbayjon Respublikasi prezidenti etib saylandi.

Ushbu prezident saylovida saylovchilarning 76 foizdan ko'prog'i Ilhom Aliyev uchun ovoz berdi. Prezidentlik lavozimini rasman 2003-yil 31-oktyabr kuni qabul qildi.

2008-yilning 15-oktyabrida bo'lib o'tgan prezident saylovida 88 foizdan ziyod ovoz olgan Ilhom Aliyev ikkinchi marta Ozarbayjon Respublikasi prezidenti etib saylandi va 2008-yilning 24-oktyabr kuni prezidentlik lavozimini rasman qabul qildi.

2013-yilning 9-oktyabrida bo'lib o'tgan prezident saylovida 84,5 foizdan ziyod ovoz olgan Ilhom Aliyev Ozarbayjon Respublikasi prezidenti etib qayta saylandi va 2013-yilning 19-oktyabr kuni prezidentlik lavozimi ni rasman qabul qildi.

Ilhom Aliyev jahonning ko'plab oliy o'quv yurtlarida faxriy doktor unvoniga ega bo'lib, bir qator xorijiy davlatlar tomonidan orden va medallar bilan taqdirlangan.

Ozarbayjon, rus, ingliz, fransuz va turk tillarini mu-kammal o'zlashtirgan.

Uylangan. Ikki farzand va besh nafar nabirasi bor.

* * *

Hurmatga loyiq, ayrim ko'rsatkichlari esa juda shukuhli bo'l mish ushbu tarjimai holning quruq satrlari talabchan kitobxonga ko'p ma'lumot bermaydi, albatta. Binobarin, biz uni jonlantirib, ta'sirchan mazmun, muhim hodisalar, qahramonimiz bilan kasbiy faoliyatining dastlabki pallalarida, birinchi prezidentlik muddati davomida muloqot qilgan yoki birga ishlagan kishilarning fikr-mulohazalari ila boyitishga urinib ko'ramiz.

Maqolalarimdan birida men: Ilhom Aliyevni omma ongida shakllangan aksariyat eski andazalarga barham bergen siyosatchi sifatida tasavvur etaman, deya yozgan edim. Mana, masalan: yuksak martabali amaldorlarning o'g'il-qizlari nozik-nihol qilinib, hayot tashvishlari-yu muammolaridan narida tarbiya topishadi va shu bois ham ular irodasi sust, bo'shang bo'lib ulg'ayishadi. Har qanday tartibsizlik ularni hayotiy izdan chiqarib yuboradi. Mazkur faraz qisman to'g'ri bo'lgan taqdirda ham, Ilhom Haydarovichga uning mutlaqo daxli yo'q.

Zero, birinchidan, butun jahon taniydigan siyosatchining o'g'li bo'lish faqat imtiyoz degani emas, ulkan mas'uliyat ham demakdir. Ilhom Aliyev bunday mas'uliyat yukini hamisha - bolalik yillaridan his etib kelgan. Aytishlaricha, Ilhom o'quvchilik yillarida otasining mavqe bilan kibrланмаган, obro'sidan g'arazli maqsadda foydalanмаган ekan. Uyga kelib charqimchilik qilmagan, mushtlashishga to'g'ri kelganda esa, o'zini xafa qildirib qo'yмаган ekan. U latifago'y bo'lib, hazil-mutoyibani yoqtirган, sinfdoshlari bilan odmi, kamsuqum, erkin muomalada bo'lган. Bir so'z bilan aytganda, hech bir jihat bilan respublikadagi bosh partiya rahbarining o'g'li ekanini eslatib turmagan.

Biroq o'sha yillari Ilhom Aliyevni yaqindan bilgan odamlarning shohidligiga qaraganda, yetakchilik sifatlari erta namoyon bo'lган. U o'qigan 6-sonli maktab chindan ham shahardagi nufuzli maktablardan biri hisoblangan. Ilhom Aliyev a'llochiligi, o'sha davrning

*Ilhom Aliyevni
omma ongida
shakllangan
aksariyat eski
andazalarga
barham bergen
siyosatchi sifatida
tasavvur etaman.*

eng yaxshi amaliyotchi-o'qituvchilaridan biri bo'lgan Ismixon Rahimov uning bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borgani bois, ingliz tilini yaxshi bilishi va sportda erishgan yutuqlari bilan ajrab turgan. Qiziq bir lavha: Ismixon Rahimov o'z shogirdlariga inglizcha ism qo'yib, fe'l-atvori yoxud ahvoli-ruhiyatiga muvofiq tegishli mansab bergen. Shunday ekan, Ilhom Aliyev o'z guruhida «general manager» bo'lgan ekan. Ajoyib ziyraklik! Zero, vazifani to'g'ri ifodalab, yagona to'g'ri qaror qabul qila biladigan menejerlik, ya'ni yuqori malakali rahbarlik, boshqaruvchilik iste'dodi keyinchalik Ilhom Aliyevning jamiki faoliyati davomida kuzatib boriladi.

Otasi Haydar Aliyevning shaxsan o'zi tashrif buyur-gan bitiruv kechasi hammaning yodida qolgan. Rahmatli Haydar Aliyev o'g'li erishgan har bir yutuqdan samimiyl quvongan, pedagoglarga minnatdorlik izhor etib borgan, o'ta soddaligi va dilkashligi ila hammani maftun qilgan.

1977-yilda hali 16 yoshga to'limgan Ilhom Aliyev MDXMiغا o'qishga kirdi, bir necha yil ichida siyosat va diplomatiyaning sir-asrorlarini o'zlashtirdi, ushbu ilm dargohida ko'p do'st orttirdi. O'quvchilik yillarida bo'l-gani kabi, bu yerda ham u kansuqum, kirishimli bo'lib, otasi Moskvada juda katta lavozimda ishlashini birovga bildirmaslikka harakat qilgan.

Ozarbayjonning bo'lajak prezidentining MDXMIdagi o'qishi va kelgusi mehnat faoliyatiga doir material yig'ar ekanman, «Boku» jurnalining Ilhom Aliyevga bag'ishlangan maxsus sonida (2011-yil dekabr), shuningdek, ozarbayjonlik jurnalist Bahrom Botiyevning 2011-yil 23-dekabrda «vesti.az» yangiliklar portalida e'lon qilingan («Ilhom Aliyev mashaqqatli davrlarni sabot-la

yengib o'tdi» – MDXMIdan reportaj) reportajida qiziq faktlarga duch keldim. Quyida ushbu manbalardan keng foydalaniilgan.

Masalan, MDXMIning keksa xodimlaridan biri bo'l-mish Raisa Vasilyevna Polevaya Ilhom Aliyevni yaxshi eslaydi. Ushbu ayol kutubxonaning davriy nashrlar bo'li-mi mudirasi sifatida Ilhom Haydarovich bilan tez-tez muloqot qilib borgan:

«Ko'z o'ngimdan talabalarning butun boshli silsilasi o'tgan. Ular orasida yorqin shaxs sifatida yetishganlar ancha ko'p. Men o'tgan asrning 1970-yillari oxiridan buyon biladigan Ilhom Haydarovich bunday shaxslar orasida alohida o'rinn tutadi. U g'ayrioddiy inson. Ilhom Haydarovich talabalar, xodimlar, o'qituvchilarga shu qadar xayrixoh munosabatda bo'lganki, bundan biroz hayratlanar ham edik. Sir emaski, bizning ta'lim muassasamiz oddiy o'quv dargohi bo'lmay, unda katta namoyandalarning farzandlari tahsil ko'radi. Ilhom Haydarovich talabalar orasida farq qilib turgan. Ikkalamiz talabalar kutubxonasida tanishib qoldik. Men o'sha yerda ishlar edim. Kelgusida professional mutaxassis bo'lib yetishishni istagan talabalarning bari, tabiiyki, asosiy vaqtini kutubxonada o'tkazgan. Ilhom Haydarovich ham shular jumlasidan bo'lgan. Uni ko'proq MDXMIning maxsus fondida saqlanadigan xorijiy davriy nashrlar qiziqtirar edi. Ilhom Haydarovich AQSH va Buyuk Britaniyaning davriy nashrini o'qib borar edi. Ishlash uchun kutubxonaga deyarli har kuni kelar va shu sabab biz tez-tez muloqot qilib borar edik. Ilhom Haydarovich juda ko'p mutolaa qilar edi, keyinchalik bu unga dissertatsiyasini yoqlashida qo'l keldi. Uning

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/32-24

ilmiy rahbari bizning sobiq rektorimiz Nikolay Lebedev bo'lgan. Ta'kidlab o'tmoq joizki, Lebedev hammaga ham rahbarlik qilavermagan, faqat professional jihat-dan ishlash qiziq bo'lgan talabalarnigina tanlab olgan. Ilhom Aliyev mahalliy partiya qo'mitasida ishga o'tgan-dan keyin ham muloqotimiz davom etdi. Yillar o'tdi, Ilhom Haydarovichda faqat ijobjiy o'zgarishlar kuzatildi. Yordamini hech kimdan ayamagani bois, huzuriga partiya qo'mitasining xodimi emas, shunchaki, oddiy inson sifatida ham bemalol kirib, maslahatini olish mumkin bo'lgan. Atrofida uning aynan mana shu shaxsiy sifatlari uchun hurmat qigan odamlar guruhi shakl-landi. KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosida yuzaga kelgan Aliyev bilan bog'liq noxush vaziyat Ilhom Haydarovichga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'yagan. Lekin biz uni o'sha murakkab davrda qo'ldan kelgancha qo'llab-quvvatlab bordik. Chin do'st kulfatda bilinadi, deb bejiz aytishmaydi-ku, axir! Ilhom Haydarovich o'sha davrdan sabot-la o'tdi. Otasi haqida mehr va ilqlik bilan gapirardi. Samimiy tabassumi shundoqqina ko'z o'ngimda. O'qituvchisi Natalya Kirillovna Kapitonova u haqda zavq-la gapiradi. Ilhom Haydarovich hozir ham, mustaqil davlat prezidenti bo'la turib, bizni unut-maganidan juda xursandmiz. MDXMIga so'nggi bor tashrif buyurganida meni chaqirib berishlarini so'rabi-di. Aytmoqchimanki, u o'sha davrda yaxshi inson bo'l-gan, hozir ham odamiyilagini saqlab qolgan. Bugungi murakkab zamonda odamlarni o'ziga moyil qilib, insoniy kamtarlik-la ajrab turish, darhaqiqat, noyob fazilatdir».

Diplomni yoqlashdan oldingi amaliyotdan Ilhom Aliyev Buyuk Britaniyada o'tdi. Amalda bu, mutlaqo

boshqa olamda kechayotgan hayot bilan sayyohlikka daxli bo'limgan ilk muloqot va ayni vaqtida nomzodlik dissertatsiyasi uchun material to'plash imkoniyati bo'ldi. Sobiq ittifoq davlatining rasmiy maskurasi nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, bu ish u qadar silliq kechagan: Angliyaning ichki va tashqi siyosatiga berilgan baho umume'tirof etilgan bahodan ba'zan farq qilib bordi. Ushbu dissertatsiyaning MDXMIda yoqlanishi shunchaki rasmiyatçilik bo'lindi, muallif konsepsiya-si borasida, hatto ushbu konsepsiyaning hayot-mamoti ustida qizg'in bahs-munozara ko'tarildi. MDXMI Xalqaro munosabatlar fakultetining dekani Yuriy Bulatovning so'zlariga qaraganda, Ilhom chiqargan xulosalarni professorlarning hammasi ham ma'qul topmagan, ba'zi birovlar esa, aksincha, uning nuqtai nazariga qizg'in taraf-dor bo'lishgan. Oqibatda, haqiqiy ijodiy bahs bo'lib o'tib, unda yosh aspirant g'olib chiqqan.

Ta'kidlab o'tmoq joizki, bahs yuritishning Ilhom Aliyevga xos usuli ilk bor ana o'shanda namoyon bo'lgan ekan. Ushbu usulga u kelgusi hayoti davomida amal qilib keldi. Xususan, u har qanday nuqtai nazarni diqqat bilan tinglaydi. Muxolifat vakillarining chiqishi davomida bayon etilayotgan masalaga o'z yondashuvi va munosabatini ifodalab boradi. Shundan so'ng, yuksak odobini namoyon etgan holda, o'z dalillarini havola etadi. Uning ushbu dalillari aksariyat hollarda shu qadar asosli bo'ladiki, rozi bo'lishdan boshqa chora qolmaydi.

Sobiq ittifoq Tashqi ishlar vazirligi MDXMIning 1974 – 1985-yillardagi rektori va Ilhomning o'sha davrdagi ilmiy rahbari Nikolay Lebedev o'z shogirdi va aspirantini «Boku» jurnali sahifalarida quyidagicha eslaydi:

«...Kunlardan bir kun suhbatlashib o'tirar ekanmiz, undan so'rab qoldim: «Nima deb o'ylaysan, Ilhom, institut senga nima beradi?» U menga: «Bu yerda zaruriy bilim-larga ega bo'laman va shu bilan birga, mustaqil fikr yuritish qobiliyatimni rivojlantiraman», deya javob bergen edi. Uning javobi menga juda manzur bo'ldi. Chunki o'zim ham hamisha shunday tamoyilga amal qilib yashaganman va uni talabalar ongiga singdirishga uringanman...

Aytish joizki, men nafaqat rektor bo'lganman, balki Aliyevga ilmiy rahbarlik ham qilganman. Nomzodlik dissertatsiyasi ustida ish boshlaganida men bir narsaga ishonch hosil qilganman: inson o'z fikrini himoya qila bilishi kerak, degan g'oyaga Ilhom Aliyev sodiq qolgan. Ish dissertatsiya mavzusini o'zi tanlashidan boshlandi. Nazarimda, «Buyuk Britaniyaning liberal partiyasi» mavzusi istiqbolsiz ko'rindi. Bu kichik partiya, birinchi navbatda, asosiy raqiblar – konservatorlar bilan leyboristlar o'rtasidagi ixtiloslarda o'ynab, o'zini namoyon etgan. Bunday mavhum holat yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini yozib bo'ladimi? Ilhom meni mavzu o'zgarishsiz qolishi lozimligi, ularning liberal partiyasi kam o'rganilgani, u haqda qiziqarli ish yozish mumkinligiga ishontira bildi. Ko'p o'tmay, Aliyev menga dissertatsiyaning dastlabki variantini taqdim etdi, men ushbu ish yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimni bildirdim. O'rnida boshqa aspirant bo'lganida: "Albatta, Nikolay Ivanovich, sizning mulohazalarингизга mos keltirib, tuzatishlar kiritaman!" degan bo'lur edi. Shundaylar ham bor ediki, mavjud faktlar ularning haqligini ko'rsatib tursa ham, ilmiy rahbarning fikr-mulohazalarini osonlikcha qabul qilishga shay edi. Ilhom esa menga: «Nikolay Ivanovich,

bildirgan mulohazalar iringizni fikr tarozisidan o'tkazib ko'rishim kerak», deya bayonot qilsa bo'ladimi! Bunday pozitsiyada prinsipiallik va haqiqiy ilmiy yondashuv bor edi. Natijada Aliyevning dissertatsiyasi maqtovga sazovor ish bo'lib, yosh olim uni qoyilmaqom qilib yoqlay bildi. Ana o'shanda men Ilhomning kelajagi porloq ekanligiga amin bo'ldim. Unga o'xshagan odamlarni G'arbda selfmademan deb atashadi. Vaziyat naqadar murakkab bo'lmasin, o'ziga yo'l ocha biladi.

Menga Ilhomning vazminligi va odobi yoqar edi. Talabami yoki o'qituvchimi, kim bo'lishidan qat'i nazar - suhhatdoshining gapini hech qachon bo'limgan. Asl baynalmilalchi inson sifatida rus, nemis, mo'g'ul va bolgarlarni teng ko'rib, latif muomalada bo'lgan. Ayrimlari bilan do'stlashgan ham. Va shu tariqa, Ilhom Aliyev o'z oldiga qo'ygan maqsad sari sabot-la odimlab boraverган».

MDXMI Xalqaro munosabatlar fakultetining dekani Yuriy Bulatov Ilhom Aliyevning jamoatchilik hayotidagi faol ishini ham quyidagicha eslab o'tdi: «Bizda vakolati rayon partiya qo'mitasining vakolatiga teng bo'lgan juda kuchli partiya tashkiloti bo'lib, Ilhom Aliyev unda partiya qo'mitasining yo'riqchisi sifatida talabalardan iborat partiya tashkilotlari bilan ishslashdek juda muhim sohani boshqarar edi. Aytish joizki, Ilhom Haydarovich talabalar va hamkasblar orasida, birinchidan, istiqbolli yosh murabbiy sifatida, ikkinchidan esa, talaba yoshlarining yetakchisi sifatida katta obro' qozongan edi. Uning bilimi, odamlarga bo'lgan munosabati, muammo mohiyatini teran anglab yetishga urinishi, ushbu muammo haqida xabar beribgina qolmay, hal etishning joiz vari-

antlarini, ba'zan noan'anaviy variantlarini taklif etishi ni biz o'z faoliyatimizda qo'llar edik. Shu bois, suveren Ozarbayjoni bugungi kunda aynan Ilhom Aliyev boshqarayotgani biz uchun ajablanarli hol emas».

* * *

Yuqorida aytilganidek, talabalikning yozgi ta'tilini Ilhom Aliyev, odatda, Bokuda, ota-onasi bilan birga o'tkazgan. Ushbu o'ziga xos ta'tillarni hozirda «Interfaks-Ozarbayjon» agentligi direktori, o'sha davrda Ozarbayjon KP MKning birinchi kotibini qo'riqlash xizmati xodimi Aleksandr Ivanov quyidagicha eslaydi:

«Ilhom Aliyev bilan 1978-yili tanishganman. Favqu-lodda qobiliyatga ega yigit bo'lib, qaysi ishni boshlama-sin, oxiriga yetkazmay qo'ymas edi.

Yozgi ta'tilda talabalar dam olsa, 17 – 18 yoshli Ilhom Aliyev sessiyani topshirib Bokuga qaytar, otasi bilan tu-man va shaharlarga yo'l olib, Haydar Aliyevning barcha tadbirlarida ishtirok etar edi. Haydar Aliyevning ish kuni tonggi soat 07.00 da boshlanib tun yarmigacha cho'zili-shi nazarda tutiladigan bo'lsa, Ilhom Aliyev qancha kuch sarflaganini tasavvur qilish qiyin emas».

O'sha safarlarda Haydar Aliyev o'g'li Ilhomga davlat boshqaruviga doir ko'pdan-ko'p mahorat darslarini ko'r-satgan, turli tabaqalarga mansub odamlar bilan muloqot qilish tajribasini baham ko'rgan, albatta. Shubha yo'qki, bularning bari bo'lajak prezidentga asqotgan. Nazarimda, Haydar Aliyev o'g'lini doimo yonida olib yurganining sababi boshqa bo'lgan: u Ilhomni juda yaxshi ko'rib, yonida yurmasa, ayniqsa, Moskvada o'qib yurganda

qattiq sog'inib qo'msagan. Binobarin, yozning qimmatli oylarida ikkalasi hamisha birga bo'lishgan. Ota-o'g'il o'rtasida, nazarimda, juda kuchli botiniy aloqa bo'lgan. Haydar Aliyevning po'latdek matonati faqat yaqinlariiga nisbatan muayyan xavf yuzaga kelgan vaziyatdagina pand bergen. Yosh Ilhom Aliyevning tabiatni namoyon bo'lgan shunday hodisalardan biri haqida KPSS MK Siyosiy byurosi a'zosi Haydar Aliyevni qo'riqlash xizmatiga 1982 – 1987-yillarda rahbarlik qilgan Aleksandr Ivanov esga olib, menga aytib bergen edi:

“Moskvaga ishga o'tgach, Haydar Aliyev yozgi hor-diqni Ozarbayjonga uyuştiladigan safarga to'g'rilib olishga harakat qilgan. Bunday kunlarda Aliyevlar oilasi Zag'ulbada, MKning birinchi kotibi bo'lib yashagan o'sha 5-sonli yog'och kottejda joylashgan. Hatto Siyosiy byuro a'zoligiga qabul qilinib, eng yuqori lavozimlardan birini egallagan bo'lsa ham Moskvaga ishga o'tishdan sal oldin o'zi qudirgan Mehmonlar uyiga ko'chib kirishga ko'n-madi. Hayratga soladigan darajadagi kamtarinlik!”

«Haydar Aliyevich suzishni juda yaxshi ko'rар, birov uni quvib yetishi qiyin edi, – eslaydi A. Ivanov. – Kamron Bagirov¹ tennis kortini suzishdan afzal ko'rар edi. Suv havzasida esa faqat katerda suzar edi. Ular Bokuga birinchi marta kelishganda Zag'ulbada kater paydo bo'libdi. Haydar Aliyev davrida bunday keragidan ortiqlik yo'q edi».

Qisqasi, MKning birinchi kotibi Haydar Aliyevga sayl uchun mo'ljallangan ixcham katerda suzishni taklif etdi. Ikkalasi katerga chiqqach, ortidan tan qo'riqchisi chiqdidi. Bagirov tan qo'riqchisiga: «Sasha, sen qolaver, biz ikka-

¹ Kamron Bagirov – Ozarbayjon KP Markaziy qo'mitasining Haydar Aliyevdan keyingi birinchi kotibi.

lamiz hech qiyinchiliksiz uddalaymiz», – dedi. «Mumkin emas», – turib oldi Ivanov, katerga joylashib. Haydar Aliyev jilmayib qo'ydi. Qo'riqlash xizmatining boshlig'ini ko'ndirishga urinish befoyda ekanligini, maxsus yo'riqnomaga talabi shuni taqozo etishini bilar edi. Ular qirg'oq yoqalab IIV Dam olish uyi tomon suzib ketishdi. Kutilmaganda Haydar Aliyev: «Ketdik, DXQ pansionati ga boramiz, men anchadan buyon bo'lganim yo'q u yerda», – deb qoldi. Havo ochiq, sohil odamga to'la: hamma cho'milib, quyoshda toblanmoqda! Haydar Aliyev bilan Bagirov katerdan suvga sakrab, qirg'oq tomon suzishdi. Dam olayotgan odamlar ikkalasini tanib qolib, shovqin solishdi, qiy-chuv ko'tarishdi. Butun plyaj yig'il-di! Haydar Aliyev hamma bilan salomlashdi, hazillashdi. Dam olish uyi direktori Xalilov ham o'z «Volga»sida tez yetib keldi. Xullas, Haydar Aliyev odamlar bilan suhbatlashdi, hol-ahvoli bilan qiziqdi. Qaytish vaqt bo'ldi. Yana suzib, katerga chiqishdi. Kater esa, o'chakishganday o't olmadi. Nima qilish kerak? Ana, Xalilovning «Volga»si hali sohilda turibdi. Dachaga mashinada borishga qaror qilindi.

«Suvdan chiqiboq mashinaga o'tirdik, – kulib esladi Aleksandr Ivanov. – Ikkalasi orqa o'rindiqqa, men haydovchining yoniga joylashdik. «Birinchi»ning dachasiga yetib borgach, haydovchi signal chaldi. Darvoza yopiq. Aliyev sohilda Bagirov bilan birga yurganini qo'riqlash xizmati biladi... Yana ketma-ket signal berdik. Tashqariga chiqqan militsioner qo'l siltab, ketishimizni talab qildi. Oldingi o'rindiqda trusikchan o'tirgan holatimda ko'rib tanidi. Nima qilishni bilmay, esankirab qoldi. «Tezroq och darvozani», – deb ovozimni ko'tardim men. Hay-

dar Aliyevich kulishini qo'ymaydi. Havo ayniy boshladi. «Birinchi»ning dachasi yaqinidagi sohilda odam yig'ildi. Biz Moskvadan Bokuga o'z mashinalarimiz va moskvalik haydovchilarimizni ham olib kelgan edik. Mundoq qarasam, sohilda bizning haydovchilarimiz, o'rinxosarim Viktor Ivanovich Nemushkov va Yura Kamayev¹ turishibdi. Hammaning nigohi dengizga qadalgan. Shunda Haydar Aliyev pichirlab, taklif kiritdi: «Qani, jim. Ularning oldiga asta boramiz. Kutilmagan sovg'a bo'ladi». Bizga yuzlangan odamlarning yuzlarida hayajon ko'r-dik. «Tinchlikmi?» – deb so'radik biz. «Ilhom ortingizdan suzib ketgan edi», – deyishdi ular. Aniqlanishicha, Ilhom «Ganjlik» deb nomlangan qo'shni sayyoohlар la-geridan yassi tubli qayiq chaqirtirib, ortimizdan ergashib ketibdi. Havoning avzoyi buzilgandan buzilib bormoqda. Yassi tubli qayiqning to'ntarilishi hech gap emas. Kaspiy bilan hazillashib bo'lmaydi. Haydar Aliyev Yura Kamayevga o'dag'aylay ketdi, men ham, yigitchari yolg'iz qo'yib yuborishgani uchun bo'ysunuvchilarimni so'kdim. «Xo'sh, endi nima qilamiz?» – so'radi mendan Haydar Aliyevich. «Mashinani Zagulbag'a g'izillataman. So'ng o'sha yerdan qidiruv tashkillashtiramiz», – dedim men. Daf'atan katerning shovqini eshitildi. Dam olayot-ganlardan kimdir uni o't oldira bilibdi. Ilhom ham o'sha katerda qaytib keldi».

Shunday ekan, jahd-jadal, xatar bilan o'ynashish va erkakka xos dadillik kabi sifatlar yosh Aliyevda keragidan ortiq bo'lgan. Shu munosabat bilan, Ilhom Aliyev davlat prezidenti bo'lгach, MDHga a'zo davlatlarning

¹ Yuriy Petrovich Kamayev – Haydar Aliyevning yordamchisi, qarorgohidagi xo'jalik ishlari boshqaruvchisi.

chevara xizmati rahbarlarini qabul qilgan kuni yuz ber-
gan hodisani yodga olmay o'ta olmadim. Qabul jarayo-
nida Kaspiyda ancha kuchli zilzila yuz berdi. Tabiiyki,
muzokara o'tayotgan qarorgoh ham silkindi. Zilzila bir
necha bor takrorlangach, mehmonlar birov «tashqari-
ga» chiqishni taklif qilishini kutgancha, atrofga alang-
lashdi.

*Umuman, Ilhom
Aliyev zARBAGA DOSH
berishni yoshlikdan
o'rgangan. Hayot
uni har doim ham
erkalayvermagan.*

Ilhom Aliyev qarshisida tur-
ganlarni tabassum-la kuzatib, o'ziga
xos tarzda «tinchlantirgan» bo'ldi:
«Dengiz tubi silkingan ko'rindi... Bu
bizda vaqtı-vaqtı bilan yuz berib bo-
radigan odatiy hol. Kelinglar, ishdan
chalg'imaylik...» Va hech narsa bo'l-
magandek, pinagini buzmay, nutqini

davom etdi. O'sha fursatning YouTubega joylangan vi-
deoroligini yuz minglab odamlar tomosha qilishdi. Men
esa, jamiki yurtdoshlarim qatori asabi metindek prezi-
dentimiz borligidan g'ururlandim.

Umuman, Ilhom Aliyev zARBAGA DOSH berishni yosh-
likdan o'rgangan. Hayot uni har doim ham erkalayver-
magan. XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida Aliyevlar
oilasining boshiga tushgan musibatlarga hamma ham
dosh bera olmas edi. Ilhom Aliyev 24 yoshida dunyodagi
eng aziz kishisidan ayrılib qoldi: ulkan iste'dod sohiba-
si, qalbi mehr-muhabbatga to'lgan onasi olamdan o'tdi.
Ushbu ajoyib ayol haqida ko'p gapirilgan, yozilgan. Men
izohga hojat bo'lмаган bittagina hodisani eslab o'ta-
man, xolos.

Zarifa Azizovnaning o'zi aytib bergen hayratomuz
bir voqeani Haydar Aliyevning jamoasida ishlagan
Lidiya Rasulova quyidagicha eslaydi. Ozarbayjon KP MK

Byurosining barcha a'zolari birinchi kotib boshchiligidagi Musiqiy komediya teatriga Rauf Hojiyev sahnalashtirigan «Chorraha» operettasining premyerasiga borishdi. Spektakl tanaffusida Lidiya xonim doimo turmush o'rtog'iga hamrohlik qiladigan Zarifa Azizovna bilan suhbatlashib qolibdi. Zarifa xonim bolalarini ko'rgani Moskvaga borgani, qaytishda esa Semyon Svigun¹ uni o'z samolyotiga taklif etganini aytib beribdi. Samolyot havoga ko'tarilishi hamono, texnik nosozlik – shassi yopilmayotgani aniqlandi. Kema komandiri muammo yuzaga kelgani, samolyot qo'nayotganda portlab ketmasligi uchun yoqilg'i tugatmaguncha pastlay olmasligini ma'lum qilibdi. Ushbu holat avvaliga salondagilardan sir saqlangan, lekin yo'lovchilar illuminator orqali qarab, samolyot bir joyda tinmay aylanayotganini ko'rib turihibdi.

– Qo'nish yo'lagiga o't o'chirish, «tez yordam» mashinalari yetib kelganini ko'rib turibmiz, – hikoyasini davom etibdi Zarifa xonim, – har qanday fursatda halokat yuz berishi mumkinligini idrok etib turibman, xayolimda esa yagona o'y charx uradi: men haqimda Haydar Aliyevichga nima deb xabar berishadi? Bu xabarni eshitib uning holi ne kechadi?

«Ushbu tuyg'u iztirobga to'lib-toshganidan hayratda qoldim, – deydi Lidiya Rasulova. – Murakkab vaziyatga tushib qolgan ayol o'zi haqida emas, rafiqasini yo'qotgan erining ne ahvolga tushishi haqida o'ylasa-ya!»

Ilhom Aliyevning hikoya qilishicha, «Onasining vaftidan so'ng, anchagacha o'ziga kela olmadi. Har kuni xo-

¹ Semyon Kuzmich Svigun – 1967 – 1982-yillari SSSR DXQ raisining birinchi o'rinnbosari, 1963 – 1967-yillari Ozarbayjon SSR DXQning raisi.

tinining qabriga borar, mohiyatan hayotdan bezganday edi. Xatti-harakatiga qaraganda, u o'zini ongli ravishda mahv qilayotganday taassurot uyg'otardi. Ishdan tunda, qariyb 23.00 da qaytar, risoladagi hayotdan yuz o'girganday edi. Oyimning yo'qligi hammamizga bilindi. Uning vafotidan so'ng, hamma narsa o'zgarib ketdi»¹.

O'yashimcha, farzandlari-yu nabiralari doimo yonida bo'lgani, o'ziga ko'p sezdirmay ko'rsatib borishgan g'amxo'rliklari Haydar Aliyevning ruhan tiklanishiga, juddolikni yengishga omil bo'ldi...

Ikki yil o'tib, Aliyevlar oilasi yana bir sinovdan o'tishga majbur bo'ldi – 1987-yilning may oyida Haydar Aliyevni og'ir infarkt yiqitdi. Bir necha oyini Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Michurin prospektida joylashgan 4-boshqarmaning maxsus kasalxonasida o'tkazishiga to'g'ri keldi. O'g'li bilan qizi kecha-yu kunduz boshida turmaganida, Haydar Aliyev bu qadar tez oyoqqa tura olmas edi.

Otasining og'ir kasali va keyingi hodisalar Ilhom uchun haqiqiy imtihon bo'ldi. 4-boshqarma amaldorlari (xalq orasida «Kreml boshqarmasi» deb nom olgan), tabiiyki, yuqorida olingen topshiriqqa binoan Ilhom Aliyevga biroz «tazyiq o'tkazib», Haydar Aliyevni ixtiyoriy ravishda iste'foga chiqishga ko'ndirishni so'rashgan. Shunday qilsa, oilaning imtiyozlari to'liq saqlanishi, Ilhomning o'zi esa TIV tizimida yuqori mansabga ko'tarilishi va'da qilindi. Foydasi bo'lmadidi. Ilhom bu ishga qo'l ham urmadidi. Vijdonfurushlik qilmadi. Oqibatda ishsiz qoldi. Aliyevlar oilasining boshiga tushgan o'sha og'ir

¹ O. Pushkinaning «Tushga o'xshash muhahbat» ko'rsatuvidan.

davrni rossiyalik taniqli jurnalist Artyom Borovik quydagicha xotirlaydi:

«Bir voqeani eslayman. Haydar Aliyev Gorbachyovning Siyosiy byurosidan quvilgach, o'g'li Ilhomga nisbatan ham qat'iy chora ko'rishga urinish bo'ldi. Ilhom Aliyev TIV tizimidan siqib chiqarilishiga doir norasmiy topshiriq qo'yildi¹... Shevardnadzega qo'ng'iroq qilgan Haydar Aliyevich o'g'lini o'z holiga qo'yishni so'radi. «Nega o'g'lim meni deb aziyat chekishi kerak, nega mehnat faoliyatini endigina boshlagan yosh yigitning boshiga tayoq bilan uryapsizlar? Axir jamiyatimizga, tuzumimizga, rejimga bo'lgan ishonchi barham topadi-ku?!» deya murojaat qildi. Shunga qaramay, Ilhom ishdan bo'shatilib, hammasini boshidan boshlashga majbur bo'ldi. Ta'kidlab o'tishim joizki, ushbu oila juda boy bo'lganiga doir mishmish gaplar haqiqatdan yiroqdir. Oila boqish Ilhomning zimmasiga tushdi. U tijorat bilan, ya'ni qo'lidan nima ish kelsa, o'sha ish bilan shug'ullandi. Kooperativ harakat o'shanda yangi boshlangan davr edi. Shu tariqa u otasiga qaradi, oila boqdi. Ilhom otasi bilan ko'plab sinovlardan o'tgan. Shunday ekan, takror aytaman, ushbu oila ko'pni ko'rib, pishib bo'lgan oila edi».

Bu voqealhaqda «Известия»ning keksa muxbirlaridan biri Oleg Siganov quydagicha yozgan:

«Ilhom Aliyev sovet tizimining erka o'sgan yigit, deyishadi. Qayta qurish davridayoq qatag'on qilinganini esa unutib qo'yishadi. Otasi Haydar Aliyev iste'foga chiqarilishi hamono, Ilhom ham jazoga tortildi. Ishla-

¹ Sabiq ittifoq davrida MDXMI SSSR TIVning sho'ba tashkiloti bo'lgan. Bugungi kunda olly ta'llim muassasasi RF TIV tasarrufida.

gani qo'yishmadi. «O'zini mag'rur tutdi, – deydi Ozarbayjonning bugungi prezidentini taniydigan MDXMI o'qituvchilaridan biri.– Kamsuqum bo'lgancha qoldi. Irodasi sinmadi. Lekin nigohida bugun biroz sezilib turadigan anduh paydo bo'ldi».

Darvoqe, Ilhom Aliyev oliy ta'lim muassasasini tamomlaganidan so'ng, chorak asr o'tgachgina, ushbu bilim dargohining ostonasini hatlab o'tdi. Bu hodisa 2004-yil fevral oyida, Rossiyaga yurtimiz prezidenti sifatida buyurgan birinchi rasmiy tashrifi davomida yuz berdi. O'shanda oliy ta'lim muassasasi Anatoliy Torkunov Ilhom Aliyevga MDXMIning faxriy doktori unvoni berilganini e'lon qilib, diplom, medal va rido topshirdi. Shu tariqa, mashhur oliy ta'lim muassasasining yangi rahbariyati o'zining eng taniqli bitiruvchilaridan biriga nisbatan adolatli munosabatni tikladi va bu bilan, o'zining ahli salaflar tomonidan yo'l qo'yilgan xato uchun bilvosita uzsiz so'radi.

* * *

Aliyevlar oilasi uchun murakkab kechgan o'sha davrda Ozarbayjon bilan Armaniston o'rtasida Tog'li Qorabog' yuzasidan mojaro boshlandi. Umuman aytganda, Haydar Aliyevning barcha yuqori lavozimlardan chetlatilishi-yu, Armaniston Ozarbayjonga nisbatan hududiyda vo qilgan vaqt o'zaro mos kelishi tasodif bo'lganini bugun endi hamma biladi. RF prezidenti Vladimir Putinning ta'biri ila aytganda, Haydar Aliyev siyosiy bir qoya bo'lgan. Ushbu «qoya» sovet rahbariyati tarkibida ekan, Tog'li Qorabog'ni Armaniston tasarrufiga o'tkazish masalasini xayoliga ham keltira olmagan. Chunki bunday urinishlar

tag-tomiri bilan qo'porib tashlangan bo'lar edi. Haydar Aliyev iste'foga chiqarilganidan so'ng esa, xayolga kel-tirib bo'lmaydigan g'oyalarni ro'yobga chiqarish imkonini yuzaga keldi. Uning iste'fosi Armanistonda milliy bayram darajasida nishonlangani bejiz bo'lmagani.

Shi bilan birga mazkur mojaror respublika tashqarisida yashayotgan ozarbayjonlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi keskin ko'tarilib, millatning jipslashishiga omil bo'ldi. Ayniqsa, «Moskva» ozarbayjonlari nisbatan tashabbuskor bo'ldi. Ular diasporalar sifatida uyushib, o'z xalqining oqilonqa talablarini himoya qilgan tarzda turli tadbirlar o'tkazishdi. O'sha hodisalarda ishtirok etganlardan biri Ozarbayjon Milliy Majlisiga ijtimoiy siyosat bo'limi mudirasi Odila Abasova bo'lgan.

«XX asrning 80-yillari oxirida Rossiyada ozarbayjoniqliklarning madaniy markazlari maydonga kela boshladi, – eslaydi Odila xonim. – Ana shunday madaniy markazlardan birinchisi «O'choq» Moskvada taniqli turkshunos Tofik Melikl tomonidan ta'sis etilib, Mossovet ro'yxatidan o'tkazildi. Ustoz Tofik bilan tez-tez uchrashib, milliy bayramlarimizni birga nishonlar, respublikada qaror topgan vaziyatni muhokama qilar edik va hokazo. Turmush o'rtog'im ikkalamiz o'sha tadbirlarning barchasida faol ishtirok etganmiz.

O'sha davrda butun sobiq ittifoq hududida o'xshash madaniy markazlar ta'sis etilgan-u, faoliyati tarqoq kechgan. Ularning sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsaida Fuqarolar Assambleyasini tuzib, uni Moskvada, Adliya vazirligida qayd etishga qaror qilindi. Moskvadagi katta zallardan birida o'tkazilgan Ozarbayjon Fuqarolar

Assambleyasining ta'sis konferensiyasini yaxshi eslayman. Jami 20 kishidan tashkil topgan boshqaruv hay'ati saylanib, men ham hay'at a'zoligiga qabul qilindim. «Tarix masalalari» jurnalining bosh muharriri Ahmed Iskenderovni esa prezident etib sayladik.

Haydar Aliyev ushbu Assambleya faoliyatini bilan qiziqib bordi. O'sha davrda biz Ahmed Iskenderovning xizmat xonasida yo to hozirgacha yurtdoshimiz Mamed Og'ayev direktorlik qilayotgan Satira teatrining kichik zalida yig'ilib borar edik. Ana shunday yig'ilishlarimizning birida Haydar Aliyev qo'ng'iroq qilib qolgani esimda. Go'shakni ko'targan Iskenderov u bilan uzoq suhbatlashdi, so'ng uzr so'rab, qo'ng'iroq qilgan kishi Haydar Aliyevich ekanini, faoliyatimiz bilan qiziqib, muvaffaqiyat tilab qolganini aytdi.

*Uning ushbu nutqi
Gorbachyovning
qonga botgan qayta
qurishiga janozasi
bo'ldi. Quvg'indi
Haydar Aliyevning
o'g'li Ilhom o'sha
kuni otasining
yonida turdi.*

bayramini nishonlagan kuni Ilhom Aliyev ham biz bilan birga bo'ldi».

...1990-yil 21-yanvarkuni Haydar Aliyev o'zoиласи билан Ozarbayjonning Moskvadagi doimiy vakolatxonasiiga kelib, naridan-beri uyushtirilgan mitingda so'zga chiqdi.

Ozarbayjonning bugungi prezidenti Ilhom Aliyev Assambleya yig'ilishlarida ko'p ishtirok etib, bahs-munozara olib borgan, hamisha faol bo'lgan. Xalqning boshiga og'ir musibat tushgan kunlarda Haydar Aliyevning o'g'li Ilhom Aliyev yonimizda turganidan nihoyatda g'ururlanganman. Fuqarolar Assambleyasi a'zolari «Boku» kinoteatrida Navro'z

Uning ushbu nutqi Gorbachyovning qonga botgan qayta qurishiga janozasi bo'ldi. Quvg'indi Haydar Aliyevning o'g'li Ilhom o'sha kuni otasining yonida turdi. Otasi o'zini xavf ostiga qo'yayotganini, ushbu tadbirdan keyin ularga birov tinch yashash, ishlashga imkon bermasligini juda yaxshi tushungan. Shunday bo'lsa-da, otasini yo'l-dan qaytarishni xayoliga ham keltirmadi. Hech ikkilanmay, qilishi kerak bo'lgan ishni qildi: otasining yonida yelkama-yelka turib berdi. O'ta murakkab davrda hech ikkilanmay Haydar Aliyevni qo'llab-quvvatlagan Ilhom Aliyev erkak kishi uchun eng muhim imtihondan, odamiylik imtihonidan mardona o'tdi. U dovdirab qolmadi, chekinmadi, otasining dushmanlariyu ag'yorlarining huzuriga borib tiz cho'kmadi. Garchi unga kasb o'zgartirish, mutlaqo yangi soha – xususiy tadbirdorlik bilan shug'ullanishga to'g'ri kelgan bo'lsa-da. Zo'r maktab va yuksak intellektual salohiyat uning kerakli toshi bo'ldi. Aynan mana shu sifatlari unga omon qolish, zarbalarga dosh berish, otasiga, oilasiga nafaqat ma'naviy jihatdan, balki moddiy tomondan ham tayanch bo'lishga omil bo'ldi.

1991 – 1994-yillari Ilhom Aliyev bir qator ishlab chiqarish-tijorat korxonalariga rahbarlik qilib, sobiq ittifloqda «man etilgan soha» bo'yicha katta tajriba to'pladi.

**O. Siganovning I. Aliyevdan olgan intervusidan
«Biz hamma ishning uddasidan chiqamiz»
(«Известия» gazetasining 2002-yil 26-apreldagi soni):**

«– Bir vaqtlar siz Turkiya va Rossiyada tijorat bilan shug'ullangansiz, shundaymi?

– Shunday.

– O'zingizning mustaqil tijoratingizni qo'msaysizmi yo bu siz uchun o'tgan zamon bo'lib, qizig'i qolmadimi?

– O'tgan zamon, desam ham bo'laveradi. Qo'msaganman, to'g'risini aytsam, o'z ishim bilan shug'ullangan o'sha davrni yaxshi xotiralar ila uzoq vaqt eslab yurgamman. Nihoyatda qulay, qiziqarli ish bo'lib, oilam davrasida, o'zimga xon, o'zimga bek bo'lganman.

– Ishlarning barini uddalay bilgansiz?

– Albatta.

– Nima ish qilgansiz?

– Moskvada kiyim tikish fabrikam bo'lgan. So'ng treyding bilan shug'ullandim. Ishim yomon bo'lмаган, hayotdan juda mammun bo'lганман: qachon nima istasam, shu bilan shug'ullanganman».

Kunlardan bir kun o'sha davrdagi hayotga doir savolla Ilhom Aliyev quydagicha javob bergen edi: «To'g'ri, Moskvada tadbirdorlik bilan shug'ullanganman va men buni hech qachon sir tutmaganman. Mening kompaniyalarim hisobiga Moskvada birinchi ozarbayjon mababi ochilgan. Bundan tashqari, mening kompaniyalarimda Moskvada yashaydigan ozarbayjonliklar ishlashgan. Tadbirdorlik faoliyatimning hosilasini esa yurtimga bag'ishlagman».

* * *

Bu vaqtga kelib, Haydar Aliyev doimiy yashash uchun Ozarbayjonga, o'zi tug'ilib o'sgan yurt – Naxchivanga ko'chib o'tgan edi. Bokuning yarmini qurban, millionlab yurtdoshlariga boshpana bergen ushbu insonga respublika poytaxtida joy topilmadi.

Ilhom Aliyev otasini yolg'iz tashlab qo'ymadni. Garchi o'sha davr rahbariyati, ayniqsa, respublikaga Ayoz Mutallibov rahbarlik qilgan davrda yaratilgan turli-tuman g'ov va xatarlar tufayli yurtga tashrif oqibati yaxshilik bilan yakun topmasligi muqarrar bo'lsa-da, Ilhom Aliyev deyarli har oyda Naxchivanga kelib, otasining holidan xabar olib bordi.

Haydar Aliyev Naxchivan Muxtor Respublikasi parlamentining rahbari etib saylanganidan so'ng, Naxchivan Muxtor Respublikasining Bokudagi doimiy vakili etib tayinlangan Hasan Zaynalov o'sha parvozlarni quyidagicha eslaydi:

«Ta'kidlab o'tmoq joizki, Haydar Aliyev va uning oilasiga hamisha hamroh bo'lganman. Ularning barcha parvozlarini nazorat ostiga olib, aeroportda kuzatib qo'yanman. Aytaylik, Mehribon xonimning Moskvaga uchishi yoki Ilhom muallimning yurtga kelishi jarayonida doimo ularga qarshi nimadir uyushtirilishiga ko'p bora shohid bo'lganman: yo reys qoldiriladi, yo tirnoq ostidan kir qidiriladi. Masalan, bir hodisa ro'y bergen edi. Biz Ilhom Aliyevning oilasi Bokuga uchishi uchun bir oy oldin chipta sotib oldik. Chipta xarid qilingan kuni Ilhomning kenja qizi Orzu hali 5 yoshga to'lмаган edi. Uchish kuni esa 5 yoshga to'lган va shu bois, unga ham

alohida chipta olish talab etilgan. Shuni ayb deb topgan aeroport ma'muriyati Ilhom muallimning oilasini samolyotga kiritishga qarshilik ko'rsatishga uringan, garchi qizaloqning ota-onasi talab etilgan summani to'lashga tayyor bo'lsa-da. Boshqacha qilib aytganda, har qanday mayda muammo Aliyevlarga ma'nан tazyiq o'tkazishga bahona bo'lar edi. Bularning bari rasmiy Bokuning Haydar Aliyevga bo'lgan munosabatidan dalolat bo'lgan. Oqibatda, aeroport xodimlari bilan ko'p marta bahslashishga to'g'ri kelgan...»

Naxchivan Oliy Majlisida Haydar Aliyevning birinchi o'rinnbosari bo'lib ishlagan Rashid Hasanov Ilhom Aliyevning Naxchivan Muxtor Respublikasi Oliy majlisi (parlamenti) rahbari bo'lib ishlagan otasi Haydar Aliyevga bo'lgan boadab munosabatini quyidagicha xotirlaydi:

«Ilhom muallim otasining holidan xabar olish uchun Naxchivanga tez-tez kelib turgan. U otasining ishxonasiga kelib, yuksak odob sohibi ekanligini namoyon etar edi. Bu uning otasi, istasa, yonida sutkalab o'tirishi mumkin. Yo'q, unday qilmagan. Ikkalasi mashinadan tushgach, Haydar Aliyev o'z xizmat xonasiga yo'l olar, Ilhom esa kirmas edi. U yo mening, yo Shamsiddin Xonboboyevning, yo Vosif Tolibovning xonasiga kirib o'tirar edi. Haydar Aliyevich qo'li bo'shab, o'g'lini chaqirmaguncha, xonasiga kirmas, biz bilan choyxo'rlik qilib o'tirar edi...»

Umuman aytganda, Ilhom Aliyev bilan muloqotda bo'lgan qaysi odam bilan gaplashmay, hammasi birday, uning tabiatan kamtarligi va yuksak odobini eslab o'tadi.

Ilhom Aliyev faqat og'ir damlardagina emas, quvonchli daqiqalarda ham otasi bilan birga bo'lgan. Uning eng yorqin xotiralaridan biri 1993-yil 10-may sa-

nasidir. O'sha kuni uning qalbiga yaqin kishilar Naxchivanda yig'ilib, atoqli siyosiy arbobning 70 yoshini birga nishonlashgan.

«Otamning 70 yillik yubileyini yaxshi eslayman. 1993-yil 10-may kuni, ya'ni otam hali Naxchivanda yashab, ishlagan davrda tor doiraga mansub kishilar, xususan, otamning Naxchivandagi hamkasbleri, o'sha davrdagi Ozarbayjon rahbariyatining ta'qibidan qo'rqlagan o'rtoqlari, «Yangi Ozarbayjon» partiyasi bo'yicha safdoshlari, chin dildan yaxshi ko'rgan do'stlari, hamfikrlari, qarindosh-urug'lari yig'ildik. Davlatning xalq ishonchini yo'qotgan, yurtni xarob qilgan, zaif, la-yoqatsiz rahbariyati Haydar Aliyevni Naxchivan hokimiyatidan ag'darishga, buning uchun Naxchivan Muxtor Respublikasini tughatishga uringan bir sharoitda, ushbu odamlarning Haydar Aliyevni yubiley yoshga to'lgani munosabati bilan qutlagani kelishi har narsadan tashqari, hukumatga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishganini anglatgan.

O'shanda men Turkiyada yashar edim. Naxchivanga Arzirumdan mashinada keldim. Birgalikda o'tkazgan kunimiz ajoyib bo'ldi. Oradan bir oy o'tmay Ozarbayjonning kasodga uchragan tuzumi qulashi, yaqindagi na Haydar Aliyevni badnom qilishga uringan kaslar otamning ostonasiga bir necha kun bosh urib, Bokuga qaytishini, kelib, ularni qutqarishini

*Ilhom Aliyev faqat og'ir damlardagina emas, quvonchli daqiqalarda ham otasi bilan birga bo'lgan.
Uning eng yorqin xotiralaridan biri 1993-yil 10-may sanasidir. O'sha kuni uning qalbiga yaqin kishilar Naxchivanda yig'ilib, atoqli siyosiy arbobning 70 yoshini birga nishonlashgan.*

so'ragancha yalinib-yolvorishlari hali hech kimning xayoliga ham kelgani yo'q edi. Ha, otam qutqarish uchun qaytdi. Faqat ularni emas, o'z xalqi, Vatanini qutqarish uchun qaytdi. O'sha kuni, ya'ni 1993-yil 10-may kuni biz bularning barini, tabiiyki, tasavvur ham qilmay, otamning tug'ilgan kuni nishonlanayotgani, biz uning yonida bo'lganimiz uchun quvongan edik. Hammaning kayfiyatি a'lo, bahorgi osmon musaffo, boshimiz uzra quyosh yarqiragan edi. May oyining Naxchivanda o'tgan o'sha go'zal kuni xotiramda bir umrga muhrlanib qoldi. O'sha kuni otam 70 yoshga to'lgan bo'lib, tabriklarimizning bari mazmunan unga uzoq umr tilab qolishdan iborat bo'ldi.

Oradan 10 yil o'tib, ortga nazar solar, o'sha kuniarni eslar ekanman, Ozarbayjon tarixida yangi davr – bунyodkorlik, taraqqiyot, yurtimizda davlatchilik shakllanib, mustahkamlanish davri boshlanganini anglab yetmoqdaman. Bu davr Haydar Aliyevning 70 yillik yubileyi bilan mos kelishida esa chuqr bir ramziy ma'no bor»¹.

¹ Azerbaydjan. IRS. 2003. May. -S.102 – 103.

ILHOM ALIYEVNING NEFT «GAMBITI»

19

93-yil 15-iyun kuni Haydar Alirza o'g'li Aliyev Ozarbayjon Respublikasi Oliy Kengashining raisi etib saylandi.

1993-yil 24-iyun kuni Milliy Majlis qarori bilan Ozarbayjon Respublikasi prezidenti vakolatini bajarishga kirishdi.

1993-yil 3-oktyabr kuni Haydar Aliyev umumxalq saylovining natijasiga ko'ra Ozarbayjon Respublikasi prezidenti bo'ldi.

1993-yil iyunining o'sha dahshatli kunlarida Ozarbayjon jamiyati batamom mahv bo'lish xavfi tahdid solgan fursatga yetgan edi. Ana o'shanda xalq o'zining jamiki himoya kuchini safarbar etib, oqilligiga to'lato'kis ishongan, zimmasiga xaloskorlik missiyasini yuklagan siyosatchini o'z yetakchisi sifatida tanladi. Darhaqiqat, XX asrning 90-yillari boshida gamletona masala: «O'lmoq yoki yashamoq?» masalasi ko'ndalang turib qoldi. Yechimi deyarli bo'limgan masalalarni, ya'ni Ozarbayjonning parchalanish jarayonini to'xtatish, ichki nizolarga chek qo'yish, jamoat tartibi va barqarorlikni tiklash, qonli urushni bas qilish, hayotiy zarur islohot-

*Darhaqiqat, XX
asrning 90-yillari
boshida gamletona
masala: «O'lmoq
yoki yashamoq?»
masalasi
ko'ndalang turib
qoldi. Yechimi
deyarli bo'lman
masalalarni
hal etish uchun
Haydar Aliyevga
o'zining jamiki
siyosiy dahosini
ishga solishga
to'g'ri keldi.*

larni boshlash masalalarini hal etish uchun Haydar Aliyevga o'zining jami-ki siyosiy dahosini ishga solishga to'g'ri keldi. Va bu larning bariga 5 – 6 yil kerak bo'ldi.

Ushbu masalalarni hal etish uchun, tabiiyki, uning rahbarligi ostida yangi, aniqrog'i, nihoyatda qaltis vaziyatda ishlay biladigan hamfikrlar jamoasi kerak edi. Darvoqe, Haydar Aliyev o'ttiz to'rt yil davomida hokimiyat tepasida bo'la turib, o'ziga munosib voris tayyorlamaganiga oid tezis bir vaqtlar muxolifat targ'ibotining eski andazalaridan biri bo'lgan. Birinchi-dan, o'ttiz to'rt yil davomida emas. Zero, bunday ish bilan shug'ullanish

sobiq ittifoq tuzimi davrida nafaqat ma'nisiz, balki xavfli ham bo'lgan. Voris tayyorlaysanmi, yo'qmi, Moskva «birinchi» lavozimda kimni ko'rishni istasa, o'shani tayin-lagan. Yurtning siyosiy boshqaruviga qaytgan Haydar Aliyev o'z jamoasining yosh, istiqbolli a'zolariga, shu jumladan, o'g'li Ilhomga ham razm sola boshlagan...

* * *

Haydar Aliyev Ozarbayjon prezidenti etib saylangandan so'ng, yosh Aliyev o'z tijoratini davom etishi, muvafqaqiyatli tadbirkor sifatida tinchgina umrguzaronlik qiliishi, bir so'z bilan aytganda, o'zi uchun yashashi mumkin edi, albatta. Lekin u yurtga qaytishni, davlat qurilishi

jarayonlarida faol ishtirok etishni, yurt suverenitetini mustahkamlash, xalqaro maydonda nufuzini oshirish ishlariga o'z hissasini qo'shishni afzal ko'rdi.

Yosh Aliyev professionallik va odamiylik imtihonidan qarindoshlik rishtasi bilan bog'liq biron-bir imtiyoz yoki yon bosishlarsiz, hammaning ko'z o'ngida o'tib bordi. Do'st-u dushmanlar Ilhom Aliyevning xizmat pog'onasi bo'yicha o'sish mashaqqatlarini diqqat bilan kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

1994-yilning aprelidan 2003-yilning avgustiga qadar Ilhom Aliyev ORDNK dastlab vitse-prezident, keyinchalik birinchi vitse-prezident bo'lib ishladi. Ushbu lavozimlarda u Haydar Aliyevning neft strategiyasini amalga oshirish jarayonida juda faol ishtirok etdi.

«– Taqdir faoliyatizingizni neft bilan bog'lab qo'yishini hech tasavvur qilgan edingizmi, garchi Boku – birinchi navbatda neftni anglatsa-da?..

– Bu haqda hech o'ylamaganman, hatto tasavvur ham qilmaganman.

– Qanday yuz berdi bunday bog'lanish?

– Prezident meni o'z huzuriga chaqirib, ushbu ish bilan shug'ullanish kerakligini, yurt uchun bu nihoyatda muhim masala ekanligini aytdi. Otaning gapi men uchun doimo qonun bo'lib kelgan. Modomiki kerak ekan, demak shug'ullanish kerak.

– Yangi kasbni o'zlashtirish qiyin kechmadimi?

– Ochig'ini aytsam – yo'q. Men asosan kompaniyaning tashqi iqtisodiy faoliyati bilan shug'ullanganman, hozir ham shu ish bilan bandman. Buning uchun maxsus ma'lumotga ega bo'lish talab etilmaydi. Muhimi, barcha

shartnomalar Ozarbayjonning milliy manfaatlaridan ke-lib chiqsa, bas...»

***O. Siganovning I. Aliyevdan olgan intervusidan
«Biz hamma ishning uddasidan chiqamiz»
(«Известия» gazetasining 2002-yil 26-apreldagi soni***

Ilhom Aliyevning hayotida yuz bergan ushbu burilish davrini uning adashi, ORDNK sobiq prezidenti **Natik Aliyev** men bilan suhbatlashar ekan, quyidagicha esladi:

«1994-yil 4-fevral kuni Haydar Aliyev farmon chiqarib, muzokaralar olib borish vakolatini to'la-to'kis ORDNK zimmasiga yukladi, aniqrog'i, farmonda: vakolat ORDNK prezidenti Natik Aliyevga havola etilsin deyilgan edi.

Ish boshlandi. Tegishli materiallarni shu yerda ishlab chiqqach, sheriklarimiz huzuriga yo'l olar edik. Dastlab Istanbulga tashrif buyurdik. Shu ish arafasida, ya'ni 28-aprel kuni Ilhom Aliyevich ORDNKnинг vitse-prezidenti etib tayinlandi.

E. A.: Bu ishga munosabatingiz qanday bo'ldi? Siz uchun kutilmagan chora bo'ldimi bu? Haydar Aliyev izohlab berdimi sizga o'z qarorini?

N. A.: Hammasi esimda. Yurtboshimiz bilan telefon orqali kuniga besh-olti marta gaplashar edim. Haftada ikki marta huzuriga chaqiradi. Chunki o'sha davrda respublikaning butun byudjeti neft sanoatiga bog'liq bo'lgan.

Ana shunday uchrashuvlardan birida Haydar Aliyev mendan ishlar holati haqida so'radi. Bitimning ayrim bandlarini tayyorlab qo'yganimiz, shartnomaga tahriri deyarli tayyorligini, qayta ko'rib chiqqanimizni aytdim.

Endi sheriklar bilan uchrashish qoldi. Ular Istanbulda uchrashishni taklif qilishyapti, dedim.

– Qancha vaqt bo'lasizlar u yerda? – so'radi Haydar Aliyev.

– Muzokaralarning qanday o'tishiga bog'liq. Shart-nomaning har bir harfini muvofiqlashtirib olishimiz kerak bo'ladi. Birinchi uchrashuvni ular 15 kun davomida o'tkazishni, Istanbulda yig'ilib, eshikni ichkaridan qulflab olgancha ishlashni taklif qilishyapti.

Haydar Aliyev rozi bo'ldi.

– Nima deb o'ylaysan, xorijiy sheriklarimiz bilan bizning o'rtamizda biron-bir muammo kelib chiqishi mumkinmi? Siyosiy muammoni nazarda tutyapman.

– Ular Kaspiyning huquqiy maqomiga doir ko'plab masalalarni o'rtaga tashlashmoqda, Haydar Aliyevich, – javob berdim men.

O'sha davrda Rossiya bilan munosabatlarimiz yomon bo'lib, amalda qamal holatida qolgan edik. Turkmaniston o'z munosabatini hali bildirmagan. Eron bilan mazkur masalada ziddiyatlar yuzaga kelgan. Gap shundaki, eronliklarning fikricha, Ozarbayjon Kaspiy dengizi masalasida mustaqil siyosat yuritish, xorijiy kompaniyalar bilan bir tomonlama muzokaralar olib borish huquqiga ega bo'lмаган. Xorijiy kompaniyalar bilan bitim tuzish masalasida Ozarbayjon pionerlik qilayotgani sababli rashk qilayotgan qo'shni davlatlardan kelgan mayda e'tirozlar bor edi. Binoharin, tijorat bobida manfaatli bitim imzolangan taqdirda ham, ushbu hujjatni boshqalar tan olishi bilan bog'liq katta muammolar kelib chiqishi mumkinligini Haydar Aliyevga ma'lum qildim.

Voqealarning keyingi rivojini biz chindan ham oldindan ko'ra bilgan ekanmiz. Rossiya TIV 1994-yil 28-aprel kuni Buyuk Britaniya TIVga Ozarbayjon hech qanday muzokara olib borish huquqiga ega emasligi, Rossiya bunga hech qachon yo'l qo'ymasligi haqida nota yo'lladi. Kunlardan bir kun Ozarbayjonning maqomi, nufuzi, joiz to'sqinliklar haqida suhbatlashib o'tirgan edik.

– Bu haqda men ko'p o'yladim, – dedi Haydar Aliyev.
 – Senga geosiyosatni, chet davlatlar orasidagi munosabatlarni yaxshi tushunadigan yordamchi kerak. Bunday jiddiy ishni to'g'ri kelgan odamga topshirib bo'lmasligi bois, ishonchimizni qozongan, bizga yaqin odam bo'lishi lozim. Ilhomni senga vitse-prezident qilib tayinlash, zimmasiga tashqi siyosiy masalalarni hal etib borish vazifasini yuklashga qaror qildim.

– Albatta, Haydar Aliyevich, hozir nima muhimroq ekanini mendan ko'ra o'zingiz yaxshi bilasiz. Masalaning texnik, texnologik, tijorat jihatlari eng maqbul variantda hal etilishiga shubha qilmasangiz ham bo'laveradi. Lekin siyosiy jihatlari...

O'sha davrda muzokara yetakchisi hisoblangan «AMOKO» shartnoma tahririga mutlaqo yangi band kiritdi – bitim, Kaspiy dengizining delimitatsiyasi hal bo'lgandan so'nggina kuchga kiradi, deyildi unda. Agar bu band hujjat tahririda saqlanib qolganda, biz muzokarani boshlay ham olmas edik. Ushbu band shartnoma tahriridan chiqarilishi uchun Ilhom Haydarovichga anchagina ter to'kishga to'g'ri keldi. U bir necha bor Vashingtonga uchib, modomiki AQSH kompaniyalari Ozarbayjon bilan hamkorlik qilishni istar ekan, Kaspiy maqomiga oid band shartnoma tahriridan chiqarish kerak, deya qattiq

turib oldi. Va u bunday muhim masalani hal etishning uddasidan chiqa bildi.

Haydar Aliyev, aftidan, shartnoma bilan bog'liq masalalar eng yuqori pog'onada, gapning ochig'i, Oq uyda ko'rib chiqilishini oldindan ko'ra bilgan. Binobarin, avvalambor u, Ilhom Haydarovichning shaxsini, xususan, MDXMI ni tamomlagani, o'z sohasida ishlagani, xorij davlatlar siyosatini yaxshi bilishini hisobga olgan. Boz ustiga u ingliz, fransuz va turk tillarida bermalol gaplasha oladi. Bundan tashqari, tashqi siyosat bilan shug'ullanadigan shaxs davlat rahbariyatining ishonchini to'liq qozongan bo'lishi lozim, chunki maxfiy ma'lumotlar oshkor bo'lishi ehtimol-dan xoli bo'lmay, bunda kimni ayblashni bilmay qolishimiz mumkin edi. Ushbu mezonlarning bari o'z ahamiyatiga ega bo'lib, Ilhom Haydarovich o'sha davrda muhim lavozimga to'g'ri tayinlangan odam bo'ldi.

Bilasizmi, mendan Ilhom Haydarovich haqida so'rashganda, u hamisha Haydar Aliyevning yonida bo'lganini, bu esa – har qanday siyosatchi uchun zo'r maktab ekanligini ta'kidlayman».

Yurtimizdag'i muxolifatning ayyuhannosiga qaramay, xorij konsorsiumi rahbarlari Haydar Aliyevning qarorini tushungan holda e'tirof etishdi. Ilhom Aliyev otasi bilan bevosita aloqada bo'lib, muzokara jarayoni haqida har kuni xabardor qilib bordi. Jarayon qiyin kechdi. Asosiy muammo yuqorida Natik Aliyev aytganidek, Kaspiy den-

*«... Mendan Ilhom
Haydarovich
haqida
so'rashganda, u
hamisha Haydar
Aliyevning yonida
bo'lganini, bu
esa – har qanday
siyosatchi uchun
zo'r maktab
ekanligini
ta'kidlayman».*

gizining maqomi bilan bog'liq bo'lgan. Kaspiy maqomi bilan bog'liq barcha huquqiy masalalar o'z yechimi-ni topmaguncha, neftga oid shartnomalarning ijrosini kechga surishni taklif qilganlar ham topildi. Lekin unday yo'l boshi berk ko'chaga eltar edi, xolos.

ORDNK vitse-prezidenti Xoshbaxt Yusifzoda hikoyasi:

«Ilhom Aliyev ORDNK vitse-prezidenti lavozimiga tayinlanganini eshitib, har xayolga bordim. U haqda bil-ganimiz: MDXMIni tamomlagani, huquqiy me'yorlarni bilishi-yu, bir nechta tilda gapira olishi edi.

Lekin ko'p o'tmay, Ilhomning bizga kattagina nafi tegayotganini ko'rdim. O'sha davrda jahon sahnasiga endigina chiqa boshlaganimizni inobatga oladigan bo'l-sak, Ilhomning bilimlari bizga suv bilan havodek zarur edi. 1994-yilning iyul-avgust oylarida «Asr shartno-masi» bo'yicha dastlabki muzokaralar o'tkazish maq-sadida Xyoston shahriga yo'l oldik. Birortamizda xorij-liklar bilan muzokara o'tkazish tajribasi bo'limgan. Ilhom Aliyevning ushbu ishda ishtiroki mushkulimizni nihoyatda oson qilgan edi.

Zo'r g'ayrat bilan ishlab, qizg'in muzokara olib bordik. Asosiy yuklama Ilhom Aliyevning zimmasiga tushdi. AQSH vakillari oldimizga Kaspiyning rasmiy maqomini belgilash borasida shart qo'yishdi. Vaziyatdan chiqishning yo'li yo'qday ko'rindi. Xayriyatki, Ilhom Aliyev Vashingtonda, ushbu masala yuzasidan o'z vaqtida muzokara olib borgan ekan, vaziyat keskin yum-shadi».

Ozarbayjon prezidenti **Ilhom Aliyev** o'sha voqealar-ni keyinchalik quyidagicha esladi:

«Kaspiy dengizining maqomiga doir muammo yechimi bilan bog'liq masala ko'ndalang qo'yilgan bo'lib, «Biz yo'l qo'yamaymiz!» mazmunidagi har xil diplomatik nota va bayonotlar ila Ozarbayjonga nisbatan kuchli tazyiq o'tkazilgan. Bularning bari Kaspiy dengizining maqomi hal bo'lgandan keyingina, shartnoma kuchga kirishini anglatgan. Bir so'z bilan aytganda, qaror topgan vaziyat: shartnoma imzolangan taqdirda ham kuchga kirmaydi, demakki, ijrosi amalga oshmaydi, degan ma'noni kasb etib qolgan. Tabiiyki, biz bunga rozi bo'lmadik va muzokaralar boshi berk ko'chaga kirib qoldi. AQSH Energetika vazirining o'sha davrdagi o'rinnbosari Bill Uaytning suhbatini oldim. Ozarbayjonning ushbu masala borasidagi pozitsiyasiga tushuntirishlar berildi, shartnoma tahririda biron-bir natijaga olib kelmaydigan Kaspiy dengizining maqomiga doir tezis mavjudligi ma'lum qilindi. AQSH hukumatining aralashuvidan so'nggina, shartnoma tahriridan ushbu band chiqarib yuborildi. Agar o'sha davrda bunga rozilik berilmaganda, bugungi kungacha hech qanday ish olib bora olmas, biron-bir natijaga erishmas edik»¹.

Kelgusi avlod 1994-yil 20-sentyabr kuni sobiq ittifoq respublikalaridan birining poytaxti Boku shahrida G'arb kompaniyalari bilan neftga oid nihoyatda keng ko'lalli shartnoma imzolangani, Kaspiy dengizining uglevdorod manbalarini o'zlashtirish uchun xorij investitsiyalarini jalb etish yo'li tanlangani haqidagi xabar katta biznes va katta siyosat olamida qanday qiziqish uyg'ot-

¹ Azerbaydjan gadini. 2012, dekabr. -S. 146.

ganini tasavvur etishi qiyin kechsa kerak. Keyinchalik rossiyalik taniqli jurnalist Andrey Karaulov bu hodisani o'z tabiatiga xos uslubda: «O'sha kuni Haydar Aliyev mangulik bilan bir bitimga keldi», – deya ta'riflab o'tadi.

*Keyinchalik
rossiyalik taniqli
jurnalist Andrey
Karaulov bu
hodisani o'z
tabiatiga xos
uslubda: «O'sha
kuni Haydar
Aliyev mangulik
bilan bir bitimga
keldi», – deya
ta'riflab o'tadi.*

Shartnoma imzolash marosimi «Guliston» saroyida o'tkazilgani ham o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'ldi. Ma'lumki, 1813-yil «Guliston» nomli joyda Ozarbayjon ikkiga bo'lib tashlagan shartnoma imzolangan. O'sha hujjatga ko'ra, janubiy hududlar Eronga o'tgan bo'lsa, shimoliy qismi Rossiyaga qaram qilingan. Oradan 180 yil o'tib, Haydar Aliyev tarixiy adolatni tikladi, «Guliston» nomiga «ozodlik va mustaqillik» so'zlarini ma'nodosh qilib qo'ydi.

* * *

...Ushbu shartnoma imzolanishi hamono, xorijiy ommaviy axborot vositalarida ishlaydigan boshqa ozarbayjonlik jurnalistlar qatori mening ham ishim sezilarli darajada ko'payib ketdi. «Kaspiyning huquqiy maqomi», «Asr shartnomasi», «Boku – Tbilisi – Jayxon neft quvuri» iboralari hammani maftun etib, katta qiziqish uyg'otdi. Mahalliy va xorijiy jurnalistlar ORDNK prezidenti Natik Aliyev yoki uning birinchi o'rribbosari Ilhom Aliyevdan intervyu olish ishtiyoqida ORDNK binosini «qamal qilishdi». O'sha yillari ular eng mashhur estrada yulduzlaridan ham ommaviyroq bo'lib ketgani haqida

o'z chiqishlarimdan birida ta'kidlab o'tgan edim. Ular-ning og'zidan chiqqan har bir jumla, andak bildirilgan mulohaza jurnalistlar tomonidan ilib olinib o'nlab milliy va xorijiy OAVda yoritilar edi. Yetakchi davriy nashrlar, yirik radiostansiyalar va televide niye kanallarida yori-tilgan Kaspiy neftiga oid mavzular butun boshli sahifa, alohida eshittirish va ko'rsatuvlarga aylanib ketdi.

O'sha yillari biz hammamiz biroz aqldan ozib qoldik. Vaholonki, aqldan ozgan yolg'iz biz emas edik. Birovga yoqadimi bu, yoqmaydimi Kaspiy nefti shu zahoti katta siyosat omiliga aylandi. Aksariyat neft shartnomalari yirik davlat yoki hukumat rahbarlari, masalan: Sulaymon Demiral, Jak Shirak, Toni Bler, Bill Clinton kabilar ishtirokida imzolanishi bejiz bo'lмаган. Imzolash joylari ham betakror bo'lган. 1997-yili ORDNK va Fransiyaning «Elf Akiten» va «Total» deb nomlangan ikkita yirik neft kompaniyalari o'rta sidagi shartnoma Fransiya oliv hokimiyati-ning eng muqaddas maskani hisoblangan Yelisey saroyida imzolangan bo'lsa, 1999-yilning aprelida Ozarbayjonning AQSH neft kompaniyalari bilan tuzgan uchta shartnomasi AQSH Kongressi binosida (uning tarixida birinchi mar-ta!) imzolangan. Shu tariqa G'arbning yetakchi davlatla-ri Ozarbayjonning neft sohasidagi strategiyasi va uning prezidenti Haydar Aliyevni qo'llab-quvvatlashini ochiq-dan-ochiq namoyish etishga urinishdi.

Mabodo Ilhom Aliyev «Asr shartnomasi» imzolangan-dan keyin bu ishni qo'yib, boshqa ish bilan shug'ullangan

*Birovga yoqadimi bu,
yoqmaydimi Kaspiy
nefti shu zahoti
katta siyosat omiliga
aylandi. Aksariyat
neft shartnomalari
yirik davlat yoki
hukumat rahbarlari
ishtirokida
imzolanishi
bejiz bo'lмаган.*

taqdirda ham, baribir u mustaqil Ozarbayjon tarixiga yurt qiyofasini o'zgartirib yuborgan neft strategiyasining ijodkorlaridan biri sifatida kirgan bo'lur edi. Axir Ozarbayjon o'zining «Asr shartnomasi» bilan nafaqat Kaspiy dengizi va uning energetik resurslarini dunyoga ochib berdi, balki bunday shartnoma tuzib, chindan ham o'z tabiiy resurslarini o'zi tasarruf eta olishga qodir mustaqil davlat ekanligini hammaga ko'rsatib qo'ydi.

Mana shu yerda mahalliy matbuotda ilgari yangragan va hozir ham yangrashni davom etayotgan: «Ilhom Aliyev buyuk Haydar Aliyev boshlagan ishlarning munosib **davomchisidir**» jumlasida ifodalanadigan 2-sonli eski andazaga barham berish vaqtি yetdi. Yurtimizdagи voqelik bilan tanish bo'lмаган kishilarda Ilhom Aliyev siyosiy maydonda 2003-yildagina paydo bo'lib, umummilliyl yetakchimiz asos solgan yangilanishlarni davom etmoqda, degan taassurot uyg'onishi mumkin. Biroq bu adolatdan bo'lmaydi, chunki Ilhom Haydarovich ulkan siyosiy mакtabda saboq olgan, buyuk otasining тои ma'nodagi **safdoshi** bo'lган. O'n yil davomida Haydar Aliyevning yonida, yelkama-yelka borib, Ozarbayjonning mustaqil davlatchiligini qurish bilan shug'ullangan, neft strategiyasini shakllantirgan, yirik miqyosli shartnomalar tuzish jarayonida har bir sent uchun kurashgan, eng yuqori xalqaro minbarlarda, shu jumladan, Yevropa kengashi minbarida turib respublikamizning pozitsiyasini himoya qilgan, Ozarbayjondagi sport, olimpiada harakatini rivojlantirgan.

Biroq bu haqda keyingi bobda fikr yuritamiz...

«KATTA» NEFTDAN «KATTA» SIYOSATGA

19

95-yili Ilhom Aliyev Bokuning eng yirik va afsuski, juda xarob tumanlaridan biri bo'lmish Qoratog' tumanidan davlat parlamentiga saylandi. Deputatligining bir necha yili ichida Ilhom Aliyev o'z saylov okrugi uchun ko'p ishlarni amalga oshirishga ulgurdi: Qorabog' urushi nogironlari va shahid ketganlarning oilalari uchun har biri 50 xonadonli ikkita turarjoy binosi qurildi, qochoqlar uchun 100 dan ziyod uylardan tashkil topgan, zaruriy infratuzilma-ga, xususan, maktab, tibbiyot punkti, savdo markazi kabi obyektlarga ega butun boshli shaharcha bunyod etildi. Ilhom Aliyevning tashabbusi bilan tashkil etilgan Qoratog' tumanining ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqiga ko'maklashish fondi yordamida tuman yo'llari, ko'priklari, suv va gaz ta'minoti tarmog'ini yangilash ishlari boshlandi. O'sha davrda davlat xazinasida mintaqalar rivoji uchun ajratilgan alohida mablag' bo'lмаган. Shu sababli Ilhom Haydarovich boshqacha yo'l tutdi: fuqarolar tashabbusini ishga soldi, tuman tadbirkorlari bilan uchrashib, Qoratog' tumanini obodonlashtirish ishlariga ko'mak so'radi. Ushbu tashabbus ish berdi, boz ustiga, ikki yil o'tib, mazkur tashabbus butun yurt miqyosida tarqalib, tadbirkorlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Odamlar hordiq chiqaradigan xiyobonlar, xotira maydonlari, mashhur kishilarning haykallari va shu kabi boshqa obyektlar dastlab Qoratog' tumanida, keyin esa respublikaning boshqa mintaqalarida paydo bo'la boshladi. Bunda davlat byudjetidan biror-bir manat ishlatalmadi.

2000-yili yosh Aliyevning parlamentga nomzodi endi «Yangi Ozarbayjon» partiyasidan qo'yildi. Boz ustiغا, u partiya ro'yxatida yetakchi bo'lib, mohiyatan saylov jarayonida, Ilhomning ta'biri ila aytganda, «partiyaning yuzi»ga aylanib qoldi. Deputatlikka nomzod sifatida uning televideniye orqali qilgan chiqishi ko'pchilikning esida qoldi. Saylovchilarning ko'z o'ngida qat'iy, g'ayratli, pragmatik siyosatchi sifatidagi yangi Ilhom Aliyev namoyon bo'ldi. O'shanda u, Ozarbayjon hukumatining muxolifati bilan keskin ohangda munozara o'tkazdi.

«Umuman olganda, bugungi muxolifat haqida gapirib qimmatli vaqtningizni olmoqchi emas edim, ularni esga olish niyatim ham yo'q edi. Biroq ularning bo'hton, haqorat, fisq-fujurga asoslangan «kampaniya»si gapirishga majbur qilmoqda. Bizga xalal bermang! Biz bunyod etmoqdamiz, qurmoqdamiz, qilgan ishlarimizning natijasi ko'z o'ngingizda. Siz esa o'z sa'y-harakatingiz ila Ozarbayjondagi vaziyatni yomonlashtirishga urinmoqdasiz. Ozarbayjonda vaziyat qanchalik yomon bo'lsa, siz shunchalik xursand bo'lib yayraysiz. Ozarbayjonliklar Sidneyda oltin medallarga sazovor bo'lganidan nihoyatda afsus qilganingiz borasida aniq ma'lumotlar bor. Qarang, yurtimiz yutuqlari Armanistonnigina emas, o'zimizning muxolifatimizni ham qayg'uga solgan. Nima uchun? Chunki terma

jamoaning boshlig'i Ilhom Aliyev bo'lgan. Vaholonki, bu g'alaba Ilhom Aliyevning shaxsiy g'alabasi emas, butun ozarbayjon xalqining g'alabasidir. Va bunday munosabat muxolifat haqida ikki og'iz so'z aytib o'tishimga majbur qildi...

Iso Gambar o'z nutqida hokimiyat tepasiga o'zi keli shini, kelmasa bo'lmasligini, u kelgach, bugungi hokimiyat ketishini, ketmasa bo'lmasligini bayonot qildi. Biz hech qayoqqa ketmaymiz, siz esa hech qayoqqa kelmaysiz! Aytishicha, hokimiyat tepasiga kelar ekan-da, amaldagi hukumatning xatolarini tuzatishga kirishar ekan. Menda bir savol tug'ildi: aspiranturada o'n yil sudralib yurganiga qaramay, dissertatsiya yozishga qobiliyati yetmagan bir kas qanday qilib hokimiyat tepasiga keladi-yu, jahonga dong'i ketgan siyosatchining xatosini tuzatadi? Biz sizlarning yetti yil davomida yo'l qo'yan xatolaringizni tuzatish bilan ovoramiz va bu ishni hamon oxiriga yetkaza olmayapmiz. Sababi ayon: siz hamma narsani yo'q qilib yuborgansiz...»

Ilhom Aliyev tomonidan o'tkazilgan muvaffaqiyatli, hukumat partiyasiga ko'plab qo'shimcha ovoz keltirgan saylov kompaniyasidan so'ng, ko'pchilik yosh Aliyev Ozarbayjon Milliy Majlisi (parlament) rahbari lavozimiga tavsiya etilishini kuttdi. Biroq bunday bo'lmadni, spikerlik lavozimini Haydar Aliyevning ishonchli safdoshi Murtuz Alaskarov boz egalladi. Kelgusidagi siyosiy fakoliyatiga doir jurnalistlar tomonidan berilgan savol-larga Ilhom Aliyev shunday javob berib yurdi: hozir u

*Saylovchilar ning
ko'z o'ngida qat'iy,
g'ayratli, pragmatik
siyosatchi sifatidagi
yangi Ilhom Aliyev
namoyon bo'ldi.*

bilimi va tajribasiga ehtiyoj sezilayotgan joyda faoliyat yuritmoqda. Siyosat, uning fikricha, televide niye orqali va'zbozlik qilish yoki mitinglarda so'z olib, odamlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etishdan iborat emas. Odamlarning ishonchini qozonish, ularni ortingdan ergashtira bilish uchun aniq ishlar qilish kerak.

Shunday bo'lsa ham, Ilhom Aliyev kunlardan bir kun o'z fikrini nisbatan aniqroq ifoda etdi. «Московский комсомолец» gazetasining 2000-yil 25-dekabr sonidagi intervyusida ORDNKning birinchi vitse-prezidenti quyidagicha bayonot qildi: «...Umuman aytganda men har qanday darajada o'tadigan har qanday kurashga tayyorman, chunki Ozarbayjonning so'nggi yillar ichida qo'lga kiritgan yutuqlari saqlanib, yanada ko'paytirilishi shart, deb bilaman. Va bugungi kunda Ozarbayjon o'z prezidenti boshchiligidagi borayotgan yo'l yurtimiz bundan keyin ham ko'p yillar, o'n yilliklar davomida odimlab boradigan yo'l bo'lgancha qolmog'i kerak. Buning uchun men har qanday lavozimda qo'ldan kelgancha harakat qilishga tayyorman. Hozir esa ommaviy siyosatga talpinishimga zaruratning o'zi yo'q. Bunday zarurat tug'ilguday bo'lsa – men tayyorman. Partiyamizga ovoz berganlar bu masalada xotirjam bo'laversinlar».

* * *

XX asrning 90-yillari – XX asrning boshida Ilhom Aliyev energetika muammolariga bag'ishlangan ko'plab biznes-forumlar, xalqaro konferensiyalarda so'zga chiqqib, xorij siyosatchilari, tadbirkorlari, qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillari bilan muloqot qildi. Ularning ko'pchiligi Ilhom Aliyevning, masalan, 1997-yil noyabr

oyida Kaspiy neft quvuri bo'yicha Vashingtonda o'tgan konferensiyadagi chiqishini eslab qoldi. San-Frantsiskodagi Stenford universitetida Ozarbayjonning bosib o'tgan yo'li, erishgan siyosiy-iqtisodiy yutuqlarini sofib qilib berganini eshitgan AQSHning sobiq mudofaa vaziri Uilyam Perri esa Ilhom Aliyevning nutqidan katta siyosat yuritishga tayyor diplomatning mulohazalarini eshitganday ta'sirlanganini ta'kidlab o'tdi. AQSHning sobiq davlat kotibi Jorj Shuls quyidagi-cha fikr bildirdi:

«...Men Stenford universitetidagi Ilhom Aliyev so'zga chiqqan konferensiyada ishtirok etish sharafiga muyassar bo'ldim. Uning jahonda yuz berayotgan hodisalarga oid teran siyosiy tahlili hammamizni maftun etdi».

Ayrim rasmiy tashriflar, ayniqsa, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlarga qilingan tashriflar davomida Haydar Aliyev o'z delegatsiyasi tarkibiga ORDNKning birinchi vitse-prezidentini ham kiritib borgan. Ilhom Haydarovich davlat va hukumat rahbarlari bilan o'tgan muzokaralarda ishtirok etdi, buyuk siyosat-chining muloqot usulini kuzatib bordi, qiyosladi, tahlil qildi, mulohaza bildirdi, baho berdi. Xalqaro huquq sohasida muqaddam egallagan puxta nazariy bilimlarini amaliyotga shu tariqa tatbiq etib, muzokara olib borishning biron-bir universitetda o'rgatilmaydigan o'z uslubini shakllantirib, takomillashtirdi.

2001-yili Ozarbayjon Yevropa kengashiga a'zo bo'lib, Ilhom Aliyev Yevropa kengashining Parlament assambleyasidagi (YKPA) Ozarbayjon delegatsiyasi rahbari sifatida tasdiqlangach, yosh Aliyev mustaqil siyosiy shaxsiga aylandi. Masalan, 2003-yili u Fransiya prezidenti Jak

Shirakning qabulida bo'lib, Fransiya va Ozarbayjon o'rta sidagi ikki tomonlama hamkorlikdan tortib, Tog'li Qorabog' mojarosini hal etishgacha bo'lgan masalalar ning keng ko'lami borasida o'zaro fikr almashdi. Binobarin, Ilhom Aliyev katta siyosat olamida hammaga tanish siyosiy shaxsga aylanib ulgurgan va 2000-yillar boshida Haydar Aliyevning vorisi sifatidagi joiz nomzodi G'arbda ham, MDHga a'zo davlatlar orasida ham birovning shub-hali istehzosiga sabab bo'limgan.

Haydar Aliyev hokimiyat tepasida turgan davrda yurtimizdagi muxolifatning o'z g'arazli manfaatlarini ilgari surgan, Ozarbayjonda «inson huquqlari ommaviy ravishda poymol qilinayotgani», «demokratiya bo'g'ilayotgani» haqida xalqaro jamoatchilik orasida tinimsiz jar solib, xorij yurtarda respublikamiz g'anmlarining safini ko'paytirish bilan shug'ullangan aksariyat yetakchilaridan farqli o'laroq, Ilhom Aliyev hatto eng ashaddiy g'anim-u badxohlarini ham Vatanimiz do'stlariga aylantirishni afzal ko'rdi. Ochiqko'ngillik, chiqishimlik, diplomatiya asoslari dan voqiflik, ingliz va fransuz tillarida sof so'zlasha bilish Ilhom Aliyevga jahonning nufuzli davlatlariga mansub ishbilarmonlar va moliyachilar orasida shaxsiy aloqalar, do'stona munosabatlar o'rnatish imkonini berdi (ta'kidlab o'tmoq joizki, ishbilarmon sherik bilan tarjimon-siz, shaxsan fikr almasha bilish qobiliyati G'arbda ham, Sharqda ham qadrlanadi). Natijada, bunday aloqalar-u munosabatlar milliy iqtisodiyotimizning turli sohalariga investitsiyalar oqimi kirib kelishiga omil bo'ldi.

Ingliz va fransuz tillari masalasida. Bokuga tez-tez ke-lib turadigan ko'p tilli jurnalistlarning ko'p sonli armiyasi

bilan Ilhom Aliyevning tarjimonsiz, erkin muloqot qilishi-ni kuzatar ekanman, ona yurtimdan faxrlanib boraman.

Ilhom Aliyev hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki yillarda muxolifatning matbuoti-yu yetakchilari bu borada ham quyidagicha kinoya qilgan edi: ko'rmaganning ko'r-gani qursin, nima emish – Ilhom Aliyev ingliz tilida yaxshi gapirar emish. Yurtimizda ingliz, fransuz yoki boshqa chet tillarni binoyidek biladigan odamlar kam ekanmi? Buning nimasi bilan faxrlanish kerak ekan? Ushbu masalada ta'kidlab o'tish mumkinki, yurtimizda til biladigan odam soni chindan ham ko'p bo'lishi mumkin, ammo ona zaminimizni chet elda «ularning» tilida o'z ona tilida gapirganday munosib ifoda eta biladigan siyosatchilarimizni hamon birma-bir sanab o'tishimiz mumkin. Qolaversa, yana bir savol tug'iladi: modomiki, chet tilini o'rganish shunchalik oson ekan, nega unda ko'p yillardan buyon davlat boshqarish tashvishidan xoli, bekorchi vaqtি ko'p bo'lgan muxolifat yetakchilari o'z ustida ishlab, chet tillardan birortasini bo'lsin, o'zlashtirmaydi? Axir til bilishlari ularning xorij safarlarida asqatib, G'arbda obro'lari sal bo'lsa ham oshib-netib qolar edi-ku! Binobarin, muxolifatga mansub OAVning kinoyalari rus masalchisi Krilovning qalamiga mansub masallardan biridagi «Uzum hali xom ekan!» degan iborani esga soladi.

Ilhom Aliyevning til bilish iste'dodiga doir so'nggi kuzatuvlardan bir juft lavha keltirib o'taman. 2011-yil 10-oktyabrdagi Boku xalqaro gumanitar forumining 600 nafar ishtirokchisi prezidentimiz o'z nutqini o'zi tarjima qilgan holda ozarbayjon, rus va ingliz tillarida nutq so'zlaganiga shohid bo'ldi. Ta'kidlab o'tmoq joizki, bu bir tildan boshqa tilga shunchaki tarjima emas, tegishli

tilga xos bo'lib, nisbutan tabiiy yangraydigan iboralarни mohirona qo'llay bilish namunasi bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda, bu kishining turli-tuman til muhitlari bilan uziy bog'liqligiga oid ajoyib bir misol bo'lib, muayyan tilni mukammal o'zlashtirishni xohlagan har qanday kishi aynan shunday bilimni orzu qilishi mumkin. Yana bir o'xshash lavhani ITAR – TASSning birlinchi o'rinnbosari Mixail Gusman «Boku» jurnaliga bergen intervusida quyidagicha eslab o'tdi: ««Hokimiyat formulasi» («Формула власти») dasturini suratga olish jarayonida ko'rsatuv qahramonlari – davlat rahbarlari bilan uchrashar ekanman, ixtiyorimda, odatda, o'sha qahramonlar bilan telekamerasiz muloqot qilishga ham vaqtim bo'lgan (o'n bir yillik faoliyatim davomida unday qahramonlarning soni kam deganda ikki yuz nafarcha bo'lgan). AQSH prezidenti Barak Obama, aftidan, qayerdan ekanligimni bilib, hali Illinois shtatidan saylangan senatorlik davrida Bokuga qilgan tashrifи haqida iliq so'zlar ila aytib bergen edi. Ozarbayjon prezidenti bilan o'shanda o'tgan uchrashuvini eslar ekan, Ilhom Aliyev haqida: «U juda aqlli va kuchli yetakchi» degan edi. Birozdan so'ng, qo'shimcha qildi: «Ingliz tilida sof gapiradi». Mixail Gusmannning fikricha, rus va ingliz tillarida xuddi ozarbayjon tilini bilgan kabi sof gapirish – Ozarbayjon prezidentining o'ziga xos ish uslubi sanaladi.

* * *

Yangi hokimiyatga Elchibey hukumatidan holsizланган, qochoqlar va jinoyatchi tuzilmalarga to'lib-toshgan respublika, uning boshdan-oyovq izdan chiqqan ijro hokimiyati, iqtisodiy vayrongarchilik, siyosiy beqarorlik,

Armanistonning qurolli tuzilmalari tomonidan bosib olingan Tog'li Qorabog' va unga tutash tumanlar meroq qolgan.

O'shanda Ozarbayjonning jahon hamjamiyatida siyosiy-iqtisodiy jihatdan integratsiyasi nihoyatda past darajaga tushib ketgan edi. Shuni unutmaslik lozimki, ortida kuchli xorij diasporasi bo'lgan Armaniston va Berlin devorini «buzgan»lardan biri bo'lgani uchun G'arb muhabbatini qozongan Eduard Shevardnadze rahbarligidagi xristianlar Gruziyasidan farqli o'laroq, Ozarbayjon Yevropaga yaqinlashish jarayonini noldan, ba'zi masalalarda esa hatto salbiy baza bilan boshladi. Yurtimiz jahonda siyosiy jihatdan beqaror davlat, aholisining aksariyati musulmonlardan iborat, hokimiyati davlat to'ntarishi orqali tez-tez o'zgarib boradigan, muhimi, Tog'li Qorabog' atrofidagi mojarro cho'zilib ketgan o'ziga xos «ebanan yetishtirish» respublikasi sifatida e'tirof etildi.

1991 – 1993-yillarda Yevropa va butun G'arb jamoatchiligi armanlarga ochiqdan-ochiq xayrixohlik qilgan. Bundan dalolat beradigan hujjatlaridan biri sifatida 1992-yil 5-fevral kuni YKPAga a'zo bo'lmagan Yevropa davlatlari bilan aloqalar qo'mitasining Tog'li Qorabogqa doir deklaratasiyani misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu hujjatda genotsid xavfi haqida gap borib, ozchilikni tashkil etgan millat vakillarining huquqiy muhofazasi, qonun ustuvorligi, xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgi-

*Yevropa
kengashining
ushbu ikkita hujjati
o'rtasida ulkan
masofa bo'lib,
u Ozarbayjon
Respublikasi
tomonidan atigi
bir necha yil ichida
bosib o'tilgan yo'lni
go'yo ko'zguda
aks ettirganday
ko'rsatdi.*

lash huquqi kabi tamoyillarga amal qilgan holda tinchlik o'rnatish muzokaralarini boshlash borasida tomonlarga qaratilgan da'vat bo'lgan. Biroq hujjatda Ozarbayjonning hududiy yaxlitligiga oid tamoyil haqida biron og'iz so'z aytilmagan, armanilarning Tog'li Qorabooqqa BMT kuchlarini kiritish haqidagi talabi ma'qul topilgan.

Birinchi bo'lib qabul qilingan ushbu deklaratsiya bilan YKPAning Kavkazorti mintaqasidagi mojarolariga bag'ishlangan XI sessiyasida imzolangan 1997-yil 22-apreldagi 1119-sonli rezolyutsiyasi o'rtasida hayron qoldiradigan darajada farq mavjud. Rezolyutsianing tavsiyalar qismida Tog'li Qorabog' va Abxaziya mojarolaringin siyosiy yechimi asoslanishi lozim bo'lgan tamoyillar sanab o'tilgan. Xususan, «chegaralar daxlsizligi, mojaro hududidagi jamiki aholining xavfsizlik kafolati, Abxaziya va Tog'li Qorabooqqa beriladigan keng muxtoriyat maqomi, qochoqlar va ko'chirilganlarning qaytish huquqi va ularning inson huquqlariga rioya qilingan holda reintegratsiyasi» tamoyillari ko'rsatilgan. Ko'rinish turibdiki, YKPA e'lon qilgan ushbu tamoyillar Yevropa-da xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YXHT) 1996-yili Lissabon sammitida qabul qilingan tamoyillar bilan mazmunan mos keldi. Yevropa kengashining Strasburgda o'tgan ikkinchi sammitida so'zga chiqqan Ozarbayjon prezidenti Haydar Aliyev ushbu rezolyutsiyaga yuksak baho berar ekan, «Qorabog' mojarosini hal etish uchun yaxshi asos» bo'lganini ta'kidlab o'tdi.

Yevropa kengashining ushbu ikkita hujjati o'rtasida ulkan masofa bo'lib, u Ozarbayjon Respublikasi tomonidan atigi bir necha yil ichida bosib o'tilgan yo'lni, xususan: jamoat tartibi va barqarorlik mustahkamlanganligi,

yirik miqyosli siyosiy va iqtisodiy islohotlarning boshlanishi, jahonning deyarli barcha yetakchi davlatlari jalb etilgan neft shartnomalarining imzolanishi, muhimi - barcha xalqaro tuzilmalarga integratsiyalashish bo'yicha Ozarbayjon diplomatiyasi tomonidan olib borilayotgan uzlucksiz ishni go'yo ko'zguda aks ettirganday ko'rsatdi.

Ozarbayjon oldida turgan ustuvor vazifalardan biri – Yevropa kengashiga a'zo bo'lish edi.

Ma'lumot uchun:

Yevropa kengashi – qit'adagi eng keksa, ya'ni 1949-yil 5-may kuni ta'sis etilgan hukumatlararo siyosiy tashkilot. YKga asos solingan kuni unga 10 ta muassis-davlat a'zo bo'lgan.

Yevropa kengashi Yevropa hamjamiyatiga taalluqli barcha muhim masalalarni, mudofaa masalalaridan tashqari, ko'rib chiqadi. Bir vaqtlar Yevropa davlatlarining yetakchilari ushbu tashkilotni inson huquqlari va parlament demokratiyasini himoya qilish, o'z yurtlarida qonun ustuvorligini ta'minlash uchun tuzishgan. Yevropa kengashi tomonidan ko'zlangan maqsad, shuningdek, a'zo davlatlarning parlamentlari ratifikasiya qilganidan keyin qonuniy kuchiga kiradigan Yevropa konvensiyalari, shartnomalari, bitimlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Yevropa kengashi 1989-yildan e'tiboran sobiq kommunistik lagerga kirgan Yevropa davlatlariga siyosiy, huquqiy, konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazish, ularga demokratik institutlarini rivojlantirish masalasida yordam berish ishlarini o'z strategiyasi sifatida e'tirof etdi.

YKning qarorgohi Fransiyaning Strasburg shahrida joylashgan bo'lib, uning asosiy organlari Vazirlar qo'mitasi, Parlament assambleyasi, Yevropaning mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlari kongressi, Bosh kotibiyat hisoblanadi. Yevropa kengashi a'zo davlatlar hokimiyatlari tomonidan ulardagi aholi soni va manbalar miqdoriga mutanosib ravishda moliyalashtiriladi.

Yevropa kengashining eng muhim yutuqlaridan biri Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi hisoblanadi. Ushbu jiddiy xalqaro shartnoma 1953-yili kuchga kirgan bo'lib, unga qo'shilish Yevropa kengashiga teng huquqli a'zo bo'lishning majburiy sharti sanaladi. Konvensiya mazmunan inson huquqiga amal qilinayotgani ustidan nazorat yuritish va ushbu huquqni himoya qilishning aniq mexanizmidan iborat. Bunday mexanizm vositasida davlatlar, muayyan vaziyatda esa – alohida shaxslar Strasburgdagi inson huquqini himoya qilish bo'yicha tegishli institutlarga murojaat qilishlari mumkin. Alohida shaxslardan kelib tushgan shikoyatlar dastavval Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Yakuniy qaror chiqarish uchun ish Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga oshirilishi mumkin. Bu suding qarori tegishli davlat uchun majburiy kuchga ega bo'ladi. Sud qarorining ijrosi ustidan nazorat mas'uliyati Vazirlar kengashining zimmasiga yuklangan.

Ozarbayjonning Yevropa kengashi bilan yaqinlashishi Armaniston-Ozarbayjon mojarosi hududida o't ochishning to'xtatilishi kuchli omil bo'ldi.

Barcha nizoli muammolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyiliga sodiqlik Yevropa davlatlari bilan YK

o'rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning asosiy shartlaridan biridir. 1994 – 2000-yillar davomida Ozarbayjonga Yevropa kengashi delegatsiyalari, YKPA vakillari bir necha bor tashrif buyurib, yurt rahbariyati, Milliy Majlis a'zolari, hukumati, siyosiy partiya va muxolifat yetakchilari bilan uchrashish imkoniga ega bo'lishgan. Bunday uchrashuvlar yakuniga ko'ra Yevropa kengashi bilan Ozarbayjon o'rtasidagi yakka tartibdagi keng qamrovli hamkorlik dasturi tuzilgan.

Ana shularga parallel ravishda Yevropa Ittifoqi ekspertlari ozarbayjonlik hamkasblari bilan hamkorlikda Yevropa konvensiyasi va bitimlariga muvofiq keladigan qator milliy qonunlarni ishlab chiqish borasida ish olib borishdi. Shu bilan bir vaqtida YK ekspertlari ozarbayjonlik hamkasblarga bir qator milliy qonunlarimizni Yevropa konvensiyalari va bitimlariga mazmunan muvofiqlashtirish masalasida yordam ko'rsatishgan.

1996-yilning iyun oyida Ozarbayjonga «atayin taklif qilingan» maqomi berildi, 1997-yilning oktyabr oyida esa Haydar Aliyev Yevropa kengashiga a'zo davlatlarining ikkinchi oliy darajadagi davlat va hukumat rahbarlari uchrashuvida ishtirot etgan.

Haydar Aliyevning Strasburg safaridan so'ng, Ozarbayjonning Yevropa hamjamiyatiga integratsiyasi muqarrarligi ayon bo'ldi. Sammit minbariga chiqqan prezident yurtimiz Yevropa kengashining yuksak standartlariga mos kelishi uchun barcha zaruriy choralar ko'rinishini va'da qildi. Ozarbayjon inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasiga qo'shilishga, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining yurisdiksiysi maj-

buriyligini e'tirof etishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

2001-yil 25-yanvar kuni Yevropa kengashining qarorgohi oldidagi maxsus maydonda Ozarbayjonning davlat bayrog'i ko'tarilib, respublikamiz Yevropaning ushbu nufuzli tashkilotiga 43-a'zo sifatida qabul qilindi. Haydar Aliyev shu kuni YKPA sessiyasida keng qamrovli, yorqin nutq o'qib, endi Janubiy Kavkaz mintaqasi butunicha Yevropa kengashiga a'zo bo'lgani, mintqa davlatlari o'rtasidagi mojarolarni tinch yo'lga solish, munosabatlarni me'yoriy holatga keltirish, Janubiy Kavkaz va umuman Yevropa xavfsizligi mustahkamlanishiga muhim omil bo'l shiga umid bog'laganini ma'lum qildi.

2003-yilning

yanvarida Ilhom

*Aliyev Yevropa
kengashi raisining
o'rinnbosari, YKPA
byurosining a'zosi
etib saylandi.*

2001 – 2003-yillarda Yevropa kengashidagi Ozarbayjon parlamenti delegatsiyasini Milliy Majlis deputati, ORDNKning birinchi vitse-prezidenti Ilhom Aliyev boshqardi. 2003-yilning yanvarida Ilhom Aliyev Yevropa kengashi raisining o'rinnbosari, YKPA byurosining a'zosi etib saylandi. YKPA-da uning rahbarligi ostida ish olib borgan Ozarbayjon parlament delegatsiyasi eng ahil va faol delegatsiyalaridan biri bo'lib, turli siyosiy kuchlarga mansub a'zolari umummilliy manfaatlar yo'lida amaliy hamkorlikka tayyor ekanliklarini namoyish etib borishdi.

Ozarbayjon delegatsiyasi rahbarining YKPA sessiyalaridagi mantiqan to'g'ri, fikr tarozisidan o'tkazilgan, har tomonlama asoslangan nutqlari, masalan, siyosiy mahbuslarga doir chiqishlari ko'pchilikning xotirasida saqlanib qolgan. Belgiyalik deputat Jorj Klerfayd

2003-yilning iyun oyida YKPAga Ozarbayjondagi siyosiy mahbuslar deb atalmish toifa haqida ma'lumotlar taqdim etdi. Byuro yig'ilishida, Siyosiy qo'mita yig'ilishida, nihoyat, YKPAning yalpi majlisida so'zga chiqqan Ilhom Aliyev, o'sha ma'lumotlarda keltirilgan asosiy farazlarining barini faktlar asosida bandma-band yo'qqa chiqarib, birinchidan, ular quruq gapdan o'zga narsa emasligini, ikkinchidan, atayin bichib-to'qilgan, munofiq standartlarga asoslanganini isbotlab berdi. Ilhom Aliyev o'z dalillari ila yevropalik parlamentariylarni ishontira oldi. Natijada mazmunan hissiyotlardan iborat o'sha xom hujjat qayta ko'rib chiqilib, yanada puxta ishlab chiqilishi uchun qo'mitaga qaytarildi. Oxir-pirovardida esa Ozarbayjon delegatsiyasi tomonidan taqdim etilgan muhim tuzatishlarning bari qabul qilindi.

Darvoqe, Ozarbayjon delegatsiyasi YKPAning teng huquqli a'zosi sifatida ishtirok etgan dastlabki sessiyalardan birida, xususan, 2001-yil 24-sentyabr kuni o'tkazilgan sessiyada muhim hujjat – «Armaniston tomonidan Ozarbayjonning hududiy yaxlitligi e'tirof etilishi to'g'risida»gi hujjat qabul qilindi. Armaniston qurolli tuzilmalari tomonidan bosib olingan yerlar zo'ravonlik yo'li bilan qo'lga kiritilgani, binobarin, bu yerlar hech qachon bosqinchining tasarrufiga o'tishi mumkin emasligi va hech qachon mustaqil deb tan olinmasligi ushbu hujjatning asosiy mazmuni bo'ldi. Millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga oid Armaniston delegatsiyasi olabo'jini ko'rsatganday pesh qilayotgan tamoyilga kelsak, ta'kidlab o'tmoq joizki, arman xalqi mustaqil Armaniston Respublikasini (darvoqe, Ozarbayjon zaminda) barpo etib, o'z taqdirini o'zi hal etib bo'ldi. Maz-

kur hujjat kelajak uchun asqatadigan yaxshigina poydevor bo'ldi. Ilhom Aliyevning prezidentlik davridayoq, Ozarbayjon Yevropa kengashiga qabul qilingan kundan atigi to'rt yil o'tgach, ya'ni 2005-yil yanvar oyida delegatsiyamiz katta muvaffaqiyatga – Tog'li Qorabog' mojarosiga doir **YKPAning 1416-sonli rezolyutsiyasi** qabul qilinishiga erishdi. Ushbu rezolyutsiyaning dastlabki bandlarida shunday deyiladi:

«1. Harbiy harakatlar boshlanib, oradan o'n yildan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, Tog'li Qorabog' mintaqasidagi mojaro barham topmagani uchun Parlament Assambleyasi juda afsusda. Yuz minglab odamlar hamon ko'chirilganlar holatida bo'lib, juda yomon sharoitda yashab kelishmoqda. Ozarbayjon hududining yirik qismi hamon arman kuchlari istilosida qolgan bo'lib, Tog'li Qorabog' mintaqasi hanuzgacha separat kuchlar nazorda qolib kelmoqda (o'zimiz ajratib ko'rsatdik – E. A.).

2. Assambleya harbiy harakatlar va ulardan oldin keng tus olgan etnik adovat faktlari odamlarning etnik mansubligiga ko'ra ommaviy ravishda quvg'in qilinishi, monoetnik hududlar yuzaga kelishiga olib kelgani, etnik tozalovning dahshatli konsepsiyalari beixtiyor yodga olinishi borasida o'z tashvishini izhor etadi. Assambleya muayyan mintaqaviy hududning mustaqilligi va davlat tarkibidan chiqishi etnik mansublikka ko'ra quvg'in qilinib, ushbu hudud boshqa davlat tomonidan amalda anneksiya qilinishiga olib keladigan qurolli mojaro oqibatida emas, balki zamirida ushbu hudud aholisining demokratik qo'llab-quvvatlashi yotadigan qonuniy va tinch jarayonlar natijasidagina joiz ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Assambleya YKga a'zo har qanday davlat

tomonidan xorijiy hududning istilo qilinishi, ushbu a'zo davlat tomonidan a'zolik majburiyatlari qo'pol ravishda buzilishiga olib kelishini yana bir bor bayonot qiladi va mojaro hududidan ko'chirilgan shaxslarning o'z uylari-ga xavfsiz vaadolatli qaytish huquqini yana bir bor tasdiqlaydi.

3. Assambleya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavf-sizlik Kengashining 822- (1993), 853- (1993), 874- (1993), 884- (1993) rezolyutsiyalariga asoslanib, tomonlarni ushbu rezolyutsiyalarga amal qilishga, jumladan, har qanday adovatli harakatlardan tiyilishga, bosib olingan hududlardan Qurolli kuchlarni chiqarishga da'vat etadi. Assambleya, shuningdek, BMT XKning 853- (1993) sonli rezolyutsiyasida bayon etilgan talablarga qo'shib, tegishincha, YKga a'zo davlatlarning barini mojaroning keng tus olishi yoki hududlar istilosi davom etishiga olib keladigan har qanday turdag'i qurol-yarog' va harbiy anjomlar yetkazib berishdan tiyilishga qat'iy da'vat etadi».

Tabiiyki, bu,adolat tantanasi, Ilhom Aliyev YKPAga a'zolikning uch yili ichida qozongan obro'-e'tiborning zohiriyl isboti bo'ldi. Parlament Assambleyasi ishida faol ishtirok etgani va Yevropa ideallariga sadoqati uchun Ilhom Aliyev 2004-yilning aprel oyida YKPAning faxriy diplomi va medali bilan taqdirlandi.

Ushbu mukofotlarni topshirar ekan, YKPA raisi Piter Shider quyidagicha fikr bildirdi:

*Parlament
Assambleyasi
ishida faol ishtirok
etgani va Yevropa
ideallariga
sadoqati uchun
Ilhom Aliyev
2004-yilning aprel
oyida YKPAning
faxriy diplomi
va medali bilan
taqdirlandi.*

«Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev yana biz bilan ekanligini ko'rib, quvonch tuyg'usini his etmoqdamiz. Biz uni eng faol deputat, eng faol delegatsiya rahbari va YKPAning eng faol rahbarlaridan biri bo'lgani uchun, endilikda esa eng faol davlat rahbari bo'lgani uchun qadr laymiz».

* * *

Ilhom Aliyevning Ozarbayjon neft strategiyasi rivojiga hamda respublika manfaatlarini tashqi siyosat maydonida ilgari surish ishlariga qo'shgan ulkan hissasini inkor etmagan holda, jur'at etib aytamanki, bir sohada u haqiqiy inqilob qildi. Men Ilhom Aliyevning 1997-yil iyul oxiridan buyon rahbarlik qilayotgan Milliy olimpiya qo'mitasidagi prezidentlik faoliyatini nazarda tutmoqdamman. Uning tashabbusi bilan yurtimizda, deyarli tekis joyda butun boshli sport infratuzilmasi – sport maktablari, klublari, bazalari barpo etildi, Ozarbayjonda azaldan kuchli rivojlangan sport turlari bo'yicha milliy jamoalar tuzildi. XX asrning 90-yillari oxirida Milliy olimpiya qo'mitasi Ozarbayjon mustaqil davlat sifatida xalqaro sport musobaqalarini yuksak darajada o'tkazishga qodir ekanligini isbotlash uchun yurtimizning sport sohasidagi xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan maqsadli ishlarni amalga oshira boshladi. Bu, birinchi navbatda, xalqaro munosabatlarni kuchaytirish, xalqaro miqyosdagi birinchilik va turnirlar uyushtirilishini taqozo etar edi. Ozarbayjonda biron-bir nufuzli xalqaro musobaqa o'tkazishning iloji yo'q degan quruq gaplariga 2000-yillar boshidayoq barham berildi. Qisqa muddat ichida Bokuda O'spirinlar o'rtaida boks bo'yicha IV

Yevropa championati (1999), O'spirinlar o'rtasida boks bo'yicha I jahon championati (2001), Bodibilding bo'yicha Yevropa championati (2001), Yevropa jamoalari kubogi – Final (2002), Erkin kurash bo'yicha 45-Yevropa championati (2002), Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (2002), Shaxmat bo'yicha Yevropa yoshlar championati (2002) va shu kabi xalqaro sport tadbirlari o'tkazildi.

2000-yili Ozarbayjon Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi yurtimizda Olimpiya harakatini rivojlantirish sohasidagi ishlar ko'lamin kengaytirib, ushbu harakatni yangi, sifat jihatdan yanada yuksak darajaga ko'tardi. Natijada atigi bir necha yil ichida xalqaro olimpiya tashkilotlari bilan integratsiya va hamkorlik borasida keskin yuksalish yuz berdi. Yevropa olimpiya qo'mitasining XXIX Bosh assambleyasi Varshavada 2000-yil 16 – 19-noyabr kunlari bo'lib o'tdi. Ushbu assambleyada yurtimiz delegatsiyasi ham, MOK prezidenti Ilhom Aliyev boshchiligidagi ishtirok etdi. Yevropa olimpiya qo'mitasining rahbari Jak Rogge o'tgan davrda amalga oshirilgan ishlar haqida so'zlar ekan, Olimpiya harakatida faol pozitsiyaga ega davlatlar jumlasiga Ozarbayjon Respublikasi ham kirishini ta'kidlab o'tdi. Ozarbayjonlik sportchilarning Sidney o'yinlarida qo'lga kiritgan ulkan yutuqlari respublikamizda Olimpiya harakati va sportga nisbatan katta g'amxo'rlik ko'rsatilayotganining amaliy natijasi ekanini qayd etdi. Jak Rogge Ozarbayjon

*...jur'at etib
aytamanki,
bir sohada u
haqiqiy inqilob
qildi. Men Ilhom
Aliyevning 1997-
yil iyul oxiridan
buyon rahbarlik
qilayotgan
Milliy olimpiya
qo'mitasidagi
prezidentlik
faoliyatini nazarda
tutmoqdaman.*

Milliy olimpiya qo'mitasining yangi olimpiya majmualarini qurib, foydalanishga topshirish, sportchilarning ijtimoiy muammolarini hal etishga e'tiborni kuchaytirish, sportni ommalashtirish borasida amalga oshirgan ishlarini alohida ta'kidlab o'tdi.

*Ilhom Aliyev
Ozarbayjonda
ommaviy sportni
qaytdan
vujudga keltirdi.*

Ilhom Aliyev MOK rahbarligiga kelishi hamono, Qo'mita faoliyatidagi ijobjiy natijalar o'z samarasini bera boshladi. Jumladan, 1998-yildan e'tiboran Ozarbayjon sportchilari xalqaro musobaqalarda yanada muvaffaqiyatli ishtirok eta boshlashdi. Olimpiada dasturlariga kirmagan sport turlari bo'yicha ham medallar soni oshib bordi. 2002-yil yakuniga ko'ra Ozarbayjon sportchilari qit'a va jahon miqyosida o'tkazilgan championatlarda, nufuzli xalqaro turnirlarda qo'lga kiritgan medallar soni 175 taga, jumladan, oltin medallar 53 taga, kumush medallar soni 45 taga, bronza medallari esa 77 taga yetdi. Yurtimiz bunday yutuqni hali ko'rмаган edi. Bu hali Ozarbayjon sportining xalqaro maydondag'i katta yo'llining boshlanishi edi, xolos!

2003-yil avgust oyida Bokuda Badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogining bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada 17 ta davlatdan kelgan gimnastikachilar ishtirok etdi. Ushbu musobaqada Ozarbayjon sportchisi Dinara Gimatova bitta kumush va ikkita bronza medall bilan taqdirlandi (keyingi yillarda Bokuda sportning ushbu turi bo'yicha bir necha marta Yevropa va jahon championatlari o'tkazildi). Avgust oyining o'zida poytaxtimizda yana bir xalqaro musobaqa tashkillashtirilib o'tkazildi. Yevropaning 30 ta davlatidan kelgan yosh

dzyudochilar mintaqaning kuchlilari safiga qo'shilish uchun kurash olib borishdi. Ushbu musobaqada yosh dzyudochilarimiz uchta oltin, uchta kumush va ikkita bronza medallarini qo'lga kiritib, Ozarbayjon jamoasi birinchi o'rinni egalladi. Bundan tashqari, respublikamizda ommaviy musobaqalar kompleksi o'tkazilishi an'anaga aylandi. Jumladan, 2004-yili IV Respublika o'spirinlari o'yinlari, o'rtalik maxsus va oliy o'quv yurtlari talabalari, alohida soha xodimlari o'rtasida respublika spartakiadalarini va olimpiiadalarini o'tkazildi. Bunday musobaqalarga respublikamizning shahar va tumanlaridan qariyb 300000 nafar sportchi ishtirok etdi!

Nazarimizda, Ilhom Aliyevning davlat prezidenti etib saylanishidan oldin Ozarbayjon MOK prezidenti sifatida erishgan yutuqlari ana shulardan iborat bo'lgan. Ilhom Aliyev Ozarbayjonda ommaviy sportni qaytadan vujudga keltirdi. Gap sportchilarimiz xalqaro musobaqalardan ko'proq oltin va kumush o'ljalar bilan qayta boshlashganida ham emas, garchi bu bizga juda yoqsa-da. Gap MOK prezidentining tuganmas g'ayrati va sa'y-harakati natijasida sport yurtemizda ommaviy hodisaga aylanganidadir. Ozarbayjon yoshlari, yigit-qizlari bugun bo'sh vaqtini ko'cha-ko'yda emas, sport zallari va majmualari da o'tkazishni afzal ko'radi. Bunday obyektlar faqat Bokuda emas, respublikamizning barcha tumanlarida qurilgan. Nashavandlik bilan emas, sport bilan shug'ullanish, araqxo'rlik qilish emas, sog'lom turmush kechirish yoshlarimiz orasida urchga aylangan. Ilhom Aliyev ushbu urf muallifi bo'lganini shaxsan men uning eng katta yutuqlaridan biri, deb bilaman. Yurt prezidenti saylangan kun – 2003-yil 15-oktyabr kunida aynan yoshlarimiz-

ning favqulodda faollik ko'rsatgani, saylov uchastkalari-
ga yoppasiga yopirilib kelgani bejiz bo'limgan.

Ushbu mavzu yakunida Xalqaro olimpiya harakati-
ning juda obro'li kishilaridan biri – XOQ vitse-prezidenti
(1990 – 1994 va 2001 – 2005-yillarda) **Vitaliy Smirnov-**
ning quyidagi fikrini keltirmay o'ta olmadim:

«Ilhom Aliyev o'z hamkasblari o'rtasida katta obro'
qozongan. Qurilgan barcha sport majmualari, ushbu in-
son, birinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'li-
gi uchun, ikkinchidan, Ozarbayjon sportiga bo'lgan hur-
matni tiklash uchun qayg'urayotganidan dalolat beradi.
Bularning bari Milliy olimpiya qo'mitasini, sportni, o'z
vatani va xalqini sevadigan kishi turganini anglatadi.

...Sport bazalari Ilhom Aliyevning sportchilar uchun
olimpiada, Yevropa va jahon championi bo'lib yeti-
shishlariga imkon beradigan tuhfasidir. Ularning har bir
g'alabasida, qo'lga kiritgan medalida Ilhom Aliyevning
sportga ko'rsatgan g'amxo'rliги aks etadi...»

Kelgusi boblarda Ozarbayjonning Ilhom Aliyev pre-
zidentlik qilgan davrda erishgan yutuqlari, sohaga oid
jamiki sa'y-harakatlar esa, hech bir mubolag'asiz aytish
mumkinki, ulkan sport hodisasiga – 2015-yili Bokuda
o'tkazilgan birinchi Yevropa o'yinlariga aylangani haqi-
da hikoya qilamiz.

Sport va Olimpiya harakatini rivojlantirishga qo'sh-
gan ulkan hissasi uchun Ilhom Aliyev Xalqaro olimpiya
qo'mitasining oliy ordeni bilan mukofotlangani juda
adolatli ish bo'lgan.

2003-YILNING QIZG'IN KUZI...

19 87-yilning may oyida og'ir infarktni boshdan kechirib, sog'lig'ini tiklab olgan Haydar Aliyev rosa 12 yil o'zini ayamay ishladi.

Haydar Aliyev 70 yoshida mustaqil Ozarbayjoni boshqarishga kirishdi. Bu ishni u qanaqangi favquloda vaziyatda qanday boshlaganini eslatib o'tishga hojat yo'qdir, ehtimol. 1993-yilning iyun oyida Bokuga qo'nigan samolyot trapidan mutlaqo sog'lom, baquvvat, g'animlari ham yetmish yosh bermaydigan kishi tushdi. Ishonch-la aytamanki, tabiatidagi genlar-u, kechirgan sog'lom turmush tarzi bilan u hali ko'p yillar sog'lik borasida muammo bilmay yashashi mumkin edi. Ammo umum davlat miqqosidagi muammolarni hal etishga ulgurishi uchun tarix ajratgan muddatdan samarali foydalaniib qolish maqsadida Haydar Aliyev o'zini-o'zi oddiy inson dosh bera olmaydigan ishga ko'mib, zimmasiga og'ir yuklama oldi. Prezidentning xorij safarlarini qariyb o'n yil kuzatar ekanman, uning hayratomuz ishchanligini ko'rib, yoqamni ushlar edim. Tushlikka tanaf-fus, yoshini o'ylab ish tutish kabi tushunchalardan yiroq edi u. Faqat ish, ish va yana ish! Ko'proq uchrashuv va muzokaralar o'tkazish, imkon qadar ko'proq shartnomaga va bitimlar imzolashni o'ylar, bularning bari jonajon Ozarbayjonining kelgusi farovonligi uchun xizmat qil-

lishiga umid bog'lar edi. Haydar Aliyev nafaqat xorijda, respublika hududida ham ana shunday fidoyilik ko'rsatar, uyqu va hordiqni, ba'zan dam olish kerakligini, mehnat ta'tiliga chiqishni unutib yuborar edi. Buni hamma, hatto Ozarbayjonning oddiy bir fuqarosi ham bilar edi.

...Ozarbayjon prezidentida aritmiya xuruji 1999-yil bahorida ilk bor ro'y bergani birinchi «qo'ng'iroq» bo'l-di. O'shanda Haydar Aliyev taxminan 20-aprelda NATO-ning yubiley sammitida ishtirok etish uchun Vashingtonga uchgan edi. U barcha uchrashuvlarni o'tkazdi, rejalashtirilgan barcha tadbirdarda ishtirok etdi. Shundan so'ng, unga Klivlenddagi (Ogayo shtati) kardiologiya klinikasida tibbiy tekshiruvdan o'tib olish taklif etildi. Koronarografiya natijalariga ko'ra, prezidentga ochiq yurakda aortokoronar shuntlash operatsiyasi tavsiya etildi. Yaqinlari bilan maslahatlashgan 76 yoshli prezident ushbu murakkab operatsiyaga rozilik berdi. Amerikalik jarroh Bryus Laytl 29-aprel kuni Haydar Aliyevni operatsiya qildi (ayrim OAV ushbu operatsiyani mashhur Maykl Debeyki qilganligi haqida yanglish xabar berdi). Operatsiya 5 soatdan ortiq davom etdi. Oradan 20 kun o'tgach Haydar Aliyev Londongacha uzoq parvoz qildi, bu yerdan u Sulaymon Demirelning taklifiga binoan O'rta dengiz sohilida dam olish uchun Turkiyaga yo'l oldi.

«Muvaffaqiyatli o'tgan operatsiyadan keyin afsuski u o'zini ham, yuragini ham ayamay, to'liq rejimli ishga sho'ng'ib ketdi, – eslaydi akademik Jamil Aliyev, – bu inson shunchaki ishlay bilmagan».

...Yana uzoq cho'ziladigan parvozlar, keti ko'rinxmas muzokaralar, davomli nutqlar... Bu hol 2003-yilning apreligacha, o'nglanmas holat yuz berguncha davom etdi.

Prezident o'zi bunyod etgan harbiy ta'lif muassasasi-da – Jamshid Naxchivan nomli harbiy bilim yurtining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda nutq o'qiyot-gan edi. Keling, yaxshisi, taniqli yozuvchi Chingiz Abdul-layevga so'z beraylik:

«Ozarbayjon prezidenti Haydar Aliyev 2003-yilning aprelida, keyinchalik uning nomi berilgan saroy minbariga chiqar ekan, bir necha so'z aytdi-yu, yuragi qattiq siqilgancha yiqildi. Parda ortiga olib o'tilgach, shifokorlar uni zudlik bilan evakuatsiya qilishni taklif etishdi. Bunday taklifni Haydar Aliyevni yaxshi bilmagan insongina kiritishi mumkin. Prezident ishtirokchilarning gul-duros qarsaklari ostida minbarga qaytdi. Qaytdi-yu, yana yiqildi. Bu safar endi u bir juft qovurg'asini ham sindirib oldi. Ko'z ochirmaydigan og'riqqa 80 yoshda, shunt qilingan xasta yurak bilan dosh berish! Tasavvur eta olasizmi? Agar shu holatida olib chiqib ketishlariga rozilik berganida u Haydar Aliyev bo'lmay qolar edi. Haqiqiy yetakchi, mard inson sifatida e'tirof etilgan-cha o'tgan umri mana shu holatga tushib yo'qqa chiqishiga yo'l qo'ya olmadi. Aytishlaricha, shifokor minbarga uchinchi marta chiqmasligini tiz cho'kkancha yolvorib so'rangan ekan. Bilmadim, balki bu chiroyli rivoyatdir, lekin qovurg'asi singan Haydar Aliyev kuchli og'riqqa dosh bergancha, hayrat-la kuzatib turgan minglab odamlarning ko'z o'ngida minbar tomon uchinchi bor yo'l oldi.

*...qovurg'asi singan
Haydar Aliyev
kuchli og'riqqa
dosh bergancha,
hayrat-la kuzatib
turgan minglab
odamlarning ko'z
o'ngida minbar
tomon uchinchi
bor yo'l oldi.
Boqiy hayot sari
qadam bosganini
u hali bilmash edi.*

Boqiy hayot sari qadam bosganini u hali bilmas edi. Uning so'nggi nutqi kechirgan hayotiga munosib afsonaga aylandi. Haydar Aliyevning siyosiy qarashlarini qabul qilishingiz yoki qabul qilmasligingiz, uning mafkura-viy maqsad-muddaolariga qo'shilmasligingiz mumkin, biroq o'sha kuni u uzoq umrining munosib xotimasiga aylangan hayratomuz jasorat ko'ssatganini rad etishga hech kim jur'at eta olmaydi».

«Bokulik yigitlar» quvnoqlar va zukkolar klubini jamoasi sardori **Anar Mamedxanovning** juda o'rini ta'biri ila aytganda, o'sha kuni Haydar Aliyev nafaqat og'riq dahshatiga, balki ajal azobiga ham bardosh berdi.

Keyinchalik, Ilhom Aliyev o'sha fojiali hodisa haqidagi fikr yuritib, o'shanda otasining yonida bo'limgani uchun o'zini yuzinchi marta koyib, jurnalistlarga shunday degan edi:

«...Avvaliga men, agar o'sha yerda birga bo'lganimda, otam minbarga ikkinchi, uchinchi marta qaytishiga yo'l qo'yagan bo'lar edim, degan fikrda edim. Keyin o'ylab qarasam, behuda uringan bo'lar ekanman, chunki Haydar Aliyev o'shanda haq bo'lgan. U kursantlar, ofiserlar oldida so'zga chiqishi, Oliy Bosh qo'mondon sifatida nutq o'qishi kerak bo'lgan va nima qilganda ham, u, albatta, minbarga chiqqan bo'lar edi...»

Og'ir sinov davri boshlandi. Haydar Aliyev va uning oilasi uchun, o'sha kunlari haqiqiy shok holatiga tushib, tashvish va xavotirdan dong qotgan jamiki yurt uchun og'ir damlar boshlandi...

* * *

2003-yil 23-iyun kuni «Yangi Ozarbayjon» partiyasining siyosiy kengashi Haydar Aliyevni respublika prezidentligiga nomzod sifatida ko'rsatdi. Saylov 15-oktyabrga belgilangan edi.

Oradan bir necha kun o'tib, ya'ni 2003-yil 28-iyun kuni Naxchivandagi tashabbuskor guruh Ilhom Aliyevni prezidentlikka nomzod sifatida ko'rsatdi. Markaziy saylov komissiyasi har ikkala nomzodni – ota bilan o'g'ilni ro'yxatdan o'tkazdi. Paradoksal, misli ko'rilmagan holat yuzaga kelib, buni Ilhom Aliyev haqida yozgan kitobida yozuvchilar V. Andriyanov bilan G. Miralamov quyidagicha tavsiflashadi: «2003-yildagi saylov oldida yuzaga kelgan ahvolning qanchalar qiyin bo'lganini fikr tarozi-sidan o'tkazar ekansan, o'shanda ikkita o'ta jiddiy variant hisobga olinganiga doir xulosa chiqarasan. Birinchi variantda Haydar Aliyev sog'ayib, davlatga rahbarlik missiyasini ado etish qobiliyatini saqlab qolishi va tabiiyki, o'g'li Ilhom Aliyev o'z nomzodini ro'yxatdan chiqarishi ko'zda tutilgan. Ikkinci variantda o'g'il sifatida ayriliq dog'ini xayoliga keltirishi qiyin bo'lsa-da, Ilhom Haydarovich prezidentlik uchun kurashni endi otasiz, uning ideallari uchun, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun davom etishi ko'zda tutilgan. Psixologik jihatdan naqadar murakkab, his-tuyg'u jihatidan o'ta zid vaziyat yuzaga kelganini ko'ring...»

O'sha kunlari prezidentning sog'lig'i haqida juda poyma-poy gaplar yurdi. Haydar Aliyev Turkiyadagi «Gulxona» gospitalidan Klivlenddagi, to'rt yil muqaddam murakkab operatsiya qilingan kardiologiya klinikasiga o'tkazilgani ishonchli ma'lumot bo'lgan, xolos.

Prezident uchun, umuman yurtimiz uchun o'ta og'ir bo'lgan o'sha davrda muxolifatga mansub matbuot o'zini munosib tuta olmadi. Buni mening suhbatdoshim, Milliy Majlisning o'sha davridagi deputati **Anar Mamedxanov** quyidagicha esladi: «Ular (muxolifat – E. A.) shunday bir insonga, buyuk bir shaxsga nisbatan, o'zlarini, u kasal bo'lib yotib qolgan paytda qanday ablahona tutishganini bilasizmi?! Yo'q, ularning qilmishlarini kechirib bo'lmaydi. Ilhom Aliyev siyosatchi, davlat arbobi, albatta. Lekin u ham, nazarimda, anavilarning nomardligini hech qachon kechira olmaydi. Men ham ularni hech qachon kechirmayman».

Taqdir paradoksi: aynan Haydar Aliyev davrida om-maviy axborot vositalaridagi senzurani bekor qilish to'g'risidagi qonun qabul qilingan edi. Aynan Ozarbayjon prezidenti muxolifat jurnalistlarini ko'p millionli sud da'volaridan asragan, xo'jayinlarining gardanidagi ko'p millionli qarzlaridan voz kechgan, matbuotiga turli-tuman imtiyozlar havola etgan edi. Cheksiz erkinlikka ega bo'lib olgan Ozarbayjon matbuoti hammadan ko'proq aynan Haydar Aliyevning boshiga mag'zava to'kib, badniyat tuhmat qildi. Prezident betob bo'lib, yotib qolishi munosabati bilan muxolifatning OAVda boshlangan bu g'ovur-g'uvur tasavvurga sig'adigan har qanday ma'naviy chegaradan oshib o'tdi. Ushbu holatga bo'lgan munosabatimni «**Prezidentning kasalligi jamiyatning ma'nani boyligini aks ettiradigan ko'zgu**» nomli maqolamda aks ettirganim esimda. O'sha maqolam bir qator OAVda bosilib, katta ta'sirga ega bo'ldi. Undan olingan ayrim parchalarni e'tiboringizga havola etaman:

«...Bugun umumiy uyimizning, katta oilamizning oq-soqoli – yoshi ulug', dono va o'ta boy hayotiy tajribaga

ega inson betob bo'lib qoldi. Afsuski, bunday vaziyatda oilaning ayrim a'zolari o'zlarini munosib tuta olishmayapti. Birov ma'yus tortib qolgan bo'lsa, birov gangib yuribdi, ayrimlar esa kasal bo'lib qolgan padari buzruk vorning uyimizdag'i mo'tabar o'rnnini sovitmay egallash tashvishi-ga tushib qolgan ko'rindi.

Qochirim gapim hammaga tushunarli, albatta. Gap bugungi kunda Turkiya klinikalaridan birida davolanyotgan prezidentimiz hamda uning betobligi bois, bir qator ommaviy axborot vositalarida ko'tarilgan juda xunuk shovqin-suron haqida bormoqda.

Oolloh shohid: prezidentimiz o'tgan o'n yil ichida o'z yurtdoshlari uchun juda ko'p ishlar qildi. Bugun biz sifat jihatdan mutlaqo yangilangan yurtda – davlat institutlari rivojlangan, iqtisodiyoti mustahkamlangan, neft sohasi jahon miqyosida e'tirof etilgan, milliy armiyasining mudofaa qobiliyati rivojlangan davlatda yashamoqdamiz. Yurtboshimizning bitmas-tuganmas, dadil tashabbuslari ila bugungi kunda Ozarbayjon global geosiyosiy va geoqtisodiy loyihibalar markaziga aylandi. «Asr shartnomasi», «Sharqni G'arbga ulagan energetika yo'li», «Buyuk ipak yo'li» iboralari esa dunyo davlatlarining siyosiy lug'atlariga kirishga ulgurib, izohlashga hojat qolmadi.

Biroq Haydar Aliyev hamma ishga qodir payg'ambar emas, hozircha u barcha muammolarimizni, ayniqsa, asosiy muammomiz – Tog'li Qorabog' va bosib olingan boshqa yerlarimizni qaytarish muammosini hal eta olmadidi. Kecha-yu kunduz bosh qotirayotgan o'sha asosiy muammo uning yuragiga ham zo'r berdi.

Mana endi, o'z xalqi va yurti uchun o'zini-o'zi tom ma'noda qurban qilish bilan ovora bo'lgan insonning tobi

qochdi. Bu xabar jahonning olis burchaklarida chuqur qayg'u va tashvish-la qarshi olindi. Zamonamizning eng mashhur, eng nufuzli siyosatchilari Haydar Aliyevga dalda berib, salomatlik tilagancha, telegramma ketidan telegramma yuborishmoqda. Gapning po'stkallasini aytganim uchun kechirasiz-u, lekin bizni dunyoga tanitgan shu kishi bo'ladi, Ozarbayjon va ozarbayjonliklar haqida xorijda ko'pchilik faqat uning ismi – Haydar Aliyevni eshitishgani uchungina bilishadi. Bundan bir qancha vaqt muqaddam (H. Aliyev Turkiyada oldingi gal davolangan vaqtda) Internetning qaysidir saytida prezident H. Aliyev jon talashib yotgani haqidagi jurnalistlar tarqatgan navbatdagi yolg'on xabar muhokama qilingan edi. O'shanda Internet foydalanuvchilari bildirgan mulohazalar meni hayratda qoldirdi: prezidentimiz sha'niga birorta bo'l-sin, dilni og'ritadigan, g'alamisona, kinoyali gap aytildi. Hammaning javobi hamdardlikka, afsus-nadomatga, Ozarbayjon rahbarining ulug'vorligiga oid fikrlarga to'lib-toshgan edi. Har ikkinchi izoh «buyuk siyosatchi» so'zлari ila boshlandi.

Darhaqiqat, har bir yurtning o'z dahosi bo'ladi. Butun dunyoda Haydar Aliyevning ahvoli borasida tashvish va nadomat bo'lsa, bizning matbuotimizda ichiqora kaslarning olato'poloni, aysh-ishrati, g'alamisona bashoratlari, mishmish gaplari, haqoratomuz shamalari, kurakda turmas fikrlari, sharmandali izohlari hukm surmoqda...

Yurt siyosatchilari-chi? Ularning ayrimlarigina insaniylik qiyofasini munosib saqlab yuribdi. Qolganlari ichiqoraligini, «Gulxona» gospitali devori ortida nimalar ro'y berayotganini sabrsiz, ichni yondirayotgan zavq-la kutayotganini yashira olishmayapti. Ba'zilari uyqudan

turib oq «narigi tomondan» yangilik eshitish ilinjida televisor tomon otlishini yoki telefon go'shagini changallab: «Tinchlikmi? Biron gap bormi?» kabi savol berishini tasavvur qilaman.

To'g'risini aytsam, men o'zini siyosatchi deb biladigan, o'z qobiliyatini bir insonning salomatligiga bog'liq holda ko'radigan o'sha odamlarga achinaman.

Xayriyatki, unday ichiqoralar jamiyatimizda ozchilikni tashkil qiladi. Yurtdoshlarimning aksar qismi Ozarbayjonga rahbarlik qilgan inson oldida qarzdor ekanligini yaxshi anglaydi. Ular chin yurakdan tashvish chekib, prezidentimiz tezroq sog'ayib ketishini chin qalbdan istashadi. Yana bir narsadan xursandmanki, shu kunlarda men ushbu anduh va samimi hamdarlikni qalamdosh birodarlarimdan ham, garchi ayrimlar rasmiy ommaviy axborot vositalarida ishlamasada, eshitmoqdaman».

Ilhom Aliyev 2003-yil 4-avgust kuni respublika Bosh vaziri etib tayinlangani haqidagi xabar yonayotgan olovga benzin sepgandek ta'sir ko'rsatdi. Muxolifatga mansub OAV qahr-g'azabdan tiqilib qolganday bo'ldi. Hukumatning yangi rahbarini imkon qadar xunuk sifatlar ila tavsiflash borasida nooshkor kimo'zarlik boshlandi.

Natijada muxolifatga mansub matbuot oshirib yuborib, bunday RR-kampaniya oqibatida o'zini-o'zi badnom qildi. Jamiyatimizning saylov oldi kampaniyasi davrida shaxsan o'zim muloqot qilgan ko'plab siyosiy faol a'zolari, hatto Haydar Aliyev va uning o'g'liga nisbatan u qadar xolisona munosabatda bo'lмаган odamlar «Yeni Musavat» va «Ozodlik» kabi gazetalar nomini eshitib,

*Ushbu gazetalar
tomonidan go'yo
o'z xo'jayinlari
manfaatlarda
dag'al, asabga
tegadigan darajada
sershovqin,
ochiqdan-ochiq
tajovuzkor
ohangda olib
borilgan targ'ibot
kampaniyasi qosh
qo'yish o'rniغا
ko'z chiqardi. Hali
ikkilanib turgan
saylovchilar ham
ixlosi qaytib,
ulardan yuz o'girdi.*

yuz burishtirgancha, sariq matbuotga chiqarishdi.

Ushbu gazetalar va ularning izi-dan borgan boshqa nashrlar tomonidan go'yo o'z xo'jayinlari manfaatlarda dag'al, asabga tegadigan darajada sershovqin, ochiqdan-ochiq tajovuzkor ohangda olib borilgan targ'ibot kampaniyasi qosh qo'yish o'rniغا ko'z chiqardi. Hali ikkilanib turgan saylovchilar ham ixlosi qaytib, ulardan yuz o'girdi. Radikal matbuotning isyonga, qo'zg'olonga, norozilik chiqishlariga ochiqdan-ochiq da'vat qilayotganini o'qigan yuzlab, minglab odamshavanda, qonunga bo'ysunib yashaydigan fuqarolar esa cho'chib ketib, yurak changallahshdi.

...Milliy Majlis 2003-yil avgust oyi boshida davlatning yangi Bosh vazirini tasdiqlab, Ozarbayjon jamiyatida qaror topgan mubhamlikka barham berdi. Ahamiyatli tomoni shundaki, Ozarbayjonning Bosh vaziri etib aynan Ilhom Aliyevning tayinlanishi nafaqat yaqin, balki uzoq xorijda ham ijobjiy qabul qilindi. Prezidentning o'g'li davlatning mohiyatan ikkinchi rahbari hisoblangan lavozimga tayinlanishini xalqaro jamoatchilik qabul qila olmasligi haqida muxolifatimiz har kuni qulqoni qomatga keltirguday darajada qichqirib, ogohlantirishiga qaramay, jahon ushbu yangilikni yengil tortganday, kutib

oldi. Ozarbayjonning asosiy geosiyosiy ittifoqchilar va boshqa nufuzli davlatlar so'nggi yillarda aynan Haydar Aliyev va uning jamoasi tomonidan olib borilgan siyosat davom etishidan manfaatdor ekanliklarini ochiqdan-ochiq ko'rsatishdi.

Ilhom Aliyev nomiga Rossiya, Turkiya, Fransiya, Isroiil, Yaponiya, Xitoy kabi bir qator boshqa davlatlarning hukumat rahbarlaridan Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga tayinlanishi munosabati bilan tabriklar keldi. YKPA raisi Piter Shider, Yevropa kengashining Bosh kotibi Valter Shvimmer ham o'zlarining tabrik telegrammalarini yubordilar. AQSH prezidenti Jorj Bush Ilhom Aliyev nomiga tabriknoma yo'llagani, ushbu noma unga 12-avgust kuni amerikalik kongressmenlar tomonidan topshirilgani hayratomuz voqeа bo'ldi. Bu AQSH va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlarning yuksak darajasidan dalolat berган ко'rsatkichkina emas, balki Amerika prezidentining Aliyevlar oilasiga bo'lган ehtiromidan nishona ham edi. Buni nafaqat Ozarbayjondagilar, xorijdagilar ham fahmlab, ma'nosini anglashdi.

*Ozarbayjonning
asosiy geosiyosiy
ittifoqchilar va
boshqa nufuzli
davlatlar so'nggi
yillarda aynan
Haydar Aliyev va
uning jamoasi
tomonidan olib
borilgan siyosat
davom etishidan
manfaatdor
ekanliklarini
ochiqdan-ochiq
ko'rsatishdi.*

Bugun, oradan ancha yil o'tgach, yosh siyosatchining zimmasiga naqadar katta mas'uliyat yuklanganini endi anglab yetasan kishi. Amaldagi prezident yurtda bo'lмаган, boз ustiga, og'ир kasal bo'lib yotgan paytda, mohiyatan favqulodda vaziyatda hukumatni boshqarish

- ham xavfli, ham o'ta mas'uliyatli ish edi. Shunga qaramay, Ilhom Aliyev ushbu yo'lni ongli ravishda tanladi. Ota o'g'ilga ko'p marta yelka tutib bergen, endi o'g'ilning navbatni yetdi.

Yangi Bosh vazirning dastlabki ish kunlari va oylari hukumat tepasiga tajribali, pragmatik siyosatchi kelganidan dalolat berdi. Muxolifatdan farqli o'laroq, o'ng-u so'lga ommaning e'tiborini qozonib, hech qanday majburiyat yuklamaydigan va'dalar sochmadi. Ilhom Aliyev matbuot bilan muloqotning to'g'ri ohangini topa bildi, OAV vakillari bilan boadab, ziyolilarga xos ravishda vazmin munosabat o'rnatdi, jurnalistlarning qo'pol, ba'zan badxoh ohangini ustalik-la chetlab o'tdi. U uzoqni ko'ra bilgan holda, o'z jamoasi yo'qligi, Haydar Aliyev boshlangan yo'lni mavjud kadrlar faoliyatiga tayangan holda davom etishi haqida bayonot qildi. Garchi Ozarbayjondagi haqiqiy ahvoldan oz bo'lsa ham boxabar bo'lgan har qanday kishiga o'xshash bayonotlar davr taqozosi ekan, ularga bir ma'noda qarash shart emasligi tushunarli bo'lsa-da.

*Yangi Bosh
vazirning dastlabki
ish kunlari va oylari
hukumat tepasiga
tajribali, pragmatik
siyosatchi
kelganidan
dalolat berdi.*

Shunday bo'lsa ham, ishbilarmonlar, moliyachilar va siyosatchilarning yangi namoyondalari oqimining respublika hukumati idoralariga kirib kelishi Haydar Aliyev davridayoq boshlangan edi. Bir qator vazirlik va idoralardagi katta lavozimlarda yosh professionallar o'zlarini ko'rsa ta bilishdi. Ularning ko'pchiligi G'arb davlatlarining nufuzli ta'lif muassasalarida tahsil ko'r-gan bo'lib, xorijda ishlash borasida amaliy tajribaga ega

bo'lib qaytishgan. Boshqaruvchilar orasiga yangi kuch va intellekt kiritib borgan Haydar Aliyev uzoqni ko'rib ish tutgan. Yangi «ilhomaliyevchilar» jamoasini shakllantirish jarayonlari davom etishi muqarrar edi. Lekin bu ish bosqichma-bosqich, amaldagi prezidentning yoshi ulug' safdoshlarini ranjitmay amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Darhaqiqat, shundoq bo'ldi ham...

Ilhom Aliyev yangi lavozimdagи birinchi xorij safarini Turkiyaga, ikkinchi safarini esa, MDHga a'zo davalatlarning davlat rahbarlari sammitida ishtirok etish uchun Yaltaga amalga oshirdi. Bu yerda uni V. Putin, N. Nazarboyev va L. Kuchma alohida ehtirom ko'rsatib qarshi olishdi. U hatto BMT Bosh Assambleyasining 58-sessiyasida so'zga chiqishga, ushbu nufuzli minbardan bir necha muhim bayonotlar qilishga, jumladan, Armaniston-Ozarbayjon mojarosini hal etish borasida bayonot qilishga ham ulgurdi. Uning mulohazalari va xatti-harakatlarida saylovchilar yoki xalqaro ham-jamiyat hushyor tortishi, ishga ixtilof solishi mumkin bo'lgan biron-bir ohang kuzatilmadi. Klivlenddan esa tasalli bermaydigan xabarlar kelib, kutilganning aksi o'laroq, prezidentning salomatligi hamon yomonlashib bormoqda edi... O'sha og'ir kunlar va oylarda (keyincharlik ham) vazminlik Ilhom Aliyevga biror marta bo'lsin, pand bermadi. Garchi ichidan nimalar o'tgani yolg'iz Ollohga ayon edi.

1-oktyabr kuni Haydar Aliyev o'tkazilishi 15-oktyabrga belgilangan prezident saylovidan o'z nomzdini chiqarishi haqida bayonot qildi. Ozarbayjon xalqiga qaratilgan, milliy televideniye orqali o'qib eshitti-

rilgan murojaatda amaldagi prezident o'z nomzodini Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri foydasiga qaytarib olgani ma'lum qilindi.

«Men o'z nomzodimni Ilhom Aliyevning foydasiga qaytarib olyapman va barchangizni o'tkaziladigan prezident saylovida mening prezidentlikka nomzod bo'lmish siyosiy vorisimni, «Yangi Ozarbayjon» partiyasi raisining birinchi o'rnbosarini qo'llab-quvvatlashga da'vat etaman», - deyildi H. Aliyevning o'sha murojaatida.

*«Men unga o'zimga
ishonganday
ishonaman va
uning kelajagiga
katta umid
bog'layman», -
deyilgan edi davlat
rahbarining
murojaatida..*

nning yordamingiz ila, qo'llab-quvvatlashingizga tayangan holda ro'yobga chiqara oladi. Men unga o'zimga ishonganday ishonaman va uning kelajagiga katta umid bog'layman», - deyilgan edi davlat rahbarining ushbu murojaatida. Mazkur hujjat buyuk siyosiy arbobning siyosiy vasiyati bo'ldi.

* * *

Saylov oldi chiqishlaridan birida Ilhom Aliyev juda muhim gapni aytib o'tgan edi.

«...saylovda ishtirok etaman va sizni ishontirib aytamanki, Haydar Aliyevning siyosati xalqimizning mada-

di ilá davom etadi. Ozarbayjon xalqi 1993-yili o'z yo'li ni tanladi, bundan buyon ham shu yo'lga sodiq qoladi. Xalqimiz yurtimizda anarxiya, alg'ov-dalg'ovlik, inqiroz hukm surishini aslo istamaydi. Ozarbayjonni o'sha ahvolga solganlar endi hokimiyat tepasiga kelmaydi. O'zini sharmanda qilgan, yurtda fuqarolar urushini boshlagan, o'zi esa qochib qolgan kimsalarga ona zaminimizda o'rín yo'q. Ishonchim komilki, Ozarbayjon xalqi ozodlik, tinchlik, barqarorlik, iqtisodiyot ravnaqi, Haydar Aliyevning siyosati uchun ovoz beradi».

Prezidentlik - kishi zimmasiga yuklanadigan muazzam yuk, mas-haqqatli mas'uliyat demak. 2003-yili Ilhom Aliyev boshqacha yo'l tutishi ham mumkin edi. Barcha qulayliklar muhayyo etilgan G'arb davlatlaridan biriga ko'chib o'tib, biron-bir ulkan neft yoki moliya korporatsiyasining direktorlar kengashiga rahbarlik qilib, shohona hayot kechirishi mumkin edi (unga bunday takliflar bo'lganiga hech ham shubha qilmayman). Lekin Ilhom Aliyev o'z yurtida, o'z xalqi bilan qolishga ahd qildi. Zero, o'zining buyuk salafi boshlagan ishlar barbod bo'lishiga yo'l qo'ya olmas edi. Chunki keng miqyosdagi xalqaro loyihalar va iqtisodiy islohotlarni oxiriga yetkazishni otasi Haydar Aliyevga va'da qilgan edi.

Ilhom Aliyevning nomzodi Ozarbayjonning aksariyat fuqarolari hamda jahondagi va mintaqadagi yetakchi siyosatchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi Haydar

*Prezidentlik -
kishi zimmasiga
yuklanadigan
muazzam yuk,
mashaqqatli
mas'uliyat demak.
2003-yili Ilhom
Aliyev boshqacha
yo'l tutishi ham
mumkin edi. Lekin
u o'z yurtida,
o'z xalqi bilan
qolishga ahd qildi.*

Aliyev yanglishmaganidan dalolat berdi. Zero, Ilhom Aliyev amaldagi prezidentning o'g'li ekanligi mintaqadagi asosiy geosiyosiy o'yinchilar va aksariyat xorijiy investorlar uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgani ma'lum bo'ldi.

Ozarbayjonning siyosiy va iqtisodiy yo'li o'zgarmas qolishi, ular uchun asosiy omil bo'ldi. Ilhom Aliyev ushbu yo'lni davom etishiga ularni ishontirish, buni tanta-nali ravishda e'lon qilish shart emas, shundoq ham hammasi ravshan edi.

Shunday bo'lsa-da, ta'kidlab o'tish joizki, AQSH, Turkiya yoki Rossiya tomonidan yangi Bosh vazir nomzodi qo'llab-quvvatlanishining yagona sababi, ularning siyosiy-moliyaviy manfaatlari bo'lgan, deya ta'kidlash yanglish mulohaza bo'lar edi. Yuqorida ishonch hosil qilganimizdek, amaldagi hukumat partiyasidan ilgari surilgan yangi avlodga mansub nomzod bo'lmish Ilhom Aliyevning shaxsi jiddiy ahamiyatga ega omil bo'lgan. Uning shubha ostiga olinmaydigan shuhratining asl sabablari haqida, yangi Bosh vazirni tasdiqlash kuni so'z olgan deputat Sirus Tebrizli parlamentariylarga quyidagi-cha eslatib o'tdi: «Ilhom siyosiy Olimp cho'qqisiga sayyoh sifatida ham chiqishi mumkin edi, biroq u ushbu cho'qqini professional alpinist sifatida zabit etishni afzal bildi».

* * *

Saylov oldi kampaniyasi hali boshlanmay turib men bir narsadan, u ham bo'lsa, muxolifat yetakchilari o'zaro kelishib olib, prezidentlikka yagona nomzodni ilgari surishlaridan jiddiy xavfsiragan edim. Garchi keng omma-

ga qaratilgan ommaviy axborot vositalari orqali umum-milliy manfaatlar yo'lida izzati nafsni bir chetga yig'ish-tirib qo'yish zarurligiga doir bayonotlar ko'p yangragan bo'lsa-da, bularning bari quruq gapdan nariga o'tmadi. Ko'pgina maslahatlar-u ziyofatlar o'tkazilganiga (bunday hangomalardan birini o'tkazish uchun ular hatto «uzoq xorij»da yig'ilishganiga) qaramay, Ozarbayjon muxolifati bir bitimga kela olmadi.

Mulohazalar-u sa'y-harakatlarning poyma-poyligi, izzati nafsni yenga olmaslik, ittifoqchilarga ishonch-sizlik, saylov oldi kampaniyasining oxirigacha odamlar oldida o'tgan tinimsiz janjallar – muxolifatdan chiqqan asosiy o'yinchilarning shundoq ham baland bo'limgan obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ulardan farqli o'laroq, amaldagi hukumat tarafдорларининг jamoasi bunday murakkab vaziyatda yagona nomzodni ilgari surish uchun o'z ma'muriy va partiyaviy manbalaridan to'g'ri foydalanib, o'z saflarining jipsligi va yaxlitligini namoyish eta biliшdi.

Bundan tashqari, V. Andriyanov va G. Miralamovning «Ilhom Aliyev» nomli kitobida to'g'ri ta'kidlab o'tilgani-dek, «2003-yili muxolifatdan chiqqan da'vogarlarning hokimiyat tepasiga qaytishi yurtimiz uchun orqaga qaytishni anglatgan bo'lar edi». Gap shundaki, o'sha da'vogarlarning – I. Gambarning ham, A. Kerimlining ham, E. Mamedovning ham «tuprog'i bir yerdan», ya'ni XX asrning 80-yillar oxiri – 90-yillar boshidan olingan bo'lib, o'tgan o'sha o'n yil ichida otning qashqasidek tanish bo'lib qolishgan edi. Boz ustiga, muxolifatchilarning deyarli bari «hokimiyat tepasi»da bo'lismishga ulgurishgan va uzoqqa bormay, o'z siyosiy qiyofalarini ancha buzib

*V. Andriyanov va
G. Miralamovning
«Ilhom Aliyev»
nomli kitobida
to'g'ri ta'kidlab
o'tilganidek, «2003-
yili muxolifatdan
chiqqan
da'vogarlarning
hokimiyat tepasiga
qaytishi yurtimiz
uchun orqaga
qaytishni anglatgan
bo'lar edi».*

qo'yishgan edi. Hali hokimiyatda bo'l-maganlar ham saylovchilarning jo-niga tegishga ulgurishdi. Qolaversa, ular o'tgan 10 yil ichida o'z saflaridan birorta bo'l sin, yorqin shaxsni yetish-tira olishmadi, millatni birlashtira oladigan birorta yangi, ilhombaxsh g'oya yoki dasturni havola eta olish-madi. Muxolifat lagerini vaqtı-vaqtı bilan larzaga solib borgan ichki ni-zo-yu fitnalarni kuzatib borgan oddiy fuqaro, ularning qaysi biri kim bilan va kimga qarshi «do'st» tutinganini tushunmay, batamom chalkashib ket-di. Ozarbayjon muxolifatining siyosiy

kurash vositalari zaxirasida ish tashlashlar, norozilik namoyishlari, mitinglari kabi, hammani jonidan to'ydir-gan shakl va usullardan o'zga narsa yo'q edi. Darvoqe, paradoks shundan iborat bo'ldiki, qonunga bo'ysunib yashaydigan fuqarolarning aksariyatini bunday omma-viy chiqishlar cho'chitib yubordi. Zero, 80-yillar oxiri - 90-yillar boshida olingen achchiq tajribaga ko'ra, bu-larning bari davlat anarxiyasi va zo'ravonlik darakchisi sifatida ko'rilar edi.

Yurtimizda yetishgan inqilobchilarning ochiqdan-ochiq tahdidlari, xususan, Ozarbayjon hukumati tomonidan xorijiy kompaniyalar bilan imzolangan shartno-ma va bitimlar taftish etilishi, bugungi kunda hokimiyat tepasida turganlarning, umuman, yirik sarmoya sohib-larining adabini berib qo'yishga doir do'q-po'pisalari jahondagi va yurtimizdagи siyosiy-moliyaviy namoyan-

dalarning muxolifatga bo'lgan ixlosini butunlay qaytarib yubordi.

Aftidan, muxolifatdan prezidentlikka nomzod qilib ko'rsatilgan ba'zi birovlar haddan oshirib yuborishgанинни anglab yetishgan ko'rindi, saylov oldi kampaniyasi davrida o'zlarining inqilobiy afsatsalari yuzaga keltirgan shok holatini tuzatishga urinib ko'rishi. Yurtimiz tadbirkorlari, xorijiy investorlarni tashvish tortmaslikka, hech narsa qayta ko'rib chiqilmasligiga, mulk qayta taqsimlab chiqilmasligiga ishontirishga tushib qolishdi. Biroq g'isht qolipdan ko'chib bo'lgan edi. Endi ularning va'dalari saylovchilar tomonidan saylov oldi mulozamati, tiz bukib qilingan ta'zim sifatida qabul qilindi, Bismarkning ta'biri ila aytganda: «Urush davrida, ovdan so'ng va saylovdan oldin yolg'on gapirilgandek ko'p yolg'on aytilmaydi».

Milliy Majlis deputati Anar Mamedxanov:

«Ilhom Aliyevning ikki fazilati yoqadi menga: birinchisi, do'stlasha biladi. Ikkinchisi, bosiqligi. Haddan ortiq bosiqligi, degan bo'lar edim men. Ma'lum bir hodisa yuz berayotgan bo'lsa, u o'z fe'l-atvorini namoyon qilib, intizomli, sabr-toqatli bo'ladi. Fikrimcha, uning mana shu bosiqligi tufayligina faoliyati samarali kechmoqda.

Bir necha yil muqaddam u haqda nohaq maqolalar chop etilganda, men uni his-tuyg'ularga berilgancha himoya qilgan edim. O'shanda u menga, fikrimcha, buyuk bir hikmatli so'z aytdi: «Kishi raqib oldida zaif ekanligini idrok etishi hamono, yolg'on gapira boshlaydi. Shunday

ekan, buni his-tuyg'ularga berilmay qabul qilmoq darskor. Zero, biz bunday vaziyatda undan kuchlimiz».

Yangi Bosh vazirning, keyinchalik prezidentlikka nomzodning ommaviy chiqishlari-yu intervylulari Ilhom Aliyevning yana bir fazilatini – tabiatan ziyoli inson ekanligini ko'rsatdi. Prezident bilan Bosh vazirni haqorat qilishdan nari o'ta olmaydigan muxolifat va unga mansub ommaviy axborot vositalaridan farqli o'laroq, Ilhom Aliyev o'z raqiblariga baho berishga juda kam vaqt, jurnalistlar gapni o'sha mavzuga tirab borishgandaqina ajratib bordi. Kunlardan bir kun Ilhom Aliyev jurnalistlarga bama'ni bir maslahat berdi: «Yaxshisi, ular diqqat-e'tiborlarini o'z targ'ibotlariga qaratishsin, dasturlarini oshkor qilishsin... Pichoqqa ilinadigan durustroq konsepsiyalari borligiga shaxsan men shubha qilaman».

Ilhom Aliyevning o'zi esa saylov oldi chiqishlarida yurtimizning o'tgan yillar davomida erishgan yutuqlarini sanab o'tish bilangina cheklanib qolmadi. Sodda tilda aniq gapirar ekan, davlatimizga solinayotgan yangi tahdidlar va o'z yechimini kutayotgan muammolarni ochiq-oydin ifodalab bordi.

Aytganday, muxolifat Ilhom Aliyevning bo'yyniga qo'ygan eng «dahshatli» ayb: u amaldagi prezident Haydar Aliyevning o'g'li ekanligi, davlat rahbari lavozimiga saylanishi esa yurtimiz va xorijda hokimiyatning monarxiya shaklida meros qoldirilishiday e'tirof etilishidan iborat bo'ldi.

Vaholonki, hokimiyat tepasidagi namoyandalar davlatning bo'lajak rahbarlarini o'z doirasidan yetishtirishti yangilik bo'lmay, jahonda allaqachon keng tarqalgan

holdir. Hindistonning Neru – Gandhi familiyali sulolasini, ularning orasi dan qanday buyuk siyosiy arboblar yetishganini eslang. Kennedilarning urug'-aymog'ini va nihoyat, otasi AQSHning prezidentlik kursisidan turib ketganidan atigi bir necha yil o'tib, o'g'li Jorj Bush ushbu lavozimni egallaganini eslang. Agar sobiq ittifoq makonidagi yangi siyosiy tarixga nazar soladigan bo'lsak, o'xshash misolni Rossiyada topish mumkin. Boris Yelsin o'z doirasiga mansub siyosiy vorisni o'zi tanlab, prezident bo'lishiga o'zi oq fotiha ber-gan edi.

Hokimiyatning monarxiya shaklida meros qoldirilishiga doir ta'na-dashnomnlarga kelsak, bunday aybllov haqiqatdan ancha yiroq bo'lib, Ilhom Aliyevning prezidentlikka nomzod sifatida ko'rsatilib saylanishi qonunga qat'iy amal qilingan holda, barcha demokratik jarayonlar doirasida o'tdi. Siyosatshunoslik darsliklariiga «2003-yil saylovi» nomi bilan kirishi muqarrar bo'lgan favqulodda hodisaning bir necha lavhalarini sanab o'taman. Xorij ekspertlarining fikricha, sobiq ittifoq makoni uchun yangilik bo'ladigan Ozarbayjon Respublikasi Saylov kodeksining yangi, qat'iy demokratik tahriri qabul qilingani. Okrug va uchastka saylov komissiyalarini shakllantirishning yangi tamoyillari, konvertga joylangan byulleten tor tirqish orqali tushiriladigan shaffof qu-tilar (ommaviy ravishda soxtalashtirish imkoniga batamom barham berilgan), ovozlarning barcha kuzatuvchi-

*...hokimiyat
tepasidagi
namoyandalar
davlatning bo'lajak
rahbarlarini
o'z doirasidan
yetishtirishi
yangilik bo'lmay,
jahonda
allaqachon keng
tarqalgan holdir.*

lar, shu jumladan, muxolifat partiyalaridan tayinlangan kuzatuvchilar ishtirokida sanalishi, dastlabki natijalar (YXHT va Yevropa kengashi vakillarining talabiga muvo-fiq) 48 soat ichida emas, zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilgani bois, saylov tugaganidan keyin, atigi 12 soat ichida e'lon qilish. Nihoyat, saylovchilarning misli ko'rilmagan, hatto ko'pni ko'rgan va shubha ila qaragan G'arb ekspertlarini ham hayratda qoldirgan favqulodda faolligi. Ushbu saylovda mutlaq ochiq-oydinlik ruhida, ayni vaqtida saylov jarayoni xalqaro kuzatuvchilar, muxolifat va OAVning nazorati ostida kechishi ta'minlandi. Ma'lumki, jamoatchilik nazoratida o'tgan saylov nisbatan erkin saylov sanaladi.

* * *

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalar inobatga olinadigan bo'lsa, umumxalq sayloving natijalarini oldindan ko'ra bilish mumkin edi. Ikki yarim milliondan ziyod saylovchining 1 million 860 nafardan ko'prog'i Ilhom Aliyevga ovoz berdi. Muxolifatdan asosiy nomzod bo'ilgan Isa Gambar esa 14% ovoz oldi.

Saylov natijalari borasida norozilik bildirishdan tashqari, muxolifat poytaxt markazida o'z tarafдорлари ni tartibsizlikka undadi. Xolis olingan videotasvirlarda Isa Gambar tarafдорларining bezoriligi, ko'chani boshiga ko'tarib, to's-to'polon ko'targanlari aks ettirilgan. Ular duch kelgan mashinalarni ag'darib, politsiyachilarga hujum qilishgancha, ularga qarata tosh uloqtirishdi. Boku aholisi beixtiyor XX asrning 90-yillarida qaror topgan manzaralarni, surunkali davlat to'ntarishlarini, hokimiyatni zo'ravonlik bilan almashtirishga urinishlarni esla-

di. Xayriyatki, 2000-yillar boshida hokimiyat Ozarbayjon davlatchiligi erishgan yutuqlarni himoya qilishga qodir tajribali jamoa qo'lida bo'lgan ekan. Muxolifat uysushtirgan tartibsizliklar bostirildi, boshlab bergenlar hibsga olindi. Radikallarning vahshiyona harakatlari shu kuning o'zida jamiki xalqaro kuzatuvchilar tomonidan qoralandi.

...Inauguratsiya va lavozimga rasman kirishish tadbirlarini kutib o'tirmagan V. Putin, J. Bush, J. Shirak, A. N. Sezer kabi ko'plab yetakchi davlat rahbarlari Ilhom Aliyevni qutlab, tabrik yo'llashdi.

* * *

2003-yil 15-oktyabr kuni o'n yil muqaddam bo'l-gani kabi, mustaqil Ozarbayjonning taqdiri hal etilishi, davlatchiligining taraqqiyotiga doir eng muhim ko'rsatkichlar, jahon hamjamiyatidagi kelgusi hayotining strategik modeli belgilanishi, ya'ni Ozarbayjon jamiyatni ikki yo'ldan birini, xususan: yo revolyutsiya, yo revolyutsiya yo'lini tanlashi kerak edi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy vorislikni tanlab, o'tgan o'n yil ichida erishgan natijalarini bir maromda, barqaror rivojlantirish yo'ldan borishi, yo eski hammom, eski tosini tanlab, bor narsani shafqatsizlarcha ildiz-pildizi bilan qo'porib tashlab, Ozarbayjon davlatchiligini tekis joyda, yangi o'l-chov va andazalar asosida yangitdan qurishni afzal ko'rishi kerak edi.

*2003-yil 15-
oktyabr kuni, o'n yil
muqaddam bo'l-gani
kabi, mustaqil
Ozarbayjonning
taqdiri hal
etilishi kerak
edi... Xayriyatki,
Ozarbayjon
xalqi to'g'ri
yo'lni tanladi.*

Xayriyatki, Ozarbayjon xalqi to'g'ri yo'lni tanladi. Davlat mustaqilligiga erishishning dastlabki yillarda o'tgan achchiq, ba'zan fojiali saboqlar xalqimizni yana-da oqil va yanada uzoqni ko'ra biladigan qilib qo'ydi va eng muhimmi, unda anarxizm ruhidagi alg'ov-dalg'ovlik va inqilobiy larzalarni ko'tara olmaslik sifatini shakllan-tirdi. O'sha kunlari men rus davlat arbobi Pyotr Stolipin-ning dohiyona hikmatini eslab, uni sal boshqacha ifoda-ladim: «Bizga buyuk larzalar emas, buyuk Ozarbayjon kerak».



Prezident İlham Aliyevning innaguratsiyasi marosimi. 19.10.2013-yil.



Prezident İlham Aliyev Umumikalq motam kuni 20-yanvar qurbanlarini hurmat-la esga oldi. 20.01.2015-y.



Prezident İlham Aliyev rəfiqası Mehribon Aliyeva bilər birgə Ağdam tumanının front yaxınidagı Maxrizli qışlog'ında. 1.05.2016-y.



Arman artilleriyasi tomonidan vayron etilgan Terter tumanidagi uylarنى
ко'здан кечирип чигиш ваqtida. 1.05.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev rafqasi Mehribon Aliyeva bilan birga Terter tumanidagi
Gapanlı qishlog'ining snaryad vayron qilgan uy hovlisida. 1.05.2016-y.



Davlat rahbari aprel janglarida halok bo'lgan va yaralanganlarning yaqinlari bilan uchrashuvda. 5.04.2016-y.



Prezident İlham Aliyev Özərbayjon Respublikası Mədən və Sənaye nazirliyi Mərkəzi klinik gospitalda davolanayotgan yaradıcı askar və ofitserlərinin hələdan xəbər olmaqdə. 5.04.2016-y.



Gobustan tumanı Xilmili qışlaq'ı aholisi bilan uchrashuv. 1.05.2013-y.



Prezident Ilhom Aliyevning Naxchivan muxtor Respublikasiga tashrifi.
Tantanali kutib olish marosimi. 1.12.2015-y.



Prezident Ilhom Aliyev Sumgaitda, «Alyans tekstil» tikuv fabrikasining
ochilishida. 13.01.2015-y.



Prezident Ilhom Aliyev suvgaga yarmigacha tushirilgan «Lider» suzish qurilmasida. 7.08.2003-y.



Prezident Ilhom Aliyev Jalolobod tumanidagi «Avangard» g'allakorlik xo'jaligidagi. 11.08.2015-y.



Prezident İlhom Aliyev Boku-Sumgait yo'nalishıdağı birinchi yo'lovchı tashish elektr poyezdini kuzatıb qo'ymoqda. 12.09.2015-y.



Prezident İlhom Aliyevning Yevlax jamoatchılığı bilan Yevlax aerovokzal kompleksi ochilgan kundagi uchrashuvi. 10.09.2013-y.



«Asr shartnomasi»ning 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim va «Janubiy gaz yo'li»ning poydevoriga asos solinishi. 20.09.2014-y.



Prezident Ilhom Aliyev mas'uliyati cheklangan «Baku Bus» jamiyatining ikkinchi deposi ochilishida. 18.04.2016-y.



Prezident İlham Aliyev Sumgaitdagi «Ozarbayjonkiinyo» ishlab chiqarish birlashmasi etilen-propilen zavodining yangi qurilmasini ishga tushirish marosimida. 25.10.2015-y.



Turkiya-Greetsiya gaz quvurining ochilish marosimida
18.11.2007-y.



Prezident İlhom Aliyev Boku shahri Sabuchi tumanidagi kapital ta'mirdan chiqarilgan 148- sonli maktabning Bilimlar kunida o'tayotgan ochilish marosimida. 15.09.2015-y.



Geokchay tumaniga tashrifsi davomida prezident İlhom Aliyev Shaxmat maktabining ochilish marosimida ishtiroy etdi. 6.10.2015-y.



Prezident İlham Aliyev Boku yaqinidagi Ramani shaharchasida joylashgan Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun professional tiklanish markazining rekonstruksiyasidan keyingi ochilishida.



Ilham Aliyev va uning rafiqasi Mehribon Aliyeva ko'zi ojiz nogironlar bilan ular uchun poytaxtning Narimonov tumanida qurilgan uydagi n'tayotgan uchrashuvda. 24.12.2016-y.



Vazirlar Mahkamasining Ozarbayjon Respublikasi prezidenti Ilhom Aliyev boshchiligidagi o'tayotgan, 2016-yilning birinchi choragi yakunlari va kelgusi vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishi. 9.04.2016-y.



Ozarbayjon prezidenti, Qorolli Kuchlar olly bosh qo'mondoni Ilhom Aliyev Geranboy tumaniidagi harbiy qismda. 21.01.2012-y.



Ozarbayjon prezidenti. Qorolli Kuchlar olly bosh qo'mondoni Ilhom Aliyev Agdam tumaniidagi harbiy qismda. 21.01.2012-y.



Ozarbayjon Respublikasi Qurolli kuchlarining 96 yilligi munosabati bilan
otkazilgan Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi Ichki qoshinlar va Davlat
chegara xizmatiga qarashli qo'shilma va harbiy qismlarning birgallikdagi
operativ-taktik mashqlari. 26.06.2014-y.



Yangı Harbiy-dengiz kuchlari bazasi va yangı harbiy qismning ochilish marosimi. 25.06.2015-y.



Prezident İlham Əliyev Dövlət chegara xizmati Qırg'ıqı muxofazasının ikkinchi sinfiyə mənsub yangı chegara qo'riqlash kəməsi bilan tanışmaqdır.
13.06.2016-y.



Oliy bosh qo'mondon jangovar to'qnashuv marrasida arman armiyasining fitnasiga barham berish davomida jasorat ko'rsatgan harbiy xizmatchilarga qimmatbaho sovg'alar topshirmoqda. 1.05.2016-y.



Oliy bosh qo'mondon harbiy xizmatchilar davrasida. Esdalik uchun fotosurat. 25.06.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev mudofaa sanoatining hirinchi Ozarbayjon xalqaro ko'rgazmasi bilan tanishmoqda. 11.09.2014-y.



Prezident Ilhom Aliyev G'alaba kunida, Ulug' Vatan urushi ishtirokchilari davrasida. 9.05.2016-y.



Ilhom Aliyev va Jak Shirak. 8.04.2005-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan Buyuk Britaniya bosh vaziri Devid Kemeronnning uchrashuvi. 7.08.2012-y.



Prezident İlham Aliyevning Rossiya prezidenti V.Putin bilan uchrashuvı.
13.06.2015-y.



NANAP transanatoliya gaz quvuriga poydevor qo'yilishi munosabati bilan
otkazilgan tantanali marosim. 17.03.2015-y.



«Katta yigirmatalik» (G-20) yetakchilarining Antaliyadagi sammiti.
15.11.2015-y.



Ozarbayjon prezidenti I. Aliyev Dunyo ozarbayjonlarining IV qurultoyida.



Ilhom Aliyev bilan
Barak Ohamaning
Oq uydagi uchrashuvi.
31.03.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning
Nyu-Yorkdagi uchrashuvi. 05.05.2012-y.



BMT Xavfsizlik Kengashining Ozarbayjon Respublikasi prezidenti Ilhom Aliyev raisligidagi oliy darajadagi yig'ilishi. 4.05.2012-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan Abu-Dabi amirligining valiahdi, Birlashgan Arab Amlorliklari Qurolli kuchlari Oliy bosh qo'mondonining o'rinosbosari shayx Muhamminad hen Zold Al-Nahayyanning uchrashuvi. 10.02.2016-y.



Turkiya bosh vaziri Binali Yildirimni qarshi olishning tantanali marosimi.
3.06.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan Germaniya kansleri Angela Merkelnинг
uchrashuvi. 7.06.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan AQSH davlat kotibi Jon Kerrining Vashingtondagi uchrashuvi. 30.03.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan Turkiya prezidenti Radjev Toyip Erdo'g'onning uchrashuvi. 15.03.2016-y.



Prezident İlham Aliyev bilan Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpinning uchrashushi. 25.05.2014-y.



YEXHT Parlament Assambleyasining yillik 23-sessiyasining Bokuda ochilish marosimi. 28.06.2014-y.



Yevropa Ittifoqi Kengashi prezidenti Donald Tuskning Bokuga rasmiy tashrifи.
22.07.2015-y.



Prezident İlham Aliyev bilan Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenkoning
uchrashuvи. 28.11.2015-y.




Prezident İlham Aliyev bilan Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko ni uchrashuvdi. 28.11.2015- y.



Prezident İlham Aliyev NATOning Uelsda o'tgan sammitida ishtirot etdi. 4.09.2014- y.



Ozarbajyon prezidenti Ilhom Aliyev bilan Armaniston prezidenti Serj Sargsyanning YEXHTning Minsk guruhiiga kirgan hamrais davlatlari (AQSH, RF va Fransiya) tashqi ishlar raislari ishtirokidagi uchrashuvi. 16.05.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan Birlashgan Arab Amirliklarining vitse-prezidenti, bosh vaziri, Dubay hokimi Muhammad bin Rashid Al-Maqtumning uchrashuvi. 02.02.2016-y.



Prezident İlham Aliyev bilan Fransiya prezidenti Fransua Olland «lcherishexer» Davlat tarixiy-me'moriy qo'riqxona bo'ylah saylda.
11.05.2014- y.



Prezident İlham Aliyev bilan Qozog'iston prezidenti Nursultan Nazarbayevning uchrashuviga. 11.09.2015-y.



Prezident İlham Aliyev Tehronda o'tgan rasmiy uchrashuv marosimida.
23.02.2016-y.



Prezident Ilhom Aliyev bilan O'zbekiston Respublikasining
Birinchi prezidenti Islom Karimov uchrashuvi.



Ozarbayjon Respublikasi prezidenti Ilhom Aliyev bilan Rossiya prezidenti
Vladimir Putin va Armaniston prezidenti Serj Sargsyanning Sankt-
Peterburgdagi uchrashuvi. 20.06.2016- y.

PREZIDENT MARAFONI: TASHVISHLI VA UMIDLIVILLAR

«Ozarbayjon kelgusida nihoyatda boy va qudratli yurtga aylanadi. Hukumat bilan xalqning xohish-irodasi qudratli davlat qurishdan iboratdir...»

Ilhom Aliyev

«**H**aydar Aliyev... atrofida davlat tizimini safar-bar eta bilib, endigina vujudga kelayotgan demokratiyaning dastlabki ziddiyatlarini o'z yetakchiligi ila to'g'ri bartaraf etdi. Aslida u, sobiq ittifoq respublikalari o'tishi lozim bo'lgan asosiy yo'naliishni yengib o'tdi, ya'ni: hokimiyatni millat yetakchisi sifatida o'z qo'liga olib, umumjahon demokratik me'yorlarga to'la-to'kis javob beradigan boshqaruv institutlarni barpo etdi...»

Millatning bugungi yetakchisi bo'lmish Ilhom Aliyevning oldida mazmunan o'zgacha, yaqinda otasi hal etgan vazifalardan ancha farq qiladigan, ya'ni yurtni inqirozdan olib chiqib, me'yoriy taraqqiyot iziga solish emas, porloq kelajak sari katta qadam tashlash, davlatning sifat jihatidan yangicha iqtisodiyotini vujudga kelтирish, butun jamiyatni XXI asr talablariga javob beradigan tarzda qayta qurish vazifalari turibdi.

Ilhom Aliyev hal qilishi lozim bo'lgan vazifalar na-faqat jamoat tartibini, davlat mulki, xususiy mulk, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qiladigan samarali davlatning umume'tirof etilgan demokratiq standartlarini muntazam saqlab borish, balki ushbu davlatni global yangilanishlarning to'lqinli dengizida kelajak sari olg'a yetaklashdan ham iboratdir...»

*(Oleg Siganovning
«Ilhom Aliyev: ochiq olam» kitobidan.
Moskva, 2008-y.)*

*Estafetani otasidan
qabul qilib olgan
yosh prezident sifat
jihatdan yangi, XXI
asr talablariga
javob bera oladigan
darajaga chiqishni
o'z oldida turgan
vazifa deb bildi.*

Ushbu bobda 2003-yildan bugungi kunga qadar Ozarbayjon prezidenti tomonidan amalga oshirilgan ichki iqtisodiy siyosatning asosiy ko'rsatkich va yo'nalishlarini tahlil etishga, Ilhom Aliyevning tashabbusi bilan ro'yobga chiqarilgan keng miqyoshi ijtimoiy dastur va yangilanishlar haqida hikoya qilib berishga urinib ko'ramiz.

...Ilhom Aliyevning prezidentlik davri boshlanganida yurtimiz siyosiy-iqtisodiy barqarorlik yo'lidan borib, YIMning har yillik o'sishi qariyb 10 foizni tashkil etdi. Haydar Aliyev tomonidan ishlab chiqilgan neft strategiyasi real daromad keltira boshladi, neft-gaz loyihalari ning sur'ati jadallahdi.

Estafetani otasidan qabul qilib olgan yosh prezident sifat jihatdan yangi, XXI asr talablariga javob bera oladigan darajaga chiqishni o'z oldida turgan vazifa deb bildi.

Neftdan olingan daromad ko'rinishidagi katta manba-ga ega bo'lgach (o'sha davr konyukturasi bunga imkon bergen), Ilhom Aliyev neft bilan bog'liq bo'limgan ichki sanoat sohasini rivojlantirishga astoydil kirishib ketdi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish ishlarini davom etish, ichki investitsiyalarni rag'batlantirish masalasiga asosiy e'tibor qaratildi. Iqtisodiyot tobora ochiq tus olib, aholi import mahsulotlarga ko'nikib bordi. Shu bilan birga importga bog'liqlik ichki ishlab chiqaruvchining faoliyatini iz-dan chiqarib bo'g'adi. Prezident buni yaxshi tushunardi.

Binobarin, Ozarbayjon uchun yangi sanaladigan iqtisodiy strategiya - «Mintaqalarni (2004–2008-yillar davomida) ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi» ishlab chiqildi. Ushbu das-turda ko'zda tutilgan makroiqtisodiy vazifalar yarim milliondan ortiq ish o'rinalarini yaratish, umumiy YIMda mahsuloti xomashyo bo'limgan tarmoqning solishtirma ulushini oshirish, xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish, mintaqalardagi xususiy korxonalarga moliyaviy yordam ko'rsatishga doir maxsus dasturlarni amalga oshirish, davlat infratuzilmasini ravnaq toptirish (yo'l yotqizish, mavjud yo'llar, tibbiyot va ta'lim muassasaları, sport inshootlarini rekonstruksiya qilish) kabi tad-birlardan tashkil topdi.

*Ilhom Aliyev
Mintaqalarni
rivojlantirish
dasturini
prezidentlik davrida
qabul qilgan eng
muhim qarorlaridan
biri bo'lganini
ta'kidlab o'tdi.
Ozarbayjonning
kelgusi ravnaqi,
umuman aytganda,
aynan 2004-yili
qabul qilingan o'sha
dastur asosida
belgilab borildi.*

Mintaqalarni rivojlantirish dasturini prezidentlik davrida qabul qilgan eng muhim qarorlaridan biri bo'lganini Ilhom Aliyev bejiz ta'kidlab o'tmagan. O'sha mintaqaviy dastur, uning fikricha, Ozarbayjonning strategik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

«Bu mening dastlabki jiddiy siyosiy qadamlarim, tashabbuslarimdan biri bo'lgan. Chunki poytaxt bilan mintaqalar o'rtaсидagi nomutanosiblikni qisqartirib, butunlay bartaraf etish lozim edi. O'sha dastur aniq moliya manbalari hamda qabul qilingan qarorlar ijrosini boshqarish va nazorat qilishga doir samarali siyosat bilan mustahkamlandi. Shu bilan birga, u dastur davlatni umumiy rivojlantirish dasturiga, Ozarbayjonni strategik ravnaq toptirish va sobiq ittifoq respublikasidan istiqboli ta'minlangan rivojlanuvchi davlatga aylantirish dasturiga aylandi. Ozarbayjonning kelgusi ravnaqi, umuman aytganda, aynan 2004-yili qabul qilingan o'sha dastur asosida belgilab borildi».

(I.Aliyevning «Hokimiyat formulasi» dasturi muallifi va hoshlovchisi M. Gusmanga bergen intervusidan. 27. 12. 2011.)

2005-yildan e'tiboran yurtimizda ilgari biz olis qishloqlar yoki ovloq yerlar deb atagan obyektlarni keng miqyosda qayta qurib, har tomonlama yangilash ishlari boshlanib ketdi. Agar siz mabodo, deylik, Gabala-Sheki ga yo'l olib, Balakyan yoki Zagatali tomon burib yuborsangiz yoxud shimolga, Guba yoki Xachmas tomon yo'l olib, qadimiy Lyankiyaranni ko'zdan kechirib chiqmoqchi bo'lsangiz, u yerlarni yurtimiz markaziga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloqligiga sha-

ma qiladigan olis qishloq, ovloq joy deb atashga tilingiz aylanmaydi. Yaqinda yozgan maqolamni «Mintaqalar uchun baland daraja» deya bejiz nomlamadim. Mazkur kitobimda uni butunicha keltiraman. Chunki bu maqolam ro'y berayotgan o'zgarishlarning tub mohiyatini yoritib beradi.

Prezidentning janubiy mintaqamiz bo'ylab safari haqida publitsist va deputatning taassurotlari

«Ozarbayjonning u yoki bu tumanida, aytaylik, besh-yetti yil muqaddam bo'limgan kishiga so'nggi yillarda tom ma'noda yuz bergan inqilobiy o'zgarishlarning ko'lmini tasavvur qilish qiyin kechadi. Bundan o'n yil avval Milliy Majlisga deputat etib saylangan tumanim haqida aytib beraman. 2005-yili Masalli manzarsi kishini qattiq ranjitar edi: bir qishloqdan boshqasiga dabdalasi chiqqan yo'ldan mashaqqat-la yetib olar edik, elektr ta'minoti uzilishlar bilan, sutkada atigi bir necha soat berilar, tabiiy gaz ta'minoti esa umuman yo'q, butun tuman miqyosida bo'lganidek, mening okrugimdagи barcha maktablar avariya holatiga kelib qolgan edi. Oradan ikki-uch yil o'tgach, qishloq manzarasi jadal sur'atda o'zgara boshladi: avval-boshda elektr ta'minotidagi muammo hal etildi, shundan so'ng Masallini gazlashtirish bo'yicha keng miqyosli loyiha amalga oshira boshlandi, tumanda deyarli har yili 5 – 6 tadan, ba'zi yillari esa 10 tadan yangi maktab qurildi yoki mavjud maktablar kapital ta'mirdan chiqarildi. O'tgan yili va joriy yilda qishloqlararo va tuman markaziga eltadigan ikkinchi daramali yo'llarning o'nlab kilometriga asfalt yotqizildi. Faqat

shahardagina emas, qishloqlarda ham ko'plab sport obyektlari qurildi. Masalan, mening qishlog'im Boridigaxda ujoyib sport markazi barpo etilib, unda sportning har xil turlari bilan shug'ullanish imkonи bor. Aytgancha, o'sha sport markazi muqobil energiya vositasida ishlaydi. Bu esa yurtboshimiz tashabbusi bilan serquyosh respublikamizda buniyod etilayotgan yana bir innovatsion yo'naliш sanaladi. Nihoyat, Ilhom Aliyevning shaxsan bergen topshirig'iga binoan yuz minglab masalliliklarning ushalmas orzusi ro'yobga chiqadigan, ya'ni aholisi 110 ming kishini tashkil etadigan qariyb 40 ta qishloq ichimlik suvi bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Ikkita qishloq shifoxonasi rekonstruksiya qilindi. Ularda qurilish ishlari yakuniga yetgach, boshqa tumanlarda bo'layotgan kabi eng zamonaviy tibbiyot asboblari bilan jihozlanmoqda, mahalliy shifokorlar esa Bokuda qayta tayyorgarlikdan o'tishmoqda yoki malaka oshirish uchun Turkiyaga yuborilmoqda...

Yaqin-yaqingacha Ozarbayjon shifokorlari, deylik, ko'rish qobiliyatini eksimer-lazer korreksiyalash yoki glaukoma kabi murakkab operatsiyani tuman shifoxonasida o'tkazishlarini tasavvurga sig'dirish qiyin edi. Bugun esa bunday operatsiyalar kundalik muolajaga aylanib, Zarifa Aliyeva nomidagi klinik kasalxonaning Masalli filialida amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Masalli shahar markaziy klinik kasalxonasi kapital tu'mirdan chiqib, qayta jihozlanish arafasida turibdi. Ushbu kasalxona ishga tushgach, masalliliklarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat ko'lami yana-da kengayadi. Masalan, shifoxonada buyrak faoliyatining yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlar uchun dializ markazi ochilib, ular gemodializ o'tkazish uchun Lyank-

yaran yoki Jalolobodga qatnashi shart bo'lmaydi. Masallilik bir necha shifokor Turkiyada, tuman aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish uchun tahsil ko'rishmoqda.

Bunday quvonchli o'zgarishlarni uzoq sanash mumkin. Shaxsan men uchun bir narsa ayon: Ozarbayjonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida ulkan qadamlar qo'yildi. Yana bir narsaga shubha yo'q: ushbu quvonchli o'zgarishlarning ilhomchisi va yetakchisi yurtboshimiz Ilhom Aliyev bo'ladi.

Albatta, e'tiroz bildirishlari mumkin menga skeptiklar, neftingiz bor, gazingiz bor, strategik ahamiyatga ega bunday manbalar savdosidan yirik daromad topasiz, shunday ekan, iqtisodiyotingiz rivoj topadi-da, albatta, deb. Shoshmang, birinchidan, dunyoda neft va gazga boy birtalay davlatlar borligini, garchi ular bir necha o'n yillar davomida neft-gaz «ignasiga o'tirib» qolgan bo'lishsa-da, yurtida ravnaq kuzatilmasligini bilamiz. Ikkinchidan, Ozarbayjonda neft sohasi ravnaqining ijobiy dinamikasi yil sayin oshib bormoqda va prezidentning shijoatiga qaraganda, bundan keyin ham oshib boraveradi. Uchinchidan, neft va gaz savdosidan tushgan daromadni oqilona sarflashni bilish, tushgan mablag'ni yurt aholisining turmush darajasini ko'tarishga yo'naltirish, xorijdagi biznesga aktivlar qo'shish lozim. Ozarbayjon Davlat neft kompaniyasi ushbu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirib bormoqda.

Bundan bir necha yil muqaddam muxolifat vakillari prezidentimizni davlat byudjeti asosan yirik investitsiya va sarmoyalarga yo'naltirilayotgani uchun qattiq tanqid qilishgan edi. Ular hokimiyatni neftdan olinayotgan daromadning katta qismi sarf etib yuborilayotganida ayb-

lashdi, holbuki, bu sarmoya, tanqidchilarning fikricha, qimmatbaho qog'ozlar, zaxira fondlar sifatida, xorijdagi yirik banklarda omonat shaklida saqlanishi lozim bo'l-gan. Bugungi kunga kelib, o'sha tanqidchilarning ovozi deyarli chiqmay qoldi. Chunki kelgusi avlodning allaqanday to'qima manfaatlari yo'lida neftdan olingan daromadining yirik oqimini muzlatish siyosati qanday xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkinligini qo'shni davlatlar misolida aniq ko'rishdi. Tomdan tarasha tushganday, jahon miyosida moliyaviy inqiroz qaror topgan yillari har xil zaxira fondlar hisobida yotgan mablag'lar qariyb ikki barobar qadrsizlanib ketdi. Oqibatda, o'sha mablag'lar tegishli davlatning kelgusi avlodi nari tursin, bugungi avlodi ham foydalana olmaydigan darajada gum bo'ldi. Ozarbayjonning moliyaviy oqimlari esa qochoqlar uchun obod shaharchalarga, Qorabog' urushi nogironlari uchun xonadonlarga, maktab va universitetlarning yangi binolariga, o'nlab zamonaviy ka'prik va ostin-ustun o'tadigan transport chorrahalariga, ijtimoiy va madaniy infratuzilma obyektlariga aylandi. Muhimi, ushbu obyektlarning bari respublika aholisining bugungi avlodiga ham, kelgusi avlodiga ham uzoq xizmat qiladi. Binobarin, Ozarbayjon prezidentining iqtisodiy strategiyasidan olingan tajribani o'rganib borishar ekan, jahoning eng taniqli iqtisodchilari tasanno o'qib, ushbu tajribani juda samarali deb topishmoqda. G'arb jamiyatshunoslarining mulohazalariga qaraganda, Ozarbayjon prezidenti say-yoramizdagи yuksak ishonch qozongan jahon yetakchilarи safiga kirgani, yurtimizda ro'y berayotgan ijobiyl o'zgarishlarga esa «Ozarbayjonning iqtisodiy mo'jizasi», deya nom berilgani bejiz emas.

Yaqinda Ilhom Aliyev respublikaning janubiy mintaqasiga tashrif bu-yurdi va biz, deputatlar, prezidentning mahalliy aholi, o'z jamoasi, mahalliy hokimiyat vakillari bilan muloqot qilish tarzi va o'ziga xos xususiyatlarini yaqindan kuzatish imkoniga ega bo'l-dik. Shu munosabat bilan ayrim mulo-hazalarimni aytib o'tishga jur'at eta-man. Birinchidan, yurtboshimizning mintaqaviy siyosati bugungi kunga ke-lib ijtimoiy mazmun kasb etgani aniq. Ya'ni davlat mablag'i, avvalambor, aholining turmush darajasini oshirish, kundalik ehtiyojlarini qondirishga, xususan: tabiiy gaz, ichimlik suvi ta'mi-notiga, zamonaviy oqova suv tizimini barpo etishga, maktab, shifoxona va diagnostika markazlari qurilishiga yo'naltirilmoqda. Ma'muriy binolar qurish, infratuzil-mani rivojlantirish, obodonlashtirish ishlariga kelsak, bu ishlar, ijro hokimiyatining ichki imkoniyatlari va xususiy tadbirdorlarning tashabbuslari hisobiga amalga oshiril-moqda. Masalan, Masallida, prezident tashrif buyurgan kuni bir emas, ikkita sport obyekti, xususan: taekvando va boks markazlari foydalanishga topshirildi. Ushbu obyektlar va «Yangi Ozarbayjon» partiyasining yangi binosi mahalliy tadbirdorlarning sovg'asi bo'ldi. Davlat hisobidan biror tiyin ham sarf etilmadi.

Aytganday, ijro hokimiysi rahbarlari haqida. Muxo-lifatga mansub OAVning uydirmalari va tarqatayotgan

G'arb jamiyat-shunoslarining mulohazalariga qaraganda, Ozarbayjon prezidenti sayyoramizdag'i yuksak ishonch qozongan jahon yetakchilari safiga kirgani, yurtimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga esa «Ozarbayjonning iqtisodiy mo'jizasi», deya nom berilgani bejiz emas..

mishmish gaplariga qaramay, mahalliy tuzilmalarga davlat byudjeti yoki prezidentning zaxira fondidan ajratilgan har bir manat sarfi haqida tuman rahbarlari yuqori pog'onadagi rahbarlarga hisobot berib borishadi. Boz ustiga, ajratilgan mablag'dan qoniqmagan bir qator tuman rahbarlari, o'z tasarrufidagi tumanni obodonlash-tirish uchun shaxsiy mablag'ini ham sarflashadi. Chunki ularning aksariyati o'tmishda boy bo'lib, hokimiyatga biznesdan kelishgan. Katta va o'rta biznes vakillarining min-taqa obodonchiligiga qo'shayotgan ulushi bugungi kunda sezilarli bo'lib, aytish mumkinki, sobiq ittifoq makonida uchramaydigan mutlaqo yangi voqelikdir. Rossiyadan tashrif buyurgan amaldorlar-u deputatlar ushbu masalada bizdan o'rgansa bo'ladijan ko'p narsalar borligini ochiqdan-ochiq e'tirof etishmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, hokimiyatning prezidentimiz barpo etgan aniq vertikali benazir ishlab, mahalliy kadrlar to'g'ri tanlanishi bilan bir vaqtda samarali natija bermoqda.

Ikkinchchi kuzatuv: prezident qisqa muddatga tashrif buyursa-da, har bir tumandagi vaziyatni yaxshi biladi. Avvalgi tashrifi davomida qayerda qanday obyektlarni ochib ketganini, qaysi masalalar o'z yechimini topmay qolganini va birinchi navbatda qanday choralar ko'rish kerakligini yaxshi eslaydi. Shunday ekan, noto'g'ri yoki bo'yab-bejalgan ma'lumotni taqdim etish borasidagi har qanday urinishga qat'iy barham beradi. Yaxshisi, mavjud qiyinchiliklar, hal etilmagan muammolar, yo'l qo'yilgan xatolar haqida ochiq-oydin aytgan, undan yordam so'ragan ma'qul. Prezidentimiz samimiylilik, to'g'riso'zlikni xush ko'radi.

Jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvlarda ham u ochiq suhbat olib borishga urinadi. Suhbatdoshlariga «Yana qanday muammolar ringiz hal etilmay qolmoqda?», «Qanday takliflar ringiz bor?» kabi savollar bilan murojaat qilar ekan, ularni amaliy fikr almashishga, bahs-munozara olib borishga da'vat etadi. Suhbat davomida o'z yechimini kutayotgan qo'shimcha muammolar aniqlanadi. Xalqimizga ham bunday muloqot manzur bo'lmoqda. Qizig'i shundaki, agar ilgari yurtboshimiz bilan suhbatda xalq asosan o'tkir ijtimoiy muammolar yechimi haqida gap ochgan bo'lsa, endilikda ma'naviy, madaniy mavzularni ko'tarib chiqmoqda. Masalan, Masalliga tashrifi davomida mahalliy jamoatchilik vakillari respublikaning otaxon ansamblaridan biri bo'lmish «Xalay» folklor ansambliga davlat teatri maqomini berishni, shuningdek aholi zichligi jihatidan respublikada birinchi o'rinni egal-lagan Masallida o'ziga xos talabalar muhitini barpo etish maqsadida, texnikum yoki biron-bir oliy ta'lim muassasa-sining filialini ochish masalasini o'ylab ko'rishni iltimos qilishdi. Har ikkala taklif prezidentga ma'qul bo'lib, shu zahoti zaruriy topshiriqlar berildi.

Yana bir kuzatuv: prezidentning u yoki bu mintaqaga har bir safari nafaqat yangi ish o'rinalarning yaratilishini, yangi ijtimoiy va madaniy obyektlarning ochilishini, balki ushbu safarlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy dastur va loyiha-larning ro'yobga chiqishi, yangi vazifalar belgilanishini, buning uchun kuchli turtki berilishini ham anglatadi. Masallini tark etar ekan, prezident mahalliy hokimiyat oldiga ikkita muhim vazifa belgilab ketdi: kelasi yilning oxirigacha tuman dashtidagi qishloqlarga ichimlik suv ta'minoti quvurlarini yotqizish ishlarini yakuniga yetka-

zish hamda tuman markaziy shifoxonasining qurilishi va modernizatsiyalash ishlarini oxiriga yetkazish vazifalarini qo'ydi. Ishonch-la aytish mumkinki, ushbu ishlar va boshqa loyihalar ijrosi o'z vaqtida nihoyasiga yetkaziladi.

«Jamiki muvaffaqiyatlarimiz zamirida kuchli iqtisodiyot, puxta o'ylangan iqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar bor», – dedi janob prezident Bilyasuvar jamoatchiligi bilan o'tgan uchrashuvda. Bundan tashqari, o'z xalqiga xizmat qilishni o'zining birinchi navbatdagi burchi, deb bilgan davlat rahbarining siyosiy irodasi ham bor».

Bir yil ichida yotqizilgan yo'llar, qurilgan ko'priklar, mакtablar, shifoxonalar, muzeylar, sport maktablari kabi obyektlar soniga ko'ra, yurtimizni Ginnes rekordlar kitobiga kiritsa bo'laveradi. Ushbu obyektlarning bari Ozarbayjonning ko'rkiga ko'rк qo'shib bormoqda.

Yana bir jihat tahsinga loyiqdir: yangidan qurilgan obyektlarning deyarli hammasini davlat rahbarining shaxsan o'zi tekshirib chiqib ochadi. Aftidan, u «ishongin-u, tekshirgin» mazmunidagi oqilona hayotiy qoidaga amal qilsa kerak. Qurilayotgan obyektni prezidentning shaxsan o'zi qabul qilishini bilgan quruvchilar, darhaqiqat, o'z ishlarini a'lo darajada bajaradilar.

Prezident olib borayotgan ichki siyosatning ijtimoiy mazmuni davlat byudjeti misolida aniq ko'rindi. Bugungi inqiroz sharoitida ham davlat byudjetining ijtimoiy sohaga doir – u pensiya yoki ijtimoiy nafaqa to'lovi bo'ladi, mакtab, shifoxona, diagnostika markazi kabi

obyektlar qurilishi bo'ladimi, – birorta ham buromad qismi qisqartirilmayapti.

Chunonchi, 2011-yili sog'liqni saqlashga sarflangan xarajatlar 2009-yilga nisbatan 22,6 foizga, 2010-yilga nisbatan esa 15 foizga oshdi. Respublikamizda Talasse-miya markazi paydo bo'lib, bu yerda yurtimizning turli burchaklaridan kelgan bolalar bepul davolanishmoqda, Onkologiya markazi va Bolalar onkologiyasi markazi yangidan qurilib, modernizatsiya qilindi, deyarli barcha yirik tumanlarda zamonaviy tibbiy asboblar bilan jihozlangan diagnostika markazlari faoliyat boshladi, ushbu markazlarda buyrak faoliyatining surunkali yetishmov-chiligini davolash muolajalari gemodializ apparati vositasida mutlaqo bepul amalga oshirmoqda. Respublika miqyosida sil va saraton kasalligiga chalinganlar, qandli diabet bilan og'riganlar, umumiy skleroz, OITS yuqtirgan bemorlar va ko'plab boshqa turdag'i kasallikka chalinganlar tegishli dori-darmonlar bilan bepul ta'minlanmoqda.

2012-yilgi davlat byudjetida aholining kam ta'minlangan tabaqasiga 800 million manat (1 mlrd dollar!) miqdorida nomma-nom ijtimoiy yordam ajratildi. Bundan tashqari, shu yilning o'zida ta'limga ajratilgan xarajatlar miqdori 2011-yilga nisbatan 12,6 foizga, ijtimoiy sohaga 10,5%, madaniyat, axborot va sport sohalariga 16,6 foizga oshdi. Yana bir misol: ijtimoiy sohaga doir xarajatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2013-yili davlat byudjetida ijtimoiy sohaga 2003-yilga nisbatan 7 barobar ko'p mablag' ajratilibdi. Hatto bir qadar qiyin kelgan, neft savdosidan olinayotgan daromad (Ozarbayjon uchun asosiy daromad manbai) bir necha barobar tus-

hib ketgan joriy inqiroz yilida ham prezident byudjetning ijtimoiy paketga mo'ljallangan biror-bir qismini qisqartirishga ruxsat bermadi. Aksincha, pensiya va moshlar miqdori 10 foizga oshirildi.

Ozarbayjon prezidenti tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat mazmuni haqida, Milliy Majlisning Mehnat va ijtimoiy siyosat qo'mitasining raisi, professor Xadi Rajabli bunday deydi:

«Turli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida aholining turmush tarzi keskin o'sdi, odamlarning qashshoqlik darajasi pasaydi, muhimi - ular kechirayotgan hayot sifati tubdan yaxshilandi. Gap shundaki: janob prezident hukumatni u yoki bu sohadagi qoloqlikning oqibatiga emas, sababiga qarshi kurashga da'vat etmoqda. Mana, masalan: uning tashabbusi bilan yurtimiz tumanlarida mahalliy aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashga doir keng miqyosli dasturning ijrosiga kirishildi. Bu, albatta, katta xarajatlarni talab etdi, biroq ichimlik suvining sifati yaxshilanishi natijasida o't pufagi va buyrakda tosh hosil bo'lish holatlari, buyrak faoliyatining surunkali yetishmovchiligi kabi kasalliklar soni keskin kamaydi. Ozarbayjonda istiqomat qiladigan odamlarning aksariyati qalqonsimon bez kasalligidan aziyat chekar edi. Prezident hukumat e'tiborini mana shu muammoni hal etishga qaratdi. Bugungi kunda respublikada ishlab chiqarilayotgan tuz xalqaro me'yorlarga qat'iy rioya qilgan holda yodlashtirilmoqda. Turli yo'nalishlarga taalluqli o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

So'nggi o'n ikki yil ichida 1 million 500 mingga yaqin ish o'rnlari yaratilib, ulardan 1 millioni doimiy sana-

ladi. Bu vaqt ichida Ozarbajjonda aholi soni ham oshdi. Bu ham yurt ravnaqidan dalolat beradi. 2003-yili Ozarbajjonda aholi soni 8,4 million kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, joriy yilga kelib 9,7 million kishiga yetdi. Ya'ni aholi soni 1 million 300 ming kishiga oshdi. Bu bizning yuqorida aytigandek, rivojimiz, jumladan, ijtimoiy taraqqiyotimiz belgisidir.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan muhim ijtimoiy tashabbuslarni, masalan, aholining 1991 – 1992-yillari muzlatilgan bank omonatlari qaytarib berilgani (ushbu maqsadga davlat byudjetidan 1 milliarddan ziyod manat ajratilgani), 2011-yili amalga oshirilgan pensiya tizimining keng miqyosli islohotini va buning natijasida pensiya turlari 40 foizga oshgani, kam ta'minlangan oilalarga nomma-nom ijtimoiy yordam ko'rsatilganini, Qorabog' urushi nogironlari uchun uylar qurilganini, yurtimizning hududiy yaxlitligi uchun olib borilgan janglarda qurban bo'lganlarning farzandlarini, ikkala ota-onasidan judo bo'lgan yetimlarni, qochoqlar va majburan ko'chirilganlarning farzandlarini oliy ta'lim muassasasiga pul to'lashdan ozod etilganini (pullik bo'limga o'qishga kirgan bo'lsa) va shu kabi ko'plab ishlarni eslab o'tmoq joiz.

Tadbirkorlik rivoj topib borishiga davlat katta yordam berib, ham siyosiy, ham moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab bormoqda. So'nggi 12 yil ichida tadbirkorlarga imtiyozli 1 milliard 700 million manat miqdorda kredit ajratildi. Agar joriy yil ham qo'shib hisoblanadigan bo'lsa, bu mablag' 2 milliard manatni tashkil etadi. Davlat tomonidan berilayotgan ushbu yordam ancha salmoqlidir. Ushbu yordam evaziga prezident tadbirkorlardan yangi ish o'rirlari yaratilishini, ishlab chiqarish uchastkalari

kengaytirilishini, faoliyat yuritayotgan mintaqalarda ijtimoiy mas'uliyatni his etishni talab etmoqda».

Darhaqiqat, «Mintaqalarni 2014–2018-yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi» ro'yobga chiqarilishining yakunlariga doir so'nggi konferensiyada (yurtboshimiz ishtirokidagi bunday konferensiyalar ba'zan yilda ikki marta o'tkazib boriladi) yangi ish o'rirlarini yaratish masalasiga Ilhom Aliyev alohida e'tibor qaratgan edi.

Ilhom Aliyevning chiqishidan:

*...o'tgan 12 yil
ichida yurtimizda
70 mingdan ziyod
korxona ochilib,
ularning umumiy
soni qariyb 100
mingga yetdi.*

«Joriy yili yangi ish o'rirlarining yaratilishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ta'kidlab o'tganimdek, ba'zi ish o'rirlari tugatiladi... 1 million doimiy ish o'rirlari yaratildi, lekin aholi soni ham 1 million 300 ming kishiga oshdi. Bu esa, yangi maktablar, yangi bolalar bog'chalarini qurish, yangi yo'llar yotqizish kerakligini anglatadi.

Menga berilgan bildiruvga ko'ra, o'tgan 12 yil ichida yurtimizda 70 mingdan ziyod korxona ochilib, ularning umumiy soni qariyb 100 mingga yetdi. Ular orasida yirigi ham, maydasi ham bor, albatta. Agar tadbirkorlar ushbu masalaga ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan yondashib, ishsiz odamlarni ishga olishsa yoki qisqartirilishi nazarda utilgalarni qisqartirishmasa, o'ylashimcha, mushtarak ishimizga hissa qo'shgan bo'lishadi, chunki ijtimoiy mas'uliyat shundan iboratdir. Shu bilan birga

Mehnat va aholining ijtimoiy muhofazasi vazirligi bilan Ozarbayjonning davlat kompaniyalariga hamkorlikda ish olib borishga doir tegishli topshiriq berdim.

Davlat kompaniyalarida bandlik boshqarmasiga murojaat qilgan odamlarni ish bilan ta'minlash uchun yangi vakansiyalar ochish zarur. Takror aytib o'tmoq-chiman: biz bozor iqtisodiyoti sharoitida yashamoq-damiz va ushbu tamoyildan chekinmaymiz. U yoki bu kompaniyada qancha odam ishlashi kerakligini, qancha mahsulot ishlab chiqarish kerakligini bozorning o'zi hal qilishi lozimligini hammamiz yaxshi tushunib turibmiz. Shu bilan birga muvaqqat yoki doimiy ish o'rinalarini yaratish jarayonlari boshlanishi zarur deb hisoblayman. Bokudagi va barcha mintaqalarimizdagi davlat kompaniyalari Mehnat va aholining ijtimoiy muhofazasi vazirligi bilan birga namuna ko'rsatishlari lozim. Ishsiz qolgan odamlar ushbu boshqarmalarga murojaat qilishsin va ishonchim komilki, biz ularni ish bilan ta'minlash imkonini topamiz. Binobarin, bu ishni bиринчи bo'lib davlat kompaniyalari amalga oshirishi kerak. Xususiy sektor ham ushbu omilni nazarda tutishi lozim. Ayniqsa, Ozarbayjonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash ishlari olib borilayotgani, tegishli topshiriqlar berilib, sohaga oid farmoyishlar chiqarilgani inobatga olinadigan bo'lsa, ushbu masala doimiy e'tibor markazida bo'lishi shart. Xalqaro moliya idoralari, ushbu yo'nalishda olib bora-yotgan ishlarimizga yuksak baho berishmoqda. Xalqaro bank o'zining Doing Business hisobotida Ozarbayjonga yuqori o'rinda ko'rsatib kelmoqda. Davos xalqaro iqtisodiy forumi davlatlar iqtisodiyotlarining raqobatbar-doshligi bo'yicha Ozarbayjoni 40-o'rinda ko'rsatdi.

Jahon miqyosida 40-o'rinda bo'lsak, MDHga a'zo davlatlar orasida birinchi o'rindamiz...»

Ushbu konferensiyalarda yurtboshimiz hukumat oldiga xorijiy investitsiyalarni neft bilan bog'liq bo'lma-gan sohalarga, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirish vazifasini qo'ydi. Eksport sohasini rag'bat-lantirish uchun bir qator amaliy choralar, shu jumladan, qonun chiqarish pog'onasida ham ko'rildi. Xususan, Iqtisodiyot vazirligi Ozarbayjondagi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarib, jahon bozoriga olib chiqayotgan tadbirkorlarga havola etiladigan imtiyozlar tizimini ishlab chiqmoqda. «Eksport salohiyatimizni oshirishimiz kerak, – ta'kidlab o'tdi prezident Vazirlar Mahkamasining yig'ilishlaridan birida. – Ishonchim komilki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq islohotlar natijasida, – mahsuldarlikni oshirish, subsidiyalarning ochiq-oydinligini ta'minlash, ko'p miqdorda qishloq xo'jaligi texnikasini xarid qilish va shu kabi boshqa chora-tadbirlar natijasida, yanada katta eksport imkoniyatimiz vujudga keladi va bizning tobora oshib borayotgan ichki ehtiyojlarimiz Ozarbayjonda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlaridan oshmaydi. Binobarin, eksport salohiyatimizni oshirib borishimiz kerak, yangi eksport bozorlarini izlashimiz, jahon bozoriga chiqishimiz lozim».

2015-yilni prezidentimiz «Qishloq xo'jaligi yili» deya e'lon qilib, yurtimizning oziq-ovqat xavfsizligini ustuvor masala sifatida belgiladi. «Oldimizda turgan vazifa – o'zimizni-o'zimiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan 100% ta'minlashdan iboratdir, – dedi Ilhom Aliyev Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yanvar oyida o'tgan yig'ilishi-da. – Oziq-ovqat xavfsizligi, deb shunga aytildi».

Binobarin, prezidentning fikricha, Ozarbayjonda har yili «Qishloq xo'jaligi yili» bo'lishi va bu sohaga o'ta jiddiy e'tibor qaratilishi lozim.

So'nggi vaqtida Ozarbayjon prezidentini qishloq xo'jaligi ishlari uchun yaroqli yerlarning katta qismi boshqa maqsadda ishlatilayotgani, ba'zan esa umuman foydalanilmay yotgani tashvishga solmoqda. Ma'lumki, Haydar Aliyevning tashabbusi bilan 1996-yil 2-avgust kuni «Yer islohoti to'g'risida»gi Ozarbayjon Respublikasi Qonuni qabul qilinib, yerga xususiy mulkdorlik e'lon qilingan edi. Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, hech qachon o'z yerining mulkdori bo'lмаган Ozarbayjon dehqonchiligi hayotida bu tarixiy hodisa bo'ldi.

Islohotlar natijasida respublikadagi 2032 ta xo'jalik, ya'ni kolxoz va sovxozi va tugatilib, ekin ekishga yaroqli hosildor yerlar esa aholi orasida taqsimlandi. Dushman bosib olgan hududlardan tashqari, 870 ming oila, ya'ni 3,5 million kishi yer maydoniga ega bo'ldi. Yerga nisbatan mulkdorlikning uchta shakli belgilandi. Ozarbayjonning yagona yer fondini tashkil etadigan 8 641 506 hektar yerdan 4 913 639 hektari (56,9%) davlat mulki sifatida qoldirildi, 2 032 744 hektar yer (23,5%) maydoni munitsipal mulk, 1 695 123 hektar (19,6%) yer esa xususiy mulk sifatida belgilandi. Yillar o'tib, munitsipalitetdan katta miqdorda yer maydonini sotib olgan, shuningdek, davlat yerini uzoq muddatga ijara qilganda olgan xususiy sektor ancha kengaydi. Samaradorlik esa har doim ham bir xilda bo'lmayapti. Yoqilg'i va o'g'it uchun subsidiyalar ajratilishi, ekiladigan urug' fondi bepul berilishiga qaramay, samaradorlik kutilgan darajada bo'lmasdi. Prezidentning fikricha, «bugungi kundagi natija ajratilgan subsidiyalar

hajmiga mos kelmayapti. Natija katta va samarali bo'lishi shart». Vaziyatdan chiqish yo'lini Ilhom Aliyev yer maydonlarini birlashtirib yiriklashtirish, katta fermer xo'jaliklarini tuzish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llay biladigan agrar sohaga xizmat ko'rsatadigan kuchli korxonalar yaratishda ko'rdi. Shu munosabat bilan prezidentni 2013-yili mintaqaga tashrifi davomida tanishib chiqqan Agstafi agrar sohaga xizmat ko'rsatish korxonasi qiziqtirib qoldi.

*Oldimizda turgan
vazifa – o'zimizni-
o'zimiz oziq-ovqat
mahsulotlari
bilan 100%
ta'minlashdan
iborattdir, –
dedi Ilhom
Aliyev Vazirlar
Mahkamasining
2016-yil yanvar
oyida o'tgan
yig'ilishida.*

Birinchidan, ushbu korxonani yaratish jarayonida xususiy sektor bilan davlat sektori o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi – Ozarbayjon davlat investitsiya kompaniyasining ulushi 25 foizni, Germaniyaning «RAO Global Grup» nomli kompaniyasining ulushi 75 foizni tashkil etdi. Ozarbayjon davlat investitsiya kompaniyasi qishloq xo'jaligi sohasiga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida tuzilgan edi. Ikkinchidan, prezidentga ko'rsatilgan texnika, umuman agrotexnik masalalarga yondashuv bugungi xalqaro stan-

dartlarga javob berib, ijobiliy xalqaro tajribaga mos keladi. Oqibatda, chekka xo'jaliklar ixtiyoridagi yer maydonlarining hosildorligi gektariga 50 – 60 sentnergacha oshirildi, holbuki, bunday ko'rsatkich davlat miqyosida 25 sentnerni tashkil etar edi. Prezident Agstafi agrar sohaga xizmat ko'rsatish korxonasining faoliyati bilan

tanishib chiqqach, keng dasturni davlat bo'ylab amalga oshirish, kerak bo'lsa, qo'shimcha kreditlar ajratishni nazarda tutish lozim, degan xulosaga keldi.

«U yerda menga aytishlaricha, barpo etilgan korxonaning texnik imkoniyatlari bilan qariyb 15 ming hektar ekin maydoniga agrotexnik xizmat ko'rsatilishi mumkin bo'lar ekan. Agar biz 10, 20, 50 ta ana shunday korxona yaratsak, oziq-ovqat xavfsizligini sezilarli darajada kuchaytirish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois vazirliklar ikkinchi chorakda menga qo'shimcha takliflar taqdim etishi lozim: agrar sohaga xizmat ko'rsatadigan o'xshash korxonalarini qayerda yaratishimiz mumkin? Qanday qilib davlat ularni qo'llab-quvvatlab borishi mumkin? Xususiy sektorni qanday qilib rag'batlantirishimiz mumkin?..»

Ozarbayjon prezidenti xususiy sektorni rag'batlantirishdan tashqari, yer fondidan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qator qonunchilik tashabbuslarini ilgari surdi. Jumladan, uning tashabbusi bilan 2016-yili Ma'muriy qonunbuzarlik kodeksiga kiritilgan tuzatishlarga muvofiq, endilikda qishloq xo'jaligining yer maydonlaridan o'z vazifasiga mos kelmagan maqsadda foydalanganlik uchun yirik miqdorda pul jarimasi solinadi. Yer kodeksiga ham prezidentning taklifiga ko'ra o'zgartirish kiritilgan bo'lib, agar jismoniy yoki yuridik shaxs yer maydonidan, o'z vazifasiga mos kelgan maqsadda foydalanmasa yoxud uzrli sabablarsiz ketma-ket ikki yil davomida umuman ishlatmasa, ushbu yerga bo'lgan huquqi cheklanishi mumkin. Ushbu choralar qat'iy bo'lsa-da, qishloq xo'jaligidagi vaziyatni tubdan yaxshilashga, bugungi kunda yuz minglab bo'limasa

ham, o'n minglab gektar ishlatilmayotgan yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan.

2016-yil yozida prezident Konstitutsiyaviy sudga Asosiy qomusimizning bir qator moddalariga o'zgartirish kiritish maqsadida Referendum o'tkazishga doir hujjatni ko'rib chiqish uchun taqdim etdi. Taklif etilgan o'zgarishlar orasida ijtimoiy adolatni tiklab, yerlardan yanada samarali foydalanish maqsadida yerga nisbatan mulkdorlik huquqini cheklash imkonini ham bor. Ozarbayjonda mulkning qaytadan taqsimoti o'tkazildi, degan fikrdan uzoqman, ammo ushbu o'zgarishlar umumxalq referendumi orqali kiritiladigan bo'lsa, ayrim yirik yer maydoni sohiblari yerga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirishlari, undan oqilona foydalanishlari kerak bo'ladi¹...

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida Ilhom Aliyevning tashabbusiga ko'ra, Ozarbayjonda yirik meliorativ loyihalari amalga oshirildi. Masalan, Taxtakerpyu va Shamkirchay suv omborlari qurildi. Samur-Absheron kanalini rekonstruksiya qilish loyihasining ijrosi ta'minlandi. Boshqacha qilib aytganda, Ozarbayjon aholisi endilikda Samur suvidan ham ichimlik suvi sifatida, ham melioratsiya maqsadida foydalanmoqda, garchi buning uchun ko'plab muammolarni hal etish, qo'shni Dog'iston bilan ushbu masalada bir to'xtamga kelishga to'g'ri kelgan bo'lsa-da. Natijada tez orada shimoli-sharqiy hududlardagi o'n minglab gektar yangi ochilgan ekin maydonlari sug'oriladigan bo'ladi. Bu esa yangi fermer xo'jaliklarini tuzish demakdir.

¹ Ozarbayjonda 2016-yil 26-sentyabr kuni o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra, ushbu o'zgartishlar saylovchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilindi.

Ozarbayjonda turizm sohasi ham ancha yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Buning uchun yurtimizda o'tkazib borilayotgan nufuzli xalqaro forumlar va sport musobaqalari katta omil bo'lmoqda (bu haqda alohida to'xtalib o'tamiz). So'nggi 12 yil ichida Ozarbayjonda 300 ga yaqin mehmonxona qurildi. Bugungi kunda respublikada Shahdag, Naftalan kabi jahon darajasi-dagi kurortlar mavjud. Gabala xalqaro kurort markaziga, Galaalti esa davolash kurort markaziga aylan-di. Naxchivanda Duzdag kurort markazi barpo etildi. Sayyohlar oqimi oshirilishini ta'minlash maqsadida qonun chiqarish pog'onasida vizalarni rasmiylash-tirishni soddalashtirishga doir qo'shimcha choralar ko'rildi. 2016-yilning 26-yanvarida bo'lib o'tgan konfe-rensiyada sayyoohlarning Ozarbayjonga bo'lgan qiziqi-shini oshirish uchun prezident tomonidan tegishli vazirliklar oldiga an'anaviy xalq hunarmandchiligidizni, jumladan, gilam to'qish sohasini rivojlantirish vazifasi qo'yildi...

Asosiy vazifasi kam ta'minlangan oilalarga imtiyoz- li shartlar bilan beriladigan (ijtimoiy uy-joy deb atala-digan) turarjoy qurish bo'lmish Davlat uy-joy qurish agentligining 2016-yili tashkil etilgani – prezidentning dolzarb pallada ko'rsatgan tashabbuslaridan biri bo'ldi. So'nggi 5 – 6 yil ichida yurtimizdagi demografik vaziyat yaxshilanib, tug'ilgan chaqaloqlar soni, ayniqsa, qishloq hududlarida ancha oshdi, shu bois yosh oila uchun xususiy uy-joy masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Prezidentning ishonchi komilki, ijtimoiy uy-joylarning keng ko'lamda qurilishi, birinchidan, ushbu muammoni hal etish, ikkinchidan esa, Ozarbayjonning bugungi kun-

da davri yaxshi chopmagan qurilish bozorini sezilarli jonlantirish imkonini beradi.

Yurtimizda qochoqlar va majburan ko'chirilganlar muammosini hal etish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda (garchi ushbu muammo o'z yechimini Armaniston qo'shirlari bosib olingen hududlarimizni tark etib, qochoqlar o'z uylariga qaytishganda topsa-da).

2001 – 2002-yillari Haydar Aliyev qochoqlarning ijtimoiy-maishiy ahvolini yaxshilash,

*Ushbu siyosatni
davom ettirgan
Ilhom Aliyev
respublika
hududidagi chodirli
shaharchalarni yo'q
qilib, o'rniga o'nlab
zamonaviy, hududi
va tevarak-atrofi
obodonlashtirilgan
shaharchalar
barpo etdi.*

ularni joylashtirishga doir bir nechta farmon chiqargan. Shu maqsadda Davlat neft fondidan 359 million manat ajratildi. Ushbu mablag' hisobiga zaruriy infratuzilmaga ega bo'lgan 18 ta shaharcha qurildi, bunda yangi turarjoy massivlariga ko'chib o'tayotgan odamlarga bir martalik yordam va yer maydoni ajratildi.

**Ushbu siyosatni davom ettirgan
Ilhom Aliyev respublika hududidagi chodirli shaharchalarni yo'q qilib, o'rniga o'nlab zamonaviy, hududi va tevarak-atrofi obodonlashtirilgan shaharchalar barpo etdi.**

Qochoqlar va majburan ko'chirilganlarning ijtimoiy muhofazasini kengaytirish siyosati bugungi kungacha davom etmoqda. Ozarbayjon prezidenti qurilish ishlarining o'ziga har yili 300 million manat ajratmoqda, natijada to'rt-besh ming majburan ko'chirilgan va qochoq oilalar, ya'ni kamida 20 ming kishi yangi uylarga ko'chib kirishmoqda.

...O'z yurtini iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga intilar ekan, prezidentimiz ilmiy-texnik taraqqiyot sari eltadigan ilg'or sohalarni yuksaltirishga yo'nal-gan tashabbuslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab bormoqda. Kosmos sanoati, axborot texnologiyalari, zamонавиј texnoparklar barpo etish kabilar shular jumlasiga kiradi.

Xususan, 2011 – 2012-yillardan boshlab Ilhom Aliyev qo'llaniladigan texnologiyalar hajmi katta, innovatsion korxonalardan tashkil topgan texnoparklar barpo etishga doir amaliy ishlarga turtki berdi. Shu maqsadda qonun hujjatlari ning tegishli bazasi, infratuzilma yaratilib, yer maydonlari ajratildi. Bugungi kunda yurtimizda Sumgait texnologik parki faoliyat boshlagan, yana bir necha texnoparklarning, xususan: Sumgait kimyo-sanoat, Balaxan sanoat va Ganja metallurgiya texnoparklarining qurilishi ketmoqda. Texnopark rezidentlari daromad, yer va mulk soliqlaridan, agar texnika, qurilma va texnologik jihozlarni import qilgan bo'lsa, bojaxona to'lovidan ham yetti yil muddatga ozod etildi.

Rossiya tadbirkorlari texnopark qurilishiga mablag' qo'shishdan ko'radian foydasini allaqachon tushunib yetib, Ozarbayjon tomoni bilan hamkorlikning har xil variantlarini qizg'in muhokama qilishmoqda. Ayniqsa,

2011 -

**2012-yillardan
boshlab**

Ilhom Aliyev

**qo'llaniladigan
texnologiyalar
hajmi katta,
innovatsion
korxonalardan
tashkil topgan
texnoparklar
barpo etishga doir
amaliy ishlarga
turtki berdi.**

Rossiya, Sumgait kimyo-sanoat parkida yiliga 180 ton-nadan polipropilen va 120 tonnadan polietilen ishlab chiqaradigan SOCAR-Polimer zavodining qurilishiga katta qiziqish bildirib qoldi. Mazkur loyihani ro'yogga chiqarish maqsadida Rossiyaning «Gazprombank»i SOCAR kompaniyasiga 420 million dollar miqdorda kredit ajratdi. Ozarbayjon nefti bilan gazining qazib olinib, qayta ishlanishining tannarxi arzonligi tayyor mahsulotning narxi arzonga tushishini ta'minlaydi. Demak, polimer mahsuloti Ozarbayjondan ancha arzon narxga keladigan bo'lsa, Rossiya Osiyo-Tinch okean mintaqasidagi yurtlar-dan xarid qilayotgan polietilen va polipropilen importining hajmini qariyb 60 foizga qisqartirish imkoniga ega bo'ladi.

Bugungi kunda 14 ta zavod va 18 ta ishlab chiqarish maydonlaridan tashkil topgan Sumgait texnologiya parki mintaqadagi Ozarbayjon elektr energetikasi sohasida yangi infratuzilma loyihamalarini amalga oshirayotgan yirik korxona hisoblanadi. Texnoparkda funksiyasi ko'p mahsulotning turli-tuman assortimenti – har xil kabellar, transformatorlar, katta kuchlanishga mo'ljallangan jihozlar, gidroturbinalar, suv nasoslari, elektr dvigatellar va shu kabi boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Sumgait texnoparkining mahsulotiga Rossiya, Eron, Turkiya va Yevropaning ayrim davlatlari qiziqish bildirmoqda. Parkda qo'llaniladigan bir qator texnologiyalar nafaqat Ozarbayjon, balki butun mintaqaga uchun ham yangilik sanaladi. Chunonchi, muqobil energetikada qo'llaniladigan ayrim asbob-uskuna va kabellar MDHga a'zo davlatlarda ishlab chiqarilmaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yanvar oyida

o'tgan yig'ilishida Ilhom Aliyev hukumat oldiga nihoyatda katta vazifa – yurtimizning barcha hududlarida sanoat zonalarini yaratish vazifasini qo'ydi.

...Obyektiv sabablar tufayli salafi amalga oshira olmagan ishlarni, ya'ni sanoatning mutlaqo yangi tarmoqlarini, avvalambor, kosmos sanoati bilan mudofaa sanoati tarmog'i yaratilishini Ilhom Aliyev uddalay bildi.

«Oldimizga nihoyatda ulkan maqsadlar qo'ygan edik, – eslaydi rezident intervylardan birida. – Ehtimol, ular, dastlabki bosqichda, qandaydir ushalmas, ro'yobga chiqishining iloji bo'lмаган, hemavrid orzu-havasday ko'ringandir. Ammo men, maqsad qanchalik ushalmas bo'lsa, unga erishish shunchalik oson, deb hisoblanganman... Iqtisodiyotni uch barobar kuchaytirishga, YIM miqdorini 300 foizga oshirishga erishilgan so'ngi sakkiz yil tarixi imkoniyatlarimiz borligidan dalolat beradi. Oldimizda endi boshqacha vazifalar turibdi.

Albatta, neft omili bizga juda asqatdi. Lekin bu ham birov emas, o'zimiz amalga oshirgan mehnat samarasi sanaladi. Neft faqat bizda emas, ko'plab boshqa davlatlarda ham bor. Aksar davlatlarda esa bizning zaxiralarimizdan ham ko'p. Ammo daromaddan oqilona foydalanganimiz, xalq boyligini adolatli taqsimlaganimiz, sarf-xarajatlarda ochiq-oydinlik tamoyiliga amal qilganimiz, jamg'arma yig'a bilganimiz bizga shunday

*Obyektiv sabablar
tufayli salafi
amalga oshira
olmagan ishlarni,
ya'ni sanoatning
mutlaqo yangi
tarmoqlarini,
avvalambor,
kosmos sanoati
bilan mudofaa
sanoati tarmog'i
yaratilishini
Ilhom Aliyev
uddalay bildi.*

imkon berdiki, valyuta manbalarimiz yildan-yilga oshib bormoqda, 8 yil ichida qashshoqlik darajasi 5 barobar pasayib, 49 foizdan 9 foizga tushdi. Neft barqarorligimizni ta'minlayotgan omil bo'lsa-da, endi u bugungi kunda, deylik, besh yil oldingiday muhim ahamiyat kasb etmaydi. Zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bugungi kunda rivojlantirilishi lozim bo'lgan dolzarb yo'nalishlardir. Kelasi yili biz Ozarbayjonning telekommunikatsiyaga mo'ljallangan birinchi sun'iy yo'ldoshini ishga tushiramiz. Biz kosmos sanoatini barpo etmoqdamiz. Ya'ni biz kimdir Ozarbayjon yetib, to'xtashi kerak, deb hisoblagan cheklangan marradan ham olis marralarga nazar tashlamoqdamiz. Ozarbayjon ana shunga nazar tashlashi kerak. Birovning ko'ziga Ozarbayjonning imkoniyatlari torroq ko'rinishayotgandir, lekin biz ko'zlagan rejalar ko'lami an-chagina keng...»

Darhaqiqat, bundan 7 – 8 yil muqaddam Ozarbayjon orbitaga o'zining sun'iy yo'ldoshini chiqarishi birovning xayoliga ham kelmagan. Bugun esa bu voqelikdir. 2008-yili Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev «Ozarbayjonda kosmos sanoatini yaratish va telekommunikatsiyaga mo'ljallangan sun'iy yo'ldoshlarni orbitaga chiqarish to'g'risida»gi farmoyish chiqargan edi. 2009-yili esa «Ozarbayjon Respublikasida kosmos sanoatini yaratish va rivojlantirishga doir Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoyish imzolandi. 2010-yili davlat rahbari «Azerkosmos» ochiq aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish to'g'risida» farmoyish chiqarib, ushbu idora oldiga telekommunikatsiyaga mo'ljallangan sun'iy yo'ldoshni ishlab chiqarib, orbitaga uchirish, quruqlikdagi asosiy

va zaxira boshqaruv markazlarini yaratish bilan bog'liq vazifalar belgiladi. Ozarbayjonda, umuman Kavkazda birinchi sanalgan «Azerkosmos» sun'iy yo'ldosh operatori ikki yil ichida teleradioeshittirish va telekommunikatsiya xizmatlari, hukumat va korporativ mijozlarning talablariga javob beradigan o'ta ishonchli aloqa platformalari bilan ta'minlashga doir faoliyat yuritdi. Biroq asosiy e'tibor, tabiiyki, «Azerspace-1» rusumli birinchi sun'iy yo'ldoshni yaratib, orbitaga chiqarishga qaratildi.

2013-yil yurtimizda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yili, deya e'lom qilindi va shu yili mustaqil Ozarbayjon tarixida o'ta muhim hodisalardan biri yuz berdi – 8-fevral kuni Gviana kosmik markazidan – Fransiyaga qarashli Gvianadagi Kuru kosmodromidan Ozarbayjonning telekommunikatsiyaga mo'ljallangan «Azerspace-1» rusumli birinchi sun'iy yo'ldoshi orbitaga chiqarildi. Ilhom Aliyev sun'iy yo'ldoshni uchirish jarayonini yurtimizning birinchi xonimi Mehribon Aliyeva bilan birga «Azerkosmos»ning yangi ma'muriy binosidan kuzatib bordi.

Sun'iy yo'ldosh orbitaga chiqarilgach, davlatimiz rahbari Ozarbayjon xalqini ushbu tarixiy, yurtimizni jahon kosmos klubiga a'zo qilgan hodisa bilan qutladi. Sun'iy yo'ldoshni boshqarish markazi xodimlarining aksariyati xorijdagi yetakchi markazlarda maxsus tayyorgarlikdan

8-fevral kuni

*Gviana kosmik
markazidan
– Fransiyaga
qarashli*

*Gvianadagi Kuru
kosmodromidan
Ozarbayjonning
telekommuni-
katsiyaga
mo'ljallangan
«Azerspace-1»
rusumli birinchi
sun'iy yo'ldoshi
orbitaga chiqarildi.*

o'tib qaytgan Ozarbayjon fuqarolari ekanligi uni ko'proq quvontirdi.

«Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji porloq kelajagimizni belgilab, ta'minlaydi, – ta'kidlab o'tdi I. Aliyev. – Axborot-texnologiyalar sohasi bilim, aql, zakovat sohasi va shu bilan birga, biznes sohasi hamdir. Sun'iy yo'ldosh faoliyati tufayli Ozarbayjon davlati bir vaqtning o'zida moliyaviy masalalarni ham hal etadi, uning ishi iqtisodiy nuqtai nazardan ham samarali kechadi... Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi har qanday davlatning muvaffaqiyatli, barqaror rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Men bunga aminman. Mazkur yo'nalihdagi ishlarni rejali, maqsadli olib borayotganimizdan juda xursandman. Yurtimiz yanada qudratli bo'lishi, Ozarbayjon yanada zamonaviy davlatga aylanishi uchun barcha choralarни ko'rmoqdamiz. Informatsion texnologiyalar universitetini tashkil etish to'g'risidagi farmoyishga yaqinda men imzo chekkanim, ushbu so'zim tasdig'idir».

Ayni paytda «Azerspace-1» rusumli sun'iy yo'ldosh resursining 60 foizi tijoratga ishlamoqda. Uning xizmatidan Malayziya, Rossiya, Germaniya, Ukraina, Misr, Gruziya, BAA, Kamerun, Buyuk Britaniya, Qирг'изистон, Тоҷикистон, Estoniya va Belorus foydalanmoqda. Bugungi «Azerkosmos» oldida turgan muhim vazifalardan biri telekommunikatsiyaga mo'ljallangan «Azerspace-2» rusumli ikkinchi sun'iy yo'ldoshni tayyorlab, orbitaga chiqarishdir. Bu hodisa 2017-yili yuz berishi lozim bo'lib, Ozarbayjonning kosmik klub a'zolari orasidagi pozitsiyasini mustahkamlaydi va ko'rsatiladigan xizmatlar ko'laminı ancha kengaytiradi.

Ozarbayjonning telekommunikatsiyaga mo'ljallangan birinchi sun'iy yo'ldoshining orbitaga chiqarilishi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, informatsion mustaqillik va axborot xavfsizligini ta'minlash, yurtimizda kosmos sanoatini rivojlantirish va xalqaro kosmik doiraga qo'shilish yo'nali shida juda muhim qadam bo'lib, tijorat mazmuniga ega foydali loyiha hamdir. Masalan, mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, birinchi sun'iy yo'ldoshning 15 yillik ishi davomida qariyb 600 million dollar daromad ko'rili shi kutilmoqda. Bundan tashqari, masalaning yana bir muhim tomoni borki, «Azerspace-1» rusumli sun'iy yo'ldosh Ozarbayjonning jamiki hududini sifatli teleradioeshittirish bilan ta'minlamoqda, shu jumladan, katta tezlikdag'i IP-xizmat ham ko'rsatiladi.

...Ko'plab boshqa sohalar, chunonchi, Ozarbayjonning fuqaro aviatsiyasi ham modernizatsiya qilinmoqda. Yurtimizning «AZAL» milliy aviakompaniyasi qisqa muddat ichida samolyotlar parkini batamom yangilab, sobiq ittifoq hududida birinchilardan bo'lib zamonaviy «Boeing» va «Aerobus»lardan foydalana boshladi. 2010-yil 24-dekabr kuni «AZAL» Rossiyada ishlab chiqarilgan har qanday samolyot rusumini ishlatishdan voz kechdi. 2011-yilning yanvar oyida Yevropa iqtisodiy savdo-sanoat palatasasi (EEIG) direktorlar kengashining bir ovozidan qabul qilingan qaroriga binoan «Ozarbayjon avia-yo'llari»ga (AZAL) Yevropa xizmat ko'rsatish standarti berildi.

2011-yil 2-iyun kuni «Ozarbayjon aviayo'llari» dastlabki ikkita «Boeing 767-300ERs» rusumli samolyotga ega bo'ldi. 2013-yil may oyida «Ozarbayjon aviayo'llari»

dastlabki ikkita «Aerobus A-340» rusumli samolyotni qabul qilib oldi. 2014-yil 23- va 24-dekabr kunlari «Ozarbayjon aviayo'llari» MDHga a'zo davlatlarning aviakompaniyalari orasida birinchi bo'lib ikkita «Boeing 787 Dremliner» rusumli samolyotga ega bo'ldi.

Ilhom Aliyevning prezidentligida yurtimizda oltita aerovokzal majmuasi ochilgan bo'lib, ulardan beshtasi, xususan, Naxchivan, Ganja, Lankaron, Gabala va Zagatala aerovokzallari xalqaro aerovokzal maqomiga ega.

* * *

2005-yilning 6-dekabrida prezidentimiz Ilhom Aliyev yana bir tarixiy hujjatga – yurtimizda Mudofaa sanoati vazirligini tashkil etish to'g'risidagi farmoyishga imzo chekdi. Davlatning o'z mudofaa

*Ilhom Aliyevning
prezidentligida
yurtimizda
oltita aerovokzal
majmuasi ochilgan
bo'lib, ulardan
beshtasi xalqaro
aerovokzal
maqomiga ega.*

sanoati majmuasiga ega bo'lishining naqadar katta ahamiyat kasb etishi ni tushuntirib o'tishga, ehtimol, hojat bo'lmasa kerak. Axir Ozarbayjon yurtimiz hududining qariyb 20 foizini bosib olgan Armaniston bilan uzoq vaqtadan buyon mojaroda bo'lib keldi va bu hol davom etmoqda.

2000-yillarning boshida yurtimizning harbiy qudratini xorijdan keltirilgan zamонавиј qurol-yarog' va o'q-dorilar belgilari edi. Garchi ushbu sohada ham Ozarbayjon sobiq it-tifoq davridan buyon yaxshigina tajribaga ega bo'lsa-da.

XX asrning 70 – 80-yillarida respublikaning partiya rahbari Haydar Aliyev Ozarbayjonda mudofaa sanoa-

ti korxonalarini barpo etish borasida Moskva bilan tashib, katta ish olib borgan. U davrda bunday narsalar haqida gapirish, ayniqsa, yozish mumkin bo'lмаган. O'sha mahalda dong'i ketgan Boku zavodlari Nikolaevda qurilayotgan aviataшuvchi kemalarni jihozlash uchun elektron platalar, turli tizimlar va hatto o'ta aniq qurol turlarini ishlab chiqargan. Bokuda tom ma'noda yuksak texnologiyali zavodlar faoliyat ko'rsatgan. Sobiq ittifoq Vazirlar kengashi raisining mudofaa sanoati bo'yicha o'rinnbosari Lev Smirnov Bokuga tez-tez kelib turar edi. Haydar Aliyevich Moskvadan mablag' undirib, Mutaxassislar ittifoqidan muhandis-elektronchi va texnologlarning yurtimizga xizmat safarini uyushtirar edi. Bunda u qadrdon respublikasining haqiqiy vatanparvari singari quyidagicha fikr yuritar edi: «Bugun men Markazning noyob mutaxassisi bilan shartnoma tuzib, uni Bokuga ko'chirib kelaman. Uch yil ishlab bergach, u o'z yurtiga qaytib ketadi. O'rnida esa, uning hunarini o'zlashtirgan ozarbayjonlik shogirdi qoladi».

Boshqacha qilib aytganda, respublikada mudofaa sanoati korxonalarini barpo etish Ozarbayjonga noyob texnologiyalar olib kelish, ilmiy-texnik taraqqiyot sari eltadigan eng ilg'or mutaxassisliklar bo'yicha milliy kadrlarni tayyorlashni anglatgan.

Respublikaga rahbar bo'lgach, Ilhom Aliyev mudofaa sanoatida hunarni meros olish an'anasi ni saqlab qolgancha, ushbu sanoatga qarashli yigirmadan ziyod korxona barpo etilishiga turtki berdi. Bugungi kunda ularda oqli qurol turlari, minomyot, zirhli texnika, ko'p stvolli raketa qurilmalari, tank to'pidan qo'llaniladigan o'q-dori, hatto aviabomba turlari ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi paytda Mudofaa sanoati vazirligi tasarrufidagi korxonalarda ishlab chiqarilayotgan harbiy mahsulot nomlarining soni mingga yetgan.

*Respublikaga
rahbar bo'lgach,
Ilhom Aliyev
mudofaa sanoatida
hunarni meros olish
an'anasi ni saqlab
qolgancha, ushbu
sanoatga qarashli
yigirmadan
ziyod korxona
barpo etilishiga
turtki berdi.*

Xalqaro harbiy-teknik hamkorlik doirasi ham kengayib bormoqda – masalan, yurtimizda harbiy vertolyot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish borasida turli davlatlar bilan muzokaralar olib borilmoqda. Turkiya va Isroil kompaniyalari bilan birgalikda quroslasha tarkibidan chiqarilgan T-54/55 rusumli tanklar negizida zanjir-tasmali jangovar texnika, o'ziyurar ko'priklar va zirhli harbiy-yuk tashish texnikasi ishlab chiqarilishi rejalashtirilmoqda.

Ozarbayjon, shuningdek, Turkiyaning milliy loyihasi – «Altay» tankini ishlab chiqish ishlarida ishtirok etishga taklif qilingan. EHM zavodining sexlariidan hirida Janubiy Afrika Respublikasining «Paramount grup» kompaniyasi bilan tuzilgan shartnoma asosida 14 o'rini «Matador» zirhli mashinalar yig'ilmoqda. Texnik ko'rsatkichlariga ko'ra, ushbu mashinalar jahon standartlariga javob berib, Ozarbayjon MDHga a'zo davlatlar orasida bunday zirhli texnika ishlab chiqaradigan yagona davlat hisoblanadi. Ozarbayjon harbiy-sanoat kompleksi foyda keltiradigan sanoatdir. Jumladan, mudofaa ga mo'ljallangan Ozarbayjon mahsulotlarining eksporti 2014-yili 100 mln dollar daromad keltirdi.

So'nggi yillarda Ozarbayjon Mudofaa sanoati vazirligi o'z ekspozitsiyalari bilan xalqaro harbiy ko'rgazmalarda ishtirok etib, o'zi ishlab chiqargan quroslasha-

ha namunalarini jahonga namoyish etmoqda. Keyingi o'n yillik ichida Ozarbayjon 15 ta ko'rgazmada ishtirok etib, harbiy-sanoat kompleksi mahsulotlarining turini ko'paytirib keldi. Jumladan, agar Ozarbayjon o'zining ilk ekspozitsiyasida namoyish etgan mahsulot nomlarining soni 27 tani tashkil etgan bo'lsa, hozirda ularning soni bir necha barobar oshgan. Masalan, Kuala-Lumpur ko'r-gazmasida (DSA – 2014) Ozarbayjon namoyish etgan mudofaa mahsuloti nomlarining soni 132 taga yetdi.

2014-yil sentyabr oyida Ozarbayjonda birinchi «ADEX – 2014» xalqaro mudofaa sanoati ko'r-gazmasi o'tkazildi. Ushbu tadborda 34 ta davlatdan jami 200 ta kompaniya, shu jumladan, 22 ta rasmiy delegatsiya ishtirok etdi. Ozarbayjon ko'r-gazmasida ishtirok etish uchun yurtimizga Turkiya va Isroil mudofaa vazirlari hamda Belorus va Malayziya mudofaa idorasi rahbarlaring o'rinnbosarlari tashrif buyurishdi. Ozarbayjon so-biq ittifoq hududida mudofaa sanoati mahsulotlarining xalqaro ko'r-gazmasini Rossiya, Belorus va Qozog'iston-dan keyin to'rtinchi bo'lib o'tkazgan davlat bo'ldi.

Qudratli harbiy-sanoat kompleksini qisqa muddatda deyarli tekis joyda barpo etish ishlari shaxsan Ilhom Aliyevning qat'iy va uzlucksiz nazorati ostida kechdi. Ushbu jarayonni ipidan ignasigacha idrok etib borgan prezident Mudofaa sanoati vazirligi korxonalariga bot-bot tashrif buyurib, ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan yangi qurol-asлаha namunalari bilan tanishdi, harbiy mashqlar va o'quv-otish mashqlari davomida kunni shaxsiy tarkib bilan birga poligonda o'tkazdi. Shu bilan bir vaqtda turli davlatlardan mudofaa ehtiyojlari uchun zamonaviy qurol-asлаha va o'q-dori xarid qilib borildi.

Bir so'z bilan aytganda, Ozarbayjon armiyasining qudratli, yuksak texnologiyaga ega, diversifikasiyalangan moddiy-texnik bazasining barpo etilishi to'laligicha prezident Ilhom Aliyevning xizmati bo'lib, bundan haqli ravishda faxrlanishi mumkin.

* * *

Poraxo'rlik va korrupsiya kabi illatlar davlat-xo'jalik mexanizmini kemirar, amaldorlar o'z mavqeini suisiste'mol qilib, g'arazli maqsadda foydalanar ekan, hech qaysi davlat jiddiy iqtisodiy yutuqlarga erisha olmaydi, albatta.

Ilhom Aliyevning salafi Haydar Aliyev prezidentlik davrida ushbu ijtimoiy illatni butun vujudi bilan yomon ko'rар, sobiq ittifoq davrida ham, hokimiyat tepasiga ikkinchi marta kelganda ham bunday illatga qarshi ba'zan o'ziga xos usullar qo'llab kurashar edi.

Haydar Aliyev uyushgan jinoyatchilik, moliyaviy jinoyat, OMONGa o'xshash harbiylashgan niqob ostidagi reketning ildizini qisqa muddatda qirqa bildi. Muhimi – oligarxlar sinfi, deya nom olgan, ya'ni o'zidan-o'zi ko'payib borayotgan tadbirkorlar sinfi prezidentga o'z ta'sirini o'tkaza olmadi. Ozarbayjonda ushbu sinf faoliyati to'la-to'kis qonun doirasiga olindi, unga siyosat bilan shug'ullanish, ayniqsa, siyosatga aralashish yashirinchay man etildi. Bunday o'zin qoidalarini qabul qilishni istamaganlar Ozarbayjonniga tark etishga majbur bo'lischdi. Shu tariqa prezident ko'plab tadbirkorlarning hayotini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Shu munosabat bilan Ichki ishlar vaziri Ramil Usubov men bilan suhbatda g'alati bir hodisani eslab o'tdi:

«1997-yil edi. Kunlardan bir kun Haydar Aliyevga telefon orqali tezkor vaziyat haqida bildiruv berayotgan edim.

– Ramil, «o'g'riboshi» deb qaysi toifaga mansub odamga aytildi? – so'rab qoldi janob prezident.

Hayron bo'ldim. Davlat xavfsizligi idorasidagi mas'ul lavozimlarda uzoq ishlagan odam nahotki shuni bilmasa? Bo'lishi mumkin emas. Demak, savol zamirida nima-dir bor.

– Sizni tushundim, janob prezident, – javob berdim men, – Ozarbayjonda birorta ham «o'g'riboshi» deya nom olgan odam bo'lmaydi. Ozarbayjonda qonun ustuvor bo'ladi.

Oradan o'n kun o'tib, yurtimizda birorta ham o'g'riboshi qolmadi. Ular bugun ham yo'q. Ya'ni prezident haziromuz ishora ila unday toifadan qutulish lozimligiga ishora qildi».

Haydar Aliyev o'z prezidentligining dastlabki pal-lasida uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashar ekan, o'tish davrida bir qadar qat'iy choralar ko'rish mumkin deb bildi. Jumladan, 1994-yili Ozarbayjon IIIV qoshida Uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va banditizmga qarshi kurash boshqarmasini tuzish, mafiyaga qarshi ku-rash davlat dasturi bir oy ichida ishlab chiqilishiga doir Farmon chiqardi. H. Aliyev huquqni muhofaza qilish organlari oldiga davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, sud oldiga esa poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud jarayonlari sayyor sudlar tomonidan ochiq-oshkor o'tkazib borilishi haqida topshiriq qo'ydi.

O'sha farmonga muvofiq huquqni muhofaza qilish organlariga korxonalarining xo'jalik-moliya faoliyatini,

jinoyat olamiga daxldorligi aniqlangan jismoniy va yuridik shaxslarning banklarda saqlanayotgan mablag'lari, hisob raqamlarini tekshirishga ruxsat berildi.

Biroq bularning bari asosan ma'muriy, majburlovchi choralar bo'lib, bunday yo'l bilan, ma'lumki, korrupsiyaning ildizini batamom qo'porib tashlashning iloji bo'lmaydi.

Ilhom Aliyev prezidentligi davrida u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish yoki uni davlat hududiga olib kirish monopoliyasi tugatildi, bozor imkon qadar liberallashtirildi, tadbirkorlik faoliyatida «yagona darcha» tamoyili joriy etildi.

Ilhom Aliyev boshqacha yo'l tutdi. Bir tomondan, u yuridik shaxslarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshiradigan idora va organlar sonini imkon qadar qisqartirdi (ushbu vazifani bugungi kunda faqat davlat soliq organlari bajaradi). Ikkinchi tomondan, taraqqiyot sari yetaklaydigan muhim qonunlar, xususan, iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, ochiq-oydin soliq tizimi va yangi bojxona qoidalari shakllantirish, byudjet mablag'laring sarfi va davlat institutlarining faoliyati hisob palatasi va xazina idoralarini tomonidan talab darajasida nazorat qilib borilishiga doir qonunlar

qabul qilindi. Ilhom Aliyev prezidentligi davrida u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish yoki uni davlat hududiga olib kirish monopoliyasi tugatildi, bozor imkon qadar liberallashtirildi, tadbirkorlik faoliyatida «yagona darcha» tamoyili joriy etildi (biznesni ro'yxatdan o'tkazadigan yagona organ tuzildi). Ushbu dastur 2008-yili joriy etilganidan buyon tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish muddati 53 kundan 6 kungacha, bajariladigan amallar

soni esa 15 tadan 5 tagacha qisqardi. Tadbirkor ro'yxatga oluvchi organga uch-to'rtta hujjatni taqdim etsa kifoya. Boz ustiga hujjat taqdim etish ishlari elektron tizim vositasida ham amalga oshirilishi mumkin. Natijada tadbirkor Soliq vazirligiga faqat bir marta – o'zining yuridik hujjatlarini olib ketish uchun keladi, xolos. Buning uchun u o'z shaxsini tasdiqlaydigan hujjatini ko'rsatishi kifoya. Keyinchalik «yagona darcha» tamoyili kengaytirilib, transport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bojxona organlariga tatbiq qilindi, 2015-yildan esa «yagona darcha» tamoyili Ozarbayjon mulkdorlik masalalarini davlat qo'mitasida ko'chmas mulkni texnik inventiri-zatsiyadan o'tkazib, texnik hujjatlar tuzishda ko'chmas mulkni, shu jumladan, yer maydonini ro'yxatdan o'tkazishda ham qo'llay boshladi.

«Yagona darcha» tamoyili yurtimizda tadbirkorlik muhiti yanada rivoj topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, Ozarbayjon xususiy sektorni real shakllanirayotgan davlatlar qatoridan joy olib, xalqaro maydondagi reytingi bir necha barobar oshdi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, so'nggi yillarda yurtimizda 100 mingga yaqin mayda va o'rta tadbirkorlik korxonalari yaratildi.

Va nihoyat, prezident jamoasining ajoyib ixtirosi – «ASAN xidmat» sharofati bilan korrupsiya va poraxo'rlik ko'lami jiddiy qisqardi.

«ASAN xidmat» markazi («Oson xizmat») 2012-yil 13-iyul kuni Ozarbayjon Respublikasi prezidenti hu-zuridagi Fuqaro xizmatlari va ijtimoiy innovatsiyalar davlat agentligi qoshida tashkil etilgan. U davlat organlari tomonidan yagona va o'zaro bog'liq shakldagi har xil xizmat turlari havola etilishini ta'minlaydigan

assotsiatsiyalardan iboratdir (nikoh haqidagi guvohnoma, kishi shaxsini tasdiqlaydigan hujjat, haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirib berish, mulkdorlik huquqini ro'yxatdan o'tkazish va hokazo). «ASAN xidmat» markazlari «davlat xizmatchisi – fuqaro» munosabatlarining sifat jihatdan yangi bosqichi bo'ldi. Ushbu markazlarning faoliyati haqiqatan ham kishini hayratga soladi: dastlabki ikki yil ichida «ASAN xidmat» markazlari yetti million kishiga xizmat ko'rsatdi. Yetti million kishi ikki yil davomida «ASAN xidmat»da hech qanday korrupsiyaga duch kelmadи!

Bugungi kunda «ASAN xidmat» davlat agentligi va markazlarida qariyb 1600 kishi ishlaydi. Ushbu markazlarda faoliyat ko'rsatayotgan ko'ngilli yordamchilar tomonidan ham muhim ishlar amalga oshirilgan. Ummumani olganda, bugungi kunda «ASAN xidmat» agentligi va markazlarida ko'ngilli yordamchilik faoliyatiga jalb qilinganlar soni 4500 kishiga yetdi. 2013-yil 19-dekabr kuni «ASAN xidmat»da ishlaydigan ko'ngilli yordamchilarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. 2014-yil 16-dekabr kuni esa prezident Ilhom Aliyev ishtirokida «ASAN xidmat»ga ko'ngilli yordam beruvchilarining I Umumrespublika forumi o'tkazildi. O'z faoliyatini yakunlagan 600 nafar ko'ngilli yordamchi turli tashkilotlarga ishga qabul qilindi. Ularning 142 nafari «ASAN xidmat» markazlari-da ishlashmoqda.

«ASAN xidmat»ning o'ziga xos huquqiy tuzilishi ko'plab xalqaro sheriklar va ekspertlarning yuksak bahosiga sazovor bo'lib, ushbu tajriba ozarbayjoncha model sifatida ko'rsatib borilmoqda. Ozarbayjonning brendiga aylangan «ASAN xidmat» 2015-yili BMTning «Davlat to-

monidan ko'rsatiladigan xizmat sifatini yaxshilash» rukni bo'yicha mukofot bilan taqdirlandi. Qator davlatlaridan yurtimizga tashrif buyurayotgan rasmiy vakillar «ASAN xidmat» faoliyati bilan tanishishlari bejiz emas. 2014-yildan e'tiboran «ASAN xidmat» davlat agentligi va markazlari ga xalqaro darajadagi muvofiqlik guvohnomalari topshirila boshlanishi katta qiziqish natijasidir. Prezident Aliyev o'zining ushbu samarasini bilan haqli ravishda faxrlanadi va yangidan-yangi mintaqaviy markazlarning ochilishida shaxsan ishtirok etishga harakat qiladi.

Iqtisodiy jarayonlar har qanday davlatda tuzilishga oid o'zgarishlar ila kechadi, albatta. So'nggi yillarda Ilhom Aliyev davlat boshqaruvi tuzilishini maqsadli takomillashtirib bormoqda. Jumladan, bir qator vazirlilar, davlat kompaniyalari, konsernlar tugatildi, u yoki bu vazifani takror bajarayotgan bo'lim va boshqarmalarning birlashtirilishi yoki qisqartirilishi davom etdi. Shu bilan bir vaqtida Mudofaa sanoati vazirligi, Yoqilg'i va energetika vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi. Natijada hukumat faoliyatining samaradorligi oshib, diqqat-e'tibor asosiy maqsadga jamlandi.

* * *

2003-yili davlat rahbarligiga kelgan yosh, g'ayratli siyosatchining uzoqni ko'zlagan, ba'zilari esa zamondan ancha ilgarilagan rejalarini ko'p bo'lgan. Sobiq ittifoq hu-

*«ASAN xidmat»ning
o'ziga xos huquqiy
tuzilishi ko'plab
xalqaro sheriklar
va ekspertlar-
ning yuksak
bahosiga sazovor
bo'lib, ushbu
tajriba ozarbay-
joncha model
sifatida ko'rsatib
borilmoqda.*

dudida yashayotgan odamlar u yoki bu siyosatchining va'dasi, ayniqsa, ijtimoiy sohaga oid va'dasi bilan so'zida tura bilishi o'rtaida, odatda, «uzundan-uzoq masofa» bo'lishiga ko'nikib ketishgan. Ilhom Aliyev esa o'z ja-moasi bilan birga ushu eskirgan andazaga barham berdi: prezidentning barcha ijtimoiy dasturlari va islohot-chilik tashabbuslari kechiktirilmay, o'z vaqtida ro'yoga chiqarilmoqda. Bunda Ilhom Aliyev tashqi siyosat bobida og'ir-vazmin, pragmatik bo'lsa, ichki iqtisodiy islohotlarni tom ma'noda inqilobiy sabrsizlik-la amalga oshirmoqda. Bunday islohot va yangilanishlar yurt qiyofasini qisqa muddatda o'zgartirib yubordi, bugungi kunda ona zaminimizning eng olis mintaqalari ham ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi, obodon-chilik ko'lami, shahar bilan qishloq dizayni masalasida poytaxtimizdan aslo qolishmaydi.

Darhaqiqat, sobiq ittifoq davrida qurilgan besh va to'qqiz qavatli binolarning puturdan ketgan tashqi tomoni, yovvoyi alaf bosgan xiyobonlarning g'amgin qiyofasi qayoqqa yo'qoldi? Sobiq ittifoq davrining yarmidan ko'pi eskidan ishlamaydigan, ishlagani esa xira yoritadigan tungi fonuslari qani? Endilikda unday manzara Ozarbayjonning eng olis puchmog'ida ham topilmaydi. Bugungi Sumgait, Ganja, Lankaron, Zagatali, Gabala, Sheki tumanlari yangilangan tungi yoritish tarmog'i ila o'zining chiroyli tovlanadigan keng ko'chalari bilan mehmonlarni hayratga soladi, mavjud binolarning devor va tomlari yangi turdag'i qurilish materiallari qo'llanilib pardoz berilgancha ta'mirdan chiqarildi, xalq tun yarmigacha g'ujg'on qaynaydigan xiyobonlarda favvoralar silsilasi porlaydi, yangi asfalt yotqizilgan yo'llar esa,

ikkinchi darajali yo'l bo'lsa ham, poytaxtdagi yo'llardan hech qolishmaydi.

«Mintaqalarning ijtimoiy infratuzilmasi mustahkamlangani bois, mahalliy aholining shaharga ko'chishi kamayib, ichki migratsiya jarayoni keskin pasaydi, – deydi Ilhom Aliyev. – Mintaqalarimizda shunday sharoit yaratishimiz kerakki, odamlar shaharga ko'chib ketishni xayoliga ham keltirmasini. Shu maqsadda biz joylarda maktab, shifoxona kabi yangi ijtimoiy obyektlar qurdik. Odamlar ushbu yangilanishlarni, ona diyorlarining ko'runga ko'rk qo'shilib borayotganini ko'rib turibdi...»

Bugungi kunda Ozarbayjon iqtisodiyoti raqobatbardoshlik bo'yicha jahon iqtisodiyotlari orasida 46-o'rinni egallagan. Ishsizlik – 5,2%, qashshoqlik – 6%, strategik valyuta zaxiralari – 70%, tashqi qarz miqdori esa yalpi ichki mahsulotning 7% ini tashkil etadi.

Davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berган ijobiy o'zgarishlarga doir bunday statistik ma'lumotlarni ko'plab keltirish mumkin, albatta. Biroq men uchun ahamiyatlisi shundan iboratki, Ozarbayjonda tug'ilish darajasi so'nggi yillarda barqarorlashdi, 165,6 ming chaqaloq tug'ilgan 2010-yildan buyon esa (2011-yili esa 176,72 ming nafar chaqaloq tug'ildi) ekspertlar haqiqiy demografik portlash haqida fikr yurita boshladilar. Ular bu holning sababini aholining ijtimoiy muhofazasi kuchayib, yurt iqtisodiyotining rivoji barqarorlashganida ko'rishmoqda. Milliy Majlisning Mehnat va ijtimoiy siyosat bo'yicha doimiy qo'mitasi raisi Hodi Rajablining fikriga ko'ra, ushbu omillar oilasini kattalashtrimoqchi bo'lgan fuqarolarimizga barqarorlik, ijtimoiy sog'lomlik tuyg'ularini baxsh etadi.

Yana bir qiziqarli fakt: respublikamizda migrantlar sonining oshishi. Ish shu darajaga borib yetdiki, doimiy yashash huquqini olish istagida Ozarbayjonga kelgan xorijliklar davlat tiliga oid bilimlar sinovidan majburiy ravishda o'tishi joriy etilgan.

...Prezidentimiz olib borayotgan siyosat negizi – odamlarga, ularning ehtiyoji-yu muammolariga bo'lgan munosabatdan tashkil topgan. Masalan, respublikaning Zagatal tumaniga kelib, shahar va tevarak-atrofdagi qishloqlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash uskunasi ni ishga tushirish tadbirida ishtirok etar ekan, Ilhom Aliyev 2012-yili yuz bergan halokatli zilzilani eslab o'tdi. O'shanda maktablar, ijtimoiy obyektlar, yuzlab xususiy uy-joy binolari vayron bo'lgan edi. Oradan bir yil o'tib, davlat hisobidan keng miqyosli tiklash ishlari o'tkazildi: 20 ga yaqin muktab binosi qurildi, 3388 ta oila (!) kuchli tabiiy ofatga bardosh bera oladigan yangi, yanada shinam uylarga ko'chib o'tdi. Bunday ishlar hamma joyda amalga oshirilmoqda. Zero, faqat xunuk odat emas, ijobiy tajriba ham yuqumlidir. Bugungi kunda barcha tumanlarda keng miqyosli ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Katta va o'rta avlod xotirasida mangu qolgan, sovetchasiga uzoq cho'ziladigan qurilish jarayonlari endi yo'q. Ijobiy ta'sir ko'rsatadigan yana ikkita raqam keltirib o'tmoqchiman: so'nggi yillarda 3 mingtadan ortiq muktab qurildi yoki qayta tiklandi, yurtimiz hududida 500 dan ortiq zamонави shifoxonalar qurilib, foydalanimishga topshirildi.

...Poytaxtimiz Boku shahrida ham ajoyib o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, Absheron yarimoroli sohilida to'rt, olti va sakkiz yo'lakli xayvey va avtobanlar, ostin-ustun

o'tgan chorrahalar, tunnellar, osmono'par oynaband binolar, Haydar Aliyev markazi, «Flame Towers» (Otashli minoralar) majmuasi, 2012-yili Yevrovideniye bo'lib o'tgan «Kristal-xoll» konsert zali, Haydar Aliyev ko'chasiagi Milliy gimnastika sahnasi, Olimpiada stadioni kabi zamonaviy me'morchilik san'ati namunalariga ega mutlaqo yangi shahar paydo bo'ldi. Bunga endi Abshe-rondagi neft chiqindilaridan batamom tozalangan keng hududni va unda buniyod etilgan istirohat bog'lari va ko'kalamzorlarni qo'shib, neft sanoatining korxonalari ko'p bo'lgani uchun «Qora shahar» degan nom olgan joy o'rniда tiklanayotgan «Oq shahar»ni qo'shib, shuning-dek, yuk ortish-tushirish portlari va kemasozlik korxonalari, ular shahar tashqarisiga chiqarilgani bois, o'nlab kilometrga cho'zilgan Boku xiyobonini qo'shib qara-sangiz, bugungi Bokuni tasavvur qila olasiz. Shak-shuba yo'qki, XXI asr Bokusining bosh me'mori Ilhom Aliyev bo'ladi.

Umuman olganda, «Российская газета»да (25.12.2011) chop etilgan «Ilhom Aliyevning mahorat darsi» maqolasining mualliflari haqli ravishda ta'kidlab o'tishgandek, «Ozarbayjonda so'nggi besh-yetti yil ichida ro'y berayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar sur'atini kamdan-kam kuzatiladigan tarixiy misollar bilan qiyoslash mumkin. Axborot sohasi, texnik soha, boshqaruv masalalarida so'nggi o'n yil ichida bashariyat tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar Ozarbayjonda ham o'z aksini topgan. Taraqqiyot g'oyalalarining birortasi yurtimizni chetlab o'tmadi, desa bo'laveradi. Yangilik tafsilotini teran anglaydigan I. Aliyev taraqqiyotning undov beruvchi sabablari va rivojlanish yo'llarini idrok eta bildi.

Prezidentlik davrida Ozarbayjon yetakchisining siyosiy irodasi, yurtni modernizatsiya qilib, rivojlantira bilish, moliya va kadrlarning mavjud manbalaridan samarali foydalanish qobiliyati ko'p sinovlardan o'tdi».

* * *

...Iqtisodiyotni modernizatsiya qilar, sanoat va qishloq xo'jaligini oyoqqa qo'yib borar ekan, prezidentimiz madaniyatni rivojlantirish, ma'naviyat sohasini tiklash masalalarini ham e'tibordan chetda qoldirmadi...

...Iqtisodiyotni modernizatsiya qilar, sanoat va qishloq xo'jaligini oyoqqa qo'yib borar ekan, prezidentimiz madaniyatni rivojlantirish, ma'naviyat sohasini tiklash, adabiyotimiz va san'atimizning atoqli namoyandalarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirish masalalarini ham e'tibordan chetda qoldirmadi. Jumladan, taniqli adiblarimiz, musiqachilarimiz, teatr va kino arbollarini prezident stipendiyasini (1000 manat miqdorida) olishadi. Bundan tashqari, prezident farmoyishiga binoan, katta va yosh avlodga mansub yozuvchilarning ijodiy faoliyatini ta'minlash maqsadida Madaniyat vazirligida maxsus stipendiya fondi tuzilgan. Mana, qariyb 10 yildirki, katta avlodga mansub 50 nafar va yosh avlodga mansub 20 nafar yozuvchi har yili tegishinchcha 300 va 200 manat prezident stipendiyasini oladi.

Shahar markazidagi qadimiyligi, yurtimizning asosiy ijodiy uyushmalari, xususan, Yozuvchilar uyushmasi, Bastakorlar uyushmasi, Musavvirlar uyushmasi joylashgan binolar davlat hisobidan kapital ta'mirdan chiqarildi. Ilhom Aliyevning ko'rsatmasiga muvofiq Bokuda musav-

virlar uchun ko'plab ustaxonalar qurildi. Prezidentimiz ijodiy uyushmalarning qurultoylarini o'tkazishga ham mablag' ajratib bormoqda. Haydar Aliyev Fondi yordamida, prezidentimiz va yurtimizning birinchi xonimi homiyligida Ozarbayjonda nufuzli musiqa festivallari – Uzeir Gajibekov festivali, Mstislav Rostropovich festivali, Gabala festivali o'tkazib boriladi. «Maqom olami» xalqaro festivaliga Yer kurrasining barcha burchaklaridan folklor jamoalari tashrif buyuradi. Bokuda va Ozarbayjonning boshqa mintaqalarida ushbu festival doirasida ilmiy simpoziumlar, maqom ijrochilarining konkursi, jahonga mashhur ijrochilarining chiqishlari bo'lib o'tadi.

Umuman, Ozarbayjon madaniyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab borilishining turli shakllarini uzoq sanab o'tish mumkin: yurtimizning asosiy muzeylari yangilanmoqda, respublikadagi barcha teatr binolari va sahna maydonlari rekonstruksiya qilindi. Gilam muzeysi uchun o'ta zamonaviy majmua qurilib, foydalanishga topshirildi. Zamonaviy san'at muzeyi, Xalqaro maqom markazi ochildi. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalarning binolari ham e'tibordan chetda qolmay, kapital ta'mirdan chiqarildi yoki yangi bino qurib berildi. Masjidlar, pravoslaviye ibodatxonaları, me'moriy yodgorliklar ham restavratsiya qilib borilmoqda...

Bunda yozuvchilar bilan hamaylixotir muloqot qilib o'tirishni juda xush ko'rgan, ularning barcha qurultoylarida ishtirok etgan, buyuk va mumtoz ijodkorlari-mizning yubiley kechalarida qatnashib, uzundan-uzoq ehtirosli nutqlar o'qigan otasidan farqli o'laroq, Ilhom Aliyevda yurtimizning adabiyot va san'at namoyandaları olami bilan yaqindan aloqada bo'lib, tegishli tavsi-

yalar berib borish, ijodkorlar o'rtasida yuzaga kelgan mojarolarga shaxsan aralashib, tinchlantirish istagi yo'q. Ilhom Aliyev – mutlaqo boshqa avlod vakili. Uning muhimroq deb biladigan o'z qarashlari, afzal topadigan mavzulari, o'zining hayot tarzi va o'zi xohlaydigan mu-loqot doirasi bor.

*Haydar Aliyev
fondi va ushbu
Fond prezidenti,
Milliy Majlis
deputati Mehribon
Aliyevaning
tashabbusi bilan
Ozarbayjonning
tarixiy-madaniy
yodgorliklarini
asrab-avaylash
va ularni
YUNESKOning
Umumjahon merosi
ro'yxatiga kiritish
borasida ulkan
ishlar amalgा
oshirilmoqda.*

Boz ustiga, yurtimizdagи bunyodkorlik sur'ati va shu bilan bog'liq ish va majburiyatlar ko'lami ham geometrik progressiya darajasida oshib ketdi: prezident bugun yurtimizning ma'lum bir tumanida yangi qurilgan obyektning ochilishida ishtirok etishi, ertaga harbiy qismlardan biriga borishi, indinga Vazirlar Mahkamasining yig'ilishini o'tkazishi, undan keyin NATO sammiti yoki Davos forumida ishtirok etishi yoxud navbatdagi davlatga rasmiy tashrif buyurishi kerak. Deyarli har kuni turli delegatsiyalarni qabul qilish, ikkitomonlama muzokaralar olib borish, Ozarbayjon poytaxtida uzlusiz o'tkaziladigan nufuzli xalqaro tadbirdarda so'zga chiqish ham uning kundalik majburiyatlariga kiradi. Ana shunday shiddatli sur'at yil bo'yi davom etadi. Shunday ekan, tabiiyki, yubiley kechhalarda ishtirok etish yoki yozuvchilar bilan choyxo'rlik qilib o'tirishga vaqt qolmaydi. Muhimi shundan iboratki, adabiyot va san'atning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish an'anasi to'la-to'kis saqlanib qolgan.

Bundan tashqari, Haydar Aliyev fondi va ushbu Fond prezidenti, Milliy Majlis deputati Mehribon Aliyeva-ning tashabbusi bilan Ozarbayjonning tarixiy-madaniy yodgorliklarini asrab-avaylash va ularni YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish, yurtimiz madaniyati va san'atini xalqaro miqyosda targ'ib qilish borasi-da ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ta'sirchan tadbirlar (kitob, albom, disk nashr etish, turli davlatlarda Ozarbayjon mumtoz va xalq musiqasi konsertlarini, gilam ko'rgazmasi va boshqa amaliy san'at namunalari ko'rgazmalarini uyuştirish, Ozarbayjon madaniyati va Ozarbayjon milliy taomlari kunlarini o'tkazish kabi tadbirlar) ro'yxatining o'zi bir necha sahifani egallaydi. Nati-jada akademik R. Mextiyev o'zining «Bugungi Ozarbayjon – milliy g'oya timsolidir» maqolasida ta'kidlab o'tganidek, «*Madaniy mero-simizning tashvishini qilish, uni global miqyosda targ'ib etish ishlari mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Endilikda Ozarbayjon u yoki bu hodisaga «javoban» munosabat bildirish amaliyotidan, o'zining madaniy durdonalarini xalqaro jamoatchilik e'tiboriga yetka-zishga doir faol siyosat yuritish amaliyotiga o'tmoqda».*

*«Yana 10 – 15
yildan keyin
xalqimiz yanada
yaxshi yashaydi.
Biroq istardimki,
haminamiz uzoq
kelajakda emas,
shu bugundan
boshib yaxshi
yashasak...»*

Respublikamizning barcha erkaklari qo'liga o'yma bolg'a-yu, bo'yoqchining cho'tkasini ushlab yurgandek ko'rindi menga ba'zan: qayerga qarama eski buzilib, yangi qurilmoqda, suvoq qilinmoqda, bo'yalmoqda...

Yurtimiz uzoq kechgan qishki uyqudan turganday, ustini juldur qoplamadan tozalab, asl go'zalligini kasb etayotganday go'yo. Prezidentimiz kunlardan bir kun o'z «sabrsizligi»ni izohlab o'tar ekan: «Yana 10 – 15 yildan keyin xalqimiz yanada yaxshi yashaydi. Biroq istardimki, hammamiz uzoq kelajakda emas, shu bugundan boshlab yaxshi yashasak, yurtimizning har bir fuqarosi islohotlarimiz mevalaridan shu bugun bahramand bo'lsa», – degan edi. Ilhom Aliyevning yuksak reytingi barqaror saqlanayotganiga qaraganda, millat, ushbu masalada o'z prezidenti bilan hamfikrdir.

«JANUBIY GAZ YO'LI» – XXI ASRNING GLOBAL LOYIHASI

«...Agar Haydar Aliyev davrida Ozarbayjonni ko'pchilik, odatga ko'ra, sobiq ittifoq rejimidan meros qolgan mojarolar hududi sifatida ko'rgan bo'lsa, Ilhom Aliyev davriga kelib Ozarbayjon manfaatlari tobora kuchayib borayotgan, sheriklarining tarkibi har xil bo'l mish geosiyosiy o'yinchiga aylanib borayotganini kuzatishi mumkin».

*(Oleg Siganovning
«Ilhom Aliyev: ochiq olam» kitobidan.
Moskva, 2008-y.)*

Ilhom Aliyevning diqqat-e'tibori markazidan joy olgan muhim sohalardan yana biri neft-gaz loyihalari ni qo'llab-quvvatlash, xalqaro transport-energetika kommunikatsiyalari buniyod etilishida yurtimiz ishtirokini ta'minlash sanaladi.

O'tgan yillarga nazar soladigan bo'lsak, ishonch-la aytishimiz mumkinki, Ilhom Aliyev o'sha tarixiy «Asr shartnomasi» imzolanib, 1994-yili asos solingan yo'naliш izchilligini to'la-to'kis saqlab qoldi. Qolaversa, tangan yo'lni u nafaqat saqlab qoldi, balki Yevropaning energetik xaritasi o'zgarishiga sabab bo'lgan global miqyosdagi yangi iqtisodiy loyihalar ijrosiga start berib, yutuqlarimiz hajmi ko'payishiga erisha ham bildi.

**«Biz tashqi siyosiy
tashabbuslar
sari, yurtimizning
geosiyosiy
jihatdan qulay
joylashganidan
foydalanish sari
faqat ezgu niyat-
la odimlaymiz...
Birovga tazyiq
o'tkazish, do'q-
po'pisa qilish,
g'arazli niyat
ko'zlash yo'lidan
emas, aynan
yaxshi niyat
ko'zlab boramiz....»**

Ilhom Aliyevning fikriga ko'ra, Ozarbayjon strategiyasi muvaffaqiyatinining siri shundan iboratki, har bir loyihamizga «biz mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan yondashamiz. Ya'ni biz tashqi siyosiy tashabbuslar sari, yurtimizning geosiyosiy jihatdan qulay joylashganidan foydalanish sari faqat ezgu niyat-la odimlaymiz... Birovga tazyiq o'tkazish, do'q-po'pisa qilish, g'arazli niyat ko'zlash yo'lidan emas, aynan yaxshi niyat ko'zlab boramiz... Biz qo'shni yurtlarga investitsiyalar kiritmoqdamiz, qo'shni yurtlarning bizga maqbul bo'lgan har xil tashabbuslarini ma'lum darajada qo'llab-quvvatlamoqdamiz.

Ozarbayjondan tashqarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy tashabbuslarimiz va investitsiyalarimiz o'sha yurtlarga har tomonlama ko'mak bo'ldi. Bu bilan Ozarbayjonning xalqaro maydonda tutgan o'rni yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqamiz va Yevropadagi aksar do'st-u sheriklarimiz Ozarbayjonni strategik investor sifatida ko'rishni istaydi. Bizga sanatning strategik tarmoqlari, energetika va transport sohalariga kiritilayotgan investitsiyalarda ishtirok etishni taklif qilishmoqda. Har bir taklifni biz diqqat bilan ko'rib chiqamiz. Bularning bari o'zaro ishonchning yuksak darajasidan darak berib, Ozarbayjon ishonchli do'st, sherik sifatida ko'rilmoxda. Bu bilan biz mintaqa-

dagi milliy manfaatlarimizni ta'minlamoqdamiz. Kelgusida iqtisodiy imkoniyatlarimizning muayyan qismi Ozarbayjondan tashqarida, bugun kiritayotgan investitsiyalarimiz evaziga keng ma'noda shakllanib boradi. Bu bizning ro'yobga chiqa boshlagan iqtisodiy siyosatimizning ma'lum qismidir...»

Endi faktlarga murojaat qilsak. «Boku – Tbilisi – Jeyxan» neft quvurini yotqizish marosimi o'tkazilgan kundan atigi uch yil o'tgach, 2006-yili ushbu quvurni ishga solish marosimi o'tkazildi. Unga haqlı ravishda Haydar Aliyev nomi berildi. 2007-yili Ozarbayjon, Gruziya va Turkiyani bog'lagan, endilikda «Janubiy gaz yo'li»ning muhim qismi sifatida muvaffaqiyat-la kengayib borayotgan neft quvurining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Diversifikatsiyani rag'batlantirish maqsadida 2011-yili o'ta muhim hujjat – Yevropa komissiyasi bilan Ozarbayjon o'rtasida energetika sohasidagi strategik hamkorlikka doir o'zaro hamfikrlik memorandumi imzolandi. Turkiya bilan Ozarbayjon o'rtasida 2012-yili Transanatoliya gaz quvurini yotqizish haqidagi tarixiy bitim – TANAP imzolandi. Ushbu bitimdan so'ng, investorlar «Shaxdeniz-2» loyihasining investitsiyasiga doir yakuniy qaror borasida bir bitimga kelishdi. 2014-yili Bokuda «Janubiy gaz yo'li»ning poydevorini yotqizish marosimi bo'lib o'tdi. 2015-yili Turkiyaning Kars viloyatida TANAP poydevorini yotqizish marosimi bo'lib o'tdi. Kelgusida uning Transadriatika gaz quvuri – TAR doirasida yanada uzaytirilishi ko'zda tutilgan.

Loyihaning taxmin qilinayotgan uzunligi 3500 kilometrni tashkil etadi. Uning dastlabki qiymati 45 milliard dollarga tushadi (biroq neft narxining tushishi amalga

oshiriladigan bir qator loyihalarning arzonlashishiga olib keldi, natijada JGYning narxi bir necha barobar pasa-yib, 39 – 40 milliard dollar atrofida baholanmoqda). Ekspertlarning fikriga qaraganda, «Janubiy gaz yo'li» bugungi kunda yagona ta'minotchiga bog'lanib qolgan Bolqon va Janubiy Yevropaning diversifikatsiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, 2018-yili TANAP loyihasining ishga tushirilishi va qo'shimcha yetkazilgan 6 milliard kub metr Ozarbayjon gazi Turkiyaning Rossiyadan keladigan «moviy olov»ga bog'lanib qolish darajasini pasaytirish imkonini beradi (bu ulush hozir 58 foizni tashkil etadi). Ozarbayjon gazi Turkiya bozorida Eron bilan Rossiya gazidan ancha arzonga tushishi ham muhim omil hisoblanadi. Aytganday, JGY tizimi Yevropaga Turkmaniston va Qozog'iston gazini, kelgusida esa Eron bilan Iroqning «moviy olov»ini yetkazib berishga zamin yaratadi.

Gaz dastlab 2018-yili Turkiyaga, so'ng 2019-yili Yevropaga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bunda yangi gaz quvurining gaz o'tkazish hajmi birinchi bosqichda yiliga taxminan 10 milliard kub metrni tashkil etadi, kelgusida esa ushbu ko'rsatkichni 20 milliard kub metrga yetkazish imkoni bo'ladi. Strategik tadqiqotlar markazining eksperti Gulmira Rizayevaning fikriga qaraganda, «2020- yildan so'ng, «Absheron» va «Umid – Babek» konlaridan hamda «Azeri – Chirag – Gyuneshli» blokining suv ostidagi chuqur platalaridan gaz olinsa Ozarbayjonning eksport salohiyati yiliga yana 15 milliard kub metrga oshadi. Kelajakda esa «Shaxdeniz» konidan gaz olishning ikkinchi bosqichi kutiladi».

Shunday qilib, «Janubiy gaz yo'li» loyihasining ahamiyatiga, jumladan, Ozarbayjonning o'zi uchun kasb

etadigan ahamiyatiga ortiqcha baho berib yuborish qiyin kechadi. Yurt uchun bu birinchi navbatda nafaqat gaz savdosi, balki uning tranzitidan ham tushadigan barqaror daromad manbai demakdir.

Ushbu loyihamiz va boshqa transport-energetika loyihalari xorijda qattiq qarshilikka uchragan, buni president o'z chiqishlaridan birida quyidagicha eslab o'tdi:

«2006-yil 13-iyul solnomamizdag'i ajoyib sanadir. Shu kuni «Boku – Tbilisi – Jeyxan» neft quvuri rasman foydalanishga topshirildi. Bu bizning g'alabamiz, Haydar Aliyev tomonidan ishlab chiqilgan neft strategiyasining tantanasidir. Ushbu loyiha Ozarbayjon uchun ham, mintaqacha uchun ham, butun dunyo uchun ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Biz barcha mashaqqat, qarshilik, to'siq-larga, Ozarbayjonga qarshi olib borilgan nopol kampaniyalarga qaramasdan, uni amalga oshirishga erishdik...»

«Boku – Tbilisi – Jeyxan» neft quvurini qurishga doir qaror qabul qilib, ijrosini ta'minlash jarayonida AQSH Kongressidagi armanparast shaxslar bizga har taraf-lama xalaqit berishdi. Ushbu loyiha qarshi maqsadli kampaniya uyushtirilib, shu maqsadda hatto alohida internet-sayt ham ochildi. Turli-tuman bahonalar, jumladan, ekologiya masalalari bo'rttirib ko'rsatilib, bizga muammo tug'dirishga urinishdi.

Ma'lum bir bosqichda ular muvaffaqiyat qozongan-day ham bo'lischdi. Ikkilanib qolgan ayrim xalqaro moliyaviy idoralar mablag' ajratishni to'xtatishdi. Oqibatda masala yechimi bir necha oyga cho'zildi. Keyinchalik qat'iy tutgan pozitsiyamiz, matonatimiz, biz bilan birga ishlagan xalqaro kompaniyalar faoliyati ila barcha qiyinchiliklar barham topdi. Armanistonning, armanparastlarning xatti-harakatlari puchga chiqdi.

«Boku – Tbilisi – Arzurum» gaz quvuri yotqizilayotganda ham ular xuddi shunday yo'l tutishgan. Nima uchun ushbu quvur Armaniston hududini chetlab o'tayotgani rosa ezilgan masala bo'ldi. Sababi ayon: chunki Armaniston Ozarbayjon zaminini zabt etib, bosqinchilik siyosatini olib bormoqda. Binobarin oramizda hech qanday hamkorlik bo'lmaydi. Har qanday yo'l Armanisttonni chetlab o'tadi...

Ushbu loyihalari texnik va siyosiy jihatdan juda murakkab bo'lib, ijrosi yirik mablag' talab etgan. Garchi ayrimlar ushbu loyihami bizning geosiyosiy makonda ro'yobga chiqarib bo'lmaydi, deb hisoblagan bo'lsa-da, biz uddaladik...»

Darhaqiqat, Ilhom Aliyevning siyosiy irodasi va pozitsiyasining qat'iyligi sheriklar o'rtasida yuzaga kelgan ixtiloflar hal bo'lib, gapdan ishga o'tishga imkon berdi. 2016-yil 1-iyun kuni ochilgan XXXI xalqaro ko'rgazma va «Kaspiy nefti va gazi 2016» konferensiyasida so'zga chiqqan Ilhom Aliyev, ushbu sohada erishiladigan muvafaqiyat garovi xalqaro hamkorlik ekanligini ta'kidlab o'tdi:

«Yurtimizning geografik holati, loyiha ijrosiga kiritilgan investitsiya, puxta o'ylangan siyosat va sheriklar bilan birgalikda olib borilgan faoliyat bugungi voqelikka sabab bo'ldi. Ushbu voqelik Ozarbayjon davlatiga, xalqiga xizmat qilib, qo'shni davlatlarning milliy manfaatlarini ta'minlaydi, keng geografik maydonda yo'lga qo'yilgan xalqaro hamkorlikni kuchaytiradi. Xalqaro hamkoriksiz, biz, turgan gapki, birorta ham loyihami amalga oshira olmaymiz. Chunki Ozarbayjonning ochiq dengizga, jahon bozorlariga chiqish yo'li yo'q... Bunda hamma faqat manfaat topadi. Shu bois, Ozarbayjon ush-

bu xalqaro hamkorlik shakllanishi uchun birinchi navbatda sa'y-harakat qilishi kerak edi, mana, qildi».

«Janubiy gaz yo'li» loyihasini amalga oshirish imkonni Yevropada ham, okean ortida ham seziladi. Buning uchun Bokuda o'tgan neft-gaz ko'rgazmasi ishtirokchilariiga Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi bosh vaziri Devid Kemeron hamda AQSH prezidenti Barak Obama tomonidan yo'llangan nomalardan bir juft iqtibos keltirib o'tishning o'zi kifoya.

Devid Kemeron yo'llagan maktubdan:

«...Ozarbayjonning energetik manbalari Yevropa va jahon iqtisodiyotida, shuningdek, Yevropaning energetik xavfsizligini ta'minlash masalasida muhim rol o'yaydi. Mening hukumatim global energetik xavfsizlikka katta e'tibor qaratadi. «Janubiy gaz yo'li» Yevropa Ittifoqining gaz bozorini diversifikatsiyalash va shu tariqa Yevropaning energetik xavfsizligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Ozarbayjon hukumatini «Janubiy gaz yo'li»ni rivojlanishda tutgan o'rni bilan tabriklayman va 17-may kungi Transadriatika quvurining poydevorini yotqizish marosimini qutlayman. Bu «Janubiy gaz yo'li»ni reja bo'yicha yotqizish ishida yuz bergen navbatdagi muhim hodisadir...»

Barak Obama yo'llagan maktubdan:

«Hurmatli Prezident janoblari.

Bokuda o'tayotgan «Kaspiy nefti va gazi» xalqaro ko'rgazmasi va konferensiyasining 23 yilligi munosabati bilan Sizga va Ozarbayjon xalqiga ezgu tilaklarimni bildirib qolaman.

Ozarbayjonning energiya manbasini mintaqasi miy-yosida yetkazishning diversifikasiyasini, bozor raqobati va energetik xavfsizlikni kuchaytirish kabi mushtarak maqsadlarga erishish borasida ishonchli sherik bo'lib, global miqyosdagi energiya ta'minoti masalasida muhim o'rinni tutib kelmoqda. Bugungi kunda energiya yetkazilishining diversifikasiyalanishi har doimgiday o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. O'tgan yili Ozarbayjon o'z sheriklari bilan birga «Janubiy gaz yo'li» loyihasini amalga oshirishdagi yirik tarixiy bosqichlarga erishdi. Ozarbayjon bilan uning xalqaro sheriklari o'rtasidagi barqaror hamkorlik, ushbu muhim loyihami yakuniga yetkazish imkonini beradi, Qo'shma Shtatlar esa o'z xalqaro sheriklari bilan birga bunga yordam ko'rsatishga tayyor bo'lib, «Janubiy gaz yo'li» katta ahamiyatga ega ekanligini bundan keyin ham ta'kidlab boradi.

«Janubiy gaz yo'li» loyihasini amalga oshirishda ko'rsatayotgan sa'y-harakatlaringizga hurmat-la qarab, Ozarbayjonning mavjud imkoniyatlarini to'liq ishga solish, jumladan, iqtisodiyotini diversifikasiyalash, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, hisobot va qonun ustuvorligini yaxshilash va nihoyat, Ozarbayjon xalqining hayot standartlarini yaxshilash yo'lidagi dadil qadamlarining qo'llab-quvvatlayman. Qo'shma Shtatlar Ozarbayjonning ishonchli sherigi bo'lib qoladi...»

Ozarbayjon Prezidenti ham, o'z navbatida, ko'rgazma va konferensiya davomida muhim bayonotlar qilib, xalqaro hamjamiyatga o'zining bir qator prinsipial mulo-hazalarini ma'lum qildi. Xususan, u «Janubiy gaz yo'li» iqtisodiy mazmunga ega loyiha bo'libgina qolmay, xavfsizlik loyihasi ham ekanligini ta'kidlab o'tdi. Zero, energetik

xavfsizlik masalalari jahonda bugun eng dolzarb masala sifatida ko'rilmoxda. «Energetik xavfsizlik ta'minlanmas ekan, milliy xavfsizlikni ta'minlab bo'lmasligi bugun hammaga tushunarli, albatta, – dedi Ilhom Aliyev. – Energetik manbalarga boy bo'lмаган yurtlar, turgan gapki, boshqalarning manbalariga bog'lanib qolgan. Energetika omilidan hamkorlik ko'lamenti kengaytirish yo'lida foydalanishni hamisha oldimizda turgan vazifa deb bilamiz. Ozarbayjon hech qachon o'z imkoniyatlardan boshqa maqsadlarda foydalanmagan. Energetika siyosati va ushbu sohadagi uzoq muddatli hamkorlik faqat mana shu sog'lom negizda qurilishi kerak... Energetika omilidan hech qachon boshqa maqsadda – tovlash, u yoki bu sohada imtiyozga ega bo'lish quroli sifatida foydalanmaslik kerak. Ozarbayjonning ushbu masalada tutgan pozitsiyasi jahon miqyosida ma'qulangan, deb hisoblayman...»

Ushbu energetik loyihalarning barchasini ro'yobga chiqarish jarayonida yana bir holat – Ilhom Aliyev Moskva bilan o'zaro hamfikrlik va yaxshi sheriklik munosabatlarini saqlab qolgani g'oyat muhimdir. Bu esa oson kechmagan. Chunki ushbu loyihalalar Rossiyaning Yevropa davlatlariga energetik manbalarni eksport qilish monopoliyasiga chek qo'yish borasidagi navbatdagi urinish sifatida qabul qilingan. Shunga qaramay, xalqaro munosabatlarda sog'lom pragmatizm hamisha ustun keladi.

*«Energetika
omilidan hech
qachon boshqa
maqsadda –
tovlash, u yoki bu
sohada imtiyozga
ega bo'lish
quroli sifatida
foydalanmaslik
kerak.
Ozarbayjonning
ushbu masalada
tutgan pozitsiyasi
jahon miqyosida
ma'qullangan, deb
hisoblayman...»*

Masalan, Federatsiya Kengashining Iqtisodiyot qo'mitasi a'zosi professor Yevgeniy Tarloning fikricha, «Ushbu loyihani Rossiyaning gaz bozoridagi joiz yo'qotishi, deb emas, oddiy bozor raqobati sifatida ko'rish kerak». Komil ishonch bilan aytishiga qaraganda, Ozarbayjon gazi bozor miqyosida sezilarli o'rinni egallay olmaydi, Rossiya gazini bozordan butunlay siqib chiqara olmaydi, lekin ushbu loyiha sog'lom raqobatga misol bo'la oladi. Shu bilan bir vaqtida, Yevgeniy Tarlo, Ozarbayjon o'zining tabiiy boyliklarini jahon bozorida sotish huquqiga ega ekanligini, binobarin, ushbu loyihani Rossiyaning gaz bozoridagi iqtisodiy yo'qotishi sifatida ko'rishdan hech qanday ma'nno yo'qligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Shunga qaramay, Ozarbayjon prezidentining fikriga qaraganda, «Janubiy gaz yo'li» loyihasi Yevropaning energetik xaritasini o'zgartiradi. Ozarbayjon tegishli qoidalar, tajriba va qonunchilik bilan tartibga solinadigan yirik bozorlarga chiqish yo'lini qidiradi. Yevropa iste'molchilari gazni ishonchli, do'stona ruhdagi yangi sherikdan ola boshlaydi. Bunday sherik gazni o'nlab yillar davomida ishonchli yetkazib boradi. Aynan shunday bo'lishiga ishonchim komil. Zero, Ozarbayjonning so'nggi yigirma yil mobaynida boshlagan barcha loyihalari muvaffaqiyat-la ro'yobga chiqib keldi...»

Bugungi Ozarbayjon energetika tarmog'ida olib borilayotgan ishlarga yaxshigina misol bo'la oladi. Ozarbayjon nefti chindan ham xalqqa xizmat qilayotgанини ko'rish uchun yurtimiz shaharlariga nazar tashlashning o'zi kifoya. «Puxta o'ylangan siyosat tufayli neftdan olingan daromadni neftga daxli bo'limgan sohalarni rivojlantirishga yo'naltira oldik, deb hisoblayman. Biz in-

son omiliga yirik investitsiya kiritdik. Ushbu sohaning ochiq-oydinligini to'la-to'kis ta'minlay bildik. 15 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Davlat neft fondi bugungi kunda jahon miqyosidagi suveren fondlar o'rtasida yetakchi o'rinalardan birini egallab kelmoqda. Neft fondi daromadlari yildan-yilga oshib bormoqda... Shu bilan birga, yurtimizning asosiy muammolarini hal etish uchun har yili boshqa sohalariga mablag' ajratilmoqda. Binobarin, neft omiliga bog'langanlik darajasini ancha qisqartira oldik, deb hisoblayman».

Bugungi kunda yalpi ichki mahsulotimizning asosiy qismi chindan ham neft sohasiga daxli bo'lмаган tarmoqlarda shakllanmoqda. Masalan, 2016-yilning dastlabki to'rt oyida Ozarbayjonning neftga daxli bo'lмаган tarmog'i 11 foizga oshdi. Bu ko'rsatkich Ilhom Aliyevning tashabbusi bilan boshlangan diversifikatsiya siyosati yurtimizning barqaror rivojini ta'minlagancha o'z samarasini ko'rsata boshlaganidan dalolat beradi.

«Biz infratuzilma loyihalari va yangi texnologiyalarga katta mablag' ajratmoqdamiz. Biz orbitaga sun'iy yo'ldosh uchirdik. Yurtimizni har tomonlama rivojlantirmoqdamiz. Kelgusi yillarda «Ozarbayjon – 2020» konsepsiyasini amalga oshirish orqali yurtimiz rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi lozim, deb hisoblayman. Bu bizning asosiy maqsadimizdir».

«Neftdan olingan daromadni neftga daxli bo'lмаган sohalarni rivojlantirishga yo'naltira oldik. Biz inson omiliga yirik investitsiya kiritdik».

SHARQ BILAN G'ARB O'RTASIDA

«Biz Yevropaga faqat geografik jihatdan emas, mohiyatan ham yaqin bo'lishni istaymiz».

I. Aliyev

Ilhom Aliyev faoliyatining uchinchi muhim yo'nalishi yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlash, Ozarbayjonning globallashib bora-yotgan jahonda tutgan o'rni va rolini oshirishdan iborat bo'ldi.

«Ilhom Aliyev o'zini G'arb bag'riga otmay, Kreml bilan qalin do'st tutinmay o'z yo'lini davom etdi. Ichki siyosatda bo'lGANI kabi tashqi siyosat masalasi ham mas-haqqatli mehnatni taqozo etadi. Sobiq ittifoq hududida demokratiyalanishning ikkinchi to'lqini («pushti» inqiloblar) avj olgan, Vashington keskin faollandashib qolgan bir sharoitda Aliyev iqtisodiy suverenitet yo'lidan chiqmay, pragmatizmning yangi asoslardida Rossiya bilan o'zaro manfaatlri munosabatlarni yo'lga qo'yishni taklif eta bildi... Ozarbayjon bunday vaziyatda hamisha astoy-dil chandalab ish tutganini, ba'zan kutish yo'lidan borgani ni ta'kidlab o'tmaslikning iloji yo'q. Boku hech qachon o'zini birovning qo'yniga urmagan, birovga hech qachon yalinmagan. Ozarbayjon hamkorlikning turli variantla-

rini taklif etgan, xolos. Bunda u hech kimni siyosiy afzaliliklardan kelib chiqib istisno qilmagan, manfaatdor tomonlarning hammasiga hamkorlik qilishni taklif qilgan.

Gapning to'g'risini aytganda, Ozarbayjon ko'p yillardan buyon Washingtonning siyosiy ko'rsatmalarisiz yashadi, suveren davlat qurish yo'lidagi qiyinchiliklarni o'zi mustaqil yengib o'tdi va shu bois, yurtimiz birovning oldida hisobot bermaydi, birovga qulluq ham qilmaydi. Boku G'arb qadriyatlarining va'zgo'ylari bilan maslahatlashmay, ayniqsa, ularning ijozatini olmay yo'l tanlagan...»

*Boku hech
qachon o'zini
birovning qo'yniga
urmagan, birovga
hech qachon
yalinmagan.
Ozarbayjon
hamkorlikning
turli variantlarini
taklif etgan, xolos.*

«Известия» gazetasining oqsoqoli Oleg Siganovning 2008-yilgi ushbu mulohazasi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, Ozarbayjon va uning yetakchisi tashqi siyosatni hamisha muvozanatli, avvalo, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yurgizishga intilishi bois, ushbu tezis so'nggi yillarda yanada dolzarb tus oldi.

Prezidentligining dastlabki yillarida tashqi siyosat mazmunan Yevropa vektoriga ega bo'lishini aniq anglatar ekan, yurtboshimiz Ilhom Aliyev buni quyidagicha izohlab o'tdi:

«Biz taraqqiyotning yevropacha mezonlariga yaqinlashib, ushbu mezonlar bo'yicha yashashga intilmoqdamiz. Qulay siyosiy tuzum, iqtisodiy integratsiya, kuchli ijtimoiy muhofaza – bularning barini Yevropa Ittifoqida ko'rmoqdamiz.

Biz Yevropaga qo'shnimiz, tashkilot sarhadlari Qora dengiz sohiligacha yetib bordi.

— Biz Yevropaga faqat geografik jihatdan emas, mohiyatan ham yaqin bo'lishni istaymiz».

So'nggi yillarda Ozarbayjon yevrointegratsiya yo'llida ko'p narsalarga erishdi. Jumladan, milliy qonunchiligimiz xalqaro, avvalambor, Yevropa qonunchiligi standartlariga mazmunan mos keltirildi, yurtimiz aksariyat Yevropa shartnomalari va konvensiyalariga qo'shildi, Ozarbayjonning Yevropa davlatlari bilan viza rejimi soddalashtirildi, yurtimiz parlamentariylari bilan hukumatimiz Yevropa kengashidan tortib, NATOgacha bo'lgan barcha xalqaro idoralar faoliyatida jadal ishtirok eta boshladi. Yevropaning turli-tuman sammitlarida so'zga chiqish imkonini qo'ldan chiqarmagan Ozarbayjon prezidenti esa allaqachon Yevropa rahbarlaridan tashkil topgan «tor doira»ning teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi. Boz ustiga Ozarbayjon o'zining salmoqli neft-gaz manbalari va diversifikatsiyalangan quvurlari bilan, so'nggi yillarda Yevropaning energetik xavfsizlikni ta'minlash masalasida katta rol o'ynadi, ushbu holatni yurtimizning eng ashaddiy dushmanlari ham inobatga olishga majburdir.

Prezidentlik davrida Ilhom Aliyevning G'arb rahbarlari bilan munosabati ba'zan «amerikacha tepaliklar» attraksion qurilmasini eslatadigan tarzda kechdi.

2010-yil sentyabr oyida mazkur kitob muallifining maqolasi chiqib, unda, oralaridagi munosabat anchagini sovuq bo'lishiga qaramay, ikki davlat prezidentlari – Barak Obama bilan Ilhom Aliyevning davlatlararo mu-

nosabatlarni yangidan boshlash jarayoniga start berish-ga urinislari haqida so'z ketgan. Maqola ITAR – TASS agentligining nufuzli «Эхо планеты» haftaligidagi e'lon qilindi (29. 9. 2010, 37-son).

Obama va Aliyev munosabatlarni yangidan boshlash jarayoniga start berishdi

BMT Bosh assambleyasida yuksak darajada o'tadigan har yilgi munozaralar aksariyat davlat rahbarlarini Nyu-York shahriga yig'adi. Ushbu tadbirdan ular o'zaro va birinchi navbatda AQSH prezidenti bilan norasmiy muloqot uchun foydalanib qolishadi. BMT Bosh assambleyasining bu galgi sessiyasi davomida Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev bilan Barak Obamaning uchrashuvi ko'pchilikning e'tiborini jalg etdi.

Ikkala siyosatchi bir-birlarini yaxshi taniydi. Ilhom Aliyev senator Obama bilan ikki marta: 2005 va 2006-yillari Boku va Nyu-Yorkda uchrashgan. Obama prezident etib saylangach, Ozarbayjon prezidenti bilan dialogni davom ettirish istagini bildirdi. Uchrashuv 2009-yil aprel oyida Istanbulda o'tadigan «Sivilizatsiyalar alyansi» sammiti doirasida o'tishi mumkin edi. Biroq Ilhom Aliyev, garchi Turkiya rahbariyati bilan AQSH davlat kotibi Xillari Clinton Ilhom Aliyevni ahdidan qaytishga ko'n-dirishga urinishgan bo'lsa-da, sammitga kelmadı. Tog'li Qorabog' bilan bog'liq Armaniston-Ozarbayjon mojarosi hali o'z yechimini topmay turib, Armaniston-Turkiya chegarasini ochishga doir arman-turk muzokaralariga nisbatan noroziligini Ozarbayjon yetakchisi ana shu ta-

riqa bildirgan edi. Bunday diplomatik harakat natijasida Ilhom Aliyev muzokaralarni to'xtatishga, Turkiya bosh vaziri Erdo'g'lonni boshini xam qilgancha, Bokuga uchib kelishga majbur qilishga erishdi. Biroq bunday qaysarlik rasmiy Boku bilan Oq uy o'rtaşıda sovuqlik tushishiga sabab bo'ldi.

Uzoq cho'zilgan sukunat, ko'rib turganimizdek, qariyb bir yarim yil davom etdi. AQSH ma'muriyati Aliyevning haddan ortiq qaysarligiga nisbatan domangirligini turli usullar orqali ifodalab bordi. Birinchidan, o'zining Ozarbayjondagi favqulodda va muxtor elchisi lavozimiga nomzod tanlash masalasida bir to'xtamga kela olmadi – ushbu lavozim mana 14 oydirki, egasiz qolmoqda! Nihoyat, bir to'xtamga kelib, tajribali diplomat, YXHTning Minsk guruhi hamraisi Mettyu Brayzni tanlaganda, uning nomzodini tasdiqlash masalasida senatda juda xunuk fitna boshlanib, o'sha dahmaza hamon davom etmoqda. Bunga Kaliforniya senatorlari qiyofasidagi arman lobbisi o'z ta'sirini o'tkazib, elchi nomzodiga tinimsiz veto qo'yib kelayotgani sabab bo'lmoqda.

To'g'ri, 21 sentyabr kuni senatning Tashqi aloqalar qo'mitasi 17 rozi, ikki qarshi ovoz bilan Brayzni AQSHning Ozarbayjondagi elchisi lavozimiga tasdiqladi. Davlat departamenti ushbu qarorni ma'qul topib, «senat M. Brayzning nomzodini tez orada tasdiqlashiga» umid bog'ladi. Harqalay, agar Brayz ushbu lavozimga tasdiqlanmasa, AQSHning Ozarbayjondagi elchisini Oq uy ham emas, Davlat departamenti ham emas, AQSHning arman lobbisi tanlaydi, deb bilishga Ozarbayjon uchun asos topiladi. Bunday holat turgan gapki, shundoq ham silliq bo'limgan AQSH-Ozarbayjon munosabatlariiga sezilarli zarba bo'ladi. Bun-

dan tashqari, Ozarbayjon prezidentiga tazyiq o'tkazishga urinishlar AQSHning bir qator nashrlarida chop etilgan aksilaliyev maqolalarida, shuningdek, respublikamizdag'i «huquq va erkinlik»ning holatidan tashvishga tushib qolgan turli xalqaro nodavlat tashkilotlarning aksariyat holatlardaadolatdan yiroq bildiruvlarida o'z aksini topdi. Obama ham oradan rosa bir yil o'tib, Istanbul sammitida ishtirok etishdan bosh tortgan Ilhom Aliyevdan qasdini olgancha, javob yurishini qildi – yadroviy xavfsizlik bo'yicha Washingtonda o'tgan sammitga ozarbayjonlik hamkasbini taklif etishni «unutib qo'ydi». Rasmiy Boku esa, ushbu holatni muloyim taajjub-la qabul qildi.

Umuman olganda, Ilhom Aliyevning ma'muriyati Oq uyning mintaqamizda olib borayotgan siyosatidan noroz bo'lishga jiddiy asosi bor. Boku o'tgan yillar davomida strategik hamkorlik ruhiga sodiq qolib, AQSH oldidagi barcha majburiyatlarini, xususan, neft-gaz sohasida- gi hamkorlikdan tortib, Iraq va Afg'onistondagi ittifoq-chilikkacha bo'lgan majburiyatlarini og'ishmay bajarib keldi. Garchi bularning bari Eron Islom Respublikasiga yoqmagan, uning shimolida 30 millionga yaqin etnik ozarbayjonlar yashayotgani bois, ushbu qo'shnining fikrini rasmiy Boku bepisand qoldira olmaydigan bo'lsa-da. Shunday ekan, Ilhom Aliyevning ma'muriyati Washington- dan yurtimiz bilan bog'liq muhim muammolar, avvalam- bor, Tog'li Qorabog' mojarosini hal etish masalasida javoban madad kutishga haqlidir. Oq uy esa aksincha, so'nggi yillarda Ozarbayjonga nishbatan chetda turgan kuzatuvchi pozitsiyasini egallagan. Qolaversa, uning ushbu kuza- tuvchiligi doim ham xayrixohlik ruhida kechmagan.

Nima bo'lgan taqdirda ham, Ozarbayjon prezidenti

zarbaga dosh berishni biladi. O'tgan oylar davomida u o'zining havas qilgudek matonatini namoyon etdi. Ilhom Aliyev omma oldidagi chiqishlarida xorijiy muxoliflari- ga murojaat qilgancha, doimo bir narsani, u ham bo'lsa: Ozarbayjon mustaqil siyosat yuritayotganini, boshqalar- ning ichki ishlariiga aralashmasligi va o'zining ichki ishlari- ga boshqalar aralashishiga yo'l qo'ymasligini ta'kidlab boradi. Zotan, bu, shunchaki jizzakilik-la aytildigan gap emas, balki davlat ichida ham, tashqarisida ham amaliy ishlar bilan isbotlanib borilayotgan mulohazalardir. Res- publikada iqtisodiyot diversifikasiyalanmoqda, neftga daxli bo'limgan sohalar muvaffaqiyat-la ravnaq top- moqda, oziq-ovqat xavfsizligi hal etilmoqda. «Ozarbayjon iqtisodiyoti jahonda jadal rivojlanib borayotgan iqtisodi- yotlardan biridir, – ta'kidlab o'tdi Ilhom Aliyev BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasidagi nutqida, – ushbu holat YIM miqdori o'tgan besh yil ichida uch barobar oshganida o'z aksini topadi». Tashqi iqtisodiyot masalasiga kelsak, aytish kerakki, neftdan tashqari Ozarbayjon prezidenti uchun qudratli madad sifatida tabiiy gaz omili maydon- ga keldi. Izlab topilgan gaz zaxirasining o'zi 3 trillion kub metrni, taxmin qilinayotgan zaxirasi esa 5 trillion kub metrni tashkil etmoqda. Bir so'z bilan aytganda, Ilhom Aliyev uchun siyosiy manyovr maydoni vujudga keldiki, bundan turli yo'nalishlarda muvaffaqiyat-la foydalanish- ni uzoqqa cho'zmadi. Bir tomonidan, gaz yetkazish loyiha- lari Gruziya bilan Turkiya yordamida Yevropa sari yaxshi yurishmoqda. Boshqa tomonidan, Ilhom Aliyev Rossiya- ning foydali takliflarini rad etmay, shimoliy yo'nalishga sotilayotgan Ozarbayjon gazining hajmini oshirmoqda. Shu tariqa, Ozarbayjon prezidenti ro'yobga chiqishidan AQSH bilan G'arb nihoyatda manfaatdor bo'ladigan «Na-

bukko» loyihasida ishtirok etmay ham ishi yurishishiga aniq shama qilmoqda. Oq uy esa, o'z navbatida, o'zining ushbu yo'nalishdagi geosiyosiy o'yinlarida asosiy o'yinchi sanaladigan Ozarbayjonsiz ish bitmasligini tobora aniq anglab yetmoqda.

Oqibatda, Obamaning ma'muriyati uzoq cho'zgan su-kunatini o'zi buzib, Bokuga vakil jo'natdi. Mудофаа вазири Robert Geyts va AQSH davlat kotibi Xillari Clinton tegishincha iyun va iyul oylarida (2010-yil) Ozarbayjonga tashrif buyurib, Aliyevga Obamadan nomalar keltirishdi. Pentagon rahbari tomonidan topshirilgan nomada Barak Obama Ilhom Aliyevga Tag'li Qorabog' mojarosining tin-ch yo'l bilan hal etilishi AQSHning tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalish ekanligini bildirib, AQSH bilan Ozarbayjon yaqin oylarda o'z munosabatlarini uzoq yillarga kengaytirib, chuqurlashtirishiga umid bog'laganini izhor etdi. Yaxshi niyatdagi ushbu do'stona harakatlardan so'ng, ikkala prezidentning uchrashishiga to'sqinlik qiladigan g'ov barham topdi. Uchrashish uchun qulay bo'lган joy va vaqt tanlash qoldi, xolos.

AQSH rahbariyati Ozarbayjoni Janubiy Kavkazdagi siyosiy omil sifatida ko'rishining ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, taniqli siyosatshunos Rasim Agayev «Новосму Азербайджан» agentligiga bergen intervusida shunday deydi:

«Gap shundaki, Gruziya mintaqamizda zaruriy qudratga ega emas. U mohiyatan G'arbning mintaqamizdag'i tayanchi sanaladigan Ozarbayjonga quyruq hisoblanadi,

«...Mintaqada biron-bir masala, u xoh siyosiy, xoh iqtisodiy, xoh energetik, xoh boshqa bir masala bo'lsin, Ozarbayjonning ishtirokisiz hal bo'lmaydi».

xolos. Armaniston esa o'z taqdirini Rossiyaga topshirib qo'ygan. Binobarin, Ozarbayjon ushbu mintaqada AQSHning yagona barqaror sherigi bo'lib qolmoqda... Aliyev bilan Obamaning uchrashuvi esa ikki tomonlama munosabatlardagi sovuqlik barham topganidan, tomonlar o'z munosabatlarini yangi bosqich tomon burishganidan dalolat beradi».

...AQSH va Ozarbayjon prezidentlari mavjud masalalarning barini birinchi uchrashuvdayoq hal etishmaydi, albatta. Biroq g'isht qolipdan ko'chdi: Amerika – Ozarbayjon munosabatlarini yangidan boshlash jarayoniga start berildi. Endi ikkala davlat o'rtaasida o'ta muhim siyosiy-diplomatik tadbirlar amalga oshishi kutiladi. Shu o'rinda, Ozarbayjon prezidentining hukumat yig'ilishlaridan birida aytib o'tgan gapini eslab o'tish joizdir:

«...Mintaqada biron-bir masala, u xoh siyosiy, xoh iqtisodiy, xoh energetik, xoh boshqa bir masala bo'lsin, Ozarbayjonning ishtirokisiz hal bo'lmaydi». Ma'noli sukut saqlagan Ilhom Aliyev, fikrini davom etgancha, qo'shib qo'ydi: «Ehtimol, bu birovga yoqar, boshqa birovga yoqmasdir-u, lekin ushbu holat biz vujudga keltirgan voqelikdir».

Oradan ko'p o'tmay jahon miqyosidagi Ilhom Aliyevning gapi to'g'riligini tasdiqlagan hodisa ro'y berdi: 2011-yil 24-oktyabr kuni BMT Bosh assambleyasining yalpi yig'ilishida yashirin ovoz berilib, Ozarbayjon 2012 – 2013-yillari BMT Xavfsizlik Kengashining Sharqiyl Yevropa mintaqasini ifoda etadigan muvaqqat a'zosi etib saylandi. Avval-boshda saylovga Ozarbayjon, Slovoniya va Vengriya nomzodlari qo'yilgan edi. Yashirin ovoz berishning birinchi bosqichida ikkala raqibidan kam

ovoz olgan Vengriya keyingi kurashdan chiqarildi. Yashirin ovoz berishning 16-bosqichidan so'ng, Sloveniya vakili o'z davlati nomidan bayonot qilgancha, saylov natijalarida sezilarli o'zgarish yo'qligi, qaror topgan vaziyatda BMT Bosh assambleyasi a'zolari kimni afzal topishi ma'lum bo'lganini ta'kidlab o'tdi. Ovozlarning uchdan ikki qismini qo'lga kiritgan Ozarbayjon saylovdan g'olib chiqdi, unga 155 ta davlat vakili ovoz berdi.

Ozarbayjon BMT Xavfsizlik Kengashining muvaqqat a'zosi etib saylanganini Ilhom Aliyev mustaqil Ozarbayjon o'z tarixida qo'lga kiritgan eng muhim g'alabalardan biri sifatida baholadi. «Davlat ichida va xalqaro maydonda qilgan ishlarimiz ushbu g'alabada o'z aksini topadi, - dedi prezident. – Mustaqilligimizning 20-yilida bizni 155 ta davlat qo'llab-quvvatladi. Bizga xalqaro hamjamiyat katta dalda berdi. Aynan xalqaro hamjamiyat, chunki faqat ana shu format jahon hamjamiyatini, xalqaro hamjamiyatni anglatadi. Bu nihoyatda ulkan siyosiy g'alaba, diplomatik g'alaba sanalib, zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklanganini, davlatimizga, olib borayotgan siyosatimizga hurmat-la qaralayotganini anglatadi...»

Ozarbayjon va AQSH munosabatlari girdobli davrni boshdan kechirgach, so'nggi yillarda sezilarli barqarorlashdi. Barak Obama bilan Ilhom Aliyev turli sammitlarda uchrashib, bir-birini qutlashadigan, bir-biriga telegamma yuborishadigan bo'lishdi.

2016-yilning mart oyi oxiri – aprel oyining boshi da Ozarbayjon prezidentining Vashingtonga buyurgan tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga yangi kuch bag'ishladi.

Ozarbayjon davlati rahbari AQSH poytaxtiga prezident Barak Obamaning taklifi bilan Yadroviy xavfsizlik bo'yicha IV sammitda ishtirok etish uchun tashrif buyurdi. Ushbu sammitda 54 ta davlatning prezidentlari, hukumat rahbarlari va bir qancha xalqaro tashkilot rahbarlari ishtirok etdi. Ozarbayjon terrorizmga qarshi global kurashayotgan xalqaro hamjamiyatning muhim sherigi sifatida yadroviy materiallarning tarqatilishi va kontrabandasiga yo'l qo'ymaslik borasida munosib hissa qo'shishga ulgurdi. Binobarin rasmiy Bokuning ushbu nufuzli yig'ilishdagi ishtiroki sezilarli bo'ldi.

*O'ylashimcha,
washingtonlik
aksariyat
ekspertlarning
fikriga ko'ra, Oq
uy ma'muriyati
Bokuning qadriga
yetmadi, garchi u
o'z mintaqasida
AQSH manfaatlarini
ancha olg'a
surgan bo'lsa ham.*

Ammo prezident Aliyevning Vashingtonga tashrifi nafaqat sammitdagi ishtiroki bilan, balki uch kun mobaynida AQSH prezidenti Barak Obama, vitse-prezidenti Jo Bayden, savdo vaziri Penni Pritsker, davlat kotibi Jon Kerri bilan o'tgan uchrashuvlari bilan ham ahamiyatli bo'ldi. Ozarbayjon prezidenti yuksak matabali siyosatchilar, ishbilarmonlar doirasining vakillari va jamoat tashkilotlarining rahbarlari bilan muhim uchrashuvlar o'tkazdi. Davlat kotibi Jon Kerri bilan o'tgan muzokaralar alohida ahamiyat kash etgan bo'lib, unda tomonlar bir qator muhim bayonotlar bilan chiqishdi.

Jumladan, AQSH tashqi ishlar vaziri yurtimiz prezidenti Ilhom Aliyevning «Janubiy gaz yo'li» loyihasini ro'yobga chiqarish masalasida qilayotgan yetakchiligini yuksak baholab, «Yevropaning uzoq muddatli

strategik manfaatlari va energiya manbalarining diversifikasiyasini yo'lidagi jiddiy qadam» ekanligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, Kerri, yurtimizni mintaqadagi savdo-sotiq markaziga aylantirish borasida Ozarbayjon faoliyatini ham muhokama qilib, rasmiy Bokuga NATOning Afg'onistonidagi missiyasiga qo'shgan hissasi, tinchlik o'rnatish operatsiyalari va terrorizmga qarshi global kurashdagi sa'y-harakatlari uchun minnatdorlik bildirdi. Prezident Aliyev ham, o'z navbatida, «Armanison bilan Ozarbayjon o'tasida uzoq cho'zilgan mojaroni hal etis-hga qaratilgan sa'y-harakati uchun» AQSH hukumatiga minnatdorlik izhor etib o'tdi. Prezident Ilhom Aliyev mojaro yechimi borasidagi Qo'shma Shtatlar egallagan qat'iy pozitsiya uchun minnatdorlik bildirar ekan, qaror topgan status-kvo saqlanishiga yo'l qo'ymaslik borasidagi Barak Obamaning hamrais davlat prezidenti sifatida egallagan qat'iy pozitsiyasi katta ahamiyat kasb etishi ni ta'kidlab o'tdi. Ilhom Aliyev siyosat, iqtisodiyot va energetika sohalarida AQSH bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishdan Ozarbayjon Respublikasi manfaatdor ekanligini yana bir bor tasdiqlab o'tdi.

Sammit yakuni bo'yicha o'tkazilgan matbuot anjumanida AQSH prezidenti Barak Obama Ozarbayjonning yadroviy materiallar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik borasida tutgan ijobiy rolini ta'kidlab o'tar ekan, yurtimizning ushbu ishga qo'shgan hissasini alohida eslab o'tdi. «Geografik joylashuviga ko'ra Ozarbayjon, mazkur jarayonda o'ta muhim sherik hisoblanadi», deya tan oldi Obama.

OZARTADI muxbiriga bergen intervylusida Middle East Institute vakili professor Aleks Vatanka quyidagi-cha fikr bildirdi: «AQSH – Ozarbayjon munosabatlari bir

necha yillik girdobni boshdan kechirdi. Vashingtonlik aksariyat ekspertlarning fikriga ko'ra, Oq uy ma'muriyati Bokuning qadriga yetmadi, garchi u o'z mintaqasida AQSH manfaatlarini ancha olg'a surgan bo'lsa ham. Energetik xavfsizlikni ta'minlash, Afg'oniston va Iroqda terrorizmga qarshi kurash yoki AQSHda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilish kabi masalalarda Ozarbayjon AQSHning ishonchli ittifoqchisi ekanligini isbotlab keldi. Ikki tomonlama hamkorlik davom etar ekan, tomonlar hali yakuniy bitimga kelishga erishilmagan masalar yechimini qidirish, 25 yil muqaddam tiklangan milliy mustaqillikning ilk kunlaridan buyon erishilgan muvafaqiyatlarga tayangan holda, yo'lga qo'yilgan hamkorlikni rivojlantirish zarurligini e'tirof qilishlari lozim».

AQSH prezidentining yuqorida iqtibos keltirilgan no-

Barak Obama o'z maktubida AQSH Ozarbayjonniga strategik sherik sifatida qadrlashini, «Qo'shma Shtatlar Ozarbayjonning ishonchli sherigi bo'lib qolishi»ni aniq uqtirib o'tdi.

masi muhim hodisa bo'lib, Barak Obama o'z maktubida AQSH Ozarbayjonniga strategik sherik sifatida qadrlashini, «Qo'shma Shtatlar Ozarbayjonning ishonchli sherigi bo'lib qolishi»ni aniq uqtirib o'tdi. Darhaqiqat, adolat qaror topgan bunday onlar qimmat turadi. Taassufki, Barak Obama ikkinchi marta prezident etib saylangandan so'ng, ushbu e'tirof faqat parda ortida eshitilib bordi. Uning AQSH siyosiy Olimpi tepasiga kelgan yangi vorisi o'z salafining xatosini takrorlamay, yurtimiz bilan munosabatlarni to'la tiklashiga umid bog'laymiz.

Ozarbayjonning G'arbiy Yevropaga mansub yetakchi davlatlar bilan munosabati umuman olganda barqaror, yuqoriga yo'nalgancha, rivojlanib bordi. Yurtimiz 2008-yili Yevropa Ittifoqining «Sharqiy sheriklik» dasturiga qo'shildi. Ushbu dasturda ko'zlangan asosiy maqsad sobiq ittifoq respublikalari bo'l mish oltita davlat, xususan: Ukraina, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya va Belorus bilan integratsiya aloqalarini rivojlantirish bo'lgan. Mazkur dasturda YIning Sharqiy Yevropa va Janubiy Kavkazdagagi qo'shni davlatlar bilan erkin savdo shartnomalarini imzolashdan tortib, vizalar bekor qilinadigan assotsiatsiya tuzish, talaba almashinish, odamlar o'rta-sidagi muloqotlarni jonlantirish, energetik va transport aloqalarini yaxshilashgacha bo'lgan keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

«Sharqiy sheriklik» dasturida sobiq ittifoq respublikalari YI bilan ikki tomonlama siyosiy va iqtisodiy shartnomalar bilan bog'langan holda asta-sekin G'arb yo'naliishi tomon harakatlanib, yevropalashgancha Rossiyaning ta'sir doirasidan chiqishiga erishish nazarda tutilgan edi. Biroq ushbu tashkilotning faoliyatida nima-dir noto'g'ri kechdi. «Sharqiy sheriklik» sammitlari samarasiz o'tdi, keyin esa Ukraina fojiasi ro'y berdi, Qrimni bosib olib, egalik qilayotgan Rossiyaga nisbatan xalqaro hamjamiyat tomonidan turli sanksiyalar qo'llanildi. Ana shunday murakkab bir vaziyatda «Sharqiy sheriklik»

*Ozarbayjon qaltis
harakatlar-u
diplomatik
demarshlarsiz ham,
Yevropa Ittifoqi
bilan hamkorlikni,
shu jumladan,
«Sharqiy sheriklik»
doirasidagi
hamkorlikni
davom etdi.*

dasturi a'zolarini Rossiyaga qarshi diplomatik harakatga jalb etishga urinishlar kuzatildi. Jumladan, tashkilotning 2015-yili Rigada o'tgan sammitida Rossiya Qrimni o'z tasarrufiga o'tkazib olgan holat «Sharqiy sheriklik» dasturiga a'zo davlatlar tomonidan qoralangan deklaratsiya tayyorlandi. Aleksandr Lukashenko «bunday pozitsiyani egallashga tayyor emasligini» ma'lum qildi. Armaniston bilan Ozarbayjon ham yakuniy hujjatga imzo chekishdan bosh tortdi. Murosaga keltiradigan variant topishga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, «Sharqiy sheriklik» dasturi a'zolarini YIga qabul qilish imkonini bor-yo'qligiga doir savol Yevropa yetakchilari tomonidan pisand qilinmadı. Boz ustiga, sammit arafasida Angela Merkel «Sharqiy sheriklik» dasturi YI a'zolarining sonini ko'paytirishga qaratilmagani, ushbu sheriklik a'zolarini behuda umidvor qilmaslik kerakligini aytib o'tdi.

Riga sammitidan so'ng va yana bir yil o'tib, Yevropa Ittifoqiga taskin bermagan Buyuk Britaniya referendum natijasidan keyin, siyosatshunoslar «Sharqiy sheriklik» tashkiloti «klinik o'lim» topgani haqida fikr bildira boshlashdi.

Shunga qaramay, Ozarbayjon qaltis harakatlar-u diplomatik demarshlarsiz ham, Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni, shu jumladan, «Sharqiy sheriklik» doirasidagi hamkorlikni davom etdi. Bunda, avvalambor, yurtimizning milliy manfaatlari nuqtai nazaridan ish tutildi. Jumladan, «Sharqiy sheriklik»ning 2013-yil 29-noyabrda Vilnyusda o'tgan sammitida Ozarbayjon YI bilan Schengen vizasidan foydalanishni soddalashtirib, odamlar o'rtaşıdagı aloqalar ko'lamini kengaytiradigan Viza rejimi soddalashtirish va readmissiya to'g'risidagi bitimni

imzoladi. Masalan, Ozarbayjonda diplomatik va xizmat pasportiga ega bo'lgan shaxslar endi Yevropa Ittifoqining deyarli har qanday davlatiga vizasiz bora olishadi.

Bundan tashqari, «Sharqiy sheriklik»ning Rigada o'tgan so'nggi sammitida Yevropa yetakchilari Janubiy Kavkazdagi strategik infratuzilmalar, energetika va transport loyihalarini, jumladan, «Janubiy gaz yo'li»ni rivojlantirishga yordam berish niyatlarida qat'iy turishanini tasdiqlashdi. Bu prezident Ilhom Aliyevning muhim diplomatik g'alabasi bo'ldi. Chunki u, yuqorida bayon etilgandek, ushbu keng miqyosli loyihani amalga oshirish ishlariغا katta hissa qo'shib bormoqda.

Yaqinda «Janubiy gaz yo'li»ning Maslahat kengashida (2016-yil 29-fevral kuni) so'zga chiqqan prezident Ilhom Aliyev Yevropa Ittifoqi bilan o'zaro aloqalar istiqbolini aniq ifodalab o'tdi:

«Yevropa Ittifoqi bilan yo'lga qo'yilgan, vitse-prezident xonim (YIning tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Federika Mogerini – E. A.) bilan bugun batafsil muhokama qilishimiz kerak bo'lgan aloqalarimiz ajoyib tarix va ravnaq topishi uchun yaxshigina imkoniyatga ega. Gap faqat energetik xavfsizlik to'g'risida borayotgani yo'q. Biz siyosiy dialog, iqtisodiy hamkorlikka taalluqli ko'plab masalalar ustida ish olib bormoqdamiz. Yevropa Ittifoqi savdo-sotiq bo'yicha asosiy sheringimiz hisoblanadi. Aytish mumkinki, tovarlarimiz aylanmasining yarmi Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Ehtimoliy tahdidlar, multikulturalizm va madaniy rang-baranglik mintaqasida xavfsizlik masalasida hamkorlik olib bormoqdamiz. Ko'p yillik hamkorlik mobaynida, o'ylashimcha, Ozarbayjon

o'zini ishonzhli sherik sifatida ko'rsata bildi. Biz Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va umuman Yevropa Ittifoqi bilan ikkitomonlama aloqalarni kuchaytirish niyatidamiz... Aytish joizki, Ozarbayjon Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning uchdan ikki qismi bilan strategik sheriklikka doir deklaratsiya yoki bitimlarni imzolash yoxud qabul qilishga ulgurdi. Darhaqiqat, ushbu holat hamkorligimizning asl mazmunini aks ettiradi...»

Shunga qaramay, 2015-yili, ayniqsa, birinchi Yevropa o'yinlari arafasida Ozarbayjon bilan YI o'rtaсидаги munosabatlarning mustahkamligi jiddiy sinovdan o'tdi. Ish shu darajaga borib yetdiki, Ozarbayjon Milliy Majlisi Yevropa parlamenti bilan yo'lga qo'ygan aloqasini to'xtatishga ahd qilib, Yevronestga (YIning «Sharqiy sheriklik» tashabbusi parlament komponentiga) a'zolikni vaqtincha bas qildi. Ozarbayjon Milliy Majlisi spikeri Ogtay Asadov esa Vazirlar Mahkamasiga murojaat qilib, YIning «Sharqiy sheriklik» dasturida yurtimiz Ozarbayjonning ishtiroki masalasi qayta ko'rib chiqilishini taklif qildi.

Ushbu masala bo'yicha mazkur kitob muallifining «Вестник Кавказа» nomli Rossiya ommaviy saytida ma'nodor «Nega bizning mustaqilligimiz G'arbni bu qadar g'azablantiradi?» sarlavhali maqolasi chiqdi. Bo'lib o'tgan voqealarning asl sabablari juda aniq ifodalangani bois, quyida uni deyarli to'la-to'kis keltirib o'taman:

«Yurtimiz va jamiki Yevropa davlatlari uchun butun boshli davrga tatigulik, Ozarbayjon ham ishtirok etayotgan hodisalar davrida boshimiz uzra qora bulut quyuqlashmoqda. Mana bu gal ham G'arb hamjamiyatining media-kampaniyasi adovat ruhidagi siyosiy kuchlar bilan birlashib, ichiqoralikning eng yuksak pog'onasiga

chiqa bildi. Ushbu masalada o'z mulohazalarimni bildirib o'tishni istadim. Zero, madaniy yurt vakillari o'z madaniyatsizligini namoyon qilgancha, bizga qarshi o'ta darg'a-zab ohangda kurash olib borishmoqda.

Bir qarasang, jamiki geylar va lesbiyankalarning qalining do'sti Ulrik Lunachev boshchiligidagi qirq nafar Yevropa Parlamentining deputati Parlament yig'ilishida «Sport va inson huquqi» mavzusi ko'rib chiqilishini uyushtiradi, bir qarasang «Platform London» nomli shubhali bir ekologik tashkilot ijtimoiy tarmoqlarda nodavlat tashkilotning (NT) soliq to'lashdan bosh tortgani uchun hibsga olingan vakillarining tarafini olib qoladi, yana bir qarasang Bundestag deputatlari Ozarbayjonga doir tamtaroqli rezolyutsiya qabul qilishadi. Bularga qarab, shunday bir tasavvur tug'iladiki, G'arbning asosiy bosh og'rig'i igelchi terrorchilar ham, migrantlar muammosi ham, AQSH maxsus xizmatlari GFRdagi yuksak martabali amaldorlarning, birinchi navbatda Germaniya kanslerining telefon orqali so'zlashuvlarini yashirinchay tinglab, yoppasiga nazarat qilayotgani bilan bog'liq mashmashalar ham, global iqtisodiy inqiroz ham emas, balki Kavkaz ortida joylashgan mittigina bir davlat ekan. Davlat bo'lganda ham mutlaqo dunyoviy va demokratik bir davlat. Ushbu davlat tashqi siyosatda xalqaro huquqning barcha me'yor va tamoyillari ga so'zsiz amal qiladi, ichki siyosatda esa o'z fuqarolariga milliy qonunlarga og'ishmay rioya qilishni o'rgatadi. Qolaversa, ushbu qonunlarda jamiki jahonda bo'lgani kabi soliq to'lashdan bosh tortish, mansab vakolatini oshirish, xizmat lavozimini suiiste'mol qilish, moliyaviy qallobliklar og'ir jinoyat sifatida e'tirof etilib, Ozarbayjonning jinoiy qonunchiligidiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Aytganday, Afv etish masalalari bo'yicha komissiya a'zosi sifatida men, ushbu bandlarda ko'zda tutilgan jinoyat sodir etib, sudlangan amaldorlar, munitsipalitet va killari, bank filiali rahbarlari va boshqa xizmatchilardan tez-tez arizalar olib turaman. Bugungi kunda jazo o'tash muassasalarida yuzlab bunday jinoyatchilar o'tiribdi! Va bu adolatdandir. Zero, bizning davlatimizda korrupsiya va xizmat faoliyati bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi jiddiy kurash avj olgan.

Ajablanarlisi shundaki, G'arbning ayrim xalqaro institutlari yoki siyosiy shaxslari, o'sha mahbuslarning birortasi yuzasidan biror marta bo'lsin e'tiroz bildirmaydi va bu bilan yurtimizning huquqni muhofaza qilish organlari fuqarolarni qonun talablariga muvofiq javobgarlikka tortish huquqini tan olishadi. Biroq muxolif jurnalistlardan biri yoki NTning biron-bir vakili jinoyat ustida qo'lga tu-shishi hamono, «biznikilarni urishyapti», «Ozarbayjonda inson huquqi va so'z erkinligi qo'pol ravishda buzilyapti», deya jahonga ayyuhannos solishadi. So'z erkinligi haqida hali gaplashamiz, hozir esa o'sha madaniy jamiyat vakilari haqida ikki og'iz so'z aytmoqchiman.

Sir emaski, o'zining nodavlat tashkilotini ro'yxatdan o'tkazishni niyat qilgan odamlarning aksariyati tomonidan ko'zlangan maqsad allaqanday g'oya uchun kurash emas (u o'ta buyuk g'oya bo'lgan taqdirda ham), balki grantlardan tushadigan mablag' hisobiga pul ishlab, oilasining moddiy ahvolini tuzatib olishdir. Buning hech qanday nojo'ya yeri yo'q, agar NTni ular amaldagi qonun hujjalariiga muvofiq tashkil etib, Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tkazishsa, soliqni o'z vaqtida to'lab, o'z faoliyatiga doir hisobot berib borsa. Ammo G'arbning, odatda, soliqqa

tortilmaydigan mo'may grantlaridan taltayib ketgan «nodavlatchilar» ushbu talablarni hazm qila olishmaydi. Albatta-da, chunki ularning pichog'i uzoq yillar davomida moyda bo'lgan, olingan grantning katta qismini cho'ntakka urishgan, «qora kun»ga ham jamg'arma yig'ishgan, hatto farzandlarini ham o'sha grantlar hisobidan xorij yurtlardagi oliy ta'lim muassasalarida o'qitishgan. Boz ustiga, vaqtি-vaqtি bilan AQSH, Strasburg, Parija safar qilib, huquqni himoya qilish «tadbirlari»da ishtirok etishgan. U yerda ular o'z yurtiga malomat toshlarini yog'dirib, vahima soladigan xabar tarqatishgan va shu tariqa o'z sohiblaridan olgan grantlarini «halol»lashtirgan. Bi-roq endi unday mazaxo'raklikka chek qo'yildi. Milliy Majlis tomonidan qabul qilingan tuzatishlarda NTlarning moliyaviy faoliyati ochiq-oydin kechishi, tegishli davlat idoralariga hisobot berishlari kerakligi ko'zda tutilgan.

Bir qator NTlarning faoliyati yopilib yoki vaqtincha to'xtatilgach, G'arbning yangidan-yangi «rangli inqilob»lar ssenariylarini ishlab chiqishga ixtisoslashgan strategik xizmatlari-yu xalqaro idoralari, ushbu «ta'sir o'tkazadigan agentlari»ni yo'qotish bilan bir vaqtda, o'z tajribalari uchun Ozarbayjondagi jiddiy sinov tayanchidan ham mahrum bo'lishdi. Chunonchi, nufuzli moliyachi-homiy, jahonda «alg'ov-dalg'ovlik me'mori» nomi ila tanilib, Ozarbayjonda uzoq vaqt o'zini juda bamaylixotir his etgan Jorj Soros, yurtimizda «Ochiq jamiyat» xayriya fondi vakolatxonasini ochib, davlatimiz hududida faoliyat yuritgan ko'plab NTlar va muxolif gazeta tahririylarini katta-katta grantlar bilan boqishga ham ulgurgan. Keyin esa uning ishi chappasidan ketgan ko'rindi, dastlab Fondenining Ozarbayjon filialida moliyaviy janjal chiqdi. Aniq-

lanishicha, yigitlarimiz o'g'ri chiqib, Fond pulini o'marishgan. Oqibatda, J. Soros Fondining faoliyati cheklanib qolgan. Vaqt o'tib, Sorosning fondi hukumatimizga qarshi faoliyat olib borgan bir qator mahalliy NTlarni moliyalashtirganiga doir jiddiy faktlar fosh bo'lib qoldi.

Ozarbayjon prezidenti ma'muriyatining rahbari Ramiz Mextiyev o'zining «Munofiq standartlarga asoslangan dunyo tuzilishi va bugungi Ozarbayjon» nomli maqolasida NTlarni moliyalashtirib, «rangli inqilob»larni tayyorlash bilan shug'ullanadigan moliyaviy donorlar qatorida Sorosning Fondini ham tilga olib o'tgani bejiz emas. Unda keltirilgan ishonchli ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi yillarda mazkur fond Ozarbayjondagi NTlarga 625 ta shartnoma bo'yicha 7,6 million manat ajratgan. Ushbu mablag'ning yirik qismi xayriya maqsadlariga mo'ljallanmagani shundoq ham ma'lum, albatta...

Fursatdan foydalaniib, o'zimizning ommaviy axborot vositalariga, xususan, «Boku ishchisi», «Ozarbayjon» kabi hukumat gazetalari, «1news.az», «Haqqin.az», «APA» kabi mustaqil agentliklar, «Kaspiy» gazetasi va shu kabi OAV vakillariga minnatdorlik bildirib o'tishni istar edim. Chunki so'nggi kunlarda ular bir qator jurnalist tekshiruvlarini o'tkazib, Ozarbayjonga qarshi o'tkazilgan aksariyat harakatlar ortida aslida G'arbning Ozarbayjonda ham, sobiq ittifoq hududidagi boshqa davlatlarda ham, o'xshash harakatlarni uyushtirgan tashkilotchilar yoki shtirokchilar sifatida «otning qashqasidek» tanilib qolgan kimsalar-u tashkilotlar turganini ishonchli faktlar ila isbotlab berishdi.

Yana bir qiziq tafsilot: mustaqil tashqi va ichki siyosat yuritishdan to'liq yoki qisman voz kechishga ham tayyor

muayyan davlat G'arb bilan siyosiy-huquqiy integratsiyalashish masalasida qanchalik gapga ko'nadigan bo'lsa, ushbu davlatni nazorat qilayotgan tanqidchilarning ohangi shunchalik yumshab, xayrixoh bo'lib borar ekan. Bunda o'sha baqiroq tanqidchilarni o'z uyi – Yevropada yuzaga kelgan muammolar, xususan: multikultiralizm siyosatining puchga chiqqani, islomofobiya va hatto yudofobiyaning avj olayotgani (Fransiyaning o'zidan har yili yahudiy millatiga mansub minglab fuqarolar Isroilga doimiy yashash uchun ko'chib ketmoqda), AQSH boshchiligidagi ittifoqning Yaqin Sharqda muvaffaqiyatsizlikka uchragani, Ukraina uchun ishlab chiqilgan strategiyaning barbod bo'lgani va shu kabi holatlar, aftidan, mutlaqo qiziqtirmaydigan ko'rindi. Yuzaga kelgan shunday global muammolar oldida G'arb siyosatchilarini Ozarbayjondagi inson huquqlari tashvishga solayotgani odob-la aytganda, sal g'alati ko'rindiqda.

...Xo'sh, G'arbdagi yashaydigan ashaddiy «do'stlarimiz»ni nimalar tashvishga solmoqda-yu, nima sababdan Yevropa va AQSH OAVda Ozarbayjonga qarshi jazava avj olmoqda? Nazarimda, bu yerda bir nechta omil rol o'y-namoqda, xususan, Ozarbayjonga ko'rsatilgan avvalgi ta'sir samarasi asta-sekin barham topayotgani, Kavkaz ortidagi ushbu respublika siyosiy va iqtisodiy jihatdan to-bora kuchayib, «bo'y bermay» qo'ygani, G'arbning shosh-mashosharlikka yo'l qo'yilib, keti o'ylanmay qilingan ishi tufayli Ukrainianing boshiga tushgan alg'ov-dalg'ovlikka ro'baro' kelmaslik uchun Ylga Assotsiativ a'zolikni imzolash istiqbolidan zavqlanmayotgani G'arbni tashvishga solmoqda. Boz ustiga, Yl bilan real integratsiya istiqboliga nisbatan Ozarbayjon tutgan mustaqil pozitsiya va uning

ushbu masalaga sog'lom shubha ila qarashi ham «domino ta'siri»ni ko'rsatishi mumkinligini, ya'ni «Sharqiy sheriklik» dasturiga a'zo boshqa davlatlarni ham o'ylab ish tutishga turtki berishini rad etib bo'lmaydi. G'arbning muayyan doiralari yurtimizni, ularning ko'rsatmalarisiz yashayotganimiz, kim bilan xohlasak, o'sha bilan do'st tutinayotganimiz, qo'shni davlatlar bilan urush olib borishni istamasligimiz, urishadigan bo'lsak, faqat terrorizmga qarshi kurashayotganimiz (Ollohga shukur, G'arb loaqal shuni tan oladi!) uchun yoqtirmaydi.

Rossiyaning taniqli ekspertlaridan biri bo'lmish Anna Kokoreva «Haqqin.az» agentligiga bergen intervyusida G'arb OAV Ozarbayjoni tinmay tanqid qilayotganining sababini birinchi navbatda, yurtimiz mustaqil tashqi siyosat olib borayotgani, ikkinchidan esa, Rossiya bilan yaxshi munosabatini saqlab qolgani bilan bog'laydi. «Kim Rossiyani qo'llab-quvvatlasa yoki betaraf qolsa, G'arb davlatlarining fikricha, yanglish nuqtai nazarga ega bo'lib, tanqid ostida qoladi, – deydi A. Kokoreva. – Boz ustiga, Bokuda o'tadigan o'yinlar. Yevropa Ittifoqida inqiroz avj olgan, nefting narxi tushib, AQSHning ishlari ham pachavasi chiqqan bo'lsa-yu, Ozarbayjon savlat sotsa! Bundan tashqari, Bokuda o'tadigan Yevropa o'yinlari. Bu tadbir sayyoohlar-u homiylar olib kiramagan yirik mablag' oqimini anglatadi. Shuning uchun ham Ozarbayjon ko'radigan daromad ko'payib ketmasligi uchun hasad botqog'iga botgan G'arb ushbu tadbirga salbiy ta'sir ko'r-satisfishga urinmoqda».

Ozarbayjonga qarshi olib borilayotgan kampaniya sababi faqat shulardangina iborat emas, albatta. Yurtimizga qarshi qaratilgan harakatlarning asosiy qismi, ayniq-

sa, G'arb matbuotidagi o'ta salbiy chiqishlar xorijda yashayotgan arman boylarining puli evaziga ro'y berayotgani ehtimoldan uzoq emas. Ularning darg'azab bo'lishlariiga sabab hor, albatta. Axir u kaslar Ozarbayjoni mahvetish, tumanlarini tortib olish, joylarda etnik tozalash ishlarini o'tkazish uchun ozmuncha mablag' sarflashdimi? Ozarbayjon esa Qaqnus qushi kabi kul ichidan qayta tirilmoxda, borgan sari boyib, ham iqtisodiy, ham harbiy jihatdan tobora qudratli bo'lib bormoqda. Indamasang, o'z yerlarini ozod etish maqsadida kichkinagina urush boshlab, zafar ham qozonib qoladi. Unda nima bo'ladi? Chorak asrdan buyon oqizilgan so'lak necha pulga tushadi? Binobarin, G'arbdagi arman oligarxlari yana kuchanishga, Ozarbayjonga qarshi maqolalar chop ettirish uchun katta mablag' sarflashga majbur bo'lishmoqda... Tabiiyki, sizda savol tug'ilishi mumkin: ularga nima keragi bor buning? Maqsad ayon: «Ko'rib qo'ying, muhtaram yaxshilar, Ozarbayjonda jurnalistlar, huquq himoyachilar va shukabi, «g'oya bandalari»ga kun yo'q, ular hamisha ta'qib ostida yashab, aziyat chekishmoqda. Qanday qilib biz armanlar anavi vahshiylar bilan umumiy siyosiy-huquqiy makonda yashashimiz mumkin?»

Nopok o'yinning mazmun-mohiyati aynan mana shunda, soliq to'lamagan ikki-uchta mahalliy NT vakillarining afsonaviy huquqlarida emas.

Bunda Ozarbayjonga qarshi kampaniya o'tkazish chun, odatda, siyosatdan yiroq, o'xshash jazavalar nazarda tutilmagan hodisalar tanlanadi. Mana, masalan, ajoyib sport tadbiri – poytaxt va uning atrofidagi sahna va maydonchalarda boshlangan, sayyora tarixida ilk bora o'tkaziladigan birinchi Yevropa o'yinlarini olaylik.

Hoy odamlar, mintaqalik chekkasidagi kichik bir davlat yevropalik sportchilar va katta sport muxlislariga bayram qilib berayotgani uchun rahmat deyishingiz kerak! Axir siz shu tadbirni deb, qariyb 20 yildan buyon «ter» to'kib keldingiz, gamletona «hayot yo mamot» savoliga javob topa olmay qanchadan-qancha nayzalariningizni sindirib yurdingiz! Ammo hech qaysi davlat birinchi Yevropa o'yinlarini o'tkazish tashabbusini o'z zimmasiga olishga jur'at etmadi. Ozarbayjon esa jur'at etdi. «Hayot!» dedi u va Yevropa sporti tarixida yangi sahifa ochib, navbatdagi O'yinlar uchun yuksak me'yirlarni belgilab berdi.

Yevropaning katta sporti uchun bayram uyushtirilgan, Ozarbayjonning do'stlari va xayrixohlari kundan-kunga ko'payib borayotgan bir paytda sizlar asal to'la bochkaga qatron tashlashga ahd qilibsiz-da.

Biroq bunday usul mutlaqo samarasiz ekanligi al-laqachon o'z isbotini topgan. Aytmoqchimanki, bu ish bolalarga xos soddalik-la amalga oshirilgan po'm chiqishga da'vatdan o'zga narsa emas. Yevropaning bir qator yetakchilari G'alabaning 70 yilligini nishonlash uchun Moskvaga tashrif buyurmadi. Xo'sh, nima qilibdi, buyuk sananing ahamiyati pasayib qoldimi bu bilan? Yoki aytaylik, Angliya, Fransiya, Germaniya va YI tarkibiga kirgan ayrim davlatlarning rahbarlari Bokuga tashrif buyurishni istashmadi. Xo'sh, nima qilibdi? Kimga yomonlik qilishdi, ular bu bilan? Namoyishgohda davlat rahbarini ko'rмаган о'з sport jamoalaridan o'zga hech kimga emas. Har qanday sportchi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan shunday bir kunda, ular o'z jamoalarining yonida bo'lib, sportchilariga dalda berishmadi. Yurtimizda uyushtirilgan keng miyosli sport bayrami ularning tashrifi-

siz buzildimi? Yo'q, albatta. Lekin Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning rahbarlari muayyan qaror qabul qilish borasida qanchalik «mustaqil» ekanliklari ko'zga yaqqol tashlandi (zero, «1news.az»ning tahliliy guruhi o'zining shov-shuv bo'lgan surishtiruv materiallarida yozishicha, YIga a'zo davlat rahbarlari Germaniya Federativ Respublikasi kansleri A. Merkel tomonidan tazyiq o'tkazilgani bois, Bokuga kela olishmagan)…»

Yuqorida keltirilgan maqolada ma'lum miqdorda publitsistik hissiyot va hatto, o'sha davrda yuzaga kelgan murakkab vaziyat taqozo etgan kinoya ham bor, albatta. Umuman aytganda, unday vaziyat qandaydir tushunarsiz davriylik-la qaror topib boradi: dam AQSH ma'muriyatining katta martabali amaldoridan biri allaqanday brifingda mazmunan zARBAYJONGA qarshi navbatdagi bayonet bilan chiqib qoladi, dam nufuzli G'arb gazetalaridan biri yurtimizda siyosiy mahbuslar borligi haqidagi maqolasi ila his-tuyg'ularini ifoda etib qoladi, dam Yevropa parlamenti a'zolarining tor doirasi Ozarbayjonda inson erki va huquqlari paymol qilinayotganiga doir rezolyutsiya qabul qilib qoladi va hokazo. Yaqinda, xususan, 2016-yil 27-may kuni Respublika kuni munosabati bilan uyuştirilgan

«Biz boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaymiz, birov bizning ichki ishlarimizga aralashishiga ham yo'l qo'yamymiz. Buni esa o'z xohishi-irodalari ila boshqa davlatlarni boshqarib borishga odatlangan ayrim kuchlar e'tirof etishni hech istashmaydi. Ularning asosiy nishoni Ozarbayjonning siyosiy rahbariyati bilan men bo'laman».

qabul tantanasida prezidentimiz Ilhom Aliyev G'arbning muayyan doiralari tomonidan Ozarbayjonga qarshi olib borilayotgan kampaniyalar haqida fikr bildirib, masala-ga quyidagicha oydinlik kiritdi.

«Ikkiyuzlamalik siyosatiga chek qo'ymoq darkor. Bunga ortiq chidab bo'lmaydi. Ozarbayjon xalqi bor gapdan o'zi xabardor, hamma narsani o'zi ko'rib, tus-hunib turibdi. Bizga qarshi olib borilayotgan kampaniyaning asl sabablarini, bunda kim nishonga olingani va kutilajak natijani ham biladi. Sababi shundaki, biz o'z yo'limizdan, mustaqillik yo'lidan bormoqdamiz. Biz bos-hqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaymiz, birov bizning ichki ishlarimizga aralashishiga ham yo'l qo'y-maymiz. Buni esa o'z xohish-irodalari ila boshqa davlatlarni boshqarib borishga odatlangan ayrim kuchlar e'tirof etishni hech istashmaydi. Ularning asosiy nishoni Ozarbayjonning siyosiy rahbariyati bilan men bo'laman. Chunki men ushbu yurtni boshqarib, Ozarbayjon siyosatini belgilab bormoqdam...»

Ular olib borayotgan kurash usullariga kelsak, bu masalada ham hech qanday innovatsion yangiliklar yo'q: eski hammom, eski tos, eski qolipdagi siyqasi chiqqan o'sha ayblovlar, asossiz bohtonlar, mishmish gaplar, uydirma-yu yolg'onlar. It hurar, o'tadi karvon. Bularning bari bizning siyosatimiz, shijoatimizga ta'sir o'tkaza olmaydi...»

Darhaqiqat, Ozarbayjon rahbari oqil ish tutib, har qanday zarbaga mohirona bardosh bera oladi. Boz us-tiga, jahonda bugungi kunda ro'y berayotgan jarayonlar juda tez, barqarorlikka asosan salbiy ta'sir o'tkazgancha o'zgarib borayotgan bir paytda to'g'ri yo'l topa bilish

jiddiy ahamiyat kasb etadi. Zero, beqarorlik zamirida turli-tuman tahdidlardan tashqari, yangi imkoniyatlar ham mavjud. Ushbu imkoniyatlardan yurt manfaatlarida mohirona foydalanish, yetakchi davlat rahbarlari bilan to'g'ri munosabatlarni yo'lga qo'yish, natijada Ozarbayjonning xalqaro maydonda tutgan munosib o'rnni mustahkamlash – Ilhom Aliyev tomonidan puxta o'zlashtirilgan san'atdir. Bunga ko'pdan-ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, AQSH bilan Rossiyaning sobiq ittifoq hududidagi raqobati mintaqada hukm surayotgan umumiy vaziyatga va undagi har bir davlat ichida kechayotgan ichki siyosiy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'r-satmoqda. Gruziya, Ukraina, Qирг'изистон hodisalarini esga oling: urush, davlat to'ntarilishi, tinch aholi orasidagi minglab qurbanlar, xalqning qashshoqlashishi, oxi-ri yo'q beqarorlik. Ozarbayjon va uning rahbari AQSH-Rossiya ziddiyatlaridan o'zini nari tutib, G'arbdagi ayrim doiralar biz bilan Rossiya o'rtasida nifoq chiqarishga harakat qilganiga qaramay, ushbu yetakchi davlatlarning har biri bilan barqaror munosabat saqlab qolishga erisha bildi.

Yoki Rossiya samolyoti Turkiya tomonidan urib tu-shirilganidan so'ng, ushbu davlatlar o'rtaсидаги munosabatlarning keskinlashuvini olaylik. Yurtimiz ichida-gi va xorijdagi ayrim toifalar, ushbu mojaro Rossiya-Ozarbayjon munosabatlarida o'z aksini topishini o'zlari-cha karomat qilishdi. Gap shundaki, Ozarbayjon turkiy-zabon davlatlar orasida Turkiyaga yaqin joylashgan davlat sanaladi. O'shanda Rossiyaning ayrim siyosatshunoslari va nosog'lom fikrlaydigan siyosatchilari tutqanog'i tutib qolganday wahima ko'tarib, tahdid qilishgancha, fol

ochishga kirishib ketishdi. Xudoga shukurlar bo'lsinkim, ularning dahshatli bashoratlari amalga oshmadni, Ilhom Aliyev ushbu zARBaga ham bardosh berib, Putin bilan do'stona, Erdo'g'on bilan esa birodarlik munosabatlari ni saqlay bildi. Boz ustiga, Anqarada 2016-yil 13-mart kuni sodir etilib, o'nlab odamlarning yostig'ini quritgan terroristik harakat tufayli Turkiya prezidentining Bokuga tashrifi barbod bo'ldi. Ilhom Aliyev rasmiy taomillarni bir chetga surib, shartta samolyotga o'tirdi-da, birinchidan, og'ir fursatda do'stining yonida bo'lish maqsadida, ikkinchidan esa, Turkiya-Ozarbayjon» strategik hamkorlik kengashining yuksak darajadagi 5-yig'ili shida ishtirok etish uchun Turkiyaga uchdi. Ozarbayjon ezidentining tutgan ishi, xususan, Turkiya rahbarini bir necha bor birodarlarcha bag'riga bosib o'pgani yurtdoshlarimiz va aksariyat xorijliklarning xotirasida uzoq saqlanib qolsa kerak. O'sha kunlari o'tgan qisqagina anjumanda Turkiya prezidenti, rahmatli Haydar Aliyevning: «Bir millat-u, ikki davlat»ga doir mulohazalari naqadar to'g'ri bo'lgani, Ilhom Aliyevning ushbu tashrifi esa buning yana bir amaliy isboti ekanini alohida ta'kidlab o'tdi. «Ozarbayjon boshga musibat tushganda bilinadigan do'stlar sirasiga kiradi. Hammaga ushbu birodarlik oqibatlarini inobatga olib, tegishli xulosa chiqarishni maslahat beraman», – degan edi o'shanda Erdo'g'an. Ilhom Aliyev esa o'z nutqida: «Sodir etilgan ushbu qabih terroristik harakatni biz qattiq qoralab, Turkiya xalqi bilan birga ekanligimizni takror aytamiz. Birligimiz mangu va buzilmasdir. Yaxshi kunda ham, yomon kunda ham turk xalqi bilan yelkama-yelka turamiz», deya ta'kidlab o'tdi. O'z-o'zidan amalga oshirilgan

ushbu tashrif va qardosh turk xalqiga izhor etilgan hurmat juda qadrli bo'lib, Turkiyada bu yuksak baholandi. Rossiyada ham ushbu tashrif vazminlik-la qabul qilindi. Bunga sabab Aliyev bilan Putin o'rtasidagi xayrixohona munosabatlardir. Bunday shaxsiy munosabatlar hatto eng muammoli masalalarni ham muvaffaqiyatli hal etish imkonini bermoqda.

«Sharqiy sheriklik» dasturining 5 yilligi munosabati bilan Pragada (2014-yil 24 – 25-aprel kunlari) o'tkazilgan sammitda Ozarbayjon prezidentining noan'anaviy tarzda tutgan yana bir ishini esga olmay o'tmasam bo'l-maydi. O'shanda so'zga chiqqan Armaniston prezidenti Serj Sargsyan nutqining asosiy qismi Turkiyaga nisbatan malomatlardan iborat bo'ldi. Sammitga Turkiya vakili taklif qilinmagan holatni suiiste'mol qilgan Armaniston prezidenti yalpi majlis mavzusidan chetga chiqib, to'qima «genotsid» masalasini ko'targancha, Turkiyani asosiy tanqid obyekti sifatida tanıladı. Serj Sargsyan Turkiyani bir tomondan to'qima «genotsid» munosabati bilan nomaqbul pozitsiya egallaganida ayblagan bo'lsa, boshqa tomondan, ushbu davlatning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'l shiga yo'l qo'yib bo'lmasligini bayonot qilgancha, Armaniston bilan chegarani ochmaganida aybladi.

Sargsyanning Turkiyaga qarshi gapiga Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev vazmin ohangda, asosli qilib quyidagicha javob berdi: «Taassufki, bugun Armaniston prezidenti paytdan foydalanib, Turkiya boshiga yana malomat yog'dirmoqda. Davramizda Turkiya vakiли bo'l magani bois, bu ish unga oson kechmoqda. Lekin bu yerda men borman va turk-armen chegarasining yopilish sababini aytib bera olaman. Turkiya-

Armaniston davlat chegaralari 1993-yilning aprel oyida Ozarbayjonning Kyalbajar tumani bosib olinganidan so'ng yopilgan. Ungacha esa Tog'li Qorabog' hududidan ozarbayjon millatiga mansub odamlarning bari quvib chiqarilgan. O'shanda ozarbayjon millatiga mansub fuqarolar Tog'li Qorabog' aholisining 30 foizini tashkil etgan edi. Kyalbajargacha armanlar 1992-yili Shushu bilan achinni, undan keyin Agdam, Fizulin, Zangilan, Gubadlin, Jebrail kabi tumanlarni, ya'ni Ozarbayjonning Tog'li Qoraboqqa qarashli ma'muriy chegaralarga kirmagan jami 7 ta tumanini bosib olishgan. Bu esa, xalqaro maydonda e'tirof etilgan Ozarbayjon hududining 20 foizini tashkil etadi.

Aholimiz bosqinchchi armanlar tomonidan etnik tozalovdan o'tkazildi, BMT Xavfsizlik kengashining 4 ta rezolyutsiyasi qabul qilingani, Yevropa parlamenti va Yevropa kengashining Parlament assambleyasi tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalarga qaramay, ularning bosqini hamon davom etmoqda. Armaniston ushbu rezolyutsiyalarni pisand qilmay, na tarixan, na xalqaro huquq me'yorlari jihatidan o'ziga tegishli bo'limgan hududni hamon egallab turibdi. Shu bilan bir vaqtida armanlar Ozarbayjoni masalaga nomaqbul yondashuvda ayblashta davom etishmoqda. Yerlarimiz arman istilosida. Xelsinkida qabul qilingan Yakuniy aktda hududiy yaxlitlik va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga oid tamoyillar aniq va ravshan bayon etilgan. Muayyan millat o'z taqdirini boshqa davlatlarning hududiy yaxlitligini buzgan tarzda belgilamasligi kerak. Boz ustiga, armanlar o'z taqdirini o'zi belgilab bo'ldi. Ularning o'z mustaqil davlati bor. Tasavvur qilyapsizmi,

nimalar bo'l shini, agar armanlar qayerda yashayotgan bo'lsa, o'sha yerda o'ziga hudud ajratib yursa...

Turkiya-Armaniston aloqalariga kelsak, Turkiya Bosh vaziri Erdo'g'an bir necha yil muqaddam tarixchilarga ikki xalq o'rtaosidagi munosabatlarning asrlarga tatigulik sahifalarini o'rganib chiqish imkonini berish taklifi bilan chiqib, buning uchun Armaniston rahbariyati o'z tasarrufidagi arxivlarni ochib berishi kerakligini ta'kidlab o'tgan edi. Ammo uning taklifi armanlar tomonidan maqbul topilmadi. Kecha esa Turkiya Bosh vaziri Erdo'g'an arman millatiga mansub odamlarga hamdardlik izhor etdi. Biroq bu garchi AQSH va Yevropa Ittifoqi Turkiya Bosh vazirining pozitsiyasiga yuksak baho berган bo'lsa ham, afsuski, Armaniston tomonidan javob-siz qoldirildi. Armaniston hukumatiga bu ham kamlik qiladigan ko'rindan. Bularning bari, mintaqada tinchlik hukm surishini kim istashi-yu, kim istamasligini aniq ko'rsatmoqda...»

O'sha kunlari Ozarbayjon va Turkiyaga qarashli yetakchi yangilik agentliklarining saytlari «Ilhom Aliyev Turkiyani himoya qildi», «Ilhom Aliyev Pragada Sargsyanning po'stagini qoqib, qo'liga ushlatib qo'ydi» kabi sarlavhalar ostidagi ko'plab maqolalarga to'lib toshdi. Turk OAV Ozarbayjon prezidenti tomonidan namoyon etilgan ushbu qat'iy pozitsiya Turkiyaga nisbatan qar-doshlik munosabatining yaqqol misoli ekanini e'tirof etdi.

Ozarbayjonning janubdag'i qo'shnisi – Eron Islom Respublikasi bilan bog'liq boshqa bir keskinlik o'zagini ham esga olish zarur. Mintaqadagi ushbu keskinlik bir tomondan, Eron yadroviy dasturining amalga oshirilishi, ikkinchi tomondan esa, Ozarbayjonning G'arb ak-

silterror ittifoqida ishtirok etishi tufayli vujudga kel-gan. AQSHning Nyu-York va Vashington shaharlarida 2001-yil 11-sentyabr kuni amalga oshirilgan terroristik hujumlardan so'ng, Ozarbayjonning umummiliy yetakchisi Haydar Aliyev terrorizmga qarshi kurashda AQSHni to'la qo'llab-quvvatlash taklifi bilan chiqdi. rmaniston tomonidan amalga oshirilgan harbiy tajovuz va terroristik harakatlar qurboni bo'l mish Ozarbayjon AQSHning boshiga tushgan fofia mashaqqatini to'liq anglab yetdi va zudlik bilan yordam qo'lini uzatishga shay ekanligini ma'lum qildi. Vashington Ozarbayjon rahbariyatining yordamini qabul qildi va o'sha vaqt dan buyon Afg'onistondagi missiya uchun mo'ljallangan jan-govar bo'l magan yuk tashiyotgan NATO samolyotlari Ozarbayjon havo fazosi orqali uchib o'tib, Ozarbayjon aeroportlaridan foydalanadi. NATOning Afg'onistondagi missiyasi uchun mo'ljallangan jamiki yuklarning qariyb 40 foizi Boku (Shimoliy taqsimot tarmog'inining janubiy yo'nalishi) orqali o'tadi. Mazkur tashabbus Eron rahbariyatiga yoqmagan, albatta. Biroq G'arb va Eron o'rtaşıda xalqaro vositachi sifatida chiqayotgan Bokuning obro'si oshib borayotgani, Ozarbayjon o'z imkoniyatlarini tobora kengaytirib, xalqaro maydonda munosib o'r'in egalla-yotgani, Ilhom Aliyevning obro'si ko'tarilib borayotgani – Ozarbayjon manfaatlariga alohida hurmat-la qarashga majbur qiladi. Boz ustiga, Ilhom Aliyev Eron rahbariyati bilan, hatto juda g'alati, har narsa kutsa bo'ladi gan prezidenti Mahmud Ahmadinejad bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

Rasmiy Boku ko'p vektorli siyosiy balansga ega an'analarga sodiq qolgan holda, Rossiya, Turkiya va Eron

ishtirokidagi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikdan manfaatdor ekanligini so'nggi vaqtda tez-tez ma'lum qilib bormoqda. Natijada Rossiya, Eron va Ozarbayjon davlatlari o'z temiryo'l tizimlarini, yirik hududlarni yagona iqtisodiy zonaga bog'lash imkonini beradigan keng ko'lamli «Shimol-Janub» loyihasi doirasida biriktirishga kirishdi. 2016-yilning ikkinchi yar-mida Ozarbayjon, Rossiya va Eron prezidentlarining uch tomonlama uchrashuvi rejalashtirildi. Yuksak darajali bunday uchrashuvning Bokuda o'tkazilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, shubha yo'qki, Ozarbayjonning mintaqadagi o'rni tobora oshib borayotganidan dalolat beradi.

Bir vaqtlar Tehron bilan Boku o'rtasida bitim imzolangan bo'lib, ushbu hujjatga muvofiq ikki davlat bir-birining manfaatlariga zid keladigan ish tutmasligi kerak edi. Bir necha yil muqaddam Eron hududini harbiy jihatdan bosib olish, AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan raketa zarbalari beriladigan nishonga aylanish tahdidini yuzaga keltirgan Tehron yadroviy dasturi Ozarbayjonni qarshi tomonlar o'rtasida muvozanat saqlab borishga majbur qilgan juda murakkab holatga solib qo'ydi. Biroq Ozarbayjon prezidenti o'z hududidan qo'shni davlatlar hududiga bostirib kirish yoki harbiy zarba berish maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymasligi borasida qat'iy bayonot qildi. Bu esa vujudga kelgan keskinlik barham topishiga sabab bo'ldi.


*«Armaniston
tomonidan
amalga oshirilgan
harbiy tajovuz
va terroristik
harakatlar
qurboni bo'lmish
Ozarbayjon
AQSHning boshiga
tushgan fojia
mashaqqatini to'liq
anglab yetdi...»*

Ilhom Aliyevning 2012-yil aprel oyida o'tgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi nutqi alohi-da e'tiborga molikdir. Unda davlat rahbari Ozarbayjonga qarshi olib borilayotgan informatsion qo'poruvchilik masalasida batafsil to'xtalib o'tdi. «Mintaqadagi vaziyatni keskinlashtirib borishni o'z oldida turgan maqsad sifatida ko'radigan kuchlar mavjud. Shunday kuchlar mavjudki, Ozarbayjoni yon qo'shni-larga qarshi qayrashga urinadi. Bunda ular informatsion qo'poruvchilik usullaridan foydalanadi. Biroq ularning bu boradagi har qanday urinishlari behudadir. Zero, qo'shnilarimiz bilan yo'lga qo'yilgan aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga tayanadi. Biz barcha qo'shnilarimiz bilan, Armanistondan tashqari, albatta, mo'tadil, samimi, do'stona munosabatlarni o'rnatganmiz. Ushbu munosabatlarni yanada mustahkamlayapmiz va bundan buyon ham mustahkamlab boraveramiz. Biz

*«Biz bilan
birorta qo'shni
davlat o'rtaasida
muammo yo'q...
Ozarbayjon hech
qachon boshqa
davlatlarning
bir-biriga qarshi
tuzgan rejalariga
aralashmaydi.*

*Ozarbayjon
birovlarning bir-
biriga qarshi
kurashadigan
maydoniga
aylanmaydi».*

bilan birorta qo'shni davlat o'rtaasida muammo yo'q... Ozarbayjon hech qachon boshqa davlatlarning bir-biriga qarshi tuzgan rejalariga aralashmaydi. Bu haqda ko'p gapirganman. Prezidentlik faoliyatimning boshlang'ich pallasida ham aytganman. Ozarbayjon birovlarning bir-biriga qarshi kurashadigan maydoniga aylanmaydi, deganman. Yurtimiz hududi qo'shnilarimizga qarshi uyushtirilgan rejalarda foydalanishiga biz hech qachon yo'l qo'yamaymiz. Buni hamma biladi. Biz faqat bir nar-



Prezident Ilhom Aliyev o'z oilasi bilan Bokudagi Haydar masjidining ochilish marosimida ishtirok etdi. 26.12.2014-y.



Ozarbayjon prezidenti İlhom Aliyev va uning rafiqasi Mehribon Aliyeva Vatikanda, katoliklar cherkovi rahnamosi Papa Fransisk bilan uchrashuvda. 6.03.2015- y.



Ozarbayjon prezidenti İlhom Aliyev «Imomzoda» diniy majmuasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishib chiqqach, namozxonalar bilan suratga tushdi. 17.02.2015- y.



Ozarbayjon prezidenti İlhom Aliyev muqaddas Ramazon oyida, iftorda.
17.06.2016- y.



Ozarbayjon prezidenti İlhom Aliyev umra safarida. 6.04.2015- y.



Ozarbayjon prezidenti İlham Aliyev Bokudagi Olimpiada stadionining ochilish marosimida. 18.03.2015- y.



«Boku-2015» birlinchi Yevropa o'yinlari mash'aliasini yoqish marosimi.
26.04.2015- y.



«Boku-2015» mash'alasi Ozarbayjon mintaqalari va afganaviy Neft toshlari bo'ylah o'z sayohatini yakunlagachi, poytaxtga yetkazildi. 7.06.2015- y.



Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev birinchi Yevropa o'yinlari ishtirokchilari - Ozarbayjon delegatslyysi a'zolari bilan Atletlar qishlog'ida. 9.06.2015- y.



«Boku-2015» birlinchi Yevropa o'yinlarining ochillish marosimi.
26.04.2015- y.



«Boku-2015» birinchi Yevropa o'yinlarining ochilish marosimi.
26.04.2015- y.



Ozarbayjon kurashchisi Mariya Stadnik birinchi Yevropa o'yinlari championi bo'ldi. Ozarbayjonning birinchi xonimi Mehribon Aliyeva ayollar o'tasidagi erkin kurash bo'yicha musobaqa g'oliblariga medallar topshirdi. 15.06.2015- y.



Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev «Boku-2015» birinchi Yevropa o'yinlarining ko'ngilli yordamchilari davrasida. 17.06.2015- y.



Ozharbayjon prezidenti Ilhom Aliyev birinchi Yevropa o'yinlari championi Radik Isayevga Ozarbayjon aktiviga qayd etilgan 13- oltin medalni topshirmoqda. 19.06.2015- y.



«Boku-2015» birinchi Yevropa o'yinlarining zo'r taassurot qoldirgan yopilish marosimi. 28.06.2015- y.



Ozharbayjon prezidenti Ilhom Aliyevning birinchi Yevropa o'yinlarida g'olib chiqqan sportchilar, ularning murabbiylari, sport jamoatchiligi vakillari va xorijiy sheriklar bilan uchrashuvi. 29.06.2015- y.



Ozharbayjon prezidenti Ilhom Aliyev Mehribon Aliyevaga «Haydar Aliyev» ordenini topshirmoqda. 29.06.2015- y.



Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev Formula-1 Yevropa gran-prisining ochilish marosimida. 19.06.2016- y.



Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev Yevropa gran-prisining g'olibini
Nik Robertga kubok topshirmoqda.



Ozarbayjon sportchilarini Rio-de-Janeyroda o'tadigan Olimplada o'yinlariga
kuzatish marosimi. 18.07.2016- y.



Ilhom Aliyev va Mstislav Rostropovich. 27.01.2004- y.



Ilhom Aliyev va Mehribon Aliyevanining Ozarbayjon professional musiqa sinining
asoschisi, zo'r iste'dod sohibi Uzeir Gajibekovning 120 yilligiga bag'ishlangan
konsert ishtiroychilari bilan uchrashuvi. 13.06.2006- y.



Prezident İlham Aliyev Ozarbayjon rassomlar uyushmasining 65 yilligi
munosabati bilan yig'ilgan atoqli Ozarbayjon rassomlari davrasida.
27.12.2006- y.



Ozarbayjon prezidenti İlham Aliyev va uning rafiqasi Mehribon Aliyeva san'at
arboblari bilan uchrashuvda. 10.05.2007- y.



Prezident Ilhom Aliyev mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatovga «Do'stlik» ordenini topshirmoqda. 25.02.2008- y.



Prezident Ilhom Aliyev mashhur rassom, SSSR va Ozarbayjon davlat mukofotlari laureati, Sotsialistik Mehнат Qahramoni Tair Salaxovga «Haydar Aliyev» ordenini topshirmoqda. 27.11.2008- y.



Ozarbajjon prezidenti Ilhom Aliyev yozuvchi Anarga Ozarbajjon adabiyotini rivojlantirishdagi alohida xizmati uchun Haydar Aliyev mukofotini topshirmoqda. 10.05.2011- y.



Prezident Ilhom Aliyev Ozarbajjon xalq artisti, mashhur torchi Ramiz Gulyevga Davlat mukofotini topshirmoqda. 27.05.2014- y.



Ozarbajyon prezidenti Ilhom Aliyev Elmira Axundovaga olti tomli «Haydar Aliyev. Shaxs va davr» nomli hujjatli-biografik asari uchun Davlat mukofotini topshirmoqda. 10.05.2011- y.



Ozarbajyon prezidenti Ilhom Aliyev mashhur qozoq shoiri, olim, jamoat arbobi Olijas Suleymanovga «Shuhrat» ordenini topshirmoqda. 21.06.2006- y.



Prezident İlhom Aliyev atoqli kompozitor, Sotsialistik Mehnat Qahramoni, SSSR xalq artisti, davlat mukofotlari laureati Fikret Amirovning haykalini ochish marosimida. 19.09.2011- y.



Prezident İlhom Aliyev, YUNESKO hosh direktori Koishiro Matsuura va Mehribon Aliyeva Bokudagi zamonaviy san'at muzeyining ochilish marosimida. 20.03.2009- y.



Prezidentimizning ota-onasi



Haydar Aliyev va Zarifa Aliyeva




Haydar va Zarifa Aliyevalar farzandlari
Sevill va Ilhom bilan



Aliyevlar ołası Moskvada, Qızıl maydonda



«Sevillik sartarosh» operasining premyesasiga ołası billan kirğan Haydar Aliyev va Figaro rollini o'ynagan Muslim Magamayev





Haydar Aliyev oиласы bilan hordiq chiqarmoqda



Haydar Aliyev o'g'li Ilhom va yangi tushgan kelini Mehribon bilan



Haydar Aliyev o'g'li Ilhom, kelini Mehribon va nabirasi Haydar bilan.





Ilhom Aliyev o'z otasining barcha ishlari va tashabbuslariga
sadoqatli izdosh bo'ldi.






Umumimilliy rahnamo Haydar Aliyevning dəfn mərəsimi. 15.12.2003-y.



Ilhom Aliyev otasining qabrini ziyorat qilmoqda



Ilhom va Mehribon Aliyevlar Boku ko'chalarida sayr qilishmoqda.





Ilhom Aliyev o'g'li Haydar bilan



Ilhom va Mehribon Aliyevlar farzandlari Laylo, Orzu, Haydar va kuyovi Samad bilan.

sani, u ham bo'lsa, mintaqamizda tinchlik, xotirjamlik, barqarorlik hukm surishini istaymiz...»

Ayrimlar: «Siyosat oq qo'lqop taqilgan holatda olib borilmaydi», degan fikrni ilgari surishadi. Shunda men so'zi ham, ishi ham bir bo'lgan Ilhom Aliyevning vijdonan aytgan jiddiy mulohazasini esga olib, javob beraman: oq qo'lqop taqishga urinib ko'rish kerak, ajab emas, uddasidan chiqilsa. Masalan, bizning prezidentimiz taqa olgan. Buning uchun uni jahon siyosiy isteblishmenti hurmat qiladi.

So'nggi yillarda Ilhom Aliyevning G'arb yetakchilari bilan yo'lga qo'ygan shaxsiy munosabatlari yanada samarali tus olib bormoqda. Jumladan, Turkiyaning Antaliya shahrida 2015-yilning 15-16-noyabr kunlari «Katta yigirmatalik» (G-20) yetakchilarining 10-sammiti bo'lib o'tdi. Tadbir an'anasisiga ko'ra, sammitni tashkillashtirgan mezbon-davlat ushbu yigirmatalikka kirmagan biron-bir davlat rahbarini faxriy mehmon sifatida taklif qilish huquqiga ega. Faxriy mehmon sifatida Turkiya Ozarbayjonni tanladi. Bu, bir tomondan, yurtlarimiz o'rtasidagi mustahkam qardoshlik rishtalaridan dalo-lat bo'lsa, ikkinchi tomondan, Ozarbayjonning iqtisodiy imkoniyatlariga berilgan ahamiyat namoyishi bo'ldi. Ilhom Aliyev terrorizm va migratsiya inqirozi mavzusining muhokamasida ishtirok etib, jahon yetakchilariga Armanistonning tajovuzkor siyosati va Ozarbayjon zaminining ma'lum qismi bosib olinganini yana bir bor eslatib o'tdi.

Shundan so'ng, Ozarbayjon prezidenti AQSHga tashrif buyurib, yadroviy xavfsizlik bo'yicha 2016-yilning bahorgi sammitida ishtirok etdi. Biroz vaqt o'tib

Ilhom Aliyevning Berlinga ish tashrifi tashkillashtirildi. Ushbu tashrif davomida prezidentimiz bir qator muhim uchrashuvlar o'tkazib, «Ozarbayjon-Germaniya» iqtisodiy forumining ochilishida ishtirok etdi. Ilhom Aliyev, shuningdek, Germaniya kansleri Angela Merkel bilan uchrashib, faol dialog o'tkazdi. Mazkur tashrif rejalashtirilgan protokol Ilhom Aliyev tomonidan yana buzilgani, xususan, Bundestagda «Ozarbayjon-Germaniya» parlamentlararo do'stlik guruhi a'zolari bilan uchrashishdan bosh tortgani bilan esda qoldi. Bunga sabab Bundestagning to'qilgan «arman genotsidi»ni qo'llab-quvvatlagan 2016-yil 2-iyundagi rezolyutsiyasi bo'ldi. Shu tariqa Ozarbayjon prezidenti Turkiyani qo'llab-quvvatlashini yana bir bor ochiqdan-ochiq namoyon qildi.

2016-yil iyul oyida Ozarbayjon prezidenti NATOning Varshava sammitida ishtirok etdi. Ushbu tadbir ham rasmiy Bokuning nihoyatda muhim diplomatik g'alabasi ila yakun topdi. Nufuzli «1news.az» xalqaro yangilik portalı o'zining tahliliy maqolasida sammit yakuniga doir quydigilarni yozgan:

NATO sammiti: Yerevanga «Varshava hukmi» o'qib eshittirildi

«Ozarbayjon – NATOga a'zo bo'lish istiqboli rejalahshtirilmagan, sheriklikning keng qamrovli dasturi bilan qanoatlanib, ittifoq a'zolari davrasida asosiy umumjahon muammolar muhokamasida ishtirok etadigan kam sonli davlatlardan biri sanaladi.

Markaz kuchi...

Hududi orqali eng muhim energetik va transport yo'nalishlari o'tadigan, o'zi ham energetik manbalarga boy davlat hisoblanadigan Ozarbayjon Yevropa va Osiyo mintaqalaridek bepoyon makonning energetik xavfsizligi va ravnaqini ta'minlash ishiga jiddiy hissa qo'shib kelmoqda. Mazkur davlat G'arb bozori bilan amaldagi «Boku – Tbilisi – Jeyxan» hamda «Boku – Tbilisi – Arzirum» quvur yo'llari vositasida bog'langan bo'lsa, Markaziy Osiyo va Xitoy bilan «Boku – Tbilisi – Kars» temiryo'li vositasida bog'lanish uchun muhim magistralga aylanib bormoqda. «Janubiy gaz yo'li»ning tarkibiy qismi bo'lib, Yevropaning energetik xaritasini o'zgartiradigan TANAR va TAP loyihalarining hayotga tatbiq etilishi esa hamkorlikning yangi pog'onasini va'da qilmoqda.

Ozarbayjon geosiyosiy jihatdan ham jiddiy ahamiyatga ega ekanini rad etib bo'lmaydi. Sharq bilan G'arbning tutashish joyidagi manfaatli holati esa, shubha yo'qli, o'ziga xos betakror omildir. Biroq Ozarbayjon davlati mintaqadagi yetakchilikni qo'lga kiritishga, murakkab qo'shnichilikka qaramay, jiddiy geosiyosiy o'zakka aylana bilishga o'zining siyosiy balans saqlangan tarzda amalga oshirayotgan mustaqil tashqi siyosiy kursi tufayligina erisha oldi.

... va kuch markazi

Ozarbayjon mintaqadagi eng qudratli davlat sifatida ham ifodalanadi. Zero, Ozarbayjonda qudratning siyosiy,

iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy jihatlari nisbatan oqil birikkan. Mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash ishiga Ozarbayjon katta hissa qo'shib bormoqda. Arman terrorizmi bilan bevosita to'qnash kelgan Ozarbayjon terrorga qarshi xalqaro kurashga faol yordam berar ekan, aksilterror ittifoqning eng faol a'zolaridan biriga aylandi.

Qorabog' muammosini hal etish mavzusi nufuzli xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalariga kiritilishiga erishib, rasmiy Yerevan va arman diasporasining yillar davomida to'qib kelgan strategiyasini batamom barbos qilgan Ozarbayjon o'zining diplomatik kuchini ham yaqqol namoyon etdi.

Tinchlik o'rnatish missiyasi tarafdori ekanligini yurtimiz harbiy jihatdan ham (xalqaro tinchlik o'rnatish kuchlari tarkibida Ozarbayjon harbiylarining xizmati), diplomatik jihatdan ham (so'nggi misol – Turkiya–Rossiya munosabatlari tiklanishida Bokuning tutgan o'rni) ko'p marta namoyon etgan. Ozarbayjoning harbiy qudratiga kelsak, u o'z kuchini 2016-yil aprel oyida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YXHT) uyquga ketgan Minsk guruhini seskanib tushishga majbur qilgan «Yashin tezligidagi urush»da jamiki jahonga ko'rsatib qo'ydi. Bularning bari jahon jamiyatining Ozarbayjon haqidagi ijobiy ijtimoiy fikrini shakllantirayotgan, nufuzli xalqaro idoralar yurt rahbariyatini barcha jiddiy tadbirdarga taklif qilishga turki berayotgan bo'lsa, ajab emas. Zero, unday tadbirdarda Ozarbayjon rahbari arman yolg'onini fosh etib, jahon jamiyatiga o'zining oqilona pozitsiyasini yetkazib bormoqda.

Yana bir zo'r g'alaba

Ilhom Aliyev ishtirok etgan navbatdagi tadbir 2016-yilning 8-9-iyul kunlari Varshavada o'tgan NATO sammiti bo'ldi. Ozarbayjonning NATO bilan hamkorligi 1994-yili boshlangan bo'lib, o'shanda yurtimiz «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» dasturiga qo'shilgan. Hamkorlik uchun asosiy negiz bo'lib, 2005-yili imzolangan «Hamkorlikdagi harakatning yakka tartibdagi rejasi (IPAP)» xizmat qildi. Ozarbayjon rahbariyati va NATO qo'mondonligi tomonidan 2006-yilning iyul oyida Bokuda ittifoqqa doir asosiy axborot markazi vazifasini bajaradigan Yevroatlantika markazi rasman ochildi.

Tomonlarning hamkorlik ko'lami juda keng. Xususan, ushbu hamkorlik doirasida Ozarbayjon Milliy armiyasi ni NATO standartlariga muvofiq isloh qilish, terrorizmga qarshi birqalikda kurash olib borish, Ozarbayjon va Kaspiy havo fazosining xavfsizligiga doir ishlar, Ozarbayjon FVV bo'linmalarini rivojlantirish, tinchlik o'rnatish operatsiyalarida birga ishtirok etish (Ozarbayjonning harbiy bo'linmalari NATO tomonidan Kosovo, Iraq va Afg'onistonda o'tkazilgan tinchlik o'rnatish operatsiyalarida ishtirok etgan) kabi tadbirlarning amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. NATOning Varshava sammitida 9-iyul kuni so'zga chiqqan prezident Ilhom Aliyev NATOning sheri, Afg'onistonning do'sti bo'lmish Ozarbayjon «Qat'iy madad» missiyasiga sezilarli hissa qo'shishni davom etishini ta'kidlab o'tdi.

«Biz Afg'oniston bilan uzoq muddatli siyosiy sheriklik va amaliy hamkorlik tarafdori bo'lib, «Qat'iy madad» missiyasi yakuniga yetgach, keng ko'lamli Muttasil sheriklik dasturi doirasining amalga oshirilishiga o'z hissamizni qo'shib borishni niyat qilganmiz. Afg'onistonning barqa-

rorligi va ravnaqiga Ozarbayjon tomonidan kiritiladigan hissa NATO operatsiyalaridagi ishtirokimizga qo'shimcha ravishda amalga oshiriladi», – bayonot qildi Ilhom Aliyev.

Yurtimiz prezidenti o'z nutqida har doimgiday, Tog'li Qorabog' mojarosi mavzusiga asosiy urg'u berib, Ozarbayjon bilan NATO o'rtaSidiagi hamkorlik xalqaro huquq va xavfsizlikning bo'linmaslik tamoyillariga tayaniShini, afsuski, ushbu tamoyillar hamon buzilayotgani ni ta'kidlab o'tdi. «O'z qurolli kuchlari bilan Ozarbayjon hududining qariyb 20 foizini bosib olgan, ozarbayjon millatiga mansub millionga yaqin fuqarolarga nisbatan etnik tozalov ishlarini amalga oshirgancha, harhiy jinoyatlar sodir etayotgan Armaniston tomonidan kuch qo'llanishi hamon davom etilayotgani nafaqat yurtimizning hududiy yaxlitligini buzmoqda, balki mintaqaviy xavfsizlikka ham jiddiy tahdid ham solmoqda», – dedi Ilhom Aliyev.

Status-kvo to'g'ri kelmayotgani haqidagi YXHTning Minsk guruhi hamraislari va amaldagi YXHT raisining bayonoti ma'qullanganini qayd etgan Ilhom Aliyev, status-kvoning o'zgarishi Ozarbayjon hududi arman bosqinidan xalos etilishini anglatishini ta'kidlab o'tdi. «Ozarbayjonning hududiy yaxlitligi, mustaqilligi va suvereniteti NATO tomonidan yangitdan qo'llab-quvvatlanib, Varshava sammiti deklaratsiyasida aks ettirilganini biz juda yuksak baholaymiz», – deya bayonot qildi prezident. Ta'kidlab o'tmoq joizki, NATO Ozarbayjonning hududiy yaxlitligi va suverenitetini bir necha bor qo'llab-quvvatlagan. Ittifoqning muqaddam o'tgan sammilari bayonotlarida, shu jumladan, 2014-yilning 4 – 5-sentyabr kunlari Uelsda o'tgan sammiti bayonotida Janubiy Kavkazdagagi mojarolar tinch yo'l bilan hal etilishi

lozimligi, davlatlarning hududiy yaxlitligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch qo'llanishi yoki kuch qo'l-lash bilan tahdid qilinishi nomaqbul ekanligi, xalqaro pog'onalarda e'tirof etilgan chegaralarga hurniat-la qarash muhim ekanligi ittifoqqa a'zo davlatlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi.

NATOning Varshava sammitida qabul qilingan yakuniy kommyunika, mazkur ittifoqqa a'zo davlatlar Ozarbayjonning hududiy yaxlitligi, suvereniteti va mustaqilligini qo'llab-quvvatlash tarafdori ekanliklarini yana bir bor ta'kidlab o'tishdi va Janubiy Kavkazda mavjud mojarolar xalqaro huquq, BMT Nizomi va Xelsinki Yakuniy aktida aks ettirilgan aynan mana shu tamoyil va me'yorlar asosida hal etilishi lozimligini ifoda etishdi. Binobarin, aytish mumkinki, NATOning so'nggi sammiti – Ozarbayjon tomonidan qo'lga kiritilgan yana bir zo'r g'alaba sanaladi. Boshqacha qilib aytganda, Yerevanning hujjat zamiridagi ma'noni anglab yetishga qodir mutaxassislari sammitning yakuniy hujjati diplomatik tilda qog'ozga o'rab aytilgan «hukm» ekanligini, jinoiy rejim uchun bu ogohlantirish bo'lib, Ozarbayjonning jig'iga tegish, vaziyatni yanada keskinlashtirishni bas qilish kerakligini tushunadi.

Aks holda kuyib qolish mumkin...»

*«NATOning
Varshava
sammitida qabul
qilingan yakuniy
kommyunikeda,
mazkur ittifoqqa
a'zo davlatlar
Ozarbayjonning
hududiy yaxlitligi,
suvereniteti va
mustaqilligini
qo'llab-quvvatlash
tarafdori
ekanliklarini
yana bir bor
ta'kidlab o'tishdi».*

* * *

Ozarbayjon bilan AQSH va Yevropa davlatlari o'rtafiga darajasi dam ko'tarilib, dam tushib boradigan munosabatlardan farqli o'laroq, sobiq ittifoq respublikalari bilan yo'lga qo'yilgan munosabatlar bir maromda, nishbatan barqaror ravnaq topmoqda. Ilhom Aliyev bilan Rossiya, Belorus, Gruziya, Moldova, O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlari o'rtafiga shakllangan shaxsiy munosabatlar juda chiroyli kechmoqda. Bunday munosabatlar, tabiiyki, davlatlararo munosabatlarda ham o'z aksini topmoqda. Sanab o'tilgan ushbu davlatlar bilan Ozarbayjon o'rtafiga tovar aylanmasining hajmi tobora oshib bormoqda, mintaqaviy hamkorlik rivojlanmoqda, yangi aviareyslar ochilmoqda, o'zaro sayyohlar oqimi oshib bormoqda.

Ozarbayjon-O'zbekiston o'rtafiga qardoshlik aloqalarining tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. O'zbek va Ozarbayjon xalqlari tili, dini, urf-odatlari, an'ana va madaniyati jihatidan bir-biriga yaqindir.

Uzoq yillar davomida har ikki davlat sobiq imperiyaning tarkibida bo'lib keldi. O'tgan asrning 30-yillari-dagi repressiyalar vaqtida o'n minglab ozarbayjonliklar O'zbekiston zaminiga jo'natildi. Hozirgi kunda 40 mingdan ziyod ozarbayjonliklar O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalarida faol ishtirok etib kelmoqda. 1966-yilning aprelida Toshkent shahrida ro'y bergan zilziladan so'ng shaharni tiklash ishlarida ham ozarbayjonliklar o'z hissalarini qo'shganliklarini aytib o'tmoq joiz. Bu esa ikki xalqning doimo bir-biriga ko'makdosh ekanligidan dalolat beradi.

Ikkitonloma siyosiy munosabatlar, ya'ni Ozarbayjon va O'zbekiston o'rta sidagi diplomatik aloqa-larga 1995-yil 2-oktyabrda asos solindi. 1996-yilning o'rtalarida Ozarbayjon Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi, 1998-yilning may oyida esa O'zbekiston Respublikasining Ozarbayjon Respublikasidagi elchixonalari faoliyat yurita boshladi.

Ikkitonloma munosabatlarda davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1996-yil 26-27-may kunlari Ozarbayjon Respublikasiga ilk rasmiy tashrifi o'zaro aloqalar tarixida alohida sahifani tashkil etadi. O'zaro hurmat va do'stlik ruhida o'tgan uchrashuvda ikki o'lka o'rta sidagi 19 ta muhim tarixiy hujjat, xususan, "Ozarbayjon Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rta sida do'stlik va sherikchilik to'g'risida"gi memorandum imzolandi. Safar davomida Islom Karimov Boku davlat universitetining faxriy doktori diplomi bilan taqdirlandi.

1996-yilning 21-22-oktyabr kunlarida esa Ozarbayjon Respublikasining Prezidenti Haydar Aliyev Turk dunyosi davlat rahbarlarining IV Forumida va ta-nqli davlat arbobi Amir Temur tavalludining 660 yillik yubiley tantanalarida ishtirok etish uchun Toshkentga safar qildi.

Keyingi yillarda Haydar Aliyev yo'lining davomchisi, Ozarbayjon Respublikasining amaldagi Prezidenti Ilhom Aliyevning olib borayotgan siyosati ikki o'lka o'rta sidagi munosabatlarning yanada mustahkamlanishi-da o'z amaliy ifodasini topmoqda.

Prezident Ilhom Aliyev doim Ozarbayjon-O'zbekiston munosabatlari, xalqlarimiz orasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashda alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bugungi kunda o'zaro hamkorlik eng yuksak bosqich – strategik hamkorlik darajasiga ko'tarilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Ilhom Aliyev O'zbekistonda va Ozarbayjonda bo'lib o'tgan ikkitomonlama uchras-huvlarda qardosh o'lka bo'lgan O'zbekistonning Ozarbayjonga turli masalalarda, jumladan, Armaniston-Ozarbayjon, Tog'li Qorabog' masalalarida tutgan pozitsiyasini yuksak qadrlashini ta'kidlab o'tgan. Prezident Ilhom Aliyev doimo bo'lib o'zaro o'tgan uchrashuvlarda har ikki o'lka mintaqaviy muammolar, Kavkaz, Kaspiy dengizi, Markaziy Osiyo hududlaridagi tahlikali vaziyat-larga aloqador masalalarda hamfikr ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ilhom Aliyev o'zaro uchrashuv va xalqaro tashkilotlar doirasidagi chiqishlarida O'zbekistonning prinsipialligini, O'zbekiston bilan do'stlik va qardoshlik munosabatlarini, qolaversa, xalqaro normalarga sidiqligini e'tirof etib kelmoqda. Uning mana bu fikrlari yuqoridagilarning isboti sifatida jaranglaydi: "Biz qo'shni davlatlarning sarhadlariga doimo hurmat bilan qaraymiz va albatta, qo'shnilarimizning uzoq yillardan buyon xalqaro huquqiy norma va prinsiplari asosida, BMTning Xavfsizlik Kengashi, BMT Bosh Assambleyasi va qator boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning chaqiriqlaridan so'ng Armanistonning bosqinchilik siyosatiga chek qo'yishidan umidvormiz. Bu muammolar diplomatik vositalar, xalqaro tashkilotlarning ishtiroki bilan hal etilishidan manfaatdormiz va bunga ishonamiz".

Ilhom Aliyev Ozarbayjon kelajakda ham xalqaro arenalarda hamisha O'zbekistonning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashini ta'kidlar ekan, jumladan, shunday deydi: "Biz buni avvallari ham ta'kidlagan edik. Bizning bu masaladagi pozitsiyamiz kelajakda ham o'zgarmasdan qoladi. Bu munosabatlar mustahkam asosga, ko'p asrlik qardoshlik va do'stlik rishtalariga ega".

U Ozarbayjon va O'zbekiston xalqlari o'ttasidan tarixan mavjud bo'lgan do'stlik munosabatlari haqida o'zaro uchrashuvlarda o'zining yuksak fikrlarini aytib keladi: "Xalqlarimiz haqiqatan qardosh, ko'p jihatdan bir-biriga yaqindir. Biz o'zaro so'zlashganda tarjimonga ehtiyoj sezmaymiz. Biz bir-birimizni doimo hurmat qilamiz, madaniyatimiz, san'atimizni e'zozlaymiz. Bizni umumiylar tarix birlashtirib turibdi. Bugungi kunda ikki mustaqil va tobora rivojlanib borayotgan davlatlar sifatida mintaqamizdagi turli vaziyatlarda hamfikr va hamkor o'laroq doimo bir-birimizni qo'llab-quvvatlashda davom etamiz".

Prezident Ilhom Aliyev O'zbekistonning faqat so'zda emas, balki amalda ham Ozarbayjonni qo'llab-quvvatlayotganligini e'tirof etadi. U O'zbekiston tomoni 2008-yilda BMTning Bosh Assambleyasida Ozarbayjon hududining Armaniston tarafidan ishg'oliga oid qabul qilingan qarorini qo'llab-quvvatlagani, Ozarbayjonning manfaatlarini himoya qilgani va butun xalqaro arenalarda doim qardosh o'lkaning yonida turishini mammuniyat bilan qayd etadi.

Prezident Ilhom Aliyevning O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov va amaldagi Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan yaqin do'stlik munosabatla-

ri davlatlarimiz orasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlanishi va yuksak darajada taraqqiy etishiga xizmat qilmoqda.

Ilhom Aliyev o'z chiqishlarida Ozarbayjon-O'zbekiston munosabatlarining yuksak darajada rivojlanishida Ozarbayjon xalqining umummilliy lideri Haydar Aliyevning xizmatlarini alohida ta'kidlab, jumladan, shunday deydi: "Sobiq ittifoq davrida ham xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlar juda yaqin bo'lib, ular o'zaro qardoshlik rishtalari bilan bog'langan. Mustaqillik yillarda Haydar Aliyev va Islom Karimov – ikki o'lkaning liderlari ikki tomonlama munosabatlarning bugungi darajada kelishiga muhim rol o'ynagan. Haydar Aliyev doimo o'zbek xalqiga bo'lgan ulkan muhabbatini va hurmatini e'tirof etardi. Men aminmanki, Haydar Aliyevning xotirasi bilan bog'liq go'zal tuyg'ular o'zbek xalqining qalbida mangu yashaydi. O'lkalarmiz do'stlik va o'zaro qardoshlik rishtalari bilan mustahkam bog'langan. O'tkazilgan uchrashuvlar davomida biz tarjimonga ehtiyoj sezmaymiz. Biz bir-birimizni qalblarimiz, dilimiz bilan tushunamiz va xalqaro masalalarda yakdil va ham-fikrmiz. Bizning oramizda ko'p qirrali munosabatlar bor. U xoh iqtisodiy, xoh siyosiy bo'lsin, barcha sohalar ni qamrab oladi. Eng asosiysi, bizni samimiyl do'stlik va qardoshlik rishtalari doimo bog'lab turadi".

Mustaqillik yillaridan so'ng Boku va Toshkent shaharlarida ikki davlatning elchixonalari barpo etildi. Bu esa diplomatik aloqalarda yangi ufqlarning ochilishiga sabab bo'ldi.

Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasida madaniy-adabiy aloqalar ham tobora mustahkamlanib bormoqda. O'tgan

muddat davomida Bokuda o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning, Toshkentda esa ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy haykallarining ochilishi o'zaro do'stlik rishtalarining amaldagi bir ko'rinishidir.

Madaniy aloqalarimizning eng yuksak namunalaridan biri sifatida O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahrida Haydar Aliyev nomidagi Madaniyat Markazining ochilishini e'tirof etish mumkin.

Qayd etish lozimki, xorijiy o'lkalardagi ilk Ozarbayjon Madaniyat Markazi O'zbekistonda ochilgan. Keyinchalik esa Fransiya va Avstriya davlatlarida tashkil etildi.

Ochilish marosimida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev va O'zbekistonning o'sha vaqtdagi Bosh vaziri, hozirgi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Ular bu markaz ikki qardosh xalqlar o'rtasidagi o'zaro madaniy aloqalarda ko'prik vazifasini bajarishini ta'kidlashdi.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ochilish marosimida shunday degan edi: "Bu Madaniyat Markazi aslida O'zbekiston-Ozarbayjon do'stligining yuksak tajassumidir. Ayni vaqtda bu Markazda O'zbekiston-Ozarbayjon do'stligi muzeyi faoliyat ko'rsatadi. Bu Markaz Haydar Aliyev nomi bilan ataladi. Bu esa ramziy ma'noni anglatadi. Chunki Ozarbayjon xalqining buyuk farzandi Haydar Aliyev butun faoliyati davomida Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasidagi aloqaarning rivojlanishi uchun katta rol o'ynadi".

O'tgan davr mobaynida guvoh bo'ldikki, O'zbekistonagi Haydar Aliyev nomidagi Madaniyat Markazi ikki xalq do'stligining, madaniy-adabiy hamkorligini yanada rivojlanishi yo'lida bir qator ishlarni, loyihalarni amalgalashni o'rnashishiga imkon beradi.

oshirdi. Qolaversa, Haydar Aliyev merosining qardosh o'lkada o'rganilishida, Ozarbayjon davlatchiligi, tarixi, madaniyati, adabiyotini keng targ'ib qilishda, Ilhom Aliyev ta'kidlab o'tganidek, do'stligimizni tajassum etishda muhim o'r'in tutib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Prezident Ilhom Aliyevning siyosiy idorachilik qobiliyati va tajribasini yuksak qadrlashini ta'kidlar ekan, uni buyuk siyosatchi Haydar Aliyevning davomchisi sifatida e'tirof etadi. Shuningdek, Prezident Ozarbayjonni O'zbekiston uchun eng yaqin do'st va hamkor sifatida ko'rishini alohida ta'kidlab o'tadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning tug'ilgan kuni munosabati bilan yo'llagan tabrik maktubida shunday so'zlarni o'qiyimiz: "Ozarbayjon Respublikasining ichki va tashqi siyosatdagi obro'si va nufuzi Sizning nomingiz va olib borayotgan siyosatingiz bilan bog'liqdir, haqiqatan ham bu dunyoda yuksak qadrlanadi".

* * *

Ko'p vektorli siyosat strategiyasini ishlab chiqar ekan, Ilhom Aliyev Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Singapur kabi davlatlar bilan faol siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirgancha, Osiyo yo'nalishining istiqbolini ham unutmaydi.

Ozarbayjon-Koreya munosabatlari haqida alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Yurtimiz prezidentining 2007-yili Seulga buyurgan davlat tashrifidan so'ng, Koreya Ozarbayjonning Osiyo mintaqasidagi eng faol iqtisodiy sherigiga aylandi.

Ikki davlat nafaqat energetika sohasida, balki qishloq xo'jaligi, infratuzilma qurish va axborot texnologiyalari sohalarida ham hamkorlik qilishni yo'lga qo'ydi. Savdo palatalarining faolligi tufayli Koreya tijoratchilari ozarbayjonlik hamkasblari bilan tanishib, Ozarbayjon bozorining imkoniyatlariga doir teran tasavvurga ega bo'lisdidi.

Bugungi kunga kelib, Ozarbayjonda o'nlab Koreya kompaniyalari investitsiya loyihalari doirasida faoliyat yuritmoqda. Koreyaning «Dong Sung Engineering» kompaniyasi Ozarbayjon hukumatiga «Boku ko'r-fazining dengiz ko'prigi» loyihasining variantini taqdim etdi. Ijobiy qaror qabul qilinadigan bo'lsa, koreyslar Boku ko'rfazi havzasida uzunligi 26 kilometr keladigan ko'priq qurishga tayyor. Boshqa loyihalar ham ishlab chiqilib, muhokama qilinmoqda. Chet tillar institutida koreys tilidan ozarbayjon tiliga o'giradigan tarjimonlar tayyorlash bo'yicha maxsus bo'linmaning ochilishi ikki tomonlama munosabatlar yuksak saviyasida ekanidan dalolat beradi. «SEBA» («Seul-Boku») Ozarbayjon-Koreya madaniy aloqalar assotsiatsiyasi o'zining madaniy aksiyalari ila Ozarbayjonda keng tanilib borayotgan bo'lsa, Bokuda «SEBA» Koreya tibbiyoti klinikasi tanilib bormoqda.

Ilhom Aliyev XXRga bir necha marta tashrif buyurgan, xususan, bir marta ish tashrifi bilan kelgan. Ke-

«Ko'p vektorli siyosat strategiyasini ishlab chiqar ekan, Ilhom Aliyev Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Singapur kabi davlatlar bilan faol siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirgancha, Osiyo yo'naliشining istiqbolini ham unutmaydi».

yinchalik Osiyoda hamkorlik va o'zaro ishonch darajası bo'yicha kengashning to'rtinchi sammitida ishtirok etish uchun (2014-yilning may oyida) tashrif buyurgan. Ozarbayjon prezidentining ushbu yurtga davlat tashrifi 2015-yil 8 – 11-dekabr kunlari amalga oshirilib, davlatlararo hamkorlikning yangi bosqichiga asos solindi. Xitoy Xalq Respublikasining raisi Si Szinpin, XXR Davlat Kengashining Bosh vaziri Li Ketsyan, Xalq vakillarining umumxitoy kengashi rahbariyati bilan o'tgan uchrashuv va muzokaralarda Ozarbayjon prezidenti bir necha bor yurtimizda Xitoy bilan barcha sohalarda hamkorlik qilishga katta ahamiyat berilayotganini, Xitoy kompaniyalari esa Ozarbayjonda ishlab chiqarish sanoati, texnoparklar tashkil etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkinligini ta'kidlab o'tdi. Prezident Ilhom Aliyev XXR raisi Si Szinpin tomonidan ilgari surilayotgan qadimiylipak yo'lining Iqtisodiy mintaqasini vujudga keltirish tashabbusini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Boz ustiga, Buyuk ipak yo'lida joylashgan Ozarbayjon Xitoy molini yurtimiz orqali Turkiyaga, u yerdan esa Yevropa ga yetkazish uchun infratuzilmaga ega. 2015-yilning avgust oyida Kaspiy dengizi orqali Xitoydan Ozarbayjonga birinchi konteyner poyezdi yetib keldi. Ozarbayjon bilan Yevropa o'rtaşıda temiryo'l transporti harakati yo'nga qo'yilgach («Boku – Tbilisi – Kars» yo'nalishidagi temiryo'l bo'ylab), ushbu transport yo'nalishi Xitoy molini Yevropaga, Yevropa molini esa Xitoyga tashish uchun eng qisqa yo'lga aylanadi.

Xitoy tashabbusiga qo'shilgan Ozarbayjon Osiyo infratuzilmalar investitsiyasi bankining ta'sischilaridan

biriga aylandi, Shanxay hamkorlik tashkilotida (SHHT) esa «Dialog bo'yicha sherik» mavqeiga ega bo'ldi. Prezidentimiz Ilhom Aliyevning fikriga ko'ra, SHHT bilan yo'lga qo'yiladigan aloqalar Ozarbayjon tashqi siyosatining ustuvor sohalaridan biri sanaladi.

Ozarbayjon prezidentining 2006-yil mart oyida Yaponiyaga buyurgan rasmiy tashrifini, 2012-yil noyabr oyida Singapurga buyurgan davlat tashrifini ham alohida eslab o'tish mumkin. Ushbu tashriflarning bari va tashrif natijasidagi muhim kelishuvlar «Osiyo-Tinch okean yo'nalishida» bosilgan katta qadamlar bo'lib, respublikamiz oldida yangi istiqbollar, yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

G'arb bilan siyosiy dialog olib borib, iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'ygan Ilhom Aliyev tashqi siyosatning «sharqiy yo'nalishi»ni e'tibordan chetda qoldirmadi. Ozarbayjon prezidenti Saudiya Arabistoniga bir necha bor tashrif buyurgan. Boku bilan Er-Riyod yo'lsozlik, suv ta'minoti, neft kimyosi va neftni qayta ishlash sohalariiga oid har xil loyihalarda faol hamkorlik qilishmoqda. Energetika sohasi ham Ozarbayjon bilan Saudiya Arabistoni o'rtasidagi munosabatlarda muhim komponent sanaladi. Ilhom Aliyevning Fors ko'rfaqidagi nufuzli arab shayxlari bilan yo'lga qo'ygan do'stona aloqlarida siyosiy jihatlar ham bor, albatta. Yaqin Sharqdagi xavfsizlik bo'yicha atoqli tahlilchi Teodor Karasik «Haqqin.az» agentligiga bergan intervusida ta'kidlasicha, «Ilhom Aliyevning otasi Haydar Aliyev qariyb 30 yil muqaddam Saudiya Arabistonini Ozarbayjon davlatining modeli va hamkor sifatida ko'rgan». O'sha zamonda boshlangan «Janub tomon harakat» bugungi

kunda, ya'ni Ilhom Aliyev rahbarlik qilayotgan davrda ham ishonchli yangrayotgan geosiyosiy maqsadga aylangan. Endi Ozarbayjon va Saudiya Arabistoniga o'rta-sidagi munosabatlar Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Yevroosiyo mintaqalarida davom etayotgan tektonik o'zgarishlar tufayli keskin kuchayadi. Boku kelajakda Saudiya Arabistoniga bilan Eron o'rtasida muvozanat saqlay olishi – muhim masalalardan biri bo'lib, yechimini faqat vaqt ko'rsatadi. Muhimi shundaki, arab siyosati Kavkaz mintaqasiga ko'rsatishi mumkin bo'lган ta'sirni Ozarbayjon to'g'ri idrok etmoqda».

* * *

2011-yil 25-dekabr kuni Rossiya Federatsiyasi hukumatining rasmiy matbuot organi bo'lmish «Российская газета»da «Ilhom Aliyevning mahorat darsi» («Мастер-класс Илхама Алиева») sarlavhani tahliliy maqola chop etildi. Unda Ozarbayjon prezidentining asosiy siyosiy yutuqlari, shuningdek, jahon yetakchilari bilan ozarbayjon xalqining umummilliy yurtboshisi bo'lmish Haydar Aliyevdan meros qolgan bir maromli munosabatlarni saqlab, ijodiy rivojlantira olgani e'tirof etildi. «Ko'p vektorlik strategiya haqida yuzlab maqolalar chiqqan, – yozdi maqola muallifi. – Ushbu uslubning samaradorligi ehtiyyotkorlikka asoslangani dargumon, u aslida mavjud imkoniyatlarning tor yo'lagidagi muayan harakat san'ati va uning dinamikasi bo'lishi mumkin. Har bir davlatning o'ziga xos uslubi bo'ladi. Bunday uslubga amal qilinsa, osongina «yonboshlab qolish» mumkin bo'lib, real dividentlarga erishish qiyin kechadi. Biroq ko'p vektorlik boshqa har qanday sovet rahba-

ridan farqli o'laroq, Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining bitiruvchisi Ilhom Aliyev uchun tabiiy bo'lib chiqdi. U qo'shni Gruziya yo'lidan borib, «G'arb tomon» tavakkaliga yuzlanmadi, Ukrainada bo'lgan singari, baqir-chaqir ila NATO tomon og'madi. Ayni vaqtida, Armaniston siyosatida kuzatilgan kabi yordam so'rab, Rossiyaga «murojaat» qilmadi. O'tgan asrning 90-yillari o'rtasida Haydar Aliyev tomonidan imzolangan shartnomalar asosida qurilgan neft-gaz eksport quvurlariga ega Ilhom Aliyev Moskva bilan munosabatlarni buzmay ish tutishga erishdi. U Ozarbayjon manfaatlarini jamiki tashqi siyosat azimuti bo'yicha saqlab, hammaga ko'r-satib qo'ya bildi. Modomiki biz Ilhom Aliyev idora qila-yotgan davrni to'liq tahlil qilar ekanmiz, ushbu tajriba mashaqqatlarini ajratib ko'rsatib, aniq anglab olishimiz kerak».

«DINIY VA MADANIY BAG'RIKENGLIK – BIZ UCHUN TABIIY HAYOT TARZIDIR...»

1 888-yilning oktyabr oyi boshida Aleksandr III o'z rafiqasi va ikki nafar o'g'li bilan birga Tbilisidan Bokuga, kelgusida Aleksandr Nevskiy ibodatxonasi nomini olgan pravoslaviye butxonasi poydevorining birinchi g'ishtini qo'yish marosimida shaxsan ishtirok etish uchun keldi.

«Podshoga g'isht shaklidagi oltin yombi keltirildi. Qisqa ibodat boshlandi. Podsho g'ishtni libosining etagi bilan artib, butxona devorining dastlabki g'ishtlari orasiga joyladi. Bundan tashqari, imperator, bokulik millionerlarning in'omlari – javohirot solingan nafis qutichalar, tilla pulga to'la eman qutilari, oltin-kumushga to'la kumush idishlarni ham g'ishtlar orasiga joyladi» (Manaf Suleymanovning «O'tgan kunlar» kitobidan).

Rossiya imperiyasining podsho xazinasini saxiylik-la boyitib borgan «neft poytaxti»ga o'zgacha ixlos qo'ygan rus imperatori hashamatli ibodatxona qurilishiga katta mablag' ajratdi. Bokuliklar ham, ushbu ibodatxonaning buniyod etilishiga sezilarli hissa qo'shishdi. Xususan, o'sha davrda yig'ilgan 200 mingning 150 mingi musulmonlar tomonidan berilgan ehson bo'lgan. Yana bir qiziq tafsilot: butxona qo'ng'irog'i o'ziga xos jarangdorlik, xushohang-

likka ega bo'lishi uchun misga bir necha pud oltin va kumush aralashtirish kerak bo'ldi. Yana ehson yig'ish ishlari boshlandi. Ayollar o'z belbog'lari, bilaguzuklari, uzuklari, to'g'nag'ichlari, kumushdan yasalgan uy-ro'zg'or anjomlarini, erkaklar esa otlarining bezakli yuganlari, oltin-kumushdan yasalgan xanjar qinlarini hadya qilishdi. Oqibatda musulmonlar pravoslaviye ibodatxonasi uchun tortiq miqdori bo'yicha yana hammadan o'zib ketdi...

Oradan 10 yil o'tib Boku markazida nihoyatda chiroyli ibodatxona bunyod etildi. Uning tilla tusli gumbazi o'nlab chaqirim narida yarqirab ko'rindi. Kema boshliqlari dengizdagi harakat yo'nalishini ibodatxonaning asosiy gumbaziga ko'ra belgilay boshlashdi.

Musulmonlarning «Taza pir» masjidi bilan 35 yil tinchgina qo'shnilik qilgan ushbu pravoslaviye butxonasi o'z maslagidan o'zga maslakni hazm qila olmaydigan bolsheviklar tomonidan portlatib tashlandi. Misli ko'rilmagan bunday johillik nafaqat pravoslaviye cherkovi vakilari, balki mo'min musulmonlarning ham ko'zini tindirdi.

XX asr xotimasida o'xshash hodisa boz takrorlandi: 1990-yil 20-yanvar kuni Bokuga kirib kelgan sobiq ittifoq armiyasi qo'shinlari shahar ko'chalari va tinch aholini vahshiyona o'qqa tutdi. Faoliyat yuritmagan, lekin yaxshi saqlanib qolgan butxona – Tinchlik eltuvchi muqaddas ayollar ibodatxonasi vayron etildi. Ushbu butxonada Bokuning homiysi sanalgan havoriy Varfolomey suyaklarining ma'lum qismi joylangan quti, shuningdek, Maryam onaning ulug'langan «Tixvin» va «Kaspiy» butlari saqlangani bilan mashhur. O'sha kuni qo'ng'iroqxonaga tekkan ikkita snaryad ibodatxonani

qisman vayron qildi, binoning poli egildi, devori darz ketib, tomi to'kilib tushdi. Ushbu yarim xaroba ibodatxona 1991-yili Rus pravoslaviye cherkoviga topshirildi.

Ozarbayjonning davlatmand odamlaridan biri, tadbirkor Ayin Samedovich Qurbonovning e'tibori va homiyligi bilan mazkur katta butxona ikkinchi marta dunyoga keldi. Ushbu ajoyib, ming afsuski, hayotdan erta ketgan insonning mablag'iga katta ibodatxonada keng ko'lamli ta'mirlash-tiklash ishlari o'tkazildi, butlar o'rnatiladigan o'yma naqshli tosh devor ko'tarildi, naqshlash, rasm solish ishlari amalga oshirildi, zaruriy cherkov ashylari xarid qilindi.

Ta'mirlash-tiklash ishlari nihoyasiga yetgach 2003-yil 24-mart kuni faoliyati tiklangan ibodatxonaning tantanali ochilish marosimi o'tkazilib, unda Ozarbayjon prezidenti Haydar Aliyev va Kavkaz musulmonlari idorasining raisi Shayx-ul-Islom Xo'ja Allohshukur Poshozoda ishtirot etdi.

Ozarbayjonliklarning boshqa din va o'zga madaniyatlarga nisbatan ajoyib bag'rikengligiga yana bir misol keltirib o'taman. So'nggi yillarda Haydar Aliyev Fondining madaniyat sohasidagi ko'p sonli loyihalari va ushbu Fond prezidenti, yurtning birinchi xonimi Mehribon Aliyevaning xayriya tadbirlari dunyoning turli burchaklaridan havasni keltiradigan muntazamlik-la eshitilmoqda. Jumladan, Fond mablag'iga 2007-yili Fransiyada, vaqt va iqlim sharoitlari ta'siridan shikast yetgan «Amazonka» va «Favn boshi ko'rinishidagi dastalarga ega vaza» deb nomlangan qadimiy yodgorliklarni ta'mirlab, asl holiga keltirish ishlari amalga oshirildi. Parijdagi Versal qasri bog'ida saqlanadigan ushbu yodgorliklar 1979-

yili Juhonning o'tmishdan qolgan meroslari ro'yxatiga kiritilgan. Haydar Aliyev Fondi «Bag'rikenglik manzili – Ozarbayjon bo'ladi» loyihasi doirasida 2009-yilning iyun oyida Strasburgdagi XIV asrga mansub katta ibodatxonaning surat solingan rangli oyna devorlarini ta'mirlab, asl holiga keltirish uchun mablag' ajratdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida vayron qilinib, yondirib yuborilgan Berlin qasrini tiklash uchun Haydar Aliyev Fondi 2011-yil 29-sentyabr kuni 50 ming yevro xayr-ehson qildi. Haydar Aliyev Fondining yordami bilan 2013-yili Rimning Kapitoliya muzeylaridagi «Faylasuflar zali» ta'mirlanib, asl holiga keltirildi. Shuningdek, Luvr galereyalaridan birini, Mangu shahardagi yer osti yo'llarini ta'mirlash, Astraxandagi Ozarbayjon va Rossiya do'stligi ko'prigini solish, Ulyanovsk shahridagi 78-sonli o'rta maktabni kapital ta'mirdan chiqarib, hududini obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi... Haydar Aliyev Fondi tomonidan amalga oshirilgan savob ishlar va xayriya tadbirlarining ro'yxatini butunicha keltiradigan bo'l-sam, ko'p vaqtinazni olgan bo'laman. Zero, o'tgan 10 yil davomida Fond Ozarbayjondagi 50 ta diniy, tarixiy va madaniy yodgorliklarni, jahonning turli burchaklaridagi 40 dan ziyod diniy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlab, asl holiga keltirish ishlarida ishtirot etgan. ANS kompaniyasi va Milliy qahramon Chingiz Mustafayev nomli Fond tomonidan ta'sis etilgan nufuzli «2015-yil kishisi» mukofoti 2016-yilning mart oyida Haydar Aliyev Fondi prezidenti Mehribon Aliyevaga topshirilgani bejiz emas. Zero, bu ayol «Boku-2015» birinchi Yevropa o'yinlarini tashkillashtirib o'tkazish, Ozarbayjonning ijobiy qiyofasini jahon bo'ylab ommalashtirish, yurtimizda diniy va madaniy bag'rikenglik an'analarini saqlab borish ishlashi.

rida alohida xizmat ko'rsatib, xayriya tadbirlarini uzlusiz o'tkazib bordi.

*«So'nggi yillarda
Haydar Aliyev
Fondining
madaniyat
sohasidagi ko'p
sonli loyihalari
va ushbu Fond
presidenti,
yurtning birinchi
xonimi Mehribon
Aliyevaning
xayriya tadbirlari
dunyoning turli
burchaklaridan
havasni
keltiradigan
muntazamlik-la
eshitilmoqda».*

Ishonish qiyin-u, lekin bu fakt: o'tgan bir necha yil ichida Haydar Aliyev Fondi tomonidan jahonning ko'plab davlatlarida yurtimiz nufuzini oshirishga qaratilgan 250 dan ziyod tadbir o'tkazildi. Ozarbayjon madaniyati kunlari, musiqiy baryramlar, Ozarbayjon pavilyonlarining dunyodagi eng nufuzli ko'rgazma salonlarida, masalan, Venetsiyadagi bugungi san'at biyennalida ochilishi kabi ko'plab tadbirlar shular jumlasiga kiradi.

«2015-yil kishisi» mukofotini topshirish marosimida so'zga chiqqan **Mehribon Aliyeva** quyidagicha fikr bildirdi:

«Biz ko'zlagan maqsad Ozarbayjoni xalqaro maydonda nafaqt yirik energiya manbalariga ega davlat sifatida, balki tarixi va madaniyati nihoyatda boy yurt sifatida ko'rsatib, ommalashtirib borishdan iboratdir. O'tkazilgan tadbirlardan yurtimizni jahonga tanitib, obro'sini oshirish yo'lidagi imkoniyat sifatida foydalandik. Haydar Aliyev Fondi ushbu sohaga katta hissa qo'shdi. Bunday tadbirlarning har birida jahon jamiyatining e'tiboriga Ozarbayjon tarixida bo'lib o'tgan hodisalarni havola etib borishga harakat qilamiz. Butun dunyo Ozarbayjonning daxlsiz qismi sifatida e'tirof etgan Tog'li Qorabog' va

unga chegaradosh yettita tumanning achchiq qismati, yurtimiz hududining 20 foizi bosib olingani, ozarbayjon millatiga mansub millionlab fuqarolarimiz qochoqlar va majburiy ko'chmanchilarga aylanib qolganini tadbir ishtirokchilariga hamisha hikoya qilib boraman. Xalqimizning madaniy va tarixiy merosi hududlarimizni bosib olgan dushman uchun yo'q qilinadigan nishonga aylan-gan... Ushbu hududlarda Ozarbayjonning 900 dan ziyod madaniy, diniy va tarixiy yodgorliklari mavjud bo'lib, ularning aksariyati yo'q qilindi. Har bir imkoniyatdan foydalaniб, ushbu mavzuni ko'taramiz, har safar shu haqda gapiramiz...»

Hech shubhasiz jiddiy ahamiyatga ega yana bir hoda saha haqida so'zlab bermoqchiman: 2016-yil 15-yanvar kuni Bokudagi Haydar masjidida juma namozi o'qildi. Birlik namozi, deb nom olgan ushbu namozda Islomning ikkala oqimiga mansub musulmonlar, ya'ni sunniylar va shialar bir yerga bir vaqtida birinchi marta yig'ilib, Parvardigori olamga ibodat qilishdi. Islom dinining eng yirik ikki oqimi vakillari ming yillardan buyon o'z diniy marosimlarini har xil joyda turlicha amalga oshirib keladi. Ularni birlashtirish borasida tarixda ko'p urinishlar bo'lган, biroq unday tashabbuslar shu kungacha muvaffaqiyatsiz yakun topib kelgan. Bokuda esa endi ikkala oqim vakillari dindosh birodarlarga xos ravishda bir safda turib, namoz o'qishmoqda.

Masjid minorasidan yangrab, musulmonlarni namozga va birlikka chorlaydigan azon bir hafta shialik muazzin, bir hafta sunniy muazzin tomonidan aytildi. Bundan tashqari, juma namozi ham navbat bilan rahbarlik qiladi-

gan ikkala oqimga mansub imomlarga ergashib o'qiladi.

«Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan. Bu yerda men sunniylar o'qiydigan namozlarga imomlik qilaman. Ushbu masjidning yonimda turgan oxundi esa shialarning namoziga rahbarlik qiladi. Men bir nechta islomiy davlatlarda bo'lganman. U yerlarda sunniylar shialarga qarashli masjidda namoz o'qiy olishmaydi. Shialar ham namoz o'qigani sunniylarga qarashli masjidga kelishmaydi. Ozarbayjonning aksariyat masjidlari esa hamma uchun ochiq. Bu yerda har bir mo'min hech qanday tazyiqqa giriftor bo'lmay, o'z namozini erkin o'qiy oladi», – deydi Haydar masjidining imomi **Xafiz Abbasov**.

Haydar masjidi majmuasi president Ilhom Aliyevning ko'rsatmasiga binoan qurilgan bo'lib, 2014-yili foydalinishga topshirildi. Minoralarining bo'yи 95 metr keladigan Haydar masjidi Kavkaz mintaqasidagi eng yirik masjid bo'lib, xonaqohlari 5000 – 7000 nafar namozxonaga mo'ljallangan.

*«Ozarbayjon
hududi qadimdan
turli dinlar,
xalqlar tinch-totuv
yashab kelgan
zamin sanaladi».*

Yurtimiz rahbariyati masjid qurish bilangina cheklanmaydi. Aholisining aksariyat qismi Islom diniga e'tiqod qiladigan Ozarbayjon davlatida pravoslaviye va katoliklarga qarashli ibodatxonalarini ta'mirdan chiqarish, qurish, qadimiy alban cherkovlarini

tiklash ishlari ham hukumat rahbarligida amalga oshiriladi. Jumladan, 2013-yili davlat mablag'iiga qurilgan Pravoslaviye diniy-madaniy markazning ochilishi bo'lib o'tib, ushbu marosimda so'zga chiqqan Ozarbayjon prezidenti **Ilhom Aliyev** quyidagicha fikr bildirdi:

«Biz yurtimizning jamiki diniy yodgorliklarini tiklamoqdamiz. Zero, Ozarbayjon hududi qadimdan turli din va xalq vakillari tinch-totuv yashab kelgan zamin sanaladi. Kavkazning eng qadimiy cherkovi Ozarbayjonda, Sheka shahri yaqinidagi kichik qishloqda joylashgandan faxrlanamiz. Bu yil tiklangan qadimiy masjidlardan biri ham Ozarbayjonning Shamaxasida 743-yili qurilgan. Bokuda tarixiy o'tmishimizdan qolgan yodgorlik sifatida majusiylar ibodatxonasi saqlanmoqda. Vayron qilingan katoliklar cherkovi tiklandi, yahudiylar uchun sinagogalar qurilmoqda. Bularning bari jamiyatimiz ravnaqining, avvalambor, jamiyatimiz holatining ko'rsatkichi bo'lib, davlat siyosatining ko'rsatkichi ham sanaladi. Quvonarlısi shundaki, jamiyatimiz holati bilan davlatimiz siyosati yonma-yon bormoqda.

Diniy va madaniy bag'rikenglik – Ozarbayjon tomonidan olib borilayotgan siyosat bo'lib, biz uchun tabiiy hayot tarzidir. Yaqinda uchinchi marta o'tkazilgan Boku xalqaro gumanitar forumida diniy va madaniy bag'rikenglik qizg'in muhokama qilingan mavzu bo'ldi. Ozarbayjon ko'plab davlatlar tomonidan e'tirof etilgan diniy va madaniy bag'rikenglikning jahon miqyosidagi markazlaridan biriga aylangan. Biz aynan mana shu masalalarga alohida urg'u berib o'tmoqdamiz. Zero, ushbu mavzuga turlichayondashuvlar mavjud.

Taassufki, diniy va madaniy bag'rikenglik ayrim davlatlarda kor bermay, muvaffaqiyatsizlikka uchradi, de-

*«Diniy va madaniy
bag'rikenglik
– Ozarbayjon
tomonidan olib
borilayotgan
siyosat bo'lib,
biz uchun tabiiy
hayot tarzidir».*

gan fikr mavjud. Bu tashvishga soladigan juda yomon moyillikdir. Agar ish chindan ham shu ahvolga tushgan bo'lsa, u jiddiy muhokama mavzusidir. Ozarbayjonda esa, fikrimcha, o'z siyosatimiz va jamiyatimiz holati ila diniy va madaniy bag'rikenglik barhayot ekanligini isbotlab kelmoqdamiz. Chuqur ildizlarga ega, kelgusida bashariyat ravnaqi uchun yagona to'g'ri yo'l sanaladigan bunday bag'rikenglik yurtimizda tobora mustahkamlanib bormoqda. Chunki axborot almashinuvi, umuman integratsiya jarayonlari faol kechayotgan globalizatsiya davrida yakkalanib olish katta zarar keltiradi. Juhonning aksariyat davlatlari diniy va madaniy jihatdan bag'rikeng bo'lib, u yerlarda asrlar osha turli xalq va har xil din vakillari yashab kelishmoqda. Ular orasidagi do'stona, birodarlik munosabatlari – jamiki davlatlar ravnaqining asosi sanaladi... Musulmonlar, pravoslaviye cherkovi vazilari, katoliklar yoki yahudiylarga taalluqli bo'lsin, barcha tadbir va bayramlarda barcha diniy rahbarlar doimo bir dasturxon atrofida yig'ilib o'tirishadi. Bu ham, fikrimcha, yurtimiz qo'lga kiritgan katta yutuqlar sirasiga kiradi...»

Yevropada radikalizm va islomofobiya moyillik avj olayotgan bir paytda prezident Ilhom Aliyev 2016-yilni Ozarbayjonda «Multikulturalizm yili» deya e'lon qilgani bejiz emas. Ushbu terminning o'zi jamiyatimiz uchun yangi bo'lishi ham mumkin, albatta, lekin uning mazmuniga yurtimiz zaminida minglab yillardan buyon amal qilib kelinadi. Yaqingacha Cherkov va jamiyatning o'zaro munosabatlari sinoidal bo'limiga raislik qilib kelgan Vsevolod Chaplinning fikricha, «Ozarbayjon jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni o'rnatish masalasida hayratda qoldiradigan ichki qudratni namoyon etmoqda».

Bir necha yil muqaddam prezident devonida Ozarbayjon Respublikasining millatlararo masalalar, din va multikulturalizm masalalari bo'yicha Davlat maslahat-chisi lavozimi ta'sis etilgan bo'lib, unga Slavyan universiteti rektori, akademik Kyamal Abdullayev tayinlangan edi. 2014-yili tashkil etilgan Boku xalqaro multikulturalizm markazi (BXMM) qisqa muddat ichida turli ilmiy-amaliy konferensiylar, simpoziumlar, forumlar o'tkaziladigan, katta-katta loyihiilar hayotga tatbiq etiladigan nufuzli maydonga aylanishga ulgurdi. BXMM tashkil etilgan kundan bir necha oy o'tib-o'tmay, 2014-yil oktyabr oyida «Multikulturalizm bilan dastlabki tanishuv» va «Ozarbayjon multikulturalizmi» ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Shundan so'ng, noyabr oyida BXMM, ushbu fanlarni o'qitish borasida xorijdagi oliy ta'lim muassasalari bilan muzokaralar o'tkazishga kirishdi. Dekabr oyida esa kurslar faoliyati boshlandi. 2015-yilning mart oyida Rossiyada tashkil etilgan kurslarga start berildi. Bir necha kun o'tib Boku slavyan universitetida multikulturalizm kafedrasi ta'sis etildi. Ushbu kafedra hozircha dunyoda yagona hisoblanadi. Shu kunning o'zida Litva va Belorusda, ertasiga esa Bolgariyada tashkil etilgan kurslar start oldi. Bugungi kunga kelib, «Ozarbayjon multikulturalizmi» fani jahonning 10 ta davlatida o'qitilmoqda. Bu kamdan-kam uchraydigan hodisa, albatta. Chunki ushbu dasturlar asosiy mavzudan tashqari, xalqimiz gumanizmi, uning milliy-ma'naviy qadriyatları, yurtimizda hukm surib, Ozarbayjon brendiga aylangan diniy va madaniy bag'rikenglik muhiti haqida hikoya qiladi.

Yaqinda AQSHning «The Jewish Journal» nashri Milix Yevdayevning Ozarbayjondagi diniy bag'rikenglik an'a-

nalari haqidagi maqolasini e'lon qildi. Undan bir nechta iqtibos keltirib o'tmoqchiman:

«Ozarbayjon aholisining taxminan 95 foizi Islom diniga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 75 foizini shialar, qolgan 25 foizini sunniylar tashkil etadi. Ozarbayjon musulmonlari jamiyatiga uyg'un xilma-xillik xos bo'lga-ni, mazkur yurt hududida musulmonlar, yahudiylar va xristianlar o'zaro tinch-totuv yashashi, ushbu jamiyatni boshqalardan farqlab turadigan jihatidir. Ta'kidlab o'tmoq joizki, bu Islom dinining ikkita katta oqimi – sunniylar va shialarga ham taalluqlidir. Zero, ular Ozarbayjon hududida o'zaro uyg'unlikda yashab kelishmoqda.

Ko'plab boshqa islomiy davlatlardan farqli o'laroq, Ozarbayjonda mazhabparastlik, musulmonlar orasida adovatli ayirmachilik yo'q. Shia va sunniylar bu yurtda nafaqat birga namoz o'qishadi, balki quda-andachilik ham qilishadi, birga ishlashadi va misli ko'rilmagan bunday uyg'unlikdan zavqlanib yashashadi. Ozarbayjonda shia-sunniy nikohdan tug'ilgan bolalar juda ko'p. Diniy bag'rikenglik qadriyatları, dinlararo va din ichidagi o'zaro hurmat bizni hatto urush va bosqinchilik davrida ham himoya qilib kelgan. Tinch-totuv yashash tamoyillari Vatanimizni, ko'plab davlatlar va xalqlar orasiga singib kirib, ichdan putur ketkizadigan zo'ravonlikdan ham himoya qilgan.

Ozarbayjondagi yahudiy jamoalarida, xususan, tog'lik yahudiylarda ham, ashkenaz yahudiyalarida ham o'z diniy bayramlari va boshqa marosimlarini o'tkazish erki bor. Shialar ham, sunniylar ham xuddiy shunday, hech bir monesiz, o'z diniy bayramlarini o'tkazishlari mumkin. Bunday uyg'unlik pravoslaviye, katolitsizm, lyuteran va injilchi xristianlarga ham taalluqlidir. Ozarbayjonda sun-

niylar va shialar, yahudiylar va xristianlar orasida tuzilgan aralash nikohlar ko'p. Barcha din vakillari tinch-totuv yashashadi, oila qurishadi, do'st tutinishadi, birga o'qishadi, ishlashadi, o'zaro qo'shnichilik qilishadi.

Ko'plab yahudiy, xristian va musulmon diniga mansub atoqli rahnamolar jahonning asosiy dinlariiga e'tiqod qiladigan odamlarning tinch-totuv yashashi uchun shart-sharoit yaratish haqida uzoq yillardan buyon gapirib, ushbu masalada Ozarbayjon tajribasini misol tariqasida keltirishadi. Hatto bugun ham, Bokudagi tog'lik yahudiylar sinagogasiga chegaradosh bog'da choy ichib o'tirgan joyimda, atrofimdagи stollarda Ozarbayjonda yashaydigan turli din vakillari o'tirishdi. Ushbu manzara dinlararo mojarolarga to'la dunyoda ko'zga cho'g'day ko'rindi. Ozarbayjonda madaniy va ma'naviy tafovutlarni to'g'ri qabul qilib, tushunish me'yoriy ravishda kechadigan kundalik hayotning bir qismidir. Ushbu masala yuzasidan ko'p o'ylanaman, chunki AQS-Hda yashaydigan yahudiy do'stlarim bag'rikenglik muammolariga tez-tez duch kelib borishmoqda. Ta'kidlab o'tmoq joizki, zo'ravonlik holatlari Yevropada va boshqa davlatlarda hamon davom etib kelmoqda. Ko'chalarda sodir etilayotgan zo'ravonlikni ko'rib, madaniyatlararo ziddiyatlar haqida eshitib, o'zlarini qanday his etishayotganini tasavvur etyapman. O'z navbatida aytishim mumkinki, biz yurtimiz Ozarbayjonda umumiy diniy uyg'unlikning yangi modelini shakllantirmoqdamiz. Diyorimizda jahonning turli burchaklarida kechayotgan dinlararo achchiq bahslar yo'q. Umid qilamanki, dinlara-ro bag'rikenglik va o'zaro uyg'un, tinch-totuv hayot tarzi, biz yashayotgan bugungi dunyonи o'zgartirishi mumkin bo'lgan ijobiy model sifatida ko'rildi».

Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining Ozarbayjondagi diniy tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi Farmoyishi

Turli millat va e'tiqod vakillari azaldan tinch-totuv yashab kelayotgan Ozarbayjonda, multikulturalizm asrlar osha muqobili bo'limgan hayot tarziga aylangan. Mavjud milliy-madaniy xilma-xillik nafaqat xalqimizning madaniy jihatdan o'zaro boyib borishiga imkon yaratdi, balki yurtimizni xalqaro maydonda ko'p millatli, ko'p dinli o'lka sifatida tanitdi.

Respublikada faoliyat yuritayotgan jamiki diniy jama va tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli yig'ilgan boy tajribaning davomi sifatidagi madaniy xilma-xillikning ushbu muhiti bugungi kunda ham tablab darajasida muhofaza qilib borilmoqda. Ozarbayjon jamiyatida qaror topgan bag'rikenglik muhitining kuchayishi mustaqil davlatchilik ravnaqi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 32-bandiga amal qilgan holda, respublikada faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy holatini yanada yaxshilash maqsadida **qaror qilaman**:

1. Ozarbayjondagi diniy tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun Ozarbayjon Respublikasining 2016-yilgi davlat byudjetida ko'zda tutilgan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti ixtiyoridagi zaxira jamg'armaidan Kavkaz musulmonlari idorasiga 1,0 (bir) million manat, Rus Pravoslaviye cherkoviga qarashli Boku va

Ozarbayjon yeparxiyasining diniy tashkilotiga – 250,0 (ikki yuz ellik) ming manat, Boku shahri tog'lik yahudiylar diniy jamoasiga – 250,0 (ikki yuz ellik) ming manat, Yevropa yahudiylarining Bokudagi diniy jamoasiga – 100 (yuz) ming manat, Ozarbayjon Respublikasidagi Katolik cherkovining Apostol prefekturasiga – 100 (yuz) ming manat, Ozarbayjon Respublikasi Alban-udin xristianlarining diniy jamoasiga – 100 (yuz) ming manat ajratilsin.

2. Ozarbayjon Respublikasi Moliya vazirligiga, moliyalashtirish ishlari mazkur Farmoyishning 1-qismida ko'rsatilgan summa miqdorida ta'minlansin.

**Ilhom ALIYEV,
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti
Boku shahri, 2016-yil 5-iyul**

Fikrimcha, yuqorida keltirilgan Farmoyishni sharhlab o'tishga ehtiyoj yo'q. Boz ustiga, ushbu Farmoyish, o'xshash mazmunga ega birinchi hujjat emas. Xususan, 2014-yil 27-noyabr kuni Ozarbayjon prezidentining zaxira fondidan Diniy idoralar bilan ishlash bo'yicha davlat qo'mitasiga Ozarbayjondagi diniy jamoalarga moliyaviy yordam ko'rsatilishi uchun 2,5 million manat ajratilgan. Davlat qo'mitasining o'zi esa, mana besh yillardiki, yurtimizda faoliyat yuritayotgan qariyb 20 ta isolmiy bo'limgan diniy jamoaga mablag' ajratib boradi.

* * *

Yurtimizdagи ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, diniy va madaniy bag'rikenglik muhitining an'analari, iqtisodiyot sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, keng ko'lamli ma-

daniy loyihalarimizning hayotga tatbiq etilishi, Vatanimiz va uning poytaxti Bokuning ko'rkgiga ko'rк qo'shilib, qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgarib borayotgani – Ozarbayjonga xorijlik namoyandalarni jalb etmoqda. Bunguni kunga kelib Boku Madaniyatlararo dialog forumi, Boku xalqaro gumanitar forumi, Din rahnamolarining sammiti kabi nufuzli tadbirlar o'tkaziladigan xalqaro maydonga aylanib qoldi. 2016-yil 26 – 27-aprel kunlari Bokuda jami 140 ta davlat vakillari ishtirok etgan BMT sivilizatsiyalar alyansining VII Global forumi o'tkazildi.

Ushbu forum va sammitlarga sayyoramizning o'nlab eng nufuzli kishilari (amaldagi davlat rahbarlari, so'bq prezidentlar, Nobel mukofoti sovrindorlari, nufuzli xalqaro tashkilot va strategik markaz rahbarlari) tashrif buyurib, XXI asrning dolzarb muammolari va tahdidlari muhokama qilishdi.

Rossiya davlat gumanitar universiteti prezidenti Yefim Pivovar Bokuda o'tgan birinchi Xalqaro gumanitar forumning ahamiyatiga baho berar ekan, ushbu tadbirni kamdan-kam yuz beradigan hodisa, deb atadi. «Umuman aytganda, dunyoda fan va san'at taraqqiyoti bilan bog'liq muhokama maydonlari juda kam uchraydi, – ta'kidlab o'tdi Y. Pivovar. – Bir-biridan keskin farq qiladigan gumanitar nuqtai nazarlarning bunday sintezi noyob hodisa bo'lib, ilk bor Ozarbayjonda tashkillashtirildi».

«Ozarbayjon – gumanitar qadriyatlarni dunyoda ilgari surish tashabbuskoridir, – bayonot qildi yaponiyalik olim, IV Xalqaro gumanitar forum ishtirokchisi Katsuaki Sato, OZARTADJ agentligi muxbiriga bergen intervusida, – Osiyo bilan Yevropa tutashgan yerda joylashgan Ozarbayjon azaldanadolat va bag'rikenglik maskani bo'lib, bu yerda

har xil dinlarga e'tiqod qiladigan ko'plab millat va elatlar-ning vakillari yashab kelgan. Chuqur mazmunga ega ushbu omil Ozarbayjoni dunyoning boshqa davlatlaridan ajratib turadi». Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining dotsenti Andrey Avramenkoning fikricha: «Madaniyatlararo, sivilizatsiyalararo va dinlararo hamkorlik borasida boy tajribaga ega Ozarbayjon, bunday formatdagi tadbirlar o'tkazilishi uchun benazir joy sanaladi». IV Boku xalqaro gumanitar forumi ishtirokchisi, Nobel mukofoti sovrindori Robert Laflinning fikriga qaraganda, Boku xalqaro gumanitar forumi Ozarbayjonning nufuzi yanada o'sishiga omil bo'ladi. «Yosh mustaqil davlat tomonidan bu darajada katta tadbir o'tkazilishi fikrim dalili bo'lib, Nobel mukofoti sovrindorlari ishtirokida o'tayotgan bahslar ushbu tadbir ahamiyatini yanada oshiradi», – dedi u OZARTADJ agentligi muxbiriga bergan intervyusida.

Keng miqyosli ushbu tadbirlarning mazmun va mohiyati, forumlarda o'tayotgan qizg'in bahslar, tadbir nihoyasida qabul qilingan Boku bayonotlari va deklaratsiyalar haqida alohida kitob yozish mumkin. Biroq bulardan tashqari, biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, forumlarga tashrif buyurayotgan martabasi baland har qanday mehmon Ozarbayjonda kechayotgan osuda hayot, uning diqqatga sazovor joylari, Vatanimizning shiddat-la taraqqiy etayotgani, yurtimizda hukm surayotgan tinch va xayrixohona muhitni o'z ko'zi bilan ko'rib, tanishib ketadi. Bundan tashqari, forum ishtirokchilarini hamisha qutlab boradigan Ozarbayjon prezidenti mehmonlarni yurtimiz bilan tanishtirib o'tar ekan, Vatanimizning asosiy muammosi – cho'zilib ketgan Armaniston–Ozarbayjon Tog'li Qorabog'

mojarosi hamda xalqaro huquq me'yorlari va BMTdan tortib Yevropa kengashining Parlament assambleya-sigacha bo'lgan xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalarni pisand qilmay kelayotgan Armanistonning tajovuzkor siyosati haqida batafsil so'zlab beradi.

Ozarbayjon 2008-yili madaniyatlararo dialog uchun keng maydonga aylangan «Boku jarayoni» tashabbuskorি bo'ldи. Gap shundaki, Ozarbayjon Islom hamkorlik tashkilotiga ham, Yevropa kengashiga ham a'zo bo'lgan kam sonli davlatlardan biridir. Bokuda 2008-yili tashkillashtirilgan Yevropa kengashiga a'zo davlatlarning madaniyat vazirlari kengashiga Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning madaniyat vazirlari ham taklif qilingan edi. Ikkala tashkilotni ifoda etgan 100 dan ziyod vazir ilk bor Bokuda yig'ilishdi. Keyingi 2009-yili esa Boku Islom hamkorlik tashkiloti madaniyat vazirlarini yig'ib, Yevropa davlatlarining madaniyat vazirlarini ham taklif qildi.

«Ushbu tadbir «Boku jarayoni» degan nom oldi va mazkur tashabbus bizning ko'hna shahrimiz nomi bilan bog'langani juda yaxshi bo'ldi, biz bu bilan faxrlanamiz, - dedi prezident, 2016-yil 26-aprel kuni BMT sivilizatsiyalar alyansining VII Global forumida so'zga chiqib. - Bu jarayon tobora rivojlanib, qo'llab-quvvatlanib bormoqda. «Boku jarayoni» global tashabbusga aylanib, birdamlik, hamfikrlik va madaniyatlararo dialogning yuzaga kelib, mustahkamlanishiga hissa qo'shamoqda...»

Kunlardan bir kun rossiyalik jurnalist Ilhom Aliyevga Ozarbayjonda multikulturalizmning muqobili bor-yo'q-

ligi, bo'lsa qanday bo'lishi haqida so'rab qoldi. Shunda prezident quyidagicha javob berdi:

«Mantiqan fikr yuritadigan bo'lsak, multikulturalizmning muqobili ixtiyoriy ravishda yakkalanish demakdir. Bu jamiyat tomonidan turli din va xalq vakillari qabul qilinmagani va shu bois, ularni deportatsiya qilish, begonalashtirishni anglatadi. Bu betayin, hech qayoqqa olib bormaydigan, juda xavfli yo'ldir. Taassuski, bashariyat tarixida, jumladan, XX asrda ham, bunday yanglish siyosat va ta'bir joiz bo'lsa, jinoiy e'tiborsizlik yoki irqiy, etnik, diniy sovuqchilik elementlarini atayin singdirish oqibatlari kuzatilgan. Bu juda xavfli yo'naliish. Fikrimcha, gumanitar tavsifga ega xalqaro tadbirlar aynan Bokuda va albatta, boshqa joylarda ham o'tkazib borilishi, bizday fikr yuritadiganlar soni oshishiga, siyosiy namoyandalar orasida multikulturalizm barhayot, uni asrab-avaylash, himoya qilish, yanada kengroq targ'ib qilish kerak, deb o'ylaydiganlar soni oshishiga, jamoatchilik ongida bunday fikr keng tus olishiga omil bo'ladi. Chunki ba'zan, multikulturalizmga nisbatan siyosiy sovuqlikni jamoatchilikning multikulturalizmni qabul qilmasligi yuza-ga keltiradi. Jamoatchilikning multikulturalizmni qabul qilmasligiga esa, o'z navbatida, ezgulikni targ'ib qilish o'rniغا irqiy murosasizlik, nafrat va turlichalobiyalariga undaydigan ayrim ommaviy axborot vositalarining sa'y-harakati sabab bo'ladi. Bu juda xavfli yo'naliishdir. Asrlar osha diniy va madaniy jihatdan bag'rikeng, ko'p millatli, ko'p dinli yurt sifatida shakllanib kelgan Ozarbayjon uchun bunday xavfli yo'naliish – milliy xavfsizligimizga tahdid sifatida ko'rildi. Dunyoda qanday hodisalar bo'lib o'tishidan qat'i nazar, tabiiyki, biz o'z si-

yosatimiz, tashabbuslarimiz bilan Ozarbayjondagi multikulturalizmni mustahkamlab boramiz. Barcha dinlar va etnik guruhlarning yurtimizda yashayotgan vakillari o'zlarini yagona oilada, do'stlik, birodarlik va hamfikrlik ruhida yashayotganday his etishlariga harakat qilamiz. Biz uchun bu, takror aytaman, tabiiy hayot muhiti, milliy qadriyat bo'lib, uni hamisha himoya qilib boramiz...»

2013-, 2014- va 2015-yillarda Boku shahrida Ochiq jamiyatlarning I, II va III global forumlari bo'lib o'tdi. 2016-yil mart oyida o'tkazilgan IV Global Boku forumida esa ishtirokchilarning misli ko'rilmagan soni yig'ildi. Mehmonlar orasida 7 nafar amaldagi prezident, 27 nafar sobiq prezident va 23 nafar sobiq bosh vazirlar bo'lib, jami 53 ta davlatdan 300 nafar delegat ishtirok etdi.

Keng miqyosli bunday tadbirni tashkillashtirib o'tkazish imkonи rasmiy Bokuning qo'llab-quvvatlashidan tashqari, Nizomiy Ganjaviy xalqaro markazi bilan «Interaction Council», Madrid klubи, Aleksandriya kutubxonasi, Rim klubи, Butunjahon fan va madaniyat akademiyasi orasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik tufayli bo'ldi. Ha, aytgancha, Latvianing sobiq prezidenti Vayra Vike-Freyberg va Aleksandriya kutubxonasining direktori Ismoil Serageldin Nizomiy Ganjaviy xalqaro markazi hamraislardir.

Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev Global forum ishtirokchilari oldida so'zga chiqib, o'z nutqini yurtimizning siyosiy-iqtisodiy va energetika sohalarida erishgan yutuqlari hamda Armaniston–Ozarbayjon mojarosini hal etishga qaratilgan ishlар holatining tahliliga bag'ishladi.

«Bultur bahorda o'tgan uchrashuvimizdan keyin jahonda hukм surayotgan vaziyat o'zgardi. Biroq, afsuski, o'zgarishlar ijobjiy mazmunga ega bo'lmasdi, – taas-

suf-la ta'kidlab o'tdi prezident. – Nisbatan tinchroq, xavfsizroq bo'lism o'rniiga, jarayonlar yanada xavfli tus oldi. Mintaqamizdag'i vaziyat ham keskin o'zgardi. Mavjud mojarolar o'zining ijobi yechimini topmay, yangi mojarolar, adovat va tahdidlarning yangi mintaqalari yuzaga keldi. Binobarin, biz, ya'ni davlat va hukumat rahbarlari, siyosatchilar jahondagi keskinlik darajasini pasaytirish masalasida o'z rolimizni o'ynashimiz zarur, deb o'ylayman. Biz hamkorlik, hamfikrlik va o'zaro hurmat muhiti yuzaga kelishi uchun zamin yaratishga harakat qilishimiz kerak. Aks holda, vaziyat yomonlashib boraveradi.

Yaqin Sharqdagi va Yevropaning ayrim joylaridagi vaziyat, qochoqlar bilan bog'liq inqiroz so'nggi yillar voqeligidir. Binobarin, IV Global Boku forumida ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri, ayniqsa, ishtirokchilarining mavqe-martabasi, xalqaro masalalar yechimiga qo'shgan hissasi, bilim va tajribasi inobatga olinadigan bo'lsa, ushbu masalalarni muhokama qilishdan iboradir. Bularning bari qaror topgan murakkab vaziyatdan chiqish yo'llarini qidirib topishga omil bo'lishi mumkin.

O'ylashimcha, hammamiz mushtarak maqsad – hamkorlik, hamfikrlik, barqarorlik va tinchlik yo'lini rag'batlantirish maqsadi atrofida jipslashdik. Chunki biz o'zaro bog'langanmiz. Ba'zan kishiga, hammamiz televideniye orqali kuzatib borayotgan mudhish hodisalar boshqa sayyorada ro'y berayotganday ko'rinishi mumkin. Amalda esa o'sha hodisalar qo'shnilarimiz hududida kechmoqda. Qochoqlar bilan bog'liq inqiroz esa, biz o'zaro bog'liq ekanligimizning yaqqol dalilidir. Boshqa davlatning ichki ishlariiga aralashish tomon qo'yilgan har qanday qadam yoki aralashish holati ushbu amalni sodir

etgan davlat uchun muammolar tug'dirishi muqarrar. Bugungi voqelikdan olinadigan saboq shu bo'lishi kerak, deb o'ylayman. Bir-birimizga bo'lgan izzat-ikromni namoyon etishimiz, tanlagan yo'limiz, hududiy yaxlitligimiz va kelgusi rejalarimizga hurmat-la qarashimiz kerak. Bularning bari o'zaro aloqalar uchun zarur. Zero, asosiy maqsadimiz siyosiy keskinlik va mavjud tahdidlар darajasini pasaytirishdir...»

Ilhom Aliyevning fikricha, Ozarbayjon rivojlanishning juda noyob modelini namoyon etmoqda. Buni u 2016-yil 17-iyun kuni o'tgan iftorda ma'lum qildi. Prezidentimizning ro'zador mo'minlar bilan bir dasturxonda o'tirib iftor qilib borishi yaxshi an'anaga aylanib qolgan. Bunday iftorlarda Shayx-ul-Islom bilan birga Ozarbayjonning boshqa diniy rahbarlari ham ishtirok etishi ahamiyatlidir.

«Ozarbayjon asta-sekin dunyoga tanilib bormoqda, – dedi prezident o'sha kuni, – tanilib borgan sari, bugungi dunyoda, ya'ni ushbu geografik makonda zamonaviy bir davlat bo'lib, u o'z kuchiga ishonishi, taraqqiyot sari dadil qadam bosayotgani, barcha dinlarning erki va o'zaro tinch-totuv yashashini ta'minlayotgan qat'iy siyosat olib borayotganiga ahli jahon shohid bo'lmoqda. Binobarin, yurtimizda bu borada yig'ilgan boy tajribani butun dunyo o'rganib bormoqda. Bizni xush ko'rib, dalda berayotgan davlat va kuchlar yurtimizni yanada qo'llab borayotgan bo'lsa, badxoh dushmanlarimizning umidi puchga chiqib bormoqda. Chunki aksilozarbayjon kuchlar-u, badxoh dushmanlar ming chirсанасин, bizning siyosatimiz, shijoatimiz, muvaffaqiyatli kechayotgan taraqqiyotimizga salbiy ta'sir ko'rsata olishmadi».

ILHOM ALIYEV VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

«So'z erkinligini biz hamisha himoya qilib, qo'llab-quvvatlab boramiz...»

Ilhom Aliyev

Bugun biz haqiqiy oshkorralik, fikr-mulohazalarning turli-tumanligi hukm surayotgan, mustaqil va muxolif ruhdagi OAV faoliyat yuritayotgan zamonda yashamoqdamiz. Har bir siyosatchi, hatto hukumatning eng murosasiz muxolifi o'z nuqtai nazarini gazeta sahifalarida, axborot saytlarida ochiqdan-ochiq izhor qilishi-ga allaqachon ko'nikib qolganmiz, javoban bildirilgan mulohazalar va raddiyalar haqida esa gapirmasa ham bo'laveradi.

1998-yili Haydar Aliyev davrida ommaviy axborot vositalarida harbiy va harbiy bo'limgan senzuralarni bekor qilgan farmon imzolangan edi. Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar orasida OAVda senzurani bekor qilgan birinchi respublikalardan biri bo'lganmiz. Keyingi, 1999-yili Ozarbayjon Milliy Majlisi «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» Qonun qabul qildi. Ushbu hujjat xorijiy ekspertlar tomonidan sohaga oid eng ilg'or, novatorlik ruhidagi qonunlardan biri sifatida e'ti-

rof etildi. Haydar Aliyev OAVning vakillari bilan ko'p uchrashgan, ular duch kelayotgan qiyinchiliklar bilan qiziqqan, uchrashuv natijalariga ko'ra esa, nashriyot va bosmaxonalarga gazetalar gardanidagi ko'p millionli qarzlarining bahridan kechishi haqida ko'rsatmalar berib, unday qarzlarni o'z zimmasiga olgan.

Rahmatli Haydar Aliyev hamisha yagona bir tamo-yilga, u ham bo'lsa, OAV deb nomlangan imperiya ishlariiga mutlaqo aralashmaslikka doir to'g'ri va sog'lom sanalgan tamoyilga amal qilishni afzal ko'rghan. Zero, o'z fikrini ifoda etish erkinligi, u yoki bu ijtimoiy muammo-ga doir o'z nuqtai nazarini monesiz izhor etish imkoni – OAV uchun **mashaqqat-la qo'lga kiritilgan qadriyatdir**. Kishiga o'z fikrini izhor etish, ommaviy bahslarda o'z mulohazasini oqlash imkoni berilmay, og'ziga urilishi qanchalik og'ir bo'lishini Haydar Aliyev o'zining ach-chiq tajribasidan bilar edi.

Haydar Aliyev jurnalistlar bilan ochiq-oydin gaplashishga doimo tayyor bo'lgan. Davlat miqyosidagi eng muhim yangiliklarni aksariyat hollarda birinchi bo'lib uning og'zidan eshitar edik. Erkin, mustaqil matbuotning dunyoga kelish jarayonida kuzatiladigan nuqson-larga qaramay, Haydar Aliyevning fikricha, Ozarbayjonda davlat demokratik institutlarining rivoj topishida katta rol o'ynagan kuchli jurnalistlar armiyasi shakllangan. «To'rtinchi hokimiyat»ning ahamiyatini u yaxshi tushungan, rostakamiga professional, o'z sohasiga sodiq jurnalistlarni qadrlab, ularga ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatib borishga harakat qilgan. Keskin ohangda bitilgan u yoki bu maqolada haqorat qilingan bo'y sunuv-chi amaldor shaxslardan o'z davolarini sud instansiya-

laridan olish, matbuot bilan janjallashishni bas qilishni ko'p marta iltimos qilgan.

Prezident hech hazm qila olmagan yagona narsa – yolg'on va bo'hton bo'lgan. «Yolg'on-u bo'hton yozadigan darajada tubanlashmang. Haqiqatni yozing, faqat haqiqatni», – deya tayinlar edi u jurnalistlar bilan o'tgan har bir muloqotda.

* * *

Buyuk o'tmishdoshining ishi va an'analarini davom etar ekan, Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev erkin demokratik OAVga davlat ko'magini berib, rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni ichki siyosat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'radi. Ushbu bo'limda ko'p marta tilga olinadigan Matbuot kengashi binosini ochish marosimida (2010-yil 22-iyul kuni) dasturiy nutq bilan chiqqan prezident Ilhom Aliyev quyidagicha fikr bildirib o'tgan edi:

«So'z erkinligi hamisha har bir davlat uchun, uning ravnaqi uchun muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. So'z erkinligi, demokratiya rivoji, huquqiy davlat qurilishi – Ozarbayjonda o'ta muhim masalalar sanaladi. Fikrimcha, ushbu sohada bizning yurtimiz katta yo'lni muvaffaqiyat ila bosib o'tdi.

Bunga dalil bo'ladigan faktlar ko'p. Ozarbayjonda yuzlab mediaorganlar faoliyat yuritadi. Fuqarolarimiz 30 dan ziyod kundalik, 100 dan ortiq haftalik gazetalar, respublika miqyosidagi, ya'ni o'z dasturlarini yurtimiz hududiga translyatsiya qiladigan 8 ta telekanal, 14 ta mintaqaviy telekanal va Internet tarmog'i vositasida

dunyoda ro'y berayotgan hodisalarini bemaol kuzatib borishadi».

«So'z erkinligi hamisha har bir davlat uchun, uning ravnaqni uchun muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. So'z erkinligi, demokratiya rivoji, huquqiy davlat qurilishi – Ozarbayjonda o'ta muhim masalalar sanaladi».

O'z o'rnilida aytib o'tish lozimki, Ozarbayjonda o'tgan 5 yil ichida gazetalar, mintaqaviy telekanallar va Internet-kanallar soni bir necha barobar oshdi. Mazkur kitobning yuqoridaagi boblarida ta'kidlab o'tilganidek, Ilhom Aliyev zamona viy texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalarining rivojiga katta ahamiyat beradi. Uning ko'rsatmasiga binoan yurtimizning barcha maktablari, hatto olis qishloq maktablari ham kompyuter savodxonligi dasturlari joriy etilgan, barcha maktablar davlat hisobidan kompyuter texnikasi bilan jihozlangan bo'lib, Internet tarmog'i-

ga ulanish jarayoni izchil kechmoqda. Bugungi kunga kelib Ozarbayjonda Internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 70 foizdan oshdi. Janob prezidentning bevosita bergen ko'rsatmasiga binoan, Internetdan foydalangani uchun abonent to'lovining miqdori har yili kamayib bormoqda.

O'zining «Ozarbayjonni o'zgartirgan o'n yil» kitobida Ramiz Mextiyev qiziq bir faktni keltirgan. Xususan, u kitobining «Fursat va haqiqat» bobida tashqi siyosiy texnologlarning o'z «inqilobiy biznes»ini Ozarbayjonga har xil yo'llar orqali kiritishga, shu jumladan, Internet-texnologiyalardan foydalangan holda singdirishga qaratilgan befoyda urinishlari haqida hikoya qilgan.

Ushbu bobda R. Mextiyev prezident Ilhom Aliyev «qon to'kilgan hodisalarda Facebook va twitter tarmoqlari har xil ag'dar-to'ntar holatlar va barbod qiluvchi g'oyalalar dvigateli sifatida mash'um rol o'ynaganini bilgan bo'l-sa-da, ushbu ijtimoiy tarmoqlarni muhosara qilishga, o'z atrofidagi amaldorlar-u muayyan soha xizmati rahbarlari buni talab qilib turib olgan bo'lishiga qaramay, ijozat bermagan»ini ta'kidlab o'tgan.

OAVning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar tizimini amalga oshirib borish – prezident siyosatining sohaga oid yana bir ustuvor yo'nalishi sanaladi. Bunda, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tushunchasi OAV faoliyati ustidan olib boriladigan nazoratni kuchaytirishni yoki mayda-chuyda ishlarida ham yo'l-yo'riq ko'rsatib borishni anglatmaydi. Aksincha, quyida keltirilgan faktlar davlat tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordam birinchi navbatda, o'zinинг tahririyl siyosatini belgilashda mutlaqo erkin bo'l mish mustaqil va muxolif OAVni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishidan guvohlik beradi.

Jumladan, milliy matbuotimizning 130 yilligi munosabati bilan Ilhom Aliyevning farmoyishiga binoan 30 ta gazeta va axborot agentliklarining har biriga bir vaqtida 10 ming manatdan moliyaviy yordam ko'rsatildi. Ushbu ro'yxatni tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi: jami 30 ta gazeta va agentliklardan 17 tasi mustaqil, yana 9 tasi muxolif sanalib, faqat 4 tasini hukumat nashri, deb atash mumkin. Davlat yordamini olgan gazetalar ro'yxatida «Azadlig», «Yeni musavat», «Xalg jahhasi», «Turan» kabi muxolif nashr va agentliklar ham bor. O'xshash chora 2008-yili ham ko'rilib, qariyb 40 ta

mustaqil va muxolif OAVning har biriga prezidentning zaxira fondidan bir vaqtida 5 ming manatdan moliyaviy yordam ko'rsatildi. Milliy matbuotimizning 2010-yili nishonlangan 135 yilligi munosabati bilan esa, OAVga yanada keng ko'lamli yordam ko'rsatildi. O'sha yili prezidentning zaxira fondidan yurtimizning 32 ta yetakchi gazetasining har biriga 20 ming manatdan mablag' ajratildi, 8 ta axborot agentligining har biri esa, 10 ming manatdan rag'batlantirildi.

Janob prezidentning ushbu yo'nalishdagi navbatdagi qadami 2008-yil 31-iyulda qabul qilingan «Ozarbayjon Respublikasida OAVning rivojini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash konsepsiysi», shuningdek, ushbu konsepsiya muvofiq sobiq ittifoq makonida mutlaqo yangi organ – Ozarbayjon Respublikasi qoshidagi Ommaviy axborot vositalarining rivojini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash fondining ta'sis etilishi bo'ldi.

2009-yil 3-aprel kuni ta'sis etilgan ushbu Fond «Ozarbayjon Respublikasida fikr-mulohaza, so'z va axborot erkinligini rivojlantirish, OAVning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, axborot sohasida yangi turdag'i axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanishini rag'batlantirish, jamiyat va OAV o'rtaсидаги samarali hamkorlik doirasini kengaytirish, jurnalistlarning professionalligi va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy muhofazani kuchaytirish, davlat va jamiyatga molik, shu jumladan, OAVning faoliyati takomillashtirib borilishi, ravnaqi har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi ko'zda tutilgan dasturlar, joyihalar va shu kabi boshqa tadbirlarni moliyalashtirish»ni o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad sifatida e'lon qildi.

Faoliyati boshlanganiga bir necha yil bo'lgan, prezidentimizning tashabbusi bilan ta'sis etilgan ushbu Fond o'z zimmasiga olgan vazifalarni munosib bajarib kelmoqda. Mazkur Fond o'tgan vaqt davomida moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanib, jurnalistika sohasida ko'plab qiziqarli loyihalarni ro'yobga chiqara bilgan yuzlab jurnalistlar, o'nlab mustaqil OAVning sa-doqatli do'sti va yordamchisiga aylandi.

Moddiy yordam ko'rsatishdan tashqari, ushbu Fond OAV xodimlarining professionallik saviyasini, shuningdek, matbuotdagi axloq madaniyati, diniy va madaniy bag'rikenglik darajasini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlarni amalga oshirib, alohida xizmat ko'rsatgan jurnalistlarni har yili mukofotlab kelmoqda.

Aytgancha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan o'xshash fond yurtimizdagi nodavlat tashkilotlarga yordam ko'rsatish uchun ham ta'sis etilgan. 2011-yili asos solingan Ozarbayjon yoshlari fondiga esa Ozarbayjon prezidentining zaxira fondidan har yili yirik miqdorda mablag' ajratib boriladi.

Bundan tashqari, yurtboshimiz Ilhom Aliyevning far-moyishiga binoan ko'p qavatli turarjoy qurilishi uchun prezidentning zaxira fondidan 2010-yili 5 million manat ajratildi. 2013-yil 22-iyul kuni Milliy matbuot kuni nishonlanar ekan, 156 ta xonodon kalitini yashash sharoitini yaxshilashga ehtiyoj sezgan jurnalistlarga prezidentning shaxsan o'zi topshirdi. Jurnalistlar tomonidan ilgari surilgan ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan Ilhom Aliyev buni quyidagicha tushuntirish berdi:

«Aytishim mumkinki, bunday tashabbus jahon amaliyotida ilk bor ro'yobga chiqarildi. Ozarbayjon ushbu

sohada ham o'z yetakchiligini namoyon etganidan xur-sandman. O'zingiz bilasiz, jurnalistlik juda murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Aksariyat jurnalistlar o'z oylik maoshiga bunday uyda xonodon sotib olishi amrimahol. Shunday ekan, o'z sohasida yuksak professionalligini namoyon etib, uzoq yillardan buyon mehnat qilib kela-yotgan jurnalistlarni mukofotlash maqsadi ko'zlangan bunday tashabbus eng maqbul variant bo'ldi...

Tabiiyki, ushbu binoda xonodon olgan jurnalistlar orasida har xil matbuot organlari vakillari, turlicha si-yosiy qarashlarga ega odamlar bor. Mazkur tashabbus va o'tkazilgan taqsimot yana bir bor ko'rsatadiki, Ozarbayjonda biron-bir sohada bo'lsin, odamlarning haq-huquqini cheklash holatlariga yo'l qo'yilmagan, yo'l qo'yilmaydi ham. Shuning uning ham ishonamanki, ja-miyatimizda hamisha sog'lom muhit hukm suradi. Jurnalistlarning professionalligi, ularning jamoatchilik fikrini shakllantirish yo'lidagi sa'y-harakatlari ushbu muhitni yanada sog'lomlashtirib boradi...»

Bugungi kunda jurnalistlar uchun davlat hisobidan qurilayotgan ko'p xonali ikkinchi uy ham 2016-yil oxiri-da foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.

Jurnalistlarga qilingan yana bir prezident tuhfasi – jurnalistlarning asosiy ijtimoiy tashkiloti – Matbuot kengashining zamonaviy standartlarga javob beradigan yangi binosi buniyod etilganidir. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, OAV hukumat tomonidan bunday miqyosda qo'llab-quvvatlanishi sobiq ittifoq makonida hali uchramagan.

2010-yil 22-iyul kuni Matbuot kengashi rahbarlari oldidagi batafsil nutqida prezident Ilhom Aliyev

Ozarbayjon jurnalistikasi oldiga, Ozarbayjon OAV faoliyatining uzoq yillarga mo'ljallangan dasturi sifatida ko'rildigan bir qator jiddiy vazifalar qo'yib o'tdi.

Prezidentning fikricha, Ozarbayjon matbuoti o'z chiqishlari-da, avvalambor, zamonaviy, dunyoviy, jahon uchun ochiq, milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanadigan Ozarbayjon davlatining qurilish jarayonini qo'llab-quvvatlab borishi lozim.

Bundan tashqari, respublika matbuoti yurtimizning milliy manfaatlarni himoya qilishi, beg'araz va haqiqatgo'y bo'lishi kerak. Mustaqil matbuotning dastlabki yillarida kuzatilgan reket jurnalistikasi, puli oldindan to'langan buyurtma maqolalar, aslida muxoliflarni obro'sizlantirishga qaratilgan bo'lib, shubhali, tekshirib chiqilmagan materiallarni chop etish va shu kabi, bos-hqa turdag'i yaramas usullar, prezidentning fikricha, o'tmishda qolib ketishi shart.

OAVning barcha xodimlariga murojaat qilar ekan, prezident quydagicha fikr bildirib o'tdi:

«Bugun men, jurnalistlarning mas'uliyatiga doir o'z pozitsiyamni ma'lum qilib o'tmoqchiman... Jurnalistlar juda mas'uliyatli bo'lishlari kerak. Xolis qolish jurnalist uchun juda muhim pozitsiyadir. Media sohasidagi kelgusi rivojlanishni men, mustaqil medialar, ha, tom ma'nodagi mustaqil medialar kuchaytirib borilishida ko'raman. Negaki bizda, ushbu sohada, ayniqsa, nashriyot media-si faoliyatida hodisalarga siyosiy ruh berishga moyillik hozircha juda kuchli bo'lib qolmoqda. Ehtimol rivojla-

*Prezidentning
fikricha, respublika
matbuoti
yurtimizning milliy
manfaatlarni
himoya qilishi,
beg'araz va
haqiqatgo'y
bo'lishi kerak.*

nishimiz tarixining dastlabki bosqichida, Ozarbayjonda siyosiy tizim, siyosiy munosabatlar shakllangan davrda bunday holat ilojsiz bo'lgandir. Fikrimcha, media bugungi kunda rivojlanishi uchun siyosiy tus berish shiddati keskin pasayishi lozim, chunki Ozarbayjon jamiyatini siyosiylashmagan. Ozarbayjon jamiyatini vatanparvarlik ruhida shakllangan jamiyatdir. Bu jamiyat davlatga, davlat-chilikka ixlosmand siyosiylashmagan jamiyatdir. Jamiyatning sun'iy ravishda siyosatlashtirilishi bizni muvafiqiyat sari yetaklamaydi. Hamma narsa, shu jumladan, media ham tabiiy bo'lmos'hish darkor. Siyosiy buyurtma bo'yicha chiqish qiladigan organlar qancha kam bo'lsa, mediamiz shuncha kuchli bo'lib, boz ustiga, nufuzi oshib boraveradi».

Tashqi, odatda, yurtimizga nisbatan adovat ruhida yurgan kuchlar buyurtmasiga binoan tayyorlangan chiqishlarni prezidentimiz xush ko'rmaydi. Uning fikricha, «bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi... Ozarbayjonda muayyan tashqi doiralar buyurtmasi yoki ko'rsatmasiga ko'ra, ularning rejalariga asosan ma'lum bir mavzu atrofida jamoatchilik fikrini shakllantirishga urinish-larga tamomila barham berilishi shart. Ushbu masalada jurnalistlarimizni vatanparvarlikka da'vat etaman. Ozarbayjon allaqanday tashqi kuch va doiralar uchun qarshi kurashadigan maydonga aylanib qolishiga imkon bermasligimiz lozim...»

Prezident jurnalistlarni vatanparvarlikka, yurtimiz ko'p yillardan buyon, ayrim qo'shnilarining marhamati ila e'lon qilinmagan urushga jalb etilganini unutmaslikka da'vat etdi. Binobarin, butun jamiyatning, avvalambar, yoshlarimizning jangovar ruhini ko'tarib borishga

qaratilgan harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi chiqishlar bugun havodek zarur. Va bu yerda siyosiy konyuktraga o'rinn yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Prezident Armaniston-Ozarbayjon o'rtasidagi Tog'li Qorabog' mojarosi borasida Ozarbayjon matbuoti o'zining yagona pozitsiyasini namoyon etib, umummilliy manfaatlar nuqtai nazaridan chiqayotganligi uchun o'z mamnunligini izhor etdi. «Bu milliy masala, umummilliy masaladir. Bu masalada har qanday siyosiy manfaat chetga surib qo'yilishi lozim. Bu masalada hukumat-muxolifat munosabatlariga mutlaqo o'rinn yo'q. Ushbu masaladan hech kim shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanmaydi».

2012-yilning aprel oyida o'tgan hukumat yig'ilishlaridan birida Ilhom Aliyev yurtimizning axborot xavfsizligiga doir o'ta jiddiy masalani ko'tarib, ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'pligini ta'kidlab o'tdi.

Ozarbayjon Internet tarmog'iga ulanib, erkin foydalanadigan davlatlar jumlasiga kiradi. Ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni to'xtovsiz oshmoqda. Boz ustiga, prezidentimiz Aloqa va yuqori texnologiyalar vazirligi oldiga katta vazifa qo'ygan – keng yo'lakli Internet har bir qishloqda, har bir aholi punktiga yetib borishi shart. Birroq global tarmoqda Ozarbayjonga qarshi haqiqiy axborot urushi uyushtirilgan bo'lib, bunda, birinchi navbatda, arman lobbisi o'z faolligi ila ajralib turadi. Ozarbayjoni qoralab, qoloq, nodemokratik davlat sifatida ko'rsatish, ayniqsa, Yevropa o'yinlari yoki Yevrovideniye kabi jiddiy ahamiyatga ega hodisalar arafasida yurtimizni obro'siz-

lantirishga urinishlar eskidan bo'lgan, bo'lib kelmoqda. Bunda arman lobbisi va uning arzandalari ta'sir o'tkazadigan doira tor emas, ta'kidlab o'tdi prezident. Birinchidan, ular o'z chiqishlarini turli davlatlarning yetakchi nashr organlarida amalga oshiradi. Ikkinchidan, ayrim davlatlarning ko'plab siyosiy arboblari arman lobbisining ta'siriga giriftor bo'lib, uning sadaqasi hisobiga kun ko'radi. Shuni ham unutmaylikki, ayrim davlatlarda islomofobiya g'oyalari kuchayib, islomofobiya kasalligini «yuqtirib olgan» siyosatchilar soni oshib bormoqda. Bu haqda baralla gapirish va bunga qarshi kurash olib borish kerak, ta'kidlab o'tdi Ilhom Aliyev. Bugungi Ozarbayjon jamiki dunyoviy qadriyatlar uchun ham, islamiy qadriyatlar uchun ham ochiq yurt ekanligini ijobiy misol tariqasida keltirib o'tish mumkin.

*...global tarmoqda
Ozarbayjonga
qarshi haqiqiy
axborot urushi
uyushtirilgan bo'lib,
bunda, birinchi
navbatda, arman
lobbisi o'z faolligi
ila ajralib turadi.*

«Mustaqil siyosatimizni hazm qila olmaydigan kuchlar bor, albatta, – ochiqdan-ochiq bayonot qildi Ilhom Aliyev. – Olib borayotgan siyosatimizdan jahli chiqadi. Ular yangi imkoniyatlardan foydalaniib, axborot maydonida qo'poruvchilik bilan shug'ullanishga, yolg'on va tuhmatdan iborat ma'lumotlar tarqatishga urinishmoqda. Bugungi davrda matbuot nafaqat

axborot, balki ig'vo manbaiga ham aylanib qolgan. Taassufki, bu haqiqat... Shunday davlatlar borki, ularda har hafta emas, har kuni Ozarbayjonga qarshi noplak, quruq bo'htondan iborat maqolalar chop etiladi. Bunday siyosat, tabiiyki, o'zaro muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. Ammo unday siyosat hech qanday natijaga

ega bo'limgan va natijasiz bo'lgancha qolaveradi. Zero, biz olib borayotgan siyosatga ta'sir o'tkaza oladigan kuchlar yo'q va men ushbu lavozimda bo'lar ekanman, unday kuchlar hech qachon bo'lmaydi. Biz o'z yo'limizdan, mustaqillik, erkinlik yo'lidan boraveramiz!»

OAV vakillari, diasporalar va nodavlat tashkilot vakillari, Ozarbayjon dipkorpusi bilan uchrashuvlarda, prezident, axborot sohasida faol hujumkor siyosat olib borish, axborot makonida yurtimizga qarshi olib borilayotgan qo'poruvchilikka qarshi kurash olib borish, aksariyat hollarda esa buning oldini olish vazifalarini ular oldiga bir necha bor qo'yib kelgan. Ta'kidlab o'tmoq joizki, Ozarbayjon OAV ushbu vazifa ijrosini asosan uddalab kelmoqda.

* * *

Mustaqillik yillari davomida Ozarbayjon jurnalistikasi jamiyatni demokratik boshqarishning eng kuchli va harakatchan vositalaridan biriga aylandi. Bugungi kunga kelib Ozarbayjon OAVning vakillari o'nlab xorij yurtlarda ishlamoqda, Internet tarmog'ida o'z saytiga ega bo'lgan bosma va elektron shakldagi milliy OAV esa, o'z navbatida, Yer sharining eng olis mintaqalariga, deyarli butun jahonga Ozarbayjon haqidagi ma'lumotlarni tezkor yetkazmoqda. Misol tariqasida, dunyoning eng yirik axborot ittifoqlarida yetakchi o'rnlardan birini egallagan, butun sayyorada olib boriladigan yangiliklarga oid siyosat yo'nalishini belgilash masalasida muhim rol o'ynayotgan Ozarbayjon davlat axborot agentligi - OzarDAAning ko'p qirrali faoliyatini keltirish mumkin.

O'tgan yillar davomida OzarDAA o'zining xalqaro aloqalar ko'lamini sezilarli darajada kengaytirib, yurtimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va sport sohasidagi yutuqlariga oid axborotni global axborot negizlari-da keng ommalashtirib borish imkoniga ega bo'lmoqda.

2013-yil noyabr oyida Er-Riyoddagi IV Butunjahon yangilik agentliklarining kongressida o'tgan yashirin ovoz berish natijasiga ko'ra, OzarDAA 2016 – 2019-yillar davomida ushbu tuzilmaga raislik qilish, 2016-yil noyabr oyida tuzilmaning V Kongressini Bokuda o'tkazish huquqiga ega bo'ldi. Bunday Kongress har 3 yilda o'tkazilib, dunyoning barcha qit'alaridan 100 dan ziyod agentliklarni yig'adi.

Mazkur nufuzli tashkilot Byurosi tarkibiga «Associated Press», «Reuters», «France Press», «Press Association», TASS, «Saudi Press» kabi jahon miqyosidagi agentliklar, shuningdek, Yevropa, arab, Lotin Amerikasi, Osiyo yangiliklar agentliklaridan iborat tuzilmalar kiradi.

OzarDAA dunyoning 35 ta davlatiga qarashli 43 ta agentlikni o'z ichiga qamrab olgan Osiyo va Tinch okean (OANA) davatlari axborot agentliklari tashkilotining vitse-prezidenti sanaladi. 2016-yil noyabrida Bokuda V Butunjahon yangilik agentliklarining kongressi bilan bir vaqtida OANAning XVI Bosh assambleyasi rejalashtirilgan. Shundan so'ng, ushbu tashkilotga OzarDAA uch yil, ya'ni 2016 – 2019-yillar davomida raislik qiladi.

OzarDAA har yili OANA saytida qariyb 4 mingta yangilik, 700 ta videosyujet, 1600 dan ziyod fotosurat joylaydi. Ushbu tashkilotga kirgan deyarli barcha agentliklar OzarDAAning yurtimiz haqidagi axborotidan foydalanadi.

OzarDAA, shuningdek, Yevropa axborot agentliklari uyushmasi tarkibiga ham kiradi. Ushbu tashkilotga so-biq ittifoq respublikalaridan faqat uchtasi a'zo bo'lib, ulardan biri Ozarbayjondir. Mazkur nufuzli tashkilot tarkibiga butun Yevropa va jahonga axborot yetkazadigan jami 32 ta Yevropa agentligi kiradi.

Yurtimiz agentligi «Anadolu» (Turkiya), TAAS Rossiya), «Xinhua» (Xitoy), «Kyodo» (Yaponiya), ANSA (Italiya), TELAM (Argentina), «Bernama» (Malayziya) kabi dunyoning 40 ta agentligi bilan o'zaro axborot almashinuviga doir shartnomalar imzolagan. Bu jahon jamiyatini Ozarbayjonning ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y bergan so'nggi hodisalardan muntazam voqif qilib borish imkonini beradi. Bundan tashqari, OzarDAA yangiliklari o'z ichiga Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning 40 dan ziyod agentliklarini qamrab olgan Islom yangiliklari xalqaro agentligi tomonidan ham e'lon qilib boriladi.

OzarDAA har kuni yettita tilda (ozarbayjon, rus, ingлиз, fransuz, nemis, arab va xitoy tillarida) qariyb 350 ta yangilik e'lon qilib, beshta tilda videoyangiliklar ko'rsatib boradi. Bu esa Ozarbayjon milliy axborot agentligini mintaqadagi yirik onlayn mediatuzilmaga aylantiradi.

OzarDAAning faoliyati, moddiy-texnik bazasi boyitib borilishi yurt rahbariyatining diqqat-e'tibor markazidadir. Xususan, xalqimizning umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev va yurtimizning bugungi rahbari Ilhom Aliyev tomonidan OzarDAAning faoliyatini takomillash-tirish, moddiy ta'minotini yaxshilash, agentlik xodimlarini taqdirlab, yuksak unvonlar berish to'g'risida bir qator farmon va farmoyishlar chiqarishgan. Bunday

hujjatlar jumlasiga davlat rahbarining 1996-yil 26-iyundagi «Ozarbayjon davlat telegraf agentligining ishini yaxshilash to'g'risida»gi hamda 2000-yil 17-yanvardagi «Ozarbayjon davlat telegraf agentligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonlari kiradi.

* * *

Axborot qamalida qolish va respublikada sodir bo'la-yotgan jarayonlar haqida lom-lim demay yurish davri o'tib ketdi. Ozarbayjon jahon hamjamiyatining ko'z o'n-gida qanchalik ijobiy qiyofaga ega bo'lishi bugun o'zimizga, ya'ni adabiyot va san'at arboblari, diplomatlar va OAV vakillariga bog'liqdir. Ushbu jarayonning eng muhim pog'onalaridan biri – zimmasiga yosh davlatimizning axborot xavfsizligini ta'minlash vazifasi yuklangan mustaqil jurnalistika sanaladi. Prezidentimiz Ilhom Aliyevning Ozarbayjonda tom ma'noda erkin va mustaqil matbuotni shakllantirish bo'yicha jamiki sa'y-harakati aynan shunga qaratilgan.

KATTA SPORT – KATTA SIYOSAT

1 997-yili Milliy olimpiada qo'mitasi raisi bo'lgach, Ilhom Aliyev ommaviy sportni rivojlantirish bilan bir qatorda, yurtimizda olimpiada harakatini rivojlantirish sohasida ish boshladi. Natija, hech mubolag'a-siz aytish mumkinki, juda zo'r bo'ldi. Keling, faktlarga murojaat qilaylik.

1996-yilgi XXVI Olimpiada o'yinlari AQSHning Atlanta shtatida o'tib, unda 197 ta davlatdan jami 10 788 nafar sportchi ishtirok etdi. Ular sportning 26 turi bo'yicha 271 ta medallar to'plami uchun kurash olib borishdi. O'shanda Ozarbayjondan 4 nafar yengil atletikachi (Elvira Jabbarova, Arif Axundov, Vasif Asadov, Aleksey Fatyanov), 2 nafar yunon-rum kurashchisi (Vilayat Agayev va Tair Zaxidov), 6 nafar erkin kurashchi (Namig Abdullayev, Arif Abdullayev, Elshad Allaxverdiyev, Mamedsalam Gadjiyev, Magomed Ibragimov, Davud Magomedov), 2 nafar dzyudochi (Adalyat Mamedov, Ilhom Kerimov), 2 nafar og'ir atletikachi (Asif Melikov, Tofik Geydarov), qilichboz Elxan Mamedov, suzuvchi Emin Guliyev, suvg'a sakrovchi Emin Djabrailov, sportcha otuvchilar Iroda Ashumova va Sergey Timoxin ishtirok etishdi. Bu mustaqil Ozarbayjonning birinchi Olimpiada jamoasi bo'lib, kurashi oson kechmadi, albatta.

*1997-yili Milliy
olimpiada qo'mitasi
raisi bo'lgach,
Ilhom Aliyev
ommaviy sportni
rivojlantirish
bilan bir qatorda,
yurtimizda
olimpiada
harakatini
rivojlantirish
sohasida ish
boshladi. Natija,
hech mubolag'asiz
aytish mumkinki,
juda zo'r bo'ldi.*

Shunday bo'lishiga qaramay, Ozarbayjon jamoasi medalsiz qaytmadi. Kurashchimiz, ikki marta Yevropa championi Namig Abdullayev ishonchni oqladi. Amerikalik Lou Rassel, yaponiyalik Sasayama Xideo, o'zbekistonlik Adhamjon Ochilov, eronlik Gulamirza Magomedovni yengib, finalga chiqdi. Bolgariyalik lordanov bilan o'tgan kurashi juda og'ir kechib, raqib biroz kuchlilik qildi va Namig kumush medalli bo'ldi. Bu ozarbayjonlik kurashchilar tomonidan Olimpiada o'yinlarida qo'lga kiritilgan ikkinchi, mustaqil Ozarbayjon bayrog'i ostida erishilgan birinchi medal bo'ldi. Atlantada o'tgan Olimpiadada 23 nafar sportchi bilan ishtirok etgan Ozarbayjon jamoasi 197 ta davlat ichida 61-o'rinni egallab qaytdi.

2000-yil 15-sentyabrda Avstralaliyaning Sidney shahrida ochilgan XXVII Olimpiada o'yinlarida Ozarbayjon 9 ta sport turi bo'yicha 31 nafar sportchisi bilan mustaqil davlat sifatida ikkinchi marta ishtirok etdi. Dzyudo, boks, kurash, sportcha otish musobaqalarida sportchilarimizning chiqishlari muvaffaqiyatli kechdi. Ozarbayjon jamoasiga dastlabki medalni ayollar o'rtasida stendda otish musobaqasida ishtirok etgan Zemfira Meftaxetdinova olib keldi. U ishtirok etgan sport turi Olimpiada o'yinlari dasturiga birinchi daf'a kiritilgan edi. Sportning ushbu turida Zemfira ikkita rekord qo'ygancha, raqibidan uch-

ochkoga o'zib, Olimpiada championi bo'ldi.

Ikkinci oltin medalni yurtimizga Atlantadagi o'yinlarda kumush medal sovrindori bo'lgan Namig Abdullayev olib keldi. Guruh musobaqalarini muvaffaqiyatli yakunlagan Namig yarim final va final o'yinlarini ham yuksak darajada o'tkazdi. Finalda amerikalik sportchi Samyuel Xensonning kuragini yerga tekkizgan Namig Abdullayev Olimpiada championi unvoniga sazovor bo'ldi.

Ozarbayjon boksining solnomasiga ham birinchi Olimpiada medali yozildi. Uni yurtimizga 19 yoshli sportchimiz Vyugar Alekperov olib keldi. Sayyoramizning eng kuchli sportchisiga matonat-la qarshilik ko'r-satishiga qaramay, yarim final musobaqasida mag'lub bo'lgan yosh yigit Sidney Olimpiadasining bronza medali sovrindori bo'ldi.

Ikkita oltin va bitta bronza medalini qo'lga kiritgan Ozarbayjon jamoasi jami 80 ta medalchi-davlat ichida 34-o'rinni, Yevropa davlatlari orasida esa 23-o'rinni egalladi. Yurtimizdagি Olimpiada harakati tarixida bu eng katta muvaffaqiyat bo'ldi.

Afinada o'tgan XXVIII yozgi Olimpiada o'yinlarida Ozarbayjon Respublikasi 31 nafar sportchisi bilan ishtirok etdi. Yurtimiz o'z sporti tarixida birinchi mar'a beshta, xususan, bitta oltin, to'rtta bronza medalini qo'lga kiritib, musobaqada ishtirok etish sifati bo'yicha 75 ta medalchi-davlat ichida 50-o'rinni, medallar soni bo'yicha esa – 37-o'rinni egalladi.

Ozarbayjonlik yunon-rum kurashchisi Farid Mansurov Olimpiada championi bo'ldi. Otish musobaqasida ishtirok etgan Zemfira Meftaxetdinova bilan Iroda Ashumova, bokschilarimiz Agasi Mamedov va Fuad

Aslanov ham ushbu nufuzli musobaqalarda uchinchi sovrinli o'rirlarni egallashdi. Shuningdek, Afinada hakamlik qilgan yurtdoshlarimiz Oktay Guseynov (kurash) bilan Niftali Guliyev (boks) ham Olimpiadada munosib ishtirok etishdi.

Pekinda o'tgan 2008-yilgi Olimpiada o'yinlarida Ozarbayjon 10 ta sport turi bo'yicha 44 nafar sportchisi bilan ishtirok etdi. O'shanda Ozarbayjon yakuniy jadvalning 39-satridan joy oldi. Jami 7 ta medalni qo'lga kiritgan Ozarbayjon sovrinlar soni bo'yicha o'z rekordini qo'ydi.

2012-yilning yozgi Olimpiada o'yinlarida endi yurtimiz 15 ta sport turi bo'yicha 53 nafar sportchi (39 nafar erkak, 14 nafar ayol) bilan ishtirok etdi. Olimpiadada ishtirok etish tarixida bu eng ko'p sonli jamoa bo'ldi.

Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyevning farmoniga muvofiq oltin medal uchun mukofot 400 ming manatni, kumush medal uchun 200 ming manat, bronza medali uchun esa 100 ming manatni tashkil etdi. Ozarbayjon Milliy Olimpiada qo'mitasi esa oltin medal sovrindorini 200 ming, kumush medal sovrindorini 100 ming, bronza medali sovrindorini esa 50 ming manat bilan taqdirlashini e'lon qildi.

London o'yinlarida Ozarbayjon o'z tarixida birinchi marta og'ir atletika bo'yicha medal sohibi bo'ldi. Ummumay aytganda, Londonda o'tgan Olimpiada o'yinlarida 10 ta (ilgarigidan ham ko'p) medalni qo'lga kiritgan Ozarbayjon oltin medallar soni bo'yicha ham, medallarning umumiy soni bo'yicha ham oldingi, ya'ni 2008-yilgi Pekin Olimpiadasida erishgan yutuqlari darajasidan o'tib ketdi.

2014-yili Xitoyda, o'spirinlar orasida o'tgan Olimpiada o'yinlarida 5 ta oltin, jami 12 ta medalni qo'lga kirit-

gan Ozarbayjon jamoasi qariyb 200 ta ishtirokchi-jamoalar orasida 10-o'rinni egalladi.

Va nihoyat, Rio-de-Janeyroda o'tgan 2016-yilgi XXXI Olimpiada o'yinlarida 56 nafar sportchi bilan ishtirok etgan Ozarbayjon Respublikasi London Olimpiadasida qo'lga kiritgan yutug'ini deyarli ikki chandon yaxshiladi. Jami 18 ta medalga (1 ta oltin, 7 ta kumush, 10 ta bronzagaga) sazovor bo'lgan ozarbayjonlik olimpiadachilar, Rio o'yinlarida ishtirok etgan sportchilar soni nisbatiga ko'ra erishilgan medallar soni bo'yicha birinchi o'rinni egalladi. Buyuk Britaniyaning nufuzli «The Telegraph» nashri Ozarbayjon terma jamoasiga «2016-yilgi Olimpiada o'yinlarining eng zo'r jamoasi» deya nom berib, hech adashmadi.

* * *

«Katta sport» sohasida juda chiroyli g'alabalarga erishgan, xalqaro Olimpiada harakatiga muvaffaqiyatli qo'shila bilgan Ozarbayjon Olimpiada o'yinlariga mezbonlik qilish niyatida Xalqaro olimpiada qo'mitasiga ariza berdi. Bu vaqtga kelib yurtimiz iqtisodiy jihatdan ancha qudratli davlatga aylanib, rivojlangan sport infratuzilmasini bunyod etdi (o'tgan 10 yil ichida zamon talablariga javob beradigan qariyb 40 ta Olimpiada mazkaralarini qurib, foydalanishga topshirdi), sportning har xil turlari bo'yicha Yevropa va jahon championatlariga cha bo'lgan nufuzli xalqaro musobaqalar o'tkazish bora-sida katta tajriba to'pladi.

Ozarbayjon Milliy olimpiada qo'mitasi (MOQ) 2016-yil va 2020-yil Olimpiada o'yinlariga mezbonlik qilish maq-

sadida ikki marta ariza berdi. Ikkala holatda ham boshqa nomzodlar g'olib chiqqan bo'lishiga qaramay, MOQ tomonidan to'plangan tajriba juda katta foyda berdi.

2015-yili Olimpiada-2024 o'yinlariga mezbonlik qilish uchun ariza berilayotgan vaqtida Ozarbayjon tavakkaliga ish tutmaslikka ahd qildi. Chunki o'sha davr Olimpiadaga mezbonlik arizasini berish vaqtি emas edi. Gap shundaki, 2015-yilning yozida Bokuda qit'a tarixida birinchi marta Yevropa o'yinlari, 2017-yili esa IV Islom birdamligi o'yinlari (Islomiada-2017) o'tkazilishi kerak edi.

***Yevropa olimpiada
qo'mitasining
2012-yil 8-dekabr
kuni Rimda
o'tgan 41-Bosh
assambleyasida
birinchi Yevropa
o'yinlari 2015-
yili Bokuda
o'tkazilishiga doir
qaror qabul qilindi.***

Bokuda o'tkazilishiga doir qaror qabul qilindi. Mazkur Assambleyada Bokuning ko'rki va unda mavjud sport inshootlari namoyish etildi. YOQ prezidenti Patrik Xikki bunday o'yinlarni o'tkazish g'oyasiga doir ma'lumotlar berib o'tar ekan, ularni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida o'tkazish taklifini ma'qulladi. Natijada birinchi Yevropa o'yinlari Bokuda o'tkazilishiga doir YOQ Bosh assambleyasining qarori ko'pchilik ovoz bilan qabul qilindi, xususan, 48 nafar ishtirokchidan 38 nafari qaror tahririni ma'qulladi (8 kishi ushbu qarorga qarshi ovoz bergen bo'lsa, 2 kishi betaraf qoldi).

Ozarbayjon sporti tarixida yangi, chindan ham butun boshli davrni tashkil etadigan, ulug'vor va ayni vaqtida juda qiyin va o'ta mas'uliyatli sahifa ochildi. Gap shun-

daki, Yevropa o'yinlari o'tkazilishiga hozirlik ko'rish uchun atigi 2,5 yil ajratilgan bo'lib, ushbu vaqt ichida o'nlab sport obyektlarini modernizatsiya qilish yoki yan-gitdan qurishga, jamiki sport infratuzilmasi, Olimpiada qishlog'i, zamon talablariga javob beradigan matbu-ot markazlarini tayyorlash va shu kabi ko'plab ishlarni bajarishga ulgurish kerak edi. Ushbu O'yinlarda 16 ta turi Olimpiada dasturlariga kiritilgan jami 20 ta sport turi bo'yicha 6 mingdan ziyod sportchi ishtirok etishi kutilgan.

Nihoyatda qizg'in ishlar bajarilishi kerakligini te-ran anglagan Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev juda oqil qaror qabul qildi: 2015-yili Bokuda o'tkaziladigan birinchi Yevropa o'yinlarining tashkiliy qo'mitasiga rah-barlik qilish mas'uliyati, uning 2013-yil 17-yanvardagi farmoyishiga muvofiq Haydar Aliyev fondi preziden-ti, Ozarbayjon Milliy olimpiada qo'mitasi (MOQ) ijro qo'mitasining a'zosi, YUNESKOning ezgu niyat elchisi Mehribon Aliyevaning zimmasiga yuklandi.

Bir qarashda nozik ko'ringan ushbu ayol metinday iroda va yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgani hamda u boshqargan Qo'mita jamiki Ozarbayjon jami-yati tomonidan qo'llab-quvvatlanganidan ruhlanib ket-gani bois, ijrosi aksariyat yurtdoshlarimiz va xorijliklar ko'ziga mahol ko'ringan nihoyatda ulkan ishlar amalga oshirildi, ya'ni jamiki sport obyektlarini qurib, foydalanishga topshirish ishlari muddatidan oldin nihoyasiga yetkazildi, Yevropa o'yinlari rasman ochilguncha 35 ta sinov tadbirlarining bari o'tkazildi.

Shu bilan birga Mehribon Aliyeva va uning kam son-li jamoasi o'yinlarga hozirlik tadbirlarini yirik Yevropa

poytaxtlari – Rim, London, Parij, Afina, Ankara, Berlin, Moskva shaharlarida namoyish qilib bordi. Bularning bari yosh, mustaqil Ozarbayjon Respublikasining sport sohasida ham, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida ham qo'lga kiritgan yutuqlarining yorqin namoyishi bo'ldi.

Birinchi Yevropa o'yinlarining tashkiliy qo'mitasi raisi Mehribon Aliyevanining ushbu o'yinlarga hozirlik tadbirilarini Moskvada namoyish etish vaqtidagi nutqidan lavha:

«Tayyorgarlik uchun ixtiyorimizga atigi ikki yarim yil berilganiga qaramay, ushbu o'yinlarni yozgi Olimpiada o'yinlari darajasida o'tkazishni niyat qilganmiz. Buning uchun o'ta kuchli Tashkiliy qo'mitamiz barcha zaruriy ishlarni amalga oshirmoqda. Biz xalqaro sport tashkilotlari, Yevropa olimpiada qo'mitasi, xalqaro sport federatsiyalari bilan hamkorlik qilmoqdamiz. Ko'ngilli yordamchilar bizga juda zo'r yordam ko'rsatishmoqda. Ming-minglab Ozarbayjon yoshlari ushbu o'yinlarda ko'ngilli yordamchi bo'lish istagini bildirishmoqda. Atletlar qishlog'i bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ishonchim komilki, rossiyalik sportchilar ushbu qishloqda yashab, huzur ko'rishadi. Chunki biz musobaqaga tayyorgarlik ko'rish uchun ham, maroqli hordiq chiqarish uchun ham maksimal qulay shart-sharoitlar havola etishga harakat qildik. Media qishlog'i bilan ham faxrlanamiz. Mazkur tuzilma atayin media vakillari uchun bunyod etilgan bo'lib, eng qat'iy jahon standartlariga javob beradi. Yevropa o'yinlari 50 dan ziyod kompaniyalarda faoliyat yuritayotgan 1000 dan ortiq mahalliy va xorijlik muxbirlar tomonidan 100 dan ziyod davlatlarga yoritib boriladi.

Modomiki, birinchi Yevropa o'yinlarining mezboni bo'lar ekanmiz, tabiiyki, yurtimiz mehmonlari

Ozarbayjon haqida ko'proq bilib ketishlarini istaymiz. Mustaqil davlat sifatida respublikamiz hali yosh, biroq yurtimiz chuqur tarixiy ildizlarga, juda boy madaniyatga ega. O'zingizga ma'lum, Vatanimiz va uning poytaxti Boku shahri Buyuk ipak yo'lida, G'arb bilan Sharqning tutashish joyida bo'lib, qadimdan ko'plab xalq va elatlarning ruhi va madaniyatlarini o'ziga singdirib kelgan. Biz keng ko'lamli, juda qiziqarli madaniy dastur tayyorladik. Umid qilamizki, Ozarbayjonga tashrif buyurgan mehmonlar qadimiylarini va ayini vaqtida juda yosh yurtimiz haqida ko'p narsalarini bilib ketishadi. Yevropa o'yinlari boshlanishiga atigi 2 oy qolgan bugungi kunda, diqqat-e'tiborimiz so'nggi tayyorgarlik ishlariga qaratilgan. Lekin aytish mumkinki, bugun Boku jamiki Yevropani qarshi olishga tayyor. Biz hammamiz nihoyatda katta bayram – tinchlik, do'stlik va sport bayrami arafasida turibmiz. Ishonchim komilki, birinchi Yevropa o'yinlari birlik, birdamlik, sog'lom va adolatli raqobat ruhida o'tadi...»

Yevropa olimpiada qo'mitasining 2014-yil noyabr oyida Boku shahrida o'tgan 43-Bosh assambleyasida so'zga chiqqan Xalqaro olimpiada qo'mitasining raisi Tomas Baxning nutqi ham xuddi shunday nekbinlik ruhiga ega bo'ldi. Ozarbayjon prezidentiga murojaat qilar ekan, Tomas Bax quyidagicha fikr bildirdi:

«... Ozarbayjon sporti va jamiyatining ta'lilotining ravnaqiga ko'rsatayotgan e'tiboringiz tahsinga loyiqidir. Sportga oid investitsiya infratuzilma yaratilishi bilangina cheklanib qolmaydi, albatta. Ushbu investitsiya, tabiiyki, ta'lim sohasining ravnaq topishida muhim rol o'y-naydi. Siz olib borayotgan ish, sohaga qo'shayotgan his-

sangiz, umuman jamiyat rivoji, ta'lilot tizimini takomil-lashtirish ishlarining davom etishi va yanada samarali bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, yurtingiz sportchilari xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozonishiga, Ozarbayjonning xalqaro maydondagi nufuzi yanada mustahkamlanishiga ham omil bo'ladi...»

Xalqaro olimpiada qo'mitasining raisi kelasi yilda Bokuda birinchi Yevropa o'yinlari bo'lib o'tishi haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Bu yerda amalga oshirilgan ishlarni ko'rib, o'yinlar muvaffaqiyatlari o'tadi, degan xulosaga kelish mumkin. Birinchi Yevropa o'yinlari bo'lajak musobaqalarning katta tarixi bo'ladi. Ishonch-la aytishimiz mumkinki, sportchi atletlar Yevropa o'yinlarida yorqin natijalar ko'rsatishadi. Shuningdek, Ozarbayjonning birinchi xonimi, Tashkiliy qo'mita rahbari Mehribon Aliyevaga ham o'z minnatdorligimizni izhor etamiz. Yevropa o'yinlari munosabati bilan madaniy tadbirlarning nihoyatda boy dasturi tayyorlangani haqida kecha xabar topdik. Bu bizga, agar o'xshatib gapiradigan bo'lsam, g'ayrioddiy, misli yo'q huzur baxsh etadi. Sport musobaqalari bilan madaniy tadbirlarning uyg'unlashishi juda qiziqarli bo'lishiga aminman».

12-iyun kuni Bokudagi Olimpiada stadionida ochilib, 2 hafta davom etgan ulkan sport bayramini televideniye va Internet tarmog'i orqali jamiki jahoning millionlab sport ishqivozlari kuzatib borishdi. Ular ushbu bayram ko'rki va ko'lamiga, birinchi Yevropa o'yinlari yuksak darajada tashkillashtirib o'tkazilganiga munosib baho berishdi. Xorijlik sportchilar esa Ozarbayjon xalqining xushmuomalaligi va mehmondo'stligini o'z ko'zi bilan ko'rishdi, Ozarbayjon taomlarining tansiqligi, ko'rkmak Bokuning fusunkor jozibasi-yu maftunkorligiga shohid

bo'lishdi. Aksariyat mehmonlar Ozarbayjonni ko'zda yosh-la tark etishdi va hech shubha yo'qki, mazkur bayramdan so'ng, ular yurtimizning aziz mehmonlari sifatida, ona zaminimizga qayta va qayta kelaverishadi.

Yevropa o'yinlari yakuniga yetgach, «Kaspiy» gazetasida mazkur kitob muallifining «Biz buni uddaladik!» sarlavhali maqolasi chop etildi. Unda Yevropa o'yinlarini tashkillashtirib o'tkazgan Ozarbayjon tomonidan erishilgan muvaffaqiyatning tarkibiy qismlarini hamda ushbu bayram bilan yurtimiz sportining ravnaqi o'rtasidagi sababli-natijali bog'liqligini dona-dona qilib bayon etishga urinish bo'lgan.

«Intizor bo'lib kutish, hayajon va tashvishda yurish kunlari ham mana o'tdi-ketdi, qulqoni qomatga keltirgan tantanalar, sport sohasida erishilgan ulkan zafarlar, faxr va quvonch yoshlari, bir lahzadek ko'ringan unutilmas 17 kun orqada qoldi. Bularning bari tarixga aylangancha, yosh Ozarbayjon davlatchiligining solnomasiga zarhal harflar ila bitilgancha, mangulikka o'tib ketdi. Mana, birinchi Yevropa o'yinlari ham orqada qoldi...»

Soha ekspertlari, yurtimiz va jahon sporti arboblarri, har xil qit'alarda yashayotgan sport muxlislarining fikr-mulohazalarini tinimsiz iqtibos keltirish mumkin. Ularning bari yakdil baho berishmoqda – tinchlik, do'stlik va sport bayrami juda muvaffaqiyatli chiqdi! Yo'q, bu bayram kutilgandan ham ortiq bo'lib chiqdi. Zero, jamoalar orasida ikkinchi o'rinni egallashimiz, boshimizga oltin medallar yomg'iri yog'ilishi – yetti uxlاب tushimizga ham kirmagan orzu edi. Ozarbayjon sportchilari Yevropa qit'asida eng kuchli sportchilardan ekanligini, sportning

ayrim turlari bo'yicha esa, deyarli hech kim ularga bas kela olmasligini ko'rsatib qo'yishdi.

— *Sportchilarimiz ushbu yoshlik va salomatlik bayramida juda faol bo'lishdi. Darhaqiqat, ular bor kuchini sarf etib, ba'zan o'z imkoniyatlarini oxirigacha ishlatib, juda yuksak natijalarga erisha bilishdi. Buning uchun ularga rahmat! Fikrimcha, sportchilarimiz erishgan muvaffaqiyatga ona zaminimiz tafti, musobaqlarda hukm surgan xayrixohona muhit, sport shinavandalarining o'z oilasi bilan birga muxlislik qilgan yurtboshimiz rahbarligida qo'llab-quvvatlab borgani omil bo'ldi. Ozarbayjon prezidenti, uning rafiqasi, farzandlari, hatto jajji nabiralar sportchilarimizga muxlislik qila-yotganini ko'rishning o'zi g'aroyib tomosha bo'ldi. Musobaqa so'ngida esa Ilhom Aliyev bilan Mehribon xonim g'oliblarni oltin medallar bilan taqdirlash, sportchilarni o'z farzandlari-day ko'rib, bag'riga bosgancha, o'pib qo'yish uchun zalga chiqishdi. Ular 17 kun sportchilarimiz yonidan jilishmadi – bu juda katta gap!*

O'ylashimcha, bunday ulkan g'alabardan so'ng, yurtimizda sport ikki karra ommaviy hodisaga aylanishi kerak. Istaymizmi buni biz, yo'qmi, o'tgan kunlar davomida katta sport – katta siyosat ekanligini o'z ko'zimiz bilan ko'rib, amin bo'ldik.

tushadi, sport federatsiyalarimiz esa yangi iste'dodlurimizni qidirishga yanada zo'r beradi. Istaymizmi buni biz, yo'qmi, o'tgan kunlar davomida katta sport – katta siyosat

ekanligini o'z ko'zimiz bilan ko'rib amin bo'ldik. Bunday siyosat esa, o'z navbatida, o'z qoidalariga amal qilinishini taqozo etadi.

Bugun ayrim ishonmovchilar Yevropa o'yinlarini tayyorlab, o'tkazishga sarf etilgan mablag' miqdorini hisob-kitob qilishar ekan, savol berishmoqda: shuncha pul sarflashga arzigulik ish bo'ldimi o'zi? Mas'uliyat-la aytamanki, juda ham arzigulik ish bo'ldi! Ushbu hodisa yurtimiz nufuzini oshirib, jahonga chinakamiga mashhur qilib yuborganidan tashqari, moddiy jihatdan ham katta foyda keltirdi. Birinchidan, yurtimiz hududida qurilgan sport inshootlari O'yinlarning yopilish marosimidan so'ng, bug'lanib ketmay, Ozarbayjon zaminida qoldi. Endi MOQ oldida turgan birinchi navbatdagi vazifa – erishilgan muvaffaqiyatni mustahkamlash borasida Yoshlar va sport vazirligi bilan birgalikda qizg'in muzokaralar olib borish, ya'ni Ozarbayjonda keng miyosli yangi musobaqalar, kam deganda Yevropa va jahon championatlarni o'tkazish istagini bildirgan sheriklar va manfaatdor tomonlarni qidirish sanaladi. Bunday vazifa muvaffaqiyatli hal etilayotganidan xabarim bor – bizni «Formula-1» poygasi bosqichi, Islom birdamlik o'yinlari, Butun-jahon shaxmat olimpiadasi va shu kabi ko'plab boshqa tadbirdar kutmoqda. Bu uzoq yo'lning boshlanishi, xolos. Biz Bokuni, umuman, Ozarbayjoni qit'a va umumplane-ta miyosidagi musobaqalar kundalik voqelikka aylan-gan jahon sport poytaxtlari qatoriga qo'shishimiz kerak. Shunda stadion va sport qasrlarini qurishga sarf etilgan mablag' davlat byudjetiga ortig'i bilan qaytadi.

Yevropa o'yinlarining ikkinchi ijobiy tomoni, ushbu tadbirda 20 mingdan ziyod ko'ngilli yordamchilarning

ishtirok etgani, ularning uchdan ikki qismi Ozarbayjon fuqarolari bo'lganidir. Yurtimizning turli mintaqalaridan kelgan yigit-qizlarimiz ushbu kunlarda ko'p narsalarni, xususan, odamlar bilan chiqishimli bo'lish, sulukatli muomala tarzi, xorijliklar bilan muloqot qilish odobi, tezkor vaziyatda ishlash ko'nikmasini o'zlashtirib olishdi. Ularning ko'pchiligi ushbu o'yinlarda ishtirok etish uchun ingliz, rus va shu kabi boshqa chet tillarini yanada puxta o'rganib olishdi. Umuman olganda, Ozarbayjonda qo'l-lab-quvvatlaydigan qudratli kuch shakllanib, kelgusida o'xshash tadbirlarni tashkillashtirish endi ancha oson kechadi.

Yana bir ijobjiy natija: oddiy ozarbayjonliklarning sport tadbirlariga bo'lgan qiziqishi bir necha barobar oshdi. O'zim ham olti yoshli nabiram bilan turli-tuman musobaqalarni tomosha qilishga borib, fuqarolarimizning xatti-harakatlarini kuzatish imkoniga ega bo'ldim. Ular musobaqalarga butun boshli oila bilan kelib, odatta, oxirigacha o'tirishdi, odob qoidalaridan chiqmagan tarzda faol muxlislik qilishdi. O'z sportchilariga haddan ortiq ehtiros-la muxlislik qilayotgan chexlarga (yo nemislarga) qarab-qarab o'tirgan yonimdagи bir o'spirin menga murojaat qilgancha: «Xolajon, anavilar o'zlarini idora qila olishmas ekan-a?» – deb qoldi. Beixtiyor kulib yuborib, bolakayga muxlislar o'z jamoasiga dalda berish uchun stadionda ovozi boricha qichqirishi, hammasi baravar shior aytishi mumkinligini, shu bois, xorijliklarning bunday xulqi axloq doirasidan chiqmaganini tushuntirib o'tdim. Bir so'z bilan aytganda, biz behuda tashvish chekip, qayg'urgan ekanmiz: musobaqa namoyishgohlarida o'zaro xayrixohlik va sog'lom raqobat ruhi hukm surdi.

Yurtdoshlarimiz uchun esa, ushbu o'yinlar yaxshigina muxlislik maktabi bo'ldi.

Ba'zan stadion namoyishgohida yoki ekran qarshisida o'tirib, qo'limni chimdilab olgim kelar edi: qo'ysangiz-chi, nahotki bularning bari tush bo'lmasa? Nahotki bunday ulkan hodisa ona yurtimiz Ozarbayjonda kechayotgan bo'lsa? Nahotki biz buni uddalagan bo'lsak?

Ha, biz buni uddaladik – Yevropa o'yinlarini qayerda, qanday formatda o'tkazish kerakligi borasida 20 yil bahslashib, umumiy maxrajga kela olmay yurgan keksa Yevropaga haqiqiy sport bayramini tuhfa qildik. Biz mas'uliyatni o'z zimmamizga oldik – Yevropa sporti tarixida yangi sahifa ochdik. Bunday o'yinlarni tashkillashtirishning yuksak darajasini ko'rsatib qo'ydik. Endi davomchilarimizga oson bo'lmaydi. Qisqasi, biz qo'limizdan kelganini qildik, boshqalar, mayli, bizdan o'zib ketsin.

Yevropa o'yinlari bunday yuksak darajada tashkillashirilib o'tkazilgani Ozarbayjonning ijtimoiy-siyosiy va iq-tisodiy jihatdan ko'p narsalarga qodir ekanligini, jamiki tashkilotlarining faoliyati puxta kechishini, beto'xtov ishlaydigan prezident jamoasining yaxlitligi va hamjihatligini isbotladi. Ushbu O'yinlar xalqimiz safini yanada jipslab, milliy o'zligimizni, har bir fuqaromizning o'sha kunlari Ozarbayjon zaminida kechayotgan hodisalardan, ushbu hodisalarga daxldorligidan faxrlanish tuyg'usini hayron qolarli darajada kuchaytirib yubordi. Bunday birdamlik, bunday ittifoq ham birinchi Yevropa o'yinlarining o'ta ta'sirli ijobiy yakuni sanaladi.

Ozarbayjoni va birinchi Yevropa o'yinlarini badnom qilishga qaratilgan ayrim G'arb siyosiy doiralarining samarasiz kampaniyasi hech qanday natija bermadi. Ular

boykot qilishning ham, yorqin sport bayramining ahamiyatini kansitishning ham uddasidan chiqa olishmadidi. Qit'adagi barcha davlatlardan, shu jumladan, Armaniston dan tashrifbuyurgan 50 ta delegatsiya bunga ishonchli dalildir! Ha, sport bu katta siyosatdir. Biroq u – tinchlik, do'stlik va sport bog'lagan birodarlik siyosati sanaladi. Binobarin, unda siyosiy dastak va noplak soxtalikka o'rinn bo'lmasligi darkor. Bo'lgan taqdirda ham, jazolanganlar kursisidagina bo'lishi mumkin.

...Faxrimiz bo'lmish Olimpiada stadionidagi mash'alalar o'chdi. Iliq munosabatlarimiz, mehmondo'stligimizni ko'ngliga jo qilgan sportchilar o'z yurtlariga qaytib ketishdi. Ularning ko'pchiligi qaytib kelishga va'da berishdi. Darhaqiqat, ular qaytishadi. Zero, oldinda zabit etilmagan cho'qqilar turibdi. Bu esa, o'z navbatida, yengni shimarib, yana ishga kirishishni anglatadi. Oromni endi tushimizda ko'ramiz, xolos...»

* * *

«Birinchi Yevropa o'yinlari – Yevropa olimpiada qo'mitalarining faxr tuyg'usini uyg'otadigan kunlar bo'ldi», – dedi YOQ raisi Patrik Xikki 2015-yil 12-iyun kuni birinchi Yevropa o'yinlarining ochilish marosimida. O'yinlarning yopilish marosimida esa Xikki Ozarbayjon kelgusi Yevropa o'yinlarining standartlariga asos solganini ma'lum qildi.

2016-yil 21-yanvar kuni Lozannada Yevropa olimpiada qo'mitalari Ijro qo'mitasining navbatdagagi majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda Yevropa olimpiada qo'mitalari Ijro qo'mitasining qarori bilan «Boku-2015» birinchi Yevropa o'yinlari Tashkiliy qo'mitasining rahba-

ri, Ozarbayjonning birinchi xonimi Mehribon Aliyevaga Yevropada sportni rivojlantirish uchun qo'shgan alohida xizmati uchun Yevropa olimpiada qo'mitalarining oliv mukofoti – Oliy orden topshirildi. Ozarbayjonning birinchi Yevropa o'yinlarida g'olib chiqqan sportchilari, ularning murabbiylari va sport jamiyatni vakillari bilan 2015-yil 29-iyun kuni o'tgan uchrashuvda esa Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev Ozarbayjonda madaniyat, ta'lif, sog'likni saqlash va sport sohalarini rivojlantirish ishlarida samarali faoliyat olib borayotgani, Ozarbayjon xalqining madaniy merosini xalqaro miqyosda keng targ'ib qilgani hamda birinchi Yevropa o'yinlarini tashkillashtirish ishlarida ko'rsatgan fidokorona xizmati uchun Mehribon Aliyevaga «Haydar Aliyev» ordenini topshirdi. Va bu nihoyatda adolatli ish bo'ldi.

2015-yili erishilgan sport natijalariga bag'ishlangan marosimda (2015-yil 23-dekabr kuni) so'zga chiqqan Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev Yevropa o'yinlarining yakuni va umuman «katta sport»dagi ishlar holatiga quyidagicha baho berdi:

«Har bir yil nihoyasida sportchilarimiz bilan uchrashib, ularni taqdirlaymiz, har biriga yangidan-yangi muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Ushbu an'ana ko'p yillardan buyon davom etib kelmoqda... Sport sohasidagi yutuqlarimiz yildan-yilga oshib borayotganiga hammamiz guvoh bo'lib turibmiz. Qo'lga kiritilgan o'ljalar soni ham yil sayin ortib bormoqda. Xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan sportchilarimiz yurtimiz sha'nini ko'klarga ko'tarib kelishmoqda. Shu yilning o'zida ular xalqaro musobaqalarda jami 823 ta medalni qo'lga kiritishdi. Ulardan 321 tasi esa oltin...

Sportchilarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik ham yuksak darajada. Mashhur sportchilarimizning maishiy muammolari har yili hal etib borilmoqda. O'n yildan ziyod vaqt davomida sport mutaxassislariga davlat tomonidan xonodonlar havola etib borildi... Bugungi kunga kelib mashhur sportchilarimizning bari shinam xonodonlar bilan ta'minlangan. Modomiki, davlat yurt sportini rivojlantirib borishni niyat qilar ekan, ushbu jarayon bundan buyon ham davom etadi...

Yangi sport bazalari yaratib borilmoqda. Bugungi kunga kelib yurtimizning sport klublari va federatsiyalari o'z sport bazalarini yaratayotganidan juda mamnunman. Respublika mintaqalarida bir vaqtda 41 ta olimpiada markazlari bunyod etildi. Yana o'nta markaz qurilishi davom etmoqda. Ushbu loyihibar yakuniga yetgach, Ozarbayjonning har bir mintaqasida sport bilan shug'ullanish uchun barcha sharoitlar muhayyo bo'ladi. Aslida bunday sharoitlar allaqachon yaratilgan. Boku shahriga kelsak, bu yerda eng nufuzli xalqaro mусобаqalar o'tkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Yevropa o'yinlari buni yana bir bor tasdiqladi. Bokudagi yangidan bunyod etilgan va ta'mirdan chiqarilgan sport infratuzilmasi jahon andazalariga to'la-to'kis javob beradi. Mavjud sport inshootlari yuksak funksional bo'lishidan tashqari, me'moriy yodgorlik qimmatiga ham egadir. Biz atayin shunday qildik, sport inshootlarimiz ham go'zal poytaxtimiz ko'rkiга ko'rк qo'shib turishini istadik. Zamon talablariga javob beradigan sport bazalari, sport infratuzilmasi, sohaga oid to'g'ri siyosat, sportchilarimizga ko'rsatilgan g'amxo'rlik, hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar shunday bir holatni yuzaga

keltirdiki, bugun Ozarbayjon jahon miqyosida birinchi-lar qatoriga qo'shildi.

Bu yil Yevropa sporti hayotida tarixiy yil bo'ldi, ilk bor Yevropa o'yinlari o'tkazildi. Ozarbayjon davlati ushbu masalada ham o'z qudratini namoyish etdi. Atigi ikki yarim yil ichida yozgi Olimpiada o'yinlari saviyasida o'tkazilgan Yevropa o'yinlari tashkillash-tirildi. Darhaqiqat, bir yoqadan bosh chiqargan butun Ozarbayjon xalqi tom ma'noda birdam ekanligini ko'r-satib qo'ydi. Zero, bu tadbir umum-milliy masalaga aylanib, Yevropa o'yinlari birinchi bo'lib aynan Bokuda o'tkazilishi hammamizning zimma-mizga ulkan mas'uliyat yukladi.

So'nggi yillarda yurtimizni jahon miqyosida munosib ko'rsata bilyap-miz. Vatanimizning boy madaniyati, tarixiy merosi, Ozarbayjondagi bu-gungi voqelik ko'rsatilgan turli-tu-man tadbirlar, namoyishlar, ko'rgazma va konsertlar o'tkazildi. Biroq Yevropa o'yinlarining o'rni o'zgacha bo'lib, ona zaminimizga tashrif buyurgan minglab mehmonlar yurtimiz bilan yaqindan tanishib ketish imkoniga ega bo'lishdi. Olti mingdan ziyod sport-chi, mingdan ortiq murabbiy, turli yurtlardan tashrif buyurgan mehmonlar, sport mutaxassislari poytaxtimiz Bokuda qariyb uch hafta yashab, shahrimiz ko'rkini, xalqimizning mehmondo'stligini o'z ko'zi bilan ko'rishdi, Ozarbayjonning shiddat-la ravnaq topayotganiga shaxsan shohid bo'lishdi».

«Olti mingdan ziyod sportchi, mingdan ortiq murabbiy, turli yurtlardan tashrif buyurgan mehmonlar, sport mutaxassislari poytaxtimiz Bokuda qariyb uch hafta yashab, shahrimiz ko'rkini, xalqimizning mehmondo'stligini o'z ko'zi bilan ko'rishdi,

Ozarbayjonning shiddat-la ravnaq topayotganiga shaxsan shohid bo'lishdi».

Ozarbayjonning shiddat-la ravnaq topayotganiga shaxsan shohid bo'lishdi. O'yinlarni bundan-da yuksak darajada o'tkazib bo'lmasligi – mehmonlarning umumiy fikri bo'ldi. Musobaqalardagi ishtiroki nihoyasiga yetgan ayrim sportchilar yurtimizni tark etishni istamay ketishdi. Ular Olimpiada qishlog'ida qolishni xohlashdi. Chunki u yerda qaror topgan yoqimli muhit sportchi-mehmonlariga juda xush keldi. Zero, bunday muhit yuzaga kelishiga O'yinlarning yuksak darajada tashkillashtirilgani, sport obyektlarining zamon talablariga javob beradigan qiyofasi va Ozarbayjon xalqining mehmondo'stligi sabab bo'ldi. Bu unutilmas kunlar bo'lib, Ozarbayjon nimalarga qodir ekanini, yurtimiz mustaqilligi qayta tiklangan kundan endigina 24 yil o'tganiga qaramay, eng yuqori cho'qqilar ni zabit eta bilganini jamiki jahonga ko'rsatib qo'ydi.

Ayniqsa, sportchilarimizning muvaffaqiyatli chiqishlari bizni juda quvontirdi. Ozarbayjon jamoasi 50 ta olimpiada jamoalari orasida ikkinchi o'rinni egalladi. Birinchi o'rinni Rossiya jamoasi egallagani inobatga olindigan bo'lsa, bu tabiiy, albatta. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi. Binobarin, biz eng yuksak cho'qqini zabit etdik, deb hisoblayman. 21 tasi oltin bo'lgan, jami 56 ta medalni qo'lga kiritdik. Bu Ozarbayjon sportining katta yutug'i bo'ldi...

Bularning bari hammamiz erishgan yutuqlardir. Sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda qalblarimizni quvontirishmoqda, zamon talablariga javob beradigan infratuzilma bunyod etdik, yurtimiz Ozarbayjonda dunyoning eng nufuzli sport musobaqalari o'tkazilmoqda. O'n-yigirma yil muqaddam buning imkonи yo'q edi, o'shanda birov shunday kunlar kelishini aytganda, hech

kim ishonmagan bo'lar edi. Bugun esa bu ishlar hayotiy voqelikka aylandi. Hayotiy voqelikni esa siz-u biz yaratdik. Ozarbayjon davlati, yurti, xalqi yaratdi...»

2015-yilning o'zida Bokuda Shaxmat bo'yicha jahon kubogi o'tkazildi. Bundan tashqari, Ozarbayjon 2016-yilgi Butunjahon shaxmat olimpiadasini Bokuda o'tkazish huquqini qo'lga kiritdi. Ushbu sport turini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan yagona davlat bo'lmish yurtimiz mazkur sohada qo'lga kiritgan yutuqlari ila shaxmat bo'yicha eng yirik jamoalar birinchiligi ni o'tkazishga to'la haqidir. Qolaversa, Xalqaro shaxmat federatsiyasining (FIDE) Istanbulda o'tgan kongressida Ozarbayjonga bas keladigan raqib topilmadi. Chunki Sofiya bilan Tallin FIDE qo'yan talablarning barini bajara olmadi.

Bundan tashqari, 2016-yili Bokuda Formula-1 – Yevropa Gran-pri sinfiga mansub Avtomobil poygasi bo'yicha jahon championatining bosqichlaridan biri ham katta muvaffaqiyat-la o'tkazildi. Poytaxt markazida tayyorlangan trassaga hamda musobaqani tashkillashtirish saviyasiga sportchilar va soha mutaxassislari tomonidan yuqori baho berildi.

2017-yili ham Ozarbayjonda yana bir katta sport bayrami – Islom birdamlik o'yinlari bo'lib o'tadi. Ushbu o'yinlarni tayyorlab o'tkazish ishlari ham yuksak darajada bo'lishiga shubha yo'q. Chunki Tashkiliy qo'mitaga rahbarlik mas'uliyatini prezidentimiz yana yurtimizning birinchi xonimi Mehribon Aliyevaning zimmasiga yukladi. Kishi qobiliyati qanchalik kuchli bo'lsa, undan talab qilinadigan narsalar ham shunchalik ko'p bo'ladi.

KUCHLI YETAKCHI – QUDRATLI YURT YOKI ESKI ANDAZALARNING BARHAM TOPISHI

«**A**vvalambor aytishim joizki, prezidentlik hokimiyatini ham, qilayotgan ishlarmi ham xalqim oldidagi ulkan mas'uliyat, yurtim taqdiri uchun javobgarlik sifatida ko'raman. Prezidentlik joriy etilgan davlatlarda ehtimol bunday hokimiyat ikki karra mas'uliyatli bo'lishi kerakdir. Prezidentlik hokimiyati davlat rahbariga buniyod etish, barpo qilish, davlatni mustahkamlash, siyosiy yo'naliishlarni rivojlantirish, odamlar kun sayin yaxshi yashashi uchun tegishli choralar ko'rib borish imkonini beradi. Xalqim tomonidan berilgan vakolatlarni men aynan mana shu nuqtai nazaridan qabul qilib, katta mas'uliyat va yurt manfaatlari yo'lida ilgaridan ham ko'proq ishlarni amalga oshirish imkonи sifatida ko'raman. Shuni ham ta'kidlab o'tishim joizki, prezidentlik postida sakkiz yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsam, hokimiyatga doir tasavvurim o'zgarmas qolgan. Ushbu fikrimni prezidentligimning ilk davrida ham aytganman. Bugungi kunda esa prezidentlik hokimiyati haqidagi o'sha nuqtai nazarim yanada mustahkamlandi, xolos».

(Ilhom Aliyev)

Ota-onasi mashhur bo'lgan farzandlarning hayoti oson kechmaydi. Agar kishi o'z iste'dodi ila amal pog'onalarini bo'ylab ko'tarilsa, ilm-fan, adabiyot yoki san'at sohalarida muayyan cho'qqilarni zabit etishga erishsa, hech shubha yo'qki, bunda otasining (yoki onasining) obro'si-yu ta'siri rol o'ynamay qolmagan, deydigan odam topiladi. Agar ota bilan o'g'il biron-bir sohada teng kelib qolishsa, odamlar ikkalasini o'zaro solishtirib, ishlari ni tinimsiz tahlil qilgancha, qiyosiy baho berib borishadi.

Mana intervyusidan ko'p marta iqtibos keltirilgan Mixail Gusman ham Ilhom Aliyevdan o'z faoliyatida otasi Haydar Aliyevning maktabidan olgan qaysi saboqlardan ko'proq foy-dalanayotganini so'radi.

«Sanab o'tadigan bo'lsam, juda ko'p vaqt ketadi, – javob berdi Ozarbayjon prezidenti. – Har qanday kishi uchun ota eng yaqin, qadrdon kishidir. Otam men uchun cheksiz hurmat, ishonch va faoliyatiga qoyil qolib qaraladigan inson bo'lib kel-gan va shunday bo'lgancha qoladi. Zero, uning hayoti, kurashi, taqdiri, fe'l-atvorining barqarorligi ibrat ola-digan misoldir... Uning yonida bo'lish men uchun katta baxt bo'lgan. Chunki men undan bevosita, yonida turib saboq olganman, faoliyatini kuzatib borish, murakkab vaziyatda yonida bo'lish imkoniga ega bo'lganman. Bu-

*«...men undan
bevosita, yonida
turib saboq
olganman,
faoliyatini kuzatib
borish, murakkab
vaziyatda yonida
bo'lish imkoniga
ega bo'lganman.
Bularning bari,
shak-shubhasiz,
hayot maktabi
bo'lgan. Bu maktab
turli-tuman
jarayonlarga
cho'mish, hayot
saboqlarini
o'zlashtirish,
tengi yo'q tajriba
makatblidir».*

larning bari, shak-shubhasiz, hayot maktabi bo'lgan. Lekin ushbu maktabni oddiy maktab singari ko'rib bo'l-maydi, chunki unda an'anaviy ta'lim jarayoni bo'l-magan. Bu maktab turli-tuman jarayonlarga cho'mish, hayot saboqlarini o'zlashtirish, tengi yo'q tajriba maktabidir. Va turgan gapki, sanab o'tilgan saboqlar bilan bir qatorda, siyosiy oqillik maktabi hamdir. Zero, u tinimsiz ta'qib qilib, yanchib tashlashga uringan ulkan tizimga, apparatga yolg'iz o'zi qarshi turgan. Ozarbayjonga qaytib, har tomonidan hamla qilingan, parlamentda hushtakbozlik ko'tarilgan 1990-yili u yolg'iz o'zi qolgan. Vaholonki, oradan bir necha oy o'tib-o'tmay, o'sha parlamentning o'zi oyoqqa qalqib turgancha, unga qarsak chalgan. Bu larning bari mening ko'z o'ngimda bo'lib o'tgan. Yurtimizni alg'ov-dalg'ovlik, anarxiyadan olib chiqib, uni qudratli davlatga aylantira bilganining o'zi – ibrat maktabidir. Binobarin, u, ozarbayjonliklar xotirasida hamisha o'z o'rniiga ega bo'lib qoladi.

U mening otam, men uning o'g'li bo'lganimning o'zi katta omad. Otam bilan juda faxrlanaman. Bugun men olib borayotgan faoliyat otam boshlagan ishlar davomidir. Ishlar yangicha shakl kasb etgan, yangi tahdidlar paydo bo'lgan, dunyo o'zgargan, albatta. Lekin ma'no va mazmun o'zgarmagan. Bu oqilona siyosat, mardonavor siyosat, kerak bo'lsa, dadil siyosatdir. Agar qabul qilingan qaror to'g'ri ekanligiga ishonching komil bo'lsa, hech narsaga qaramay, uni ro'yobga chiqarish zarur».

Nima ham der edik, Ilhom Aliyev o'zining boshqa xislatlariga qo'shimcha ravishda, tabiatan kamtarligini ham ko'rsatgan munosib javob bo'libdi. Biroq shu narsa ham ayonki: Haydar Aliyevning xotirasiga cheksiz hur-

mat saqlashi, yurtimizning undan meros qolgan siyosiya va iqtisodiy rivojlanish yo'lini izchil davom etishi bilan bir vaqtda, Ilhom Aliyev qisqa vaqt ichida buyuk otasining soyasidan chiqib, mutlaqo mustaqil siyosiya shaxs ekanligini ko'rsata bildi. Uni nafaqat buyuk inson farzandi bo'lgani uchun, balki o'z ishi va mustaqil sa'y-harakati ila yetuk inson ekanini isbot qilgan yorqin, barkamol, chuqur ehtiromga munosib shaxs bo'lgani uchun ham hurmat qilish kerak.

Shaxsan men u yoki bu kitob muallifi bugungi prezidentni oldin o'tgan prezident bilan kezi kelsa-kelmasa solishtirib borishini unchalik yoqtirmayman. Garchi Ilhom Aliyevning o'zi ham bugun olib borilayotgan siyosat otasi asos solgan ishlar davomi ekanini ko'p marta ta'kidlab o'tgan bo'lsa-da, fikrimcha, uning gapi qisman to'g'ri, xolos. Bir nechta misol keltirib o'taman.

Prezidentlik faoliyatining boshida Ilhom Aliyev poytaxt trassalarini, ayniqsa, xalqaro aeroport, shahar tashqarisidagi kichik shaharchalar va nihoyat, prezidentning poytaxtdagi qarorgohiga olib boradigan Boku - Bina - Zagulba - Bilgya trassasini yangilab, kengaytirish ishlarini boshlagani yoshi katta avlodimizning sarosimaga tushgan ayrim vakillariga yoqmagan edi. Ularning so'zlariga qaraganda, Haydar Aliyev o'zi yoqtirgan yashil daraxtzorlar, aeroport yo'li bo'y lab o'sgan yuzlab, minglab qoraqarag'aylarni ildizi bilan qo'porib tashlashga

*...meros qolgan
siyosiya va iqtisodiy
rivojlanish yo'lini
izchil davom etishi
bilan bir vaqtda,
Ilhom Aliyev qisqa
vaqt ichida buyuk
otasining soyasidan
chiqib, mutlaqo
mustaqil siyosiya
shaxs ekanligini
ko'rsata bildi.*

yo'l qo'ymagan bo'lar edi. Axir u, umumshahar shanbaliklarda xalqqa qo'shilib, o'sha daraxtlarni o'z qo'li bilan ekkан. Shaxsiy uyi va savdo obyektini ushbu trassalar bo'ylab qurban odamlarning ommaviy ko'chirilishi-chi? O'shanda jamiyatimiz ongida nihoyatda katta tektonik o'zgarishlar yuz berdi, poytaxtimizning jamiki xo'jalik mexanizmi, butun boshli infratuzilmasi misli ko'rilmagan darajada qayta qurildi! Ochig'ini aytganda, hamma ham o'sha davrda yuz bergen o'zgarishlarning sur'ati va ko'lamini hazm qila olmadi, odatda, inqilobiy loyihalar amalga oshirilayotganda kuzatiladigan har xil gap-so'zlar, domangir vaysashlar tinmadi.

Xo'sh, oradan 10 – 12 yil o'tgach, qanday manzarani ko'ryapmiz bugun? Bokudan aeroportgacha va undan nariga sakkiz yo'lakli ajoyib yo'l yotqizildi. Aeroportga 15 – 20 daqiqaga qolmay yetib borish mumkin. Poytaxtdan rosa uzoqda joylashgan Absheron shaharchasi-ga esa, nari borsa 40 daqiqada yetib olasiz. Bundan 10 yil muqaddam-chi, ahvol qanaqa edi? O'sha davrda bugungiday mashinalar tirbandligi bo'lmay turib, poytaxt aholisi aeroportga bir yarim – ikki soat deganda, yo'l azobidan la'natlar o'qigancha, bazo'r yetib borar edi. Boz ustiga, ikki yo'lakli o'sha yo'l nihoyatda xavfli bo'lib, ko'pchilikning hayotiga zomin bo'lgan avtomobil halokatlari odatiy hol edi.

Yashil daraxtzorlar-u qoraqarag'aylarga kelsak, yo'l rekonstruksiyasi yakuniga yetgach, 3 ming hektar may-donga 3,5 million tupdan ziyod nihol ekilib, daraxtzorlar tomchilab sug'oriladigan zamonaviy sug'orish tizimlari bilan ta'minlandi. Prezident huzurida o'tkazilgan yig'ilishlardan birida esa, Ekologiya va tabiiy manbalar va-

ziri Guseyngul Bagirov ta'kidlab o'tganday, o'tgan 10 yil ichida respublikamiz hududidagi 103 ming gektar yer maydonida o'rmon tiklash ishlari amalga oshirildi, yangi o'rmonlar barpo etildi, 80 million tup (!) daraxt yetishirildi. O'rmon fondiga kirmaydigan hududlarda esa 20 million tupdan ziyod daraxt va buta o'simliklari ekildi.

Va nihoyat, trassa bo'ylab qurilgan uylar va savdo obyektlari buzilib, egalari ko'chirib yuborilganiga doir ma'lumot. Ta'kidlab o'tmoq joizki, u yerlardan ko'chirilgan odamlar orasida biron kishi norozi bo'lindi. Ham-maga yirik miqdorda moliyaviy badal to'landi...

Boshqa bir misolni olaylik. Ilhom Aliyev obyektiv sabablar tufayli neft shahri bo'l mish Absheronning iflos qiyofasini o'zgartirishga, Sovet ko'chasidagi faqirona mavzelarni buzdirishga, mash'um «Qora shahar»dan xalos bo'lishga erisha olmagan o'tmishdoshi Haydar Aliyev dan farqli o'laroq, katta mablag' sarf etilishini taqozo etgan yirik infratuzilma loyihiilarini qisqa muddatda amalga oshira bildi (gap shundaki, Haydar Aliyev dastavval markazdan respublika uchun har bir rubl talaшиб-tortishib olinadigan sovet rejalı iqtisodiyoti sharoitida, so'ng urush olovi qamragan, millatni omon saqlash masalasi – birinchi navbatda hal etilishi talab etilgan muammoga aylangan qashshoq Ozarbayjonda prezidentlik qilgan). Yurtboshimiz poytaxt qiyofasini, umuman yurt qiyofasini tanib bo'lmas

*Ilhom Aliyev
yurtimiz g'aznasiga
tusha boshlagan
«neft puli»ni
to'g'ri sarfladi,
Ozarbayjondagi
hayot darajasini
sifat jihatidan
keskin yaxshilab
yuborgan ijtimoiy
loyihalar va
infratuzilma
loyihalariga
yo'naltirdi.*

darajada, tamomila o'zgartirib bordi. Yuqorida aytganimday, Ilhom Aliyev yurtimiz g'aznasiga tusha boshlagan «neft puli»ni to'g'ri sarfladi, Ozarbayjondagi hayot darajasini sifat jihatidan keskin yaxshilab yuborgan ijtimoiy loyihibalar va infratuzilma loyihibalariga yo'naltirdi. Aynan mana shu xislati ila Ilhom Aliyev sovet boshqaruving eskirgan shakllariga odatlangani, ehtimol yoshi anchaga borib qolgani tufaylidir, nisbatan konservativ bo'lgancha qolgan oldingi prezidentimiz Haydar Aliyevdan farq qiladi.

Tashqi siyosat sohasidan ham bir misol keltiraman. Buni oldingi boblarda ham tilga olib o'tgan edim. Armaniston-Turkiya muzokaralari hamda AQSH va G'arb davlatlarining talabiga binoan, ushbu davlatlar o'rtasidagi chegaralar ochilish ehtimoli ko'pchilikning xotirasida saqlanib qolgan, albatta. O'shanda voqealarning bunday rivojiga qarshi bildirilgan e'tiroz sifatida Ilhom Aliyev nufuzli «Sivilizatsiyalar alyansi» sammitida ishtirok etishdan bosh tortdi. Ushbu sammit 2009-yil 6 – 7-aprel kunlari Istanbulda, AQSHning prezidentlikka endigina saylangan Barak Obama ishtirokida o'tishi kerak edi. Ma'lumki, sammit arafasida Ozarbayjon prezidentiga avval Turkiya Respublikasi bosh vaziri, so'ng Turkiya prezidenti qo'ng'iroq qildi. Natija bo'limgach, «qudratli artilleriya», ya'ni AQSH davlat kotibi Xillari Clinton ishga solindi. Ular Ilhom Aliyevni o'z ahididan qaytib, sammitga yetib kelishga ko'ndirish uchun rosa urinishdi, hatto AQSH davlati rahbari bilan yuzma-yuz uchrashuv uyushtirishni ham va'da qilishdi. Biroq Ilhom Aliyev taslim bo'lmadidi, Turkiya bosh vaziri Erdo'g'oni Bokuga uchib kelib, Qora Bog' mojarosi hal bo'limgan-

cha, Turkiya bilan Armaniston o'rtasidagi chegara ochilmasligi borasida odamlar oldida va'da berishga majbur qildi.

Shu tariqa, Ilhom Aliyev dunyoning yetakchi davlati bilan yo'lga qo'yilgan munosabatlar sovishi evaziga bo'lsa ham, milliy manfaatlarni himoya qildi. Bino-barin, men tashqi siyosatda yana o'sha obyektiv vaziyat tufayli bunday qat'iy choralar ko'ra olmagan Haydar Aliyevning idora qilgan davrni boz eslab o'taman. Haydar Aliyevning sobiq jamoasi a'zolari bilan o'tgan suhbatta prezident devonida bo'lim boshlig'i bo'lib ishlagan Shaxin Aliyevning quyidagi fikrini eslayman: «Rossiyani Yelsin boshqargan davrda Haydar Aliyevga munosabat juda xunuk bo'lgan. Bunday munosabat uning shaxsan o'ziga emas, davlatimizga bo'lgan munosabatlarda o'z ifodasini topgan. Xudoning bergen kuni chegara yopilib, qamal qilinar edik. Ammo geosiyosat degan tushuncha bor. Siyosatda esa shaxsiy his-tuyg'ularga o'rinn yo'q. Shunday ekan, Haydar Aliyev yurtimizning milliy manfaatlari yo'lida bunday munosabatlarga toqat qilar edi...»

Rossiya Armanistonga yashirinchalik 1 milliard dollarlik quroq-qurashga yetkazib bergani haqidagi yo'l qo'yib bo'lmash faktlar oshkor bo'lganidan so'ng ham, Haydar Aliyev Rossiya bilan munosabatlarni buzmaslikni afzal ko'rib, MDHning barcha sammitlarida, garchi ushbu bir-lashmaning yashashga qobil emasligini ko'rib turgan bo'lsa ham, binoyidek ishtirok etib boraverdi.

Bunda kitobxon meni to'g'ri tushunsin-u, Ozarbayjonning buyuk siyosatchisi tomonidan XX asrning 90-yillarida olib borilgan siyosat yo'nalishini yoki ko'rilgan u yoxud bu chorani shubha ostiga olmayman,

aslo. Aytmoqchimanki, geosiyosatda ota bilan o'g'il oldida har xil vazifalar turib qolgan. Binobarin, ushbu vazifalar ijrosiga yondashuv ham turlicha shakllarga ega bo'lgan.

Haydar Aliyevning qismatiga yurtni, millatni qut-qarish vazifasi yozilgan. Tarixan qisqa muddatda u yurtimizni siyosiy va iqtisodiy inqirozdan olib chiqishga, qonli urushga barham berish, hayotiy zarur bo'lgan islo-hotlarni boshlashga erisha bilgan.

Uning davomchisidan esa, Ozarbayjonning globalizatsiyalashib borayotgan dunyodagi o'rni va rolini bel-

gilash, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, axborot texnologiyalarida keskin ilgarilash va oxir-pirovardida yurtimizning davlat mustaqilligini mustahkamlash vazifalarini hal etish talab etilgan.

Muxtasar qilib aytganda, Haydar Aliyev millatni omon saqlab qolish vazifasini, Ilhom Aliyev esa – millatimiz jahon hamjamiyatining ko'z o'ngida o'zini namoyon eta bilishini ta'minlash vazifasini hal etgan. Nazarimda, ushbu asosiy vazifani bugungi yurtboshimiz o'zining ikkita presidentlik muddati ichida qoyilmaqom

qilib bajarishga erishdi.

Shogird qaysidir jihatni ila o'z ustasidan o'zishi yoki yanada olg'a ilgarilashi kerak, degan gap yuradi. Bu tabiiy, albatta. Zero, hayot bir yerda qotib turmaydi, kishi oldiga, butun jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalar, yanada qat'iy talablar qo'yib boraveradi...

*Muxtasar qilib
aytganda, Haydar
Aliyev millatni
omon saqlab
qolish vazifasini,
Ilhom Aliyev esa –
millatimiz jahon
hamjamiyatining
ko'z o'ngida o'zini
namoyon eta
bilishini ta'minlash
vazifasini
hal etgan.*

* * *

Prezidentlik davomida Ilhom Aliyev omma ongida shakllanib qolgan ko'plab eski andazalarga barham ber-
ganini kitobim boshida aytib o'tgan edim.

Masalan, o'sha 2003-yili ko'pchilik buyuk otasidan keyin ushbu ko'ngilchan, madaniy yigit respublikani boshqara olishiga, zarur bo'lganda o'z siyosiy ra'yini, vaz-minligi, qat'iyati va irodasini ko'r-sata bilishiga shubha ila qaragan edi. Ilhom Aliyevning favqulodda «ko'ngilchan»ligiga oid gap-so'zlarga uning ikkita «prezidentlik besh yilli-gi» batamom barham berib yubordi. To'g'ri, do'stlar bilan muloqotda u o'zini sofdil, madaniy do'st, muxoliflar bilan muomala qilayotganda vaz-min tabiatli ziyoli kishi kabi tutadi, milliy manfaatlarni himoya qilish jarayonida esa o'z qat'iyati va bukilmas irodasini namoyon etadi. Xiyonatni u umuman kechirmaydi. «Известия» gazetasining jurnalisti o'z maqola-laridan birida Ilhom Aliyev haqida quyidagilarni yozgan edi: «Uni bilgan odamlarning so'z-lariga qaraganda: u kamtarin, yaxshilikni ayamaydigan, juda marhamatli inson bo'lib, do'st bilan oxirigacha do'stlik qiladi, raqiblar bilan toqat-la hazillashadi, biroq u bilan ortiqcha hazil – haromdir».

Ilhom Aliyev o'z atrofiga sadoqatli jamoani yig'a bil-gan. Jamoasining bir qismi otasining yonida o'z ishbilar-monligi va ishonchligini isbotlab kelgan boshqarma xo-

*...do'stlar bilan
muloqotda u o'zini
sofdil, madaniy
do'st, muxoliflar
bilan muomala
qilayotganda
vazmin tabiatli
ziyoli kishi kabi
tutadi, milliy
manfaatlarni
himoya qilish
jarayonida esa
o'z qat'iyati va
bukilmas irodasini
namoyon etadi.*

dimlaridan tashkil topgan bo'lsa, qolgan qismi markaziy hukumat va mintaqalardagi asosiy lavozimlarga tayinlangan yosh, o'qimishli, istiqbolli amaldorlardan iborat. Prezident Vazirlar Mahkamasini amalda o'zi boshqaradi va bu unga vazirlik lavozimlariga ham nomzodlarni to'g'ri saralab tayinlashga imkon beradi. Har qanday kuchli yetakchida bo'lgani kabi, Ilhom Aliyevning atrofida ham hasadchilar, taassufki, xoinlar ham topiladi. Baxtimizga Ilhom Aliyev unday kaslarni o'z vaqtida fosh etib, jamoaning shubha ostiga olingan a'zolarini lavozimdan chetlashtiradi, birovga zarari yetmaydigan qilib qo'yadi. Ilhom Aliyevning prezidentlik davrida ovozasi ketgan iste'folar ham, poraxo'r amaldorlar ustidan sud jarayonlari ham bo'lgan. Ilhom Aliyev: «Bizda daxlsiz shaxslar yo'q», degan jumlanı takrorlab borishni juda xush ko'radi.

Prezident axloq me'yorlarini buzgan amaldorlarni tez-tez koyib, ularni ishda, jamoatchilik orasida, shaxsiy hayotda kamtarinroq bo'lishga da'vat etib horadi. «Davlat korxonasida ishlaydigan mansabdor shaxslar, katta-kichik amaldorlar – jamoatchilik nazaridagi odamlaridir, – dedi u Vazirlar Mahkamasining yig'ilishlaridan birida. – Ozarbayjoni ravnaq toptirish jarayonida u yoki bu qaror qabul qilinishida bevosita ishtirot etayotgan odamlar kamtar bo'lishlari, milliy ruhimizga muvofiq keladigan hayot kechirishlari lozim».

Prezident buni o'z bo'y sunuvchilaridan talab qilishga haqli. Boz ustiga, mansabdor shaxs ma'naviy-axloqiy me'yorlarga amal qilib borishiga doir masalada Ilhom Aliyevning shaxsan o'zi ibrat ko'rsatib kelmoqda. Xalq bilan, oddiy odamlar bilan muloqotda ko'ngli ochiqligi

haqida indamay qo'ya qolay. O'zi ham, rafiqasi Mehribon xonim Aliyeva ham bo'sh vaqt topilishi hamono, yurt tumanlariga yo'l olishadi, shahar ishchilari, qishloqliklar, tibbiyot xodimlari bilan tinimsiz muloqotda bo'lishadi, maktablar, yetimxonalar, institutlar, yangi ishga tushirilgan korxonalarga tashrif buyurishadi.

Bir necha yil muqaddam oddiy fuqarolardan uzoqlashib ketgan vazirlar bir gala tan qo'riqchilar-u kotibalar ortida bekingancha, o'z xizmat xonasidan chiqmay o'tirganini ko'rgan Ilhom Aliyev vazirlik va idora rahbarlari zimmasiga respublika tumanlariga tez-tez chiqib borib, joylarda xalq qabulini yo'lga qo'yish majburiyatini yuklagan edi.

Darvoqe, fuqarolar bilan bog'lanish masalasida ham yurtimiz prezidenti va uning devonini ijobiy namuna sifatida ko'rish mumkin. Prezident devonining u yoki bu xodimi fuqarolarni qachon va qayerda qabul qilishi haqidagi e'lонlar Ozarbayjonning rasmiy gazetalarida har oyda berib boriladi. Qabulga keladigan fuqarolarni ro'yxatdan o'tkazish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

O'z prezidentligi davomida Ilhom Aliyev yana bir eski andazaga, u ham bo'lsa, mayda davlat mustaqil siyosat olib bora olmasligi, agar urinib ko'radian bo'lsa, shu zahoti «qo'liga kaltak yeyishi»ga doir umumiy tushunchaga barham berdi. Ilhom Aliyevning tashqi siyosat bobidagi tashabbuslari pragmatizmga asoslangani, ko'p vektorli bo'lib, fikr ta-

*O'z prezidentligi
davomida Ilhom
Aliyev yana bir
eski andazaga, u
ham bo'lsa, mayda
davlat mustaqil
siyosat olib bora
olmasligiga
doir umumiy
tushunchaga
barham berdi.*

rozisidan obdan o'tkazilganligi natijasida dunyo bugun Ozarbayjon bilan hisoblashadi, unga hurmat-la qaraydi, Kaspiy bo'yи mintaqasidagi yetakchiligin tan oladi.

Yana bir gap. Bizda ko'pdan buyon bir fikr, u ham bo'lsa, yurt rahbari ishga boshi bilan sho'ng'ishi, dun-yoviy quvonch va lazzatlardan, shaxsiy hayot, bo'sh vaqt kabi tushunchalardan yiroqda bo'lishi kerak kabi fikr shakllangan. Ilhom Aliyev siyqasi chiqqan ushbu andazaga ham chiroyli qilib barham berdi. Zero, u hali navqiron, sport bilan shug'ullanadigan, sayohat qilishni xush ko'radigan, chang'ida uchmasa, avtomobilni bosh-qarmasa tura olmaydigan, kulgisi har qanday kishining zavqini keltiradigan, hazilni juda yaxshi ko'radigan zamонавиј одамдир. Tasarrufidagi jamoa a'zolariga dam olish imkonini berar ekan, tayinli vaqt kelganda o'zi ham ta'tilga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, tungi «avrallar» va ishni deb «o'zini qurbon qilish» davri, xayriyatki, o'tib ketdi. Prezidentimizning tashabbusi ila respublikamiz aholisi ko'plab qo'shimcha dam olish kunlariga ega bo'lib, katta bayram kunlari 5 – 7 kunlab xursandchilik qiladi.

Umuman olganda, umummilliy bunyodkorlik siyosati hamda farovonlik darajasi oshishi sharofati bilan Ozarbayjon xalqi orasidagi siyosiy ruhga ega kayfiyat ancha pasaydi, endi xalqni oq non bilan siylab, muxolifat mitingiga jazb qilib bo'lmaydi. «O'g'irda suv yanchmay, foydali ish bilan shug'ullanib, pul topish kerak», – dedi menga muxolifatning bugungi kunda tadbirkorlik bilan faol shug'ullanayotgan sobiq vakili.

* * *

Kunlardan bir kun Ilhom Aliyevdan nimaga ishqivozligini, dolzarb ishlar bilan uzoq o'tgan kundan so'ng, ruhiy jihatdan qanday hordiq chiqarishini so'rab qolishdi.

Ozarbayjon prezidenti qiziqib, ishqivoz bo'lgan asosiy, ehtimol, yagona narsa – o'zi muntazam shug'ullanib boradigan sportdir. Ruhiy jihatdan esa Ilhom Aliyev uyda, o'z yaqinlari, oilasi davrasida hordiq chiqaradi. «Bu masalada men aksariyat odamlardan farq qilmayman, – deydi prezident, – kechqurun uyda, oila davrasida bo'lismi dam olish uchun eng yaxshi vaqt, deb bila-man.

...Kechqurun ostona hatlab uyga kirar ekanman, agar biron-bir favqu-lodda vaziyat qaror topmagan, muhim qo'ng'iroq kutilmayotgan bo'lmasa, o'nlab yillardan buyon odat bo'lgan mutlaqo boshqa muhitga – oilaviy hayot muhitiga sho'ng'iymen. Ko'chadagi muammo, tashvish, kechinma, asabiy kayfiyatni uyga ko'tarib kelmayman, chunki o'z yaqinlarimni bunday narsalardan asrab avaylayman. Oilamizda bundan 20 – 25 yil muqaddam qanday xotirjam vaziyat hukm surgan bo'lsa, o'sha vaziyatni o'zgarmas saqlayman».

Ozarbayjon prezidenti qiziqib, ishqivoz bo'lgan asosiy, ehtimol yagona narsa – o'zi muntazam shug'ullanib boradigan sportdir. Ruhiy jihatdan esa Ilhom Aliyev uyda, o'z yaqinlari, oilasi davrasida hordiq chiqaradi.

Ilhom Aliyev o'z oilasi bilan faxrlansa arziydi. Zero, uning rafiqasi, yurtimizning birinchi xonimi Mehribon xonim Aliyevaning Ozarbayjon madaniyatini asrash, madaniy durdonalarini ko'paytirish borasidagi ko'p qir-

rali faoliyati xalqaro maydonda hurmatga sazovor bo'lib bormoqda, xayr-saxovat, sog'likni saqlash, ta'lim sohalidagi ta'sirli tashabbus va loyihalari esa ibrat olish mavzusiga aylangan. «Ayollarning madaniyatlararo dialogda tutgan o'rnnini kengaytirish» mavzusidagi Boku sammitidan keyin AQSHning «The Washington Times» muxbiri yozganday, «Missis Aliyeva – o'z xalqi, ayniqsa, yurt ayollari uchun ruhlantiradigan modelga aylangan».

Prezidentning ikkala qizi – Laylo bilan Orzu o'qimishli qizlar bo'lib, egallagan bilimlarini ona yurtimiz manfaatlarida qo'llashmoqda. Katta qizi Laylo onasining izidan borib, Haydar Aliyev fondining vitse-prezidenti, Rossiyadagi Ozarbayjon yoshlar tashkilotining raisi sifatida jamoatchilik faoliyati bilan shug'ullanmoqda. U Rossiyaning bepoyon hududida ilg'or, esda qolarli loyihalarni amalga oshirib, Rossiya va Buyuk Britaniyada nufuzli «Boku» jurnalini chop etmoqda, Xojali genotsidi haqidagi haqiqatni dunyoga yoyib bormoqda. Atrof-muhitni himoya qilishga doir xalqaro dialog tashabbuslarning (IDEA) ta'sischisi sanaladi. Bundan tashqari u ijodiy jihatdan iste'dodli qiz bo'lib, she'riyat sohasida qalam tebratish barobarida juda chiroyli rasmlar chizadi.

Prezidentimizning kenja qizi Orzu esa so'nggi ikki yil ichida ikkita juda ta'sirli kinoloyihaga prodyuserlik qildi. Uning «Asosiy nishon – Boku» deb nomlangan birinchi xalqaro loyihasi Gitlerning Boku nefti uchun olib borilgan jangda yutqazgani haqida bo'lib, jahonning o'nlab telekompaniyalari tomonidan namoyish etildi. «National Geographic» kanali orqali 3 kunlik premyerasining o'zida (2015-yilning 8-, 9- va 10-may kunlari) butun Yevropa bo'yicha 60 milliondan ziyod kishi tomosha qildi.

Orzu Aliyevaning ikkinchi kinoloyihasi Ozarbayjon Demokratik Respublikasida 1918 – 1920-yillarda ro'y berган мухим hodisalarga bag'ishlangan «Mangulikka safar» nomli hujjatli film bo'lди. Nazarimda, jahon miq-yosidagi ushbu film ozarbayjonlik ilg'or yoshlardan iborat mualliflar guruhi tomonidan suratga olingan birinchi hujjatli kino bo'lди. Ushbu film professional Ozarbayjon kinosi tiklangan yangi davrning boshlanishiga asos solsa, ajab emas.

Bir so'z bilan aytganda, Ozarbayjon prezidentiga bevosita yaqin doirani tashkil etgan ushbu go'zal ayollar nafaqat Ilhom Aliyevni ulug' ishlarga ruhlantiradigan kishilar, balki vatanparvarlikning, Vatanga bo'lgan beg'araz muhabbatning ta'sirli misoli bo'la oladigan ishlarning bunyodkorlaridir. Bu so'zlar ular uchun shunchaki chiroyli gap emas, balki hayotiy maslak, ta'bir joiz bo'lsa, turmush tarzi sanaladi. Binobarin, jurnalistning o'tmishdan kelajakka nimalarni olib o'tish kerakligi borasidagi savoliga javob berar ekan, dastavval insонning ma'naviy sifatlarini sanab o'tgan Ilhom Aliyevga 100% ishonasan kishi:

«Taraqqiyot jadal sur'atda kechayotganiga, ilg'or texnologiyalar bunyod etilib, globalizatsiya jarayonlari qizg'in tus olayotganiga qaramay, inson omili ma'naviy qadriyatlarsiz o'lchanadigan bo'lsa, bashariyat hech qachon rivojlana olmaydi. Biz robotlarning porloq kelajagi sari yo'l oлgанимиз yo'q. Biz bashariyat istiqboli, uning ravnaqi sari odimlamoqdamiz.

Minglab yillar davomida dunyoni ma'naviy qadriyatlар boshqargan, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Shu

bois, insoniy qadr-qimmat har qanday vaziyatda ham o'tmishda qolmaydi. Binobarin, andishalilik, insoflilik, odamlarga marhamatli bo'lish inson tabiatidagi hech qachon barham topmaydigan sifatlar bo'lgancha qolishi lozim.

«Insoniy qadr-qimmat har qanday vaziyatda ham o'tmishda qolmaydi. Vatanparvarlik tuyg'usi yurt taraqqiyotiga turtki beradigan asosiy omillardan biridir».

Vatanparvarlik tuyg'usi yurt taraqqiyotiga turtki beradigan asosiy omillardan biridir. Fikrimcha, aynan vatanparvarlik tuyg'usi yurtimiz ravnaqiga xizmat qiladigan asosiy sabablardan biri bo'lib, ona zaminimizdan faxrlanish, uni yaxshilash, yurt nomi yanada jarangdor eshitilishi, ko'rkiga ko'rк qo'shilishi uchun harakat qilishda namoyon bo'ladi. Nima qilgan taqdirda ham, Vatanni sevmay bo'lmaydi. Mana shu tushunchalarni, o'yashimcha, har bir taraqqiyparvar inson o'z qalbiga jo qilib olishi lozim».

...Ozarbayjon prezidenti 50 yoshga to'lishi arafasida, uning to'ng'ich farzandi Laylo 2011-yil dekabr oyida «Boku» jurnalining mazkur sanaga bag'ishlangan maxsus sonini chiqardi. Jurnalning ushbu sonida atoqli kishilarning – madaniyat arboblari, diplomatlar, siyosatchilarning tabriklari bayon etilgan. Ular Ilhom Aliyev bilan o'tgan uchrashuvlaridan qolgan taassurotlari, fe'l-atvorining xususiyatlari haqida so'zlab berishgan, prezidentning yurt manfaatlarida qilgan ishlariga baho berishgan. Lekin men mazkur kitobim qahramonining eng yaqin kishilari – farzandlari va rafiqasining mulohazarini keltirib o'tmoqchiman.

Laylo Aliyevaning tabrik maktubida quyidagi satrlar mavjud:

«O'z nomimdan shuni aytmoqchimanki, sizday otam borligidan juda baxtiyorman. Har bir kishining yaxshi xislatlari, fazilatlari, erishgan yutuqlari, ko'rsatgan xizmatlari bor, albatta. Lekin eng munosib, ijobiy, ulug'vor sifatlarning bari sizning tabiatingizda mujassam bo'lган. Oilamizga bo'lган cheksiz mehr-muhabbatingiz bizga ishonchli himoya ostida ekanligimizni his etish, xotirjam, ertangi kunga ishonch-la yashash imkonini bermoqda.

Olib borayotgan faoliyatingiz sharofati ila kundan-kunga gullab-yashnab borayotgan Ozarbayjonga bo'lган sadoqatingiz ko'pchilikni hayratda qoldirmoqda. Bugungi kunda Yer kurrasining turli burchaklarida yashaydigan odamlar poytaxtimiz Boku – dunyoda eng chiroli shaharlardan biri ekanligini tan olishmoqda. Adolatingizni yaqinlaringiz ham, boshqa odamlar ham his etishmoqda. Noto'g'ri qadam qo'yish yoki noinsoflik qilishga mutlaqo yo'l qo'ymaydigan olajanobligingiz hammani qoyil qoldiradi. Yurtimizni porloq kelajak sari mardonavor, qat'iy va dadil boshlab borayotganingizni ko'rgan har qanday siyosatchi havas qilishi mumkin!»

Mana bu tabrik so'zlari esa prezidentimizning ikkinchi qizi – Orzuga tegishli:

«Oilamizning har bir a'zosiga mehr ko'rsatib, orzu-havasi bilan qiziqasiz, hammamizni hamisha qo'llab-quvvatlashga tayyorsiz. Sizning o'gitlaringiz men uchun juda qadrlı bo'lib, mehringizni his etishdan nihoyatda baxtiyorman. Oyim ikkalangizning munosabatingiz men uchun ibratdir. Oila qurbanlaringizdan buyon ko'p yillar

o'tgan bo'lishiga qaramay, o'zaro hurmat va muhabbatningiz tobora kuchayib bormoqda. Men ham do'stlik va muhabbat poydevorida qurilgan mana shunday oilam bo'lishini istayman. Dadajon, doimo sog' bo'ling, yuzingizdan tabassum arimasin. Zimmangizga nihoyatda og'ir mas'uliyat yuklangan, shuning uchun imkon qadar dam olib boring. Rejalaringiz, orzu-havaslarining bari ro'yobga chiqishini, yurtimiz Ozarbayjon yanada qudratli, yanada ko'rakam bo'lishini tilayman».

Prezidentimizning eng kenja farzandi, buyuk bobosining adashi Haydar Aliyev o'z tabrigini erkakchasiga lo'nda va ayni vaqtda ta'sirli ifodalagan:

«Dadajon! Sizni juda yaxshi ko'raman. Tug'ilgan kunningiz bilan tabriklayman. Barcha ishlaringizda omad tilab qolaman. Doimo sog', navqiron, kuchli bo'lib yurishingizni istayman. Men ham sizni quvontirib yurishga harakat qilaman. Katta bo'lsam sizday bo'lish mening yagona orzuimdir».

Prezidentimiz shaxsiga keng ko'lamli tavsifni, uning sadoqatli turmush o'rtog'i Mehribon Aliyeva bergen ko'rinadi. Uning tabrigidan katta bir iqtibos keltirib o'taman: «Uning (Ilhom Aliyevning – E. A.) g'ururi, sarbastligi, favqulodda aqlliligi, zakovati, shijoati, kuchli ruhi, g'oyat zo'r ish qobiliyati, hayotiy tamoyillaridan og'masligi tahsinga loyiqdir. Ezgulikka intilishi, samimiyligi va sofdilligiga ham qoyil qolmaslikning iloji yo'q.

U bilan bo'lish hamisha qiziq. O'zining har qanday tashabbusini shu qadar berilib ro'yobga chiqaradiki, beixtiyor qo'shilib ketasan. Qancha qurmasin, barpo etmasin, baribir kamday ko'rinadi ko'ziga. Yurgan yo'lida hozirning o'zida, joyida bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni

topib yuradi. Bunyodkorlik g'ayratiga to'lib-toshib, o'z g'oyalarini atrofdagilarga o'tkaza biladi.

Doimo o'zgarmas qolib, o'z atrofida samimiylit va xayrixohlik muhitini yarata biladi. Maddohlik va yasa-malikning har qanday shaklidan nafratlanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning ketidan mutlaqo boshqa-boshqa odamlar ergashishadi.

Ilhom Aliyev hamisha o'z tamoyillari-yu oliv maqsadlariga sodiq qoladi. Uning hayotiy faoliyatida, Vatan manfaatlaridagi xizmatida murosaga kelishish, til biriktirish kabi tushunchalarga o'r'in topilmaydi. Yurt va xalq manfaatlarini shak-shubhasiz ustuvor ko'radi.

Nazarimda, inson qalbida o'z sa'y-harakatlarining idealistik va axloq-odob bilan bog'liq sabablari bo'lmasa, u olib borayotgan biron-bir siyosat ro'yobga chiqa olmaydi. Bunday sabablar har bir siyosatchining yuragida bo'lib, matbuot vakillariga yoki rasmiy tarjimai holini yoritadigan mutaxassislarga bergen bayonotlarida emas, amalga oshirgan muayyan ishlari va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Binobarin, Ilhom Aliyevning davlat arbobi sifatidagi aniq tavsifini uning yillar davomida bajara bilgan ishlarida ko'rish mumkin. Qilgan ishlarining ko'lami-yu hajmi kishini hayratda qoldirib, zo'r taassurot tug'dirsa, mehnatda ko'rsatayotgan fidokorligi, tutgan yo'li to'g'ri ekanligiga imoni komilligi, e'tiqodi tahsinga loyiqidir.

Har qanday kasb, har qanday faoliyat inson tabiatida iz qoldiradi, albatta. Yurtga rahbarlik qilishday davlat faoliyati – o'ta katta mas'uliyat, bor kuch va shijoatni safarbar etish demakdir. Amalda esa bu qizg'in ish jadvali, tinimsiz parvozlar, mashinada uzoq yo'l bosish, bit-

mas-tuganmas uchrashuv va tadbirlarda ishtirok etishni anglatadi. Har kuni bir qator qarorlar qabul qilib, yangi vazifa va maqsadlarning umumiy mazmunini belgilaydi. Ushbu qaror va vazifalarning har biri juda muhim, ba'zan yurtimiz taqdiriga ta'sir o'tkazadigan ahamiyatga molik bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, prezidentdan har qanday tahdid va murakkabliklarga qarshi turib, yagona to'g'ri yo'lni tanlay bilishni taqozo etadi.

Bunday faoliyat olib boradigan kishiga o'z samimiya-ti va sofdilligini saqlab qolishi oson kechmaydi, albatta. Ilhom Aliyev buning uddasidan chiqmoqda. U ilgarigiday yaxshiliginı ayamaydigan, g'amxo'r, ochiqko'ngil, sentimental odam bo'lgancha qolgan. Birovning dardiga ilgarigiday diqqat bilan qulqoq tutadi, hamdardlik bildiradi, yordam qo'lini uzatishga tayyor turadi. U kamsuqum, el qatori odam. Biroq bu haqiqiy ulug'vorlik kamsuqumli-gidir.

Bilaman, Ilhom Aliyev ushbu sifatlarini umrining oxirigacha saqlab boradi. Uning odamiyligini, insoniy mohiyatini hech narsa o'zgartira olmasligini ham bilaman. G'alabaga bo'lgan intilishini hech narsa qaytara olmasligiga va har qanday vazifani, hatto bir qarashda yechimi yo'qday ko'ringan masalani hal eta olishiga ishonaman».

XOTIMA

Ozarbayjonimiz bugungi kunda shunday bir geografik makonga aylanganki, bu yerda eng dadil orzu-havaslar, yuksak marralar ko'zlangan loyihalarni tegishli jadvalga qat'iy amal qilgan holda, shosshilmay ro'yobga chiqarish imkonи bor. Bunday muvafqaqiyat siri respublikamizda turli yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilayotgan modernizatsiyaning ilmiy-nazariy va iqtisodiy asoslarga tayangan aniq strategiyasi ishlab chiqilganidan iboratdir. Mazkur strategiyada ijtimoiy jihatdan ustuvor masalalar, xususan, inson, uning tinch va farovon hayoti, ijtimoiy muhofazasi, porloq kelajagi birinchi o'ringa olib chiqilgan.

Davlatni boshqarayotgan kuchli yetakchigina yurtni modernizatsiya qilishdek, butun boshli davrni tavsiflaydigan jarayonning lokomotivi bo'la olishiga, tabiiyki, bugun hech kim e'tiroz bildirmaydi.

Bizning yetakchimiz shaxsiy tavsiflarning omadli uyg'unligiga ega bo'lib, ularning hammasi tolei baland siyosatchining yuzini, xususan, yuksak darajada rivojlangan intellektual saviyasi, ko'lAMDOR bilimi, keng ma'lumoti, tahliliy tafakkuri, kuchli siyosiy irodasi, voqealar rivojini oldindan ko'ra bilishi, islohotlar strategiyasi ijrosiga bel bog'lashga tayyorligini ifodalaydi. U yangi-lash g'ayratiga to'lib-toshgan bo'lib, ushbu g'ayratni ja-

*Katta obro'
qozongan
yurtboshimiz
boshqa
siyosatchilar bir
necha o'n yillar
davomida qila
olmagan ishlarni
atigi 10 – 12 yil
ichida amalga
oshira bildi.
Xalqimizning
o'zligini namoyon
qilish darajasini
ko'tarib yubordi.*

miki jamoasiga o'tkaza biladi. Yurtiga bo'lgan muhabbati cheksiz bo'lib, uni yanada ko'rkar, boy, nufuzli, qudratli qilishga intiladi.

Katta obro' qozongan yurtboshimiz boshqa siyosatchilar bir necha o'n yillar davomida qila olmagan ishlarni atigi 10 – 12 yil ichida amalga oshira bildi. Xalqimizning o'zligini namoyon qilish darajasini ko'tarib yubordi. O'z millatimizga, Ozarbayjonda amalga oshirilayotgan ishlarga daxldorligimizdan faxrlanishdek yuksak tuyg'ularimizni ko'p marta uyg'otdi. Va u baqir-chaqirsiz, ammo ishchan vatanparvarlik aslida qanday bo'lishi

kerakligini hammamizga ko'rsatib qo'ydi.

Yurt modernizatsiyasining eng qimmatli mahsuli, nazarimda, o'z Vatanida muayyan natijaga erishgan yoshlardan iborat «yangi ozarbayjonliklar» avlodining shakllangani bo'ldi. Kezi kelganda ta'kidlab o'tishim joizki, rasmiy statistika ma'lumotlariga muvofiq, Ozarbayjon yoshlari yurtimiz aholisining 32 foizini tashkil etadi. Respublika rahbariyati ushbu ijtimoiy guruhga nihoyatda jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bir misol: Ozarbayjon yoshlarini 2007 – 2015-yillarda xorijda o'qitish davlat dasturi doirasida, qariyb besh ming nafar talaba davlat mablag'i hisobiga bepul o'qitish uchun dunyoning eng sara oliy ta'lim muassasalariga yuborildi. Xorijdagi bilim dargohlarini tamomlab, yurtga qaytgan ushbu yoshlar bugungi kunda

Ozarbayjonnı modernizatsiya qilish jarayoniga yangi-cha g'ayrat baxsh etishmoqda.

Quyida «1news.az» saytining «O'ta muhim 10 yil» rukni ostida e'lon qilingan yosh, ilg'or ozarbayjonliklarning fikr-mulohazalari keltirilmoqda:

«Chin yurakdan aytishim mumkinki, mustaqil Ozarbayjonda yashayotganidan juda xursandman va faxrlanaman. O'tgan 10 yil ichida yurtimiz tom ma'nda gullab-yashnab ketdi. Bu, o'z Vatanini yaxshi ko'radi-gan odamning shunchaki aytgan gapi emas, hammaga ayon faktdir. Men Ozarbayjondan chet davlatlarga teztez chiqib turishim bois taqqoslay olaman. Boz ustiga, boshqa davlat vakillarining yurtimizga, uning boy tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqishi yil sayin, hatto oy sa-yin ortib borayotganini ko'rib turibman».

*(BMTning Taraqqiyot dasturi loyihalari rahbari
Mazaxir Efendiyev)*

«Yurtimizda so'nggi 20 yil ichida ro'y bergan ijobiy o'zgarishlarga doir dalillarimni bir chetga surib qo'y-sangiz ham, amalga oshirilayotgani hammaga ma'lum «Ozarbayjon-2020» rivojlanish konsepsiyasining ijrosi nafaqat taraqqiyotimiz isboti sanalishini, balki respublikamizning kelajagini ham kafolatlashini tan olmasdan ilojingiz bo'lmaydi. Zero, ushbu Konsepsiada yurtimizni rivojlantirish dasturi batafsil, bandma-band keltirilgan. Boz ustiga, mazkur strategiyadagi har bir band ijrosining dasturi ham shu qadar to'liq va «shaffof» tuzil-ganki, hatto bir qator o'taketgan skeptiklar ham ushbu

hujjatga hurmat-la qarab, ko'zlangan maqsadga muqarrar erishish borasida ishonch bildirishmoqda. Davlatimiz o'zgargani haqida fikr yuritiladigan bo'lsa, aynan ertangi kunga bo'lgan ishonch tuyg'usini, nazarimda, so'nggi yillarda qo'lga kiritilgan eng muhim yutuq, deya e'tirof etish mumkin».

*(Diplomatiya akademiyasining
ijrochi prorektori Fariz Ismailzade)*

«...Haqiqatan ham murakkab o'tmishimizni unutmay, kelajakka intilib yashash bugungi kunda hayotiy muhim masaladir. Moziyga nazar solib, o'tgan kunlarimizni tahlil qilar ekanman, yurtboshimiz tomonidan boshlab berilgan bugungi ulkan ishlar davom ettirilishi lozimligini aniq idrok etaman. Fikrimcha, u hayotga tatbiq etilayotgan barcha loyihalar – Ozarbayjonning kelajagiga strategik jihatdan jiddiy qarashning muayyan qismi ekanligini o'z faoliyati ila bir necha bor isbotlab berdi. Ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun hammamiz o'zimizni haqiqiy maslakdoshlar jamoasiday his etishimiz kerak... Shaxsan men bugungi siyosiy maydonda jiddiy muqobil qarashlarini havola eta biladigan biror-bir kishini ko'rmayapman».

*(«1news.az» sayti rahbari
Raxman Gadjiyev)*

Jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida o'z markazlarimiz hamda respublikamizda mustaqil faoliyat yuritayotgan xorijiy markazlar tomonidan o'tkazilgan savol-javoblar natijasiga qaraganda, yurtimiz aholisining

aksariyat qismi shunday fikrda ekan. Bugungi yurtboshimiz xalqimiz bergan ulkan ishonch kreditini ilgarigiday saqlab kelmoqda. Diqqatga sazovor joyi shundaki, Ilhom Aliyev hech qachon populist bo'limgan, saylovchilarни balandparvoz shiorlar, chiroyli va'dalar bilan o'ziga jalb etmagan. U: «Har bir mansabdor shaxs o'z zimmasidagi mas'uliyatni teran anglab yetgancha, Vatan va xalq manfaatlarida mehnat qilishi kerak», – deb topgani bois o'z ishini puxta bajarib kelgan, bugun ham bilib bajarmoqda.

*Ilhom Aliyev hech
qachon populist
bo'limgan, u shu
kungacha o'z ishini
puxta bajarib
kelgan, bugun ham
bilib bajarmoqda...*

Prezidentimizning serg'ayratligi, mehnat faoliyatida shaxsiy ibrat ko'rsatishi, yurt uchun imkon qadar ko'proq xayrli ishlar qilishga intilishi, atrofidagi jamoa a'zolariga har qanday pand-nasihat va o'gitlardan yaxshiroq ta'sir qilmoqda. Ilhom Aliyevning yonida sifatsiz yoki ishga to'la-to'kis berilmay ishlab bo'lmaydi. Prezidentimiz jamoasining mustahkam birligi, hamjihatligi, hamfikrli - kimo'zarlikka berilib, mojarolarining keti ko'rinxay, bir-birini g'ajib yotgan muxolif kuchlar uchun ibratli misol bo'la oladi.

Intervyulardan birida Ilhom Aliyev suyukli Ozarbajjonining yaqin o'rtadagi kelajagini juda yorqin ranglar ila quyidagicha tavsiflab berdi:

«Yurtimizni qonun ustuvorlik qiladigan, ijtimoiy siyosati juda kuchli, iqtisodiyoti rivojlangan, mintaqada o'zining qudratli pozitsiyasiga ega monaviydemokratik davlat sifatida ko'raman. Ushbu maqsadlarning aksariyat qismiga erishib bo'lganmiz, albatta. Biroq

kamolotning cheki yo'q, degan gap bor. Rivojlangan davlatlarda to'plangan ijobiy tajribani sinchkovlik bilan o'rganib bormoqdamiz va zaruratga ko'ra, o'zimizda tatbiq etib bormoqdamiz. Ochig'ini aytishim kerak, xorij tajribasi ko'r-ko'rona ko'chirilmaydi, bizga muvofiq keladigan, to'g'ri deb topilgan jihatigina olinadi. Shunday ekan, ishonchim komilki, ijrosi yaqin kelajakda ko'zlangan maqsad va vazifalarimiz ro'yobga chiqadi. Agar 8 yil ichida yalpi ichki mahsulot miqdorini uch karra oshirishga erishgan bo'lsovchi, endi biz miqdori uch karra oshirilgan YIMni 2013 – 2023-yillar ichida ikki karra oshirish vazifasining ijrosiga hozirlik ko'rmoqdamiz. Umuman aytganda, bunday vazifani oldimizga allaqachon qo'yib bo'lganmiz. Hozir hukumat tegishli konsepsiyanı ishlab chiqish, ushbu vazifa ijrosiga kirishishga tayyorgarlik ko'rish ishlarini olib bormoqda. Miqdori uch karra oshirilgan YIMni ikki karra oshirishdek katta vazifa qo'yilar ekan, uning ijrosiga hamma narsa, xususan, mavjud manbalar, vositalar, ilmiy g'oyalar, intellektual imkoniyatlar safarbar etiladi. Binobarin, yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'la turib, siyosiy tizimni o'zgartirmay qo'yamaymiz, albatta. Biz bu ishga ham kirishdik. Ozarbayjon 10 yil muqaddam Yevropa kengashiga a'zo bo'lgani bejiz emas. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lar ekanmiz, zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklanishini, ayovsiz tanqid ostida qolishimizni ham aniq tushunib yetganmiz. Garchi tanqid doim ham maqbul, doim ham asosli bo'lmasada. Biz bunga ongli ravishda bordik. Zero, yurtimizni yangilamoqchimiz, jamiyatimiz ongi va mavjud tarixiy tajribamiz biz o'ylagan siyosiy tizim mezonlariga mos

kelishini xohlaymiz. Chunki Ozarbayjon musulmonlar Sharqida demokratik respublika tuzgan birinchi davlat sanaladi. Demokratik parlamentni ham birinchi bo'lib tuzgan. Ayollarga ovoz berish huquqini, bunday huquq aksariyat Yevropa davlatlarida berilmasidan ancha oldin bergen. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviylik va ma'rifat an'analari yurtimizda chuqur ildiz otgan. Bularning bari bugun biz qurayotgan zamonaviy davlatning mustahkam poydevori sanaladi. Va biz uni albatta quramiz».

* * *

So'zim nihoyasida yurtimizdag'i davlat hokimiysi ti-zimida eng yuqori pozitsiyalardan birini ko'p yillardan buyon egallab kelayotgan insonning, ya'ni Ozarbayjon prezidenti ma'muriyatining doimiy rahbari, akademik Ramiz Mextiyevning ancha e'tiborli mulohazasini keltirib o'tmoqchiman. U o'zining «Muvofiq standartlarga asoslangan dunyo tuzilishi va bugungi Ozarbayjon» nomli konseptual maqolasida president Ilhom Aliyevning yangi Ozarbayjon tarixida tutgan o'rni va ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildirib o'tgan:

«Ilhom Aliyev o'zining bunyodkorlik faoliyatida tayanadigan innovatsion rivojlanish konsepsiysi davlatni modernizatsiya qilib, sanoatlashgan jamiyat qurish dasturida juda yaxshi rol o'ynaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy tavsifga ega muhim tashabbuslarini birin-ketin ro'yobga chiqarar ekan, davlat rahbari porloq kelajak uchun mustahkam poydevor yaratish maqsadida o'z zamondoshlarida sa'y-harakatlarga intilish istagini uyg'otib, hamfikrlarini ortidan ergashtira bildi.

U xalqqa bergen va'dasi ustidan chiqdi. Bunyodkorlik imkoniyatlarining ko'lamini yildan-yilga kengaytirib yuborayotgan keng miqyosli islohotlar dasturi xalqimizga foyda ketidan foyda keltirmoqda, xalqaro maydonda Ozarbayjon pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. Respublikamiz mintaqadagi yetakchi davlat degan nom olgani – yurtboshimiz muvaffaqiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda har xil ag'dar-to'ntarlarsiz, yo'qotishlarsiz ulkan qadamlar tashlash imkonini bergen universal formulasini topa bilganidan dalolat beradi.

Ozarbayjonda «Tortish markazi» mavjud. Uning mazmun-mohiyati Ilhom Aliyev tomonidan ilgari surilgan «milliy g'oya»dan iborat bo'lib, atrofida milliy birlashuv ro'y beradi. Ushbu birlashuv yurtimiz rivojining asosiy ma'naviy o'zagiga aylandi. Mazkur g'oya sano-atlashgan, axborotlashgan jamiyat sari eltadigan yo'lni yoritmoqda, ulkan vazifalar ijrosiga bel bog'lagan odamlarni ruhlantirib birlashtirmoqda. Ozarbayjon xalqining qo'llab-quvvatlashiga tayanayotgan prezidentimiz milliy manfaatlarni himoya qilish barobarida, taraqqiy qilgan davlat qurishga yo'nalgan siyosat olib bormoqda. Shunday ekan, oldimizga qo'ygan vazifalarimizni faqat kuchli prezidentlik hokimiyati bo'lgandagina, jamiyatda barqarorlik hukm surgandagina hal etishimiz mumkinligiga har bir vatanparvar fuqaromizning ishonchi komil bo'lgan.

Kuchli hokimiyat ko'zlashi kerak bo'lgan oliy maqsad – zamon taablari va vaziyatini idora qilib, yurt manfaatlarida samarali foydalanishdan iborat bo'lishi lozim. Bunday maqsad har yerda, hamisha o'zini oqlab, fuqarolarning ishonchini mustahkamlab boradi. Vaqt va za-

mon talablari-yu, vaziyatni mohirona idora qilar ekan, u o'z jamoasi bilan birga davlatning manbalar negizini kengaytirish, yangi g'oya va yutuqlar ila dunyoni lol qoldirishda davom etmoqda.

Prezident Ilhom Aliyevning so'nggi o'n yil ichidagi faoliyati yurt tarixida shaxsning tutgan o'rni bag'oyat kattaligi va bu faktni rad etib bo'lmasligini ko'rsatmoqda. U ro'yobga chiqarayotgan islohotlar dasturining asl mazmuni milliy sanoat, ijtimoiy infratuzilma va barcha boshqa sohalarni yangilashning keng miqyosli dadil loyihalari bugungi kunda juda zarurligini, ushbu loyihalar moddiy negizni ta'minlashga, yosh avlodning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qodirligini namoyon etmoqda. Davlatimiz rahbari yurtni sanoatlashgan jamiyat yo'liga eltadigan ulkan rejani amalga oshirmoqda. Bunday dadil rejani faqat serg'ayrat, uzoqni ko'ra biladigan, iste'dodli yetakchigina o'z zimmasiga olib, ro'yobga chiqara oladi.

«Davlatni oqilona boshqarish xalqqa tahdid solayotgan xavf darajasini pasaytirib, nari surishni anglatadi», – deyishgan edi buyuk ajdodlarimiz. Davlat boshqaruvi san'atining mazmun-mohiyati ham aynan shundan iboratdir. Bugungi murakkab vaziyatda Ilhom Aliyev nafaqat mavjud qiyinchiliklarni yengib, davlat mashinasini ko'zlangan manzilga olib o'tish vazifasini zo'r uddalay oldi, balki kelajak uchun mustahkamlik zaxirasini ham ta'minlay bildi. Doimiy ishchanligini namoyon etib, xalqaro ahamiyatga ega muammolar yechimidaadolat tamoyiliga amal qilar ekan, Ilhom Aliyev nafaqat yurtdoshlarimiz orasida, balki xalqaro doiralarda ham katta hurmat va e'tibor qozondi. U xalqaro xavfsizlik muammolari, mintaqaviy va global miqyosdagi vazifa-

larni hal etishga qo'shayotgan hissasi, xalqaro loyiha-lar borasida ko'rsatayotgan tashabbuslari va o'zining favqulodda qobiliyati ila dunyoda yirik siyosatchi sifatida e'tirof etilmoqda.

*Ilhom Aliyev
xalqaro xavfsizlik
muammolari,
mintaqaqiyi va
global miqyosdagi
vazifalarni
hal etishga
qo'shayotgan
hissasi, xalqaro
loyihalar borasida
ko'rsatayotgan
tashabbuslari va
o'zining favqulodda
qobiliyati ila
dunyoda yirik
siyosatchi sifatida
e'tirof etilmoqda.*

Bu rad qilib bo'lmaydigan faktdir. Bunday e'tibor va e'tirofga faqat yus-sak tafakkur va siyosiy sezgirlikka ega oqil, iste'dodli siyosatchilargina sazovor bo'ladi.

Ilhom Aliyevning tashabbuslari bugungi kunga kelib yurtimiz va mintaqamizning iqtisodiy manzarasini o'zgartirib yubordi, o'z yetakchisini qo'llab-quvvatlayotgan xalqimizning ma'nani tiklanib borishiga qudratli omil bo'ldi. Binobarin, yurtdoshlari-ning ishonchiga tayangan prezident Davlat Bayrog'i Maydonidagi nutqini «Ishonchim komilki, biz o'z oldimizga qo'ygan barcha maqsadlarga erisha-miz» so'zlar bilan yakunladi.

«Bularning bari Ozarbayjon xalqini yanada katta ishlarga ruhlantiradi».

* * *

Kitobxon Ozarbayjon prezidentining tasviri haddan ortiq jiloli chiqibdi, degan xayolga borishi: «Bundan chiqdi, respublikada boshqa hech qanday muammo qolmabdi-da?» – deya so'rab qolishi mumkin. Muammosiz yashab bo'ladimi? Albatta, muammo bor. Biroq bu endi

o'sish muammolaridir. Yurt rivojining ijobiy dinamikasi nihoyatda ravshan, Ilhom Aliyev esa o'z vaqtida va shu qadar samarali ishlaydiki, aksariyat muammolar yangi ishlar-u tashabbuslar oqimida ko'zga ko'rinnmay, tez o'tmishtga aylanib ketadi.

«Agar kishi siyosatchi sifatida yurting asab tizimini chuqur his etsa, qo'li hamisha pulsda bo'lib, oddiy fuqarolarga yaqin, ularning kundalik ehtiyojlaridan boxabar yursa, o'z dongdorligining yuksak darajasini uzoq yillar davomida saqlab borishi mumkinligini Ilhom Aliyev o'zining g'ayrat-shijoati ila isbotlab kelmoqda. U dinamikani qo'ldan chiqarmayapti, davlat siyosatining har bir qadami fuqarolar hayotida qanday aks etishi mumkinligi haqida o'ylaydi. Ilhom Aliyev o'z fuqarolarining turmush darajasi va farovonligini rejali ravishda oshirib borib, bugungi Ozarbayjon bilan keljakdag'i Ozarbayjon o'rtasiga ko'prik solmoqda».

(«Российская газета», 25.12.2011-у.)

Xalqning muhabbatiyu daldasiga sazovor bo'lgan Ozarbayjon prezidenti tom ma'nodagi mustaqil siyosat yuritish uchun keng manyovr qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. «Biron-bir tashqi kuch bizning xohish-irodamizga ta'sir o'tkaza olmaydi. Biz birovning amri ila hech qanday ish qilayotganimiz yo'q, qilmaymiz ham», – deydi Ilhom Aliyev. Va yurtdoshlarimning hammasi uning mazkur so'zlarini tasdiqlaydi.

Nazarimda, Ilhom Aliyevning davlat rahbari sifatida eng jozibali sifatlaridan biri – milliy manfaatlarimizga daxldor masalalar yechimiga murosasizligi va ayni

vaqtida, Ozarbayjon do'stlariga nisbatan ko'ngli ochiqligi va xayrixohligidir. U o'z kemasini yuksak mahoratli lotsman singari boshqarar ekan, biror marta bo'lsin, siyosiy sayozlikka o'tqizib qo'ymadni yoki siyosatning suvosti qoyalariga borib urmadi.

...Bundan 13 yil muqaddam olimlik, tadbirkorlik pog'onasi bo'ylab o'sishdan, shaxsiy hayotning aksariyat huzur-halovatlaridan voz kechib, o'z zimmasiga og'ir yuk va katta mas'uliyatni yuklab olgan Ilhom Aliyev Ozarbayjon prezidenti kursisini egalladi. Odamlarning ezgu orzu-umidlari ila hokimiyatning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgach, har bir fuqaroning munosib prezidenti bo'lishga tarix peshsahnasida turib ont ichdi. O'sha kundan buyon o'tgan yillar Ilhom Aliyev o'z va'dalarini to'la-to'kis bajarganini ko'rsatmoqda. Bugun biz haqli ravishda yurtimizga XXI asr siyosatchisi, Oljas Suleymenovning ta'biri ila aytganda, «planetar miqyosdagi inson» Ilhom Haydar o'g'li Aliyev prezidentlik qilayotganidan faxrlanamiz. Fransuz yozuvchisi Deni de Rujmon aytgan ekan: «Kelajakni ko'ra bilish emas, bunyod etish muhimdir». Nazarimda, Ilhom Aliyevning ko'p yillik siyosiy faoliyatining siri, o'z yurti, o'z xalqi uchun munosib kelajakni to'xtovsiz bunyod etib borayotganidan iborat bo'lsa kerak.

Boku, 2016-y.

Mundarija

So'zboshi	3
Tarjimai hol ibtidosi	12
Ilhom Aliyevning neft «gambiti»	39
«Katta» neftdan «katta» siyosatga	51
2003-yilning qizg'in kuzi	73
Prezident marafoni: tashvishli va umidli yillar	97
«Janubiy gaz yo'li» – XXI asrning global loyihasi	147
Sharq bilan G'arb o'rtaida	158
«Diniy va madaniy bag'rikenglik – biz uchun tabiiy hayot tarzidir...»	212
Ilhom Aliyev va ommaviy axborot vositalari	233
Katta sport – katta siyosat	249
Kuchli yetakchi – qudratli yurt yoki eski andazalarning barham topishi	270
Xotima	291

Ilmiy nashr

Elmira Axundova

ILHOM ALIYEV

O'zgarishlar jarayonidagi prezident tasviri

Rus tilidan

Usmon Qo'chqor va Shokir Dolimovlar tarjimasi

Muharrir *D. Xudoyqulova*

Badiiy muharrir *A. Mamasoliyev*

Musahhih *K. Boltabayeva*

Sahifalovchi *A. Qayimov*

«MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI»

Nashriyot litsenziyasi № AI 282. 11.01.2016

100129, Toshkent, O'zbekiston ko'chasi 16^{-uy}.

tel: (+99890) 900-75-77. (+99895) 195-94-62

e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 2018-yil 27-martda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32. Ofset bosma. «Cambria» garniturasi.

Shartli bosma tobog'i 20,2. Adadi 500 nusxa.

«MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI» MChJ

matbaa bo'limida bosildi.

Elmira AXUNDOVA

Moskva viloyatining Ramensk tumanida tug'ilgan.



Elmira Axundova Ozarbayjon davlat universitetining (bugungi kunda Boku davlat universitetining) filologiya fakultetini tamomlagan. Filologiya fanlari nomzodi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi idorasi hamda Respublika prezidenti huzuridagi Afv etish masalalari bo'yicha komissiya a'zosi.

1980 – 1990-yillari Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasida, Respublika fanlar akademiyasi Nizomiy nomli Adabiyot institutida ishlagan.

1990 – 2003-yillari bir qator Rossiya va xorij OAV, xususan, «Литературная газета», «Деловой мир», «Общая газета», «Ozodlik» radiosı muxbirin bo'lib ishlagan.

Ozarbayjon Milliy Majlisining (parlamentining) III, IV va V chaqiriqlar deputati, Mehnat va ijtimoiy siyosat va Madaniyat bo'yicha parlament qo'mitalari a'zosi.

Yigirmadan ziyod kitoblar, mahalliy va xorijiy matbuotda chop etilgan yuzlab maqolalar va badiiy-publisistik ocherklar muallifi. Uning ssenariylari asosida respublikada badiiy hamda tele- va kinofilmlar suratga olingan.

Elmira Axundova – Ozarbayjon jumalistilar uyushmasining G. Zardabi nomli mukofoti, respublika Yozuvchilar uyushmasining N. Nadjafov nomli va R. Rza nomli mukofotlari sohibasi.

2003-yili E. Axundova Ozarbayjon prezidentining Farmoni bilan ozarbayjon publisistikasini rivojlantirishga qo'shgan katta hissasi uchun «Shuhrat» ordeni bilan taqdirlandi.

2005-yili unga «Respublikada xizmat ko'rsatgan jurnalist» unvoni berildi. 2013-yili yurtimizning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol ishtiroti uchun Ozarbayjon prezidentining faxriy yorlig'i bilan mukofotlendi.

2014-yili E. Axundova «Haydar Aliyev. Shaxs va davr» nomli 6 jiddli tadqiqot romani uchun adabiyot sohasidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.